Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlar orasida deviant xulq-atvorga xos “ommaviy madaniyat”ning unsuri hisoblangan kvadroberlar submadaniyatning shakllanishini, uning deviant xulq-atvorga xosligi, yoshlar orasida ommaviy madaniyatning profilaktikasi, dastlab kvadroberlarning kelib chiqish tarixi, bunga sabab bo‘luvchi omillar, jamiyat uchun keltirishi mumkin bo‘lgan muammolar atroficha tadqiq etilgan. Bundan tashqari submadaniyatning bolalar uchun ijobjiy jihatlari va salbiy tomonlariga urg‘u berilgan. Bugungi kunda mutlaqo yangi va global muammo hisoblangan bu tushuncha keyinchalik yomon oqibatlarga olib keladi, aynan shuning uchun ham, Rossiya Federatsiyasida bu harakat cheklanmoqda, mamlakatimizda ham ushbu harakat bilan shug‘ullanish mumkin emasligiga oid bir nechta ogohlantirishlarning berilganligi uning dolzarbligidan dalolatdir.

Kalit so‘zlar: kvadroberlar, ”ommaviy madaniyat”, bolalar, yoshlar, terianizm, insoniylik, internet, salbiy jihatlar, ijobjiy jihatlar, qonun, ota-onा.

Абдурахмонова Манзурахон,
Профессор кафедры Социальной работы ФГУ,
доктор социологических наук
Султанова Назокатхон,
Магистрант 1-го курса ФГУ

СУБКУЛЬТУРА КВАДРОБЕРОВ – КАК ДЕВИАНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье подробно изучены формирование субкультуры квадроберов, являющейся сегодня элементом «массовой культуры», характерной для молодежи, ее девиантное поведение, профилактика массовой культуры среди молодежи, история возникновения квадроберов, факторы, способствующие этому, проблемы, которые могут принести обществу. Кроме того, подчеркнуты положительные и отрицательные стороны субкультуры для детей. Сегодня это понятие, считающееся абсолютно новой и глобальной проблемой, в дальнейшем будет иметь негативные последствия, и именно по этой причине в Российской Федерации данное действие ограничивается, а в нашей стране выдано несколько

предупреждений о невозможности заниматься этим действием, что свидетельствует о его актуальности.

Ключевые слова: квадроберы, «массовая культура», дети, молодежь, терианизм, человечность, интернет, негативные аспекты, закон, родители.

Abdurahmonova Manzurakhon,
Professor Department of Social Work,

Ferghana State University,
Doctor of Sociology

Sultanova Nazokathon,
1st year master's student of
Ferghana State University

QUADROBERS SUBCULTURE AS DEVIANT BEHAVIOR

ABSTRACT

This article examines in detail the formation of a subculture of quadrobers, which is today an element of "mass culture" characteristic of young people, its deviant behavior, prevention of mass culture among young people, the history of quadrobers, factors contributing to this, problems that can bring society. In addition, the positive and negative aspects of the subculture for children are emphasized. Today, this concept, which is considered a completely new and global problem, will have negative consequences in the future, and it is for this reason that this action is limited in the Russian Federation, and in our country several warnings have been issued about the impossibility of doing this action, which indicates its relevance.

Keywords: quadrobers, «mass culture», children, youth, therianism, humanity, the internet, negative aspects, law, parents.

KIRISH

Har qanday makon yoki zamonda o‘zining davriy muammolari bo‘lgani kabi bugungi kundagi zamonaviy ,turfa xil muammolar bizni ham chetlab o‘tayotgani yo‘q. Ayniqsa, bugungi axborot asrida,glaballahuv jarayonida axborot uzatish ko‘laming tezlashuvi,ommaviy axborot vositalarining erkinligi zamirida har qanday kerak yoki nokerak axborotlar inson shuuriga joylanishi ijobiy oqibatlar bilan birgalikda jamiyat, ayniqsa uning e’tiborga muhtoj qatlami hisoblangan bolalar va yoshlar uchun bir qancha muammolarni ham keltirib chiqarmoqda.

Endigina rivojlanish va ijtimoiylashish davrida bo‘lgan bolalar osongina turli yo‘llarga og‘ishlari mumkin.Bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishi ularning sog‘lom shaxs bo‘lib yetishishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ijtimoiy rivojlanish bolalarning boshqalar bilan muloqot qilish, do‘stlik va hamkorlik qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi, hissiy rivojlanish esa ularning his-tuyg‘ularini tanib olish, ifoda etish va boshqarish qobiliyatlarini qamrab oladi [1].

Hozirgi kunga kelib ommaviy axborot vositalarida berilayotgan axborotlarning cheklanmaganligi zamirida dunyoning bir chekkasida bo‘layotgan holatlar dunyoning bu chekkasiga yetib keladi. Xuddi shu singari bugungi kundagi eng global muammolardan biri bolalar va yoshlar orasidagi deviant xulq-atvorning namoyishi hisoblangan kvadroberlar submadaniyatining avj olayotganlidir. Kvadrobika – atamasi lotincha “quattuor” – to‘rt va inglizcha “aerobika” – aerobika so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, ma’nosи to‘rt oyoqli hayvonlar harakatlarini taqlid qiluvchi akrobatika tushunchasini anglatadi – bu norasmiy sport turi sifatida dastlab Yaponiyada yuzaga kelgan. Uning asoschisi Kenichi Itodir, u to‘rt oyoqlab yugurgan holda yangi sport turiga asos solgan va Gennisning rekordlar kitobidan joy olgan. Ushbu sport turida odamlar hayvonlarning harakatlarini taqlid qilib, to‘rt oyoq bilan harakat qilishadi. Bolalar kvadrobika mashg‘ulotlarida tulkilar, bo‘rilar, mushuklar va boshqa hayvonlarni tasvirlaydigan niqoblar va soxta dumlardan foydalanadilar [2].

Dastlab ushbu mashg‘ulot Yaponiyada yuzaga kelgan bo‘lsada, uning tarqalishi AQSHda avj oldi, ushbu submadaniyatning xavfli jihat shundaki, u nafaqat bolalarni balki, o‘smir yoshlarni va

kattalarni ham jalb eta boshladi, bu shu darajaga yetib bordiki, kvadrobika bilan shug‘ullanuvchilar alohida to‘daga birlashib, tinch aholiga hujum qila boshladilar. Kvadroberlar hamfikr odamlarni qidiradigan yoki jamoaviy uchrashuvlar tashkil etadigan onlayn jamoalarda faol muloqot qilishadi. Ularning aksariyati o‘z mashqlarini videoga olishadi va ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib keladilar, shuning uchun ham uning bolalar orasida yoyilishi va ommalashishi tezlashganligining sababi, boallarda kelayotgan ma’lumotlarning filtrlash tizimi yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi.

METODOLOGIYA

Dastlabki ijtimoiy me’yorlar yoki ulardan chekinishlar haqidagi tushunchalar insonning ijtimoiylashuv jarayonlari bilan bir vaqtida paydo bo‘lgan deyish mumkin. Ijtimoiy me’yorlilik va ulardan chekinishlar haqidagi qarashlar insonning ijtimoiylashuv jarayoni bilan bir vaqtida paydo bo‘lgan. Qadimgi davrlarda diniy qonun-qoidalarga amal qilmaganlar xulqidan og‘ishgan shaxslar, ya’ni deviant xulq-atvorli shaxslar sifatida talqin etilgan. 18-asr mutaffakirlari ijtimoiy me’yoriy va undan chekinish muammosini yanada chuqquroq tahlil qilishga erishganlar. Jumladan, Russo, Bekkorio, Gelsevey, Didro, Golbax o‘z ilmiy izlanishlarida ijtimoiy me’yorlar tushunchasiga to‘xtalib o‘tganlar [3]. Ijtimoiy fanlarning rivojlanishi natijasida ijtimoiy me’yordan og‘ish tushunchasining ko‘lami kengayadi, ayniqsa, ijtimoiy me’yordan og‘ish holatlarini tahlil qiluvchi ilk ta’limot E.Dyurkgeymning “anomiya” g‘oyasidir [4, – B.19].

Bundan tashqari R.Merton ham og‘ishgan xulq-atvor tushunchasini tahlil qiladi. Dick Hebdigening “Subculture: The Meaning of Style” asarida “omaviy madaniyat” tushunchasini tadqiq etgan. U submadaniyatni ijtimoiy qarshilik va uslub orqali ifodalash nuqtai nazaridan tahlil qilgan.

ASOSIY QISM

Bugungi kundagi bolalarda kvadroberlarga qiziqishning ortishiga sabab bo‘luvchi omillarni tahlil qilar ekanmiz, tahlillarimiz va o‘rganishlarimizdan ma’lum bo‘ladiki, bolalarda ijtimoiy va hissiy rivojlanish o‘z poydevorini qo‘yadigan va mustahkamlaydigan muhim bosqich bu maktabgacha bo‘lgan davr hisoblanadi. Ijtimoiy rivojlanishning ahamiyati shundan iboratki, ijtimoiy rivojlanish – bu bolalarning jamiyatda ishtirok etishi va boshqalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lishiga imkon beradigan muhim jarayon. Maktabgacha tarbiya davrida bolalarda do’stlikni shakllantirish, hamkorlik qilish va hamandardlik kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Kuchli ijtimoiy rivojlanish bolalarning keljakda ilmiy yutuqlarga erishishlari va sog‘lom munosabatlariga yordam beradi.

Hissiy rivojlanishning ahamiyati esa bolalarning his-tuyg‘ularini tanib olish, ifoda etish va boshqarish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Maktabgacha tarbiya davrida bolalar o‘z muhitidagi voqealarga javoban his-tuyg‘ularini tushunish va ifoda etishga kirishadilar. Ulardagi hissiy rivojlanish o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi, stressni yengishga yordam beradi va sog‘lom hissiy aloqalarni o‘rnatishni qo‘llab-quvvatlaydi [5]. Maktabgacha davrda bolalarning ijtimoiy hamda hissiy ko‘nikmalarning yetarlicha shakllanmasligi, ota-onalar tomonidan bolalarning moslashuviga yordam bermaslik, keyinchalik ularda o‘z-o‘zini ifoda eta olmaslikka olib keladi.

Bugungi kundagi kvadrobika bilan shug‘ullanuvchi bolalarning hatti-xarakatlarini o‘z-o‘zini ifoda etish va o‘zligini (identifikatsiyasini) izlash usuli sifatida qarash mumkin, bu ayniqsa, o‘smirlar uchun xosdir. Bu yoshda ular ko‘pincha o‘z “men”ni izlaydi, boshqalardan ajralib turishga va o‘zlarining individualligini namoyish qilishga intilishadi. Hayvonlarning xatti-harakatlariga taqlid qilish orqali ular o‘zlarining his-tuyg‘ularini oddiy inson roliga qaraganda erkinroq ifoda etishlariga ishonishadi.

Kvadrobikaga qiziqishning ehtimoliy sabablaridan biri – bu real hayotdan qochish va jamiyat bosimidan chetga chiqish istagidir. Hayvonlarga taqlid qiladigan xulq-atvor bolalarga jamiyat qoidalari va talablari unchalik qat’iy belgilanmagan muhitda o‘zlarini xavfsizroq va tushunarliroq his qilishlariga imkon beradi. Bundan tashqari, bu harakat bilan shug‘ullanish – insoniy stressdan xalos bo‘lish yoki ichki nizolarni hal qilish uchun ham xizmat qilishi mumkin.

Kvadrobika bolalar va o‘smirlarga turlicha ta’sir qilishi mumkin. Ushbu hodisaning ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Kimgadir kvadrobika yaxshi ta’sir qilishi mumkin. Kimgadir, aksincha, salbiy ta’sir qilishi yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin. Ushbu submadaniyatning ijobiy tomonlari haqida gap ketganda aytib o‘tish lozimki:

- ushbu submadaniyat ijodkorlik va tasavvurni rag‘batlantirishga xizmat qiladi, sababi uning ishtirokchilari turli kiyimlar tanlash barobarida tanlay olish va ranglarni bir-biridan to‘g‘ri ajratish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar;
- kvadroberlarda jamoaning mavjudligi yordamga kelishga tayyor do‘srlarning paydo bo‘lishi – bu orqali uyushqoqlikni shakllantirishi mumkin;
- empatiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi – ular boshqalar bilan muloqot jarayonida o‘zlar uchun xayrihoh va hamfikrlarni muntazam izlaydilar;
- ko‘pincha, niqobdan foydalanganliklari sababli, o‘zini istagan holatida namoyon qilishdan qo‘rqlaslik ularda shakllanadi;
- jamiyatda ham, ijtimoiy tarmoqlarda ham, tanlovlarda ham o‘zini namoyon qilish orqali o‘ziga ishonchni mustahkamlashga erishadilar.

Aynan shuning uchun ham, ular real hayotdan ko‘ra ushbu madaniyat ta’siriga tezroq beriladilar, devint xulq-atvorga xoslikning belgisi sifatida ko‘rsatilishidan asosiy sabab esa bolalar yoki o‘smirlarda mavjud bo‘lgan muammoli vaziyat, yoki holatdan bola qaysidir yo‘l orqali vaziyatdan chiqishi, yoki muammoni hal qilishi lozim, uning yechimi ijtimoiy me’yorlarda mavjud, lekin bola o‘zidagi vaziyatda ushbu me’yorga amal qila olmaydi.

Bolalar va o‘smirlarning xatti-harakatlari chegaradan oshib ketadigan ko‘rinishi, bu ularning boshqalarni tirlashi, tishlashi va hayvonlarga xos ovqatlarni hayvonlarga mo‘ljallangan idishlardan iste’mol qila boshlashlaridir. Bola odatda ushbu holatlarda o‘zining yomon ish qilayotganligini yoki uning xatti-harakati ma’lum bir soniyada me’yorlarga mos kelmasligi mumkinligini tushunmaydi. Ushbu submadaniyatga xos ishlar ba’zan tengdoshlari va hatto kattalar tomonidan masxara qilinadi va tushunilmaydi, ammo boshqalarning reaksiyalari kvadroberni qiziqtirmaydi. Norozilik formatida o‘smirlar va bolalar o‘zlarini noto‘g‘ri tutishlari mumkin. Bola o‘zini haqiqiy hayvon sifatida biladi, ta’sirga chuqquroq berilgan bolalar hayvonning niqobisiz yashay olmaydi, chunki faqat niqob bilan u o‘zini kuchli va ishonchli his qiladi.

Kvadrobika quyidagi sabablarga ko‘ra bolalar uchun xavfli bo‘lishi mumkin:

- odamlarga xos bo‘Imagan g‘ayritabiyy tarzda sakrash tufayli muvozanatni yo‘qotish, yiqilishi oson;
- silliq oyoq kiyimlar sababli sirpanish xavfi mavjud. Mushaklarning cho‘zilishiga olib kelishi mumkin;
- butun oyoq bilan yuzaga tushganda, tovon maksimal yukni oladi, bu esa jarohatlar va og‘riqlarga olib kelishi mumkin;
- mushaklar-skelet tizimi, bo‘g‘inlar bilan bog‘liq muammolar mavjud bo‘lsa, har qanday mashg‘ulotlardan oldin shifokor bilan maslahatlashish lozim;
- ijtimoiy jihatdan real hayot chegarasini unutish;
- hayvonlarga xos harakatlarni amalga oshirish – tirlash va tishlash;
- ta’sirga berilish oqibatida kiyimlar, turli aksesuarsiz yashay olmaslik, ularsiz hayot tugashiga ishonish;
- yaqinlar bilan insoniy bog‘liqliklarning uzilishi, hayvonlar guruhiba mansublikka ishonish kabi yomon oqibatlarga olib keladi, deviant xulq-atvorga xos asosiy xususiyatlarda biri ham aynan uning keyinchalik turmush tarzining uzviy bo‘lagiga aylanib ketish edi, aynan mana shu xususiyat kvadroobikaga ham xosdir.

Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, bolalar bilan kelisha olmaslik, ijtimoiy institutlarning qo‘llab-quvvatlamasligi oqibatida bolalar o‘zlarini yolg‘iz his eta boshlaydilar. Shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni jamiyatning va atrofdagi odamlarning qat‘iy nazorati ostida amalga oshadi. Insonlar bolalarni faqat o‘rgatibgina qolmasdan, xulq-atvor me’yoriy talablarining to‘g‘ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bola ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajaradi. Oqibatda unda ota-onanaing nazoratidan qochish, erkinlikka intilish kuchayadi. O‘ziga o‘xshash bolalar yoki o‘smirlar davrasida u o‘zini erkinroq his etadi.

Rossiyada madaniyatshunoslik fanlari nomzodi Marina Xramova o‘z o‘rganishlari natijasida quyidagilarni ta’kidlaydi: zoomorfizm, ya’ni odamga hayvon xususiyatlarini berish ma’lum madaniyatning tabiiy qismidir. Bolalarning kichik yoshlarida mushuk va itlarga taqlid qilishlari

odatiy holat. Ularga taqlid qilgan holda kiyinishlari ham odatiy holat deya ta'kidlagan [6], xuddi shunday rivojlanayotgan bolaga buni taqqlash birmuncha xato, holatga baho bergen holatda jarayon nazorat darajasidan chiqqa boshlasa uni boshqa yo'llar bilan to'xtatish lozim.

Bugungi kundagi ushbu muammoning yechimini izlash, quyidagi holatlarda ota-onal bo'la bilan chuqquroq muloqot qilishi lozim:

- bola hayvonlik obrazida uzoq vaqt, doimiy qolganda;
- chegaradan tashqariga chiqishi: bolaning tishlashi, tirlashi, hayvonlarga va boshqalarga tashlanishi;
- doimiy jarohatlar ola boshlashi;
- maktabda, teatrda, do'konda umuman har doim niqob kiyishi.

Bularning barchasi bolaning psixologik holatini chuqur tahlil etishga asos bo'ladi. Birgina Rossiyada dastlabki, davrda ushbu submadaniyat oddiy qabul qilinib, unga to'sqinlik qilinmagan bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu submadaniyat Rossiya qonun chiqaruvchi organi tomonidan ko'plab munozaralarga sabab bo'ldi va ushbu harakat bilan shug'ullanish qonunan endi taqilanganishi mumkin [7].

Mamlakatimizda 2024-yilning 10-11-oktabr kunlarida ikkita kvadroberlik holatining namoyon bo'lishi [8], OLX sotuv platformasida ular uchun kiyimlarning, turli buyumlaring sotuvga qo'yilishi, bu submadaniyat bizni ham chetlab o'tmaganligidan dalolatdir. Bunday muammoalarning keng avj olishida internet tarmoqlarining o'rni katta. Kvadroberlik harakati jamiyatda yurish-turish qoidalariga zid ekanligi va bu holat ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga muvofiq ota-onal yoki uning o'rnini bosuvchi shaxslarga tegichlicha jazo choralar qo'llanilishga olib kelishini ota-onalar unutmasligi lozim [9].

XULOSA

Jamiyatda insonlar faoliyatida xatti-harakatlar va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlarni boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyatda boshqaruvning ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorni muayyan ijtimoiy muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmui hisoblanadi. Shundan ham anglashimiz mumkinki, ijtimoiy me'yorlar doirasidan chetga chiqish insonlarga xos, ammo uning turmush tarziga aylanishi yomon oqibatlarga olib keladi. Xulosa qilib aytganda, ota-onalar bolalar tarbiyasiga befarq bo'lmasliklari lozim zero, dono xalqimizda "Kasalni davolagandan ko'ra, uni oldini olgan ma'qul" degan ajoyib naql mavjud. Bundan tashqari ijtimoiy davlat sifatida tan olingan mamlakatimizning konstitutsiyamizning qator moddalarida ota-onalarning bolalar olididagi majburyatlari bat afsil ko'rsatib o'tilgan, xususan 77-moddada "Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar o'z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta'lim olishi, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni hamda ota-onasining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqishni, tarbiyalashni, ularning ta'lim olishini, sog'lom, to'laqonli va har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi, shu maqsadda xayriya faoliyatini rag'batlantiradi" [10], deya belgilangan bo'lib ularning sog'lom va to'laqonli ulg'ayishi uchun e'tibor va to'g'ri tarbiya juda muhimdir. Bundan tashqari 78-moddada "Farzandlar ota-onasining nasl-nasabi va fuqarolik holatidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar. Bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyatidir. Onalik, otalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'ularini shakllantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladi" [11] deya bolalarning huquq va mafaatlari yana bir bora mustahkamlangan bo'lib ushbu qonunlarni chetlab o'tish qonun doirasida javobgarlikka tortilishga sabab bo'lishi mumkin, aytish mumkinki bolalarga nisbatan ota-onaning beparvo munosabati ham bolaga nisbatan ruhiy zo'ravonlik sifatida baholanadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Social and emotional development. A Journey of Children Growing with. Aftor: Fatma Özkitay <https://medium.com/@fatmaozkitay/soci%CC%87al-andemoti%CC%87onal-development-a09d1dd83586>
2. <https://www.interfax-russia.ru/kaleidoscope/kto-takie-kvadrobery-ili-zachem-podrostki-pritvoryayutsya-zhivotnymiwww.interfax-russia.ru> (<https://www.interfax-russia.ru/kaleidoscope/kto-takie-kvadrobery-ili-zachem-podrostki-pritvoryayutsya-zhivotnymi>) Кто такие квадроберы, или Зачем подростки притворяются животными? - Россия || Интерфакс Россия.
3. Olimov L., Nazarov A. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Taffakur avlodi, 2020.
4. Olimov L., Nazarov A. Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi. – Toshkent: Taffakur avlodi, 2020. – B.19.
5. Social and emotional development. A Journey of Children Growing with. Aftor: Fatma ÖZKIRAY <https://medium.com/@fatmaozkitay/soci%CC%87al-andemoti%CC%87onal-development-a09d1dd83586>
6. Семантика зооморфных образов в современной европейской культуре: автореферат дис. ... кандидата культурологии : 24.00.01 / Храмова Марина Николаевна; [Место защиты: С.-Петербург. гос. ун-т культуры и искусств]. - Санкт-Петербург, 2015. – 24 с.
7. Rossiyada kvadrobika taqiqlanishi mumkin/<https://m.kun.uz/news/2024/10/05/rossiyada-kvadrobika-taqiqlanishi-mumkin>
8. Ichki ishlar vazirligi Toshkentda kvadroberlar paydo bo'layotganidan ogohlantirdi <https://m.kun.uz/news/2024/10/13/iiv-toshkentda-kvadroberlar-paydo-bolayotganidan-ogohlantirdi>
9. lex.uz/acts/-97664 <https://lex.uz/acts/-97664> O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 77-modda. 30.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 78-modda. 30.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Alikariyeva A'loxon,

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

"Sotsiologiya" kafedrasi doktoranti, s.f.n., dotsent

e-mail: alohon77@ya.ru

ТА'LIM SIFATI MENEJMENTI TIZIMINI JORIY ETISH MUAMMOLARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Globallashuv sharoitida kuchayib borayotgan integratsion jarayonlar va axborotlar tizimining xalqaro darajaga rivoj topishi, raqobatning kuchayishi sotsial boshqaruvga bo'lgan munosabatni foydali tomonga keskin o'zgartirishi boshqaruv tizimidagi ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi. Ijtimoiy jarayonlar boshqaruvining mukammallashuvi hozirgi sharoitda ta'lismi axborotlarini qayta ishlab tahlil qilib, yig'ish tizimini takomillashtirishni talab qiladi. Rivojlangan raqobatchilik muhiti o'z navbatida mahsulot va xizmatlar sifatini doimiy oshirib borishni talab etgan holda ularni taqdim etuvchilarning raqobatbardoshligini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif tomonidan maqolada oliy o'quv yurtlarini boshqarish mexanizmidagi sifat menejmenti tizimining xususiyatlari; uni joriy etish va amalga oshirishdan kutilgan natijalar o'rtasidagi nisbat, shuningdek, oliy o'quv yurti professor-o'qituvchilar va xodimlarining ushbu boshqaruv resursiga munosabatini o'rganish maqsadida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazilgan va tahlil natijalari keltirilgan.

Kalit so'zlar: sifat, menejment, tizim, oliy o'quv yurti, professor-o'qituvchilar, boshqaruv, so'rov, respondent, baholash, iste'molchi.

Аликариева Альохон,
к.соц.наук, докторант кафедры «Социология»
Национального университета Узбекистана
имени Мирзо Улугбека,
e-mail: alohon77@ya.ru

ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

Развитие растущей системы интеграционных процессов и информации до международного уровня в условиях глобализации, резкое изменение отношения к социальному управлению в результате усиления конкуренции в сторону полезного повышает социальную адаптацию в системе управления. Совершенствование управления социальными процессами требует совершенствования системы сбора путем воспроизведения и анализа информации образовательной системы в современных условиях. Функционирование в условиях стремительно меняющегося сегодняшнего рынка требует нового взгляда на вопрос

управления качеством. Развитая конкурентная среда, в свою очередь, приобретает важное значение в определении конкурентоспособности поставщиков товаров и услуг, требующих постоянного повышения их качества. В статье автором рассмотрены особенности системы менеджмента качества в механизме управления высшими учебными заведениями; соотношение между ожидаемыми результатами ее внедрения и реализации, а также проведено социологическое исследование и представлены результаты анализа с целью изучения отношения профессорско-преподавательского состава и персонала вуза к данному ресурсу управления.

Ключевые слова: качество, менеджмент, система, высшее учебное заведение, преподаватели, менеджмент, опрос, респондент, оценка, потребитель.

Alikarieva Alokhon,
Candidate of Social Sciences,
doctoral student of the Department of Sociology
of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan,
e-mail: alohon77@ya.ru

PROBLEMS OF IMPLEMENTATION OF THE EDUCATIONAL QUALITY MANAGEMENT SYSTEM

ABSTRACT

The development of an increasing system of integrative processes and information to an international level in the context of globalization, the sharp change in the attitude towards social management of increased competition towards useful increases social adaptation in the management system. The perfection of social process management requires the improvement of the collection system by reproducing and analyzing the information of the educational system in the current conditions. Functioning in today's rapidly changing market requires a new look at the issue of quality management. A developed competitive environment, in turn, becomes important in determining the competitiveness of suppliers of goods and services that require constant improvement of their quality. In the article, the author examines the features of the quality management system in the management mechanism of higher education institutions; the relationship between the expected results of its implementation and implementation, as well as conducted a sociological study and presented the results of the analysis in order to study the attitude of the faculty and staff of the university to this management resource.

Keywords: quality, management, system, higher education institution, teachers, management, survey, respondent, assessment, consumer.

KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlar nazariy va amaliy xarakterga ega bo'lган va ta'lim tizimini rivojlantirish uchun juda muhim bo'lган bir qator munozarali va dolzarb muammolarni ochib bermoqda. Hozirgi jamiyatimizni o'zgartirish sharoitida ta'lim sifatini boshqarish nazariyasi, metodologiyasi va amaliyoti masalalari ustuvor masalalarni o'z ichiga oladi. Ta'limni boshqarishning ilmiy asoslarini izlash, istiqbolli yondashuvlar, keng ko'lamli ta'lim faoliyati respublikamiz ta'lim tizimini modernizatsiya qilishning asosiy vazifalaridan biridir.

Ta'lim sohasidagi boshqaruv faoliyatining ma'nosи ijtimoiy buyurtmaning ta'lim tizimining salohiyatiga mos kelishini ta'minlashdan iborat. Hozirgi kunda ta'lim sifati, uning maqsadlari ta'limdan tashqari tizimlar – davlat, jamiyat, iqtisodiyot va ish beruvchilar tomonidan belgilanadi. Ta'lim xizmatlari bozoriga moslashishi kerak bo'lган ta'lim tizimini sotsial boshqarishning o'zgacha strategiyasiga ehtiyoj tug'ildi. Ta'lim tizimini isloh qilish, uning sifatini oshirish bo'yicha turli ishlanmalar, boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlari shunga qaratilgan bo'lishi kerak.

Prezidentimiz tomonidan 2023-yilga "Insonga e'tibor va sifatlari ta'lim", deb nom berilishi [1], yurtemizda barcha islohotlar zamiri "Inson qadri uchun" degan tamoyilga asoslanishini yana bir bor

isbotladi. Bugun mamlakatimizda ilm-fanning rivojlanishi, yurtimizning zamonaviy texnologiyalar asosida ravnaq topishida ta’lim tizimiga e’tiborni kuchaytirish eng dolzarb masala hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Jamiyatni maqsadli boshqarish xalqimiz tabiatiga o’tmishdan salbiy meros sifatida o’tgan irratsionalistik kayfiyatlardan, ya’ni voqelikni chuqur his etmaslik, yuz berayotgan jarayonlar, o’zgarishlarni, tashqi va ichki xavflarni anglab yetmasdan g‘aflatda yashayverishdan ishonchli muhofaza ham etadi, deb fikr yuritadi o’z risolasida mashhur sotsiolog olim M.B.Bekmurodov [2]. Shuningdek, davlat va jamiyat boshqaruvida kompromiss emas, balki konsensus nazariyasiga tayanilmoqda. Ijtimoiy munosabatlarda konsensus, ya’ni hamjihatlik, yakdillik nazariyasi odamlarning ko’tarinki ruhiyatini ta’minlovchi ijtimoiy-ma’naviy muhitni barcha oila, mahalla, korxona va tashkilotlarda shakllantirilish talabi sifatida namoyon bo’lmoqda va bu talab keng ko’lamli ijtimoiy harakatga aylanmoqda [3]”, deya ta’kidlaydi M.B.Bekmurodov.

Respublikamiz taniqli sotsiologlaridan yana biri A.Xolbekovning [4] fikricha, boshqaruv – ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan faoliyatdir, u eng kam vosita (vaqt, kuch va zahiralar) sarflab, eng yuqori natijaga erishish bo'yicha aniq maqsadli, rejali va ongli ravishda tashkil etilgan hamda nazoratni talab etadigan aqliy faoliyatdir. Ommani maqsadli boshqarish va bu jarayonlarni milliy manfaatlar hamda umuminsoniy tamoyillar mutanosibligi negizida amalgalashirish mamlakatning umumiyligi intellektual va estetik, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, siyosiy va axloqiy barqarorligiga mustahkam zamin yaratadi.

Mamlakatimizda menejment fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo’shgan olimlardan M.Sharifxujaev, Yo.Abdullaevlar boshqaruv – bu o’ziga xos yuksak san’at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir, deb ta’kidlab, quyidagicha ta’rif beradi: “boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir” [5]. Akademik S.S.G’ulomovning fikricha, “menejment – maqsadga muvofiq boshqaruv usuli yoki mehnatni samarali tashkil qilishga yo’naltirilgan boshqaruvdir. Hozirgi davrda menejment – boshqaruvga qo’yiladigan turli talablarni, ya’ni ish usuliga, ishni olib bora olish qobiliyatiga, odamlar harakatini birgalikdagi faoliyatda to’g’ri yo’naltirish san’ati va fanga qo’yiladigan talablarni qattiq, ma’muriy talabisiz belgilangan maqsadning bajarilishini o’zida aks ettiradi” [6].

Iqtisodchi olimlardan biri M.X.Saidov [7] o’z risolasida boshqaruv faoliyati o’z mohiyati va tavsifiga ko’ra jamiyat hayotida aqliy tartibga solish ahamiyatiga ega ekanligini ta’kidlaydi. Insoniyat fan-texnika, iqtisodiyot va ijtimoiy yutuqlarini qanchalik ko’paytirib borsa, boshqaruv faoliyatining shunchalik ilmga bo’lgan talabi to’xtovsiz oshib borishi sodir bo’ladi. «Boshqaruvning mohiyati – obyektiv va subyektiv sharoitlarini qo’yilgan maqsadga erishishga imkon beradigan nisbat va munosabatda bo’lishini ta’minalashdan iborat», deb fikr yuritadi.

M.X.Saidov zamonaviy rahbarning muhim boshqaruv maqsadi o’z xodimlarini axloqiy jihatdan yuksak darajaga ko’tarish, ularni ma’naviy jihatdan sog’lom jamoaga aylantirishdan iborat bo’lib, boshqaruv bu hamisha hukmronlik, insonlar ustidan amr etishlik imkon, lekin hokimlik oqilona bo’lishi lozimligini ta’kidlaydi. Har qanday tashkilotning me’yorda faoliyat ko’rsatishi boshqaruv tizimidagi hokimiyatni to’g’ri taqsimlashga bog’liq. Boshqaruv tizimidagi tartibga tushirilgan maqomlar istalgan tuzilmaning me’yorida faoliyat ko’rsatishining muhim sharti, - deb hisoblaydi.

G’.M.Qosimovning fikricha, “menejment – bu boshqarish orqali ishlarni amalgalashirish, ishbilarmonlar qanday ish yuritishini o’rgatish, yangi boshqarish tafakkurini shakllantirishdir. Menejment deganda firmalarning maqsadiga erishishlarini tashkil etish, rejalashtirish, nazorat qilish, tashkilot ichidagi o’zaro ta’sir etishni muvofiqlashtirish, firma salohiyatidan foydalanish orqali jarayonlar, munosabatlar, harakatlarni amalgalashirish kabilar anglanadi” [8].

Pedagoglardan R.X.Djuraev, S.T.Turg‘unovlar “ta’lim menejmenti – bu ilmiy asosda tashkil etilgan, o’ziga xos pog’onaviylikka asoslangan boshqaruv: rahbar, pedagogik jamoa, ta’lim oluvchilar jamoasi. Shunga ko’ra boshqaruvni turli xil modellar asosida amalgalashirish mumkin: integral model, birinchi pog’ona – pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish, ikkinchi pog’ona – o’quvchilar faoliyatini boshqarish” [9] ekanligini ta’kidlaganlar.

Demak, menejmentni belgilangan maqsadlarga erishiladigan asosiy faoliyatni tashkil etishni ta'minlaydigan alohida faoliyat turi sifatida tushunish mumkin. Menejment umumiy faoliyat bilan bog'langan bir nechta elementlar (insonlar, tashkilotlar) mavjud bo'lganda paydo bo'ladi va bunday faoliyatning ma'lum bir umumiy maqsadi mavjud. Ta'lim sifatini boshqarish tartibga solish, sifat xususiyatlarini saqlab qolish, takomillashtirish va rivojlantirish maqsadida ta'limga ta'sir qilishdan iborat.

Ta'lim sifatini boshqarishning muhim xususiyati shundaki, u o'quv jarayonidan alohida amalga oshiriladigan maxsus faoliyat turidir. Shuningdek, bu shuni anglatadiki, ta'lim tizimini boshqarish uchun o'zining munosabatlar tizimi va hal qilinadigan vazifalariga (boshqaruv funksiyalari) ega bo'lgan maxsus tashkilotlar (boshqaruv tuzilishi) yaratiladi.

Menejment zarurati boshqariladigan tizimning jadalligi bilan bog'liq. Menejment nazariyasiga oid adabiyotlarda ta'kidlanganidek, agar biron bir tizim doimo bir xil holatda bo'lishi mumkin bo'lsa, unda boshqaruvning hojati yo'q. Menejmentning ma'nosi jadal tizimga ma'lum o'zgarishlarni amalga oshirish uchun maqsadli ta'sir qilishdan iborat. Refleksiv boshqaruv muammolari T.M.Davydenko, B.C.Lazarev, M.M.Potashnik, P.I.Tretyakov, T.N.Shamova asarlarida yoritib berilgan [10].

Ta'limni, xususan, ta'lim muassasasini refleksiv boshqarish jarayoni va shaxsning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar bilan bog'liq bo'lib, unda harakatlarning ma'nosi ro'yobga chiqadi, maqsadli transformatsion faoliyat zarurati amalga oshiriladi. O'z-o'zini chuqur anglash quyidagi jarayonlarning rivojlanishiga olib keladi: "o'zini o'zi anglash-o'zini namoyon qilish-o'zini o'zi tasdiqlash-o'zini o'zi ifoda etish-o'zini o'zi boshqarish". Ta'lim muassasasining rivojlanishini boshqarish jarayonida konsalting faoliyatini tashkil etishda tahlil va diagnostika qilish muhim ahamiyatga ega, ular asosida konsalting jarayoni yoki ta'lim muassasasini rivojlantirish loyihasi rejalashtiriladi va tashkil etiladi. Bunda refleksiv boshqaruv o'zini o'zi tahlil qilishga, o'zini o'zi baholashga asoslanadi. Professor-o'qituvchilar o'z faoliyatlarini natijalarini tashqi ekspertlar tomonidan muassasa faoliyatini tahlil qiladigan ko'rsatkichlar bo'yicha aniq baholashlari kerak bo'ladi.

So'nggi yillarda ta'lim sifatini boshqarishning mohiyatini belgilovchi ta'lim sifati menejmentini rivojlantirishning eng muhim tendensiyasi tizimli yondashuv bo'lib, u nafaqat uslubiy tadqiqotning bir turi, balki murakkab dinamik muhitda yaxlit va majmuaviy ta'lim boshqaruvini taqdim etish imkonini beradigan boshqaruv tafakkurining zamonaviy usuli sifatida qaraladi.

ASOSIY QISM

Sifat menejmenti tizimi – bu oliv o'quv yurtlari faoliyati parametrlarining belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun xodimlarning o'zaro hamkorligini muvofiqlashtirish uchun mo'ljallangan standartlarni ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilish orqali harakatlarni rasmiylashtirishdan iborat ma'muriy-boshqaruv vositasidir. Demak, ta'lim xizmatlari sohasi sifatida ta'lim olish har qanday oliygohning asosiy, maqsadli tarkibiy qismi, ular ta'lim xizmatlarini taqdim etadi. Shu munosabat bilan oliygohning ta'lim faoliyatini baholashning eng muhim mezonidir.

Sifat menejmenti tizimi (SMT) mohiyatini ko'rib chiqar ekanmiz, ushbu boshqaruv resursining mazmuni, uning ijtimoiy maqsadi, shakllanish tarixi, amalga oshirish shakllari va usullarini aniqlashimiz kerak. Bu esa ushbu resurs oliv ta'limga qanchalik qo'llanilishi kerakligini aniqlashga imkon beradi.

Iqtisodchi-olimlarning fikriga ko'ra, bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish jarayonining doimiy yaxshilanishini, ham mahsulot, ham butun tashkilotning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishni ta'minlaydigan tashkilotlarni boshqarishning samarali tizimini joriy etish zarurati tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy "boshqaruv tizimi nafaqat o'zgaruvchan vaziyatga javob bera olishi va yo'l qo'yilgan noto'g'ri hisob-kitoblarni tuzatishi, balki kompaniyaning rivojlanish sur'atlarini oshirishi kerak" [11].

Sifat menejmenti tizimining shakllanishi va rivojlanishini tahlil qilish asosida ba'zi qonuniyatlarani aniqlashimiz mumkin bo'ladi. SMTni mikro va makrosotsiologik darajada ko'rib chiqamiz. Mikrosotsiologik daraja – bu bitta alohida olingan korxonada sifat tizimini joriy etishdir. T.V.Grexova o'zining sotsiologiya bo'yicha dissertatsiya ishida quyidagilarni ta'kidlagan: "zamonaviy tashkilotlar muvaffaqiyatli va hayotga chidamli bo'lish maqsadida doimo o'zlarini

rivojlantirish yo'llarini izlaydilar va hozirgi vaqtida tashkiliy rivojlanishning eng universal usullaridan biri bu sifat menejmenti tizimi (SMT) hisoblanadi. Tashkilotda yaxshi tuzilgan va samarali ishlaydigan SMT – bu biznes tashkilotining umumiylarini oshirish va natijada tovarlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxini kamaytirish va tannarxni pasaytirish imkoniyatlarining kuchli vositasidir. Shu sababli, sifat menejmenti tizimini yaratish va doimiy takomillashtirish kompaniyani muvaffaqiyatga olib keladigan eng muhim raqobat afzalliklaridan biridir va uning bozordagi mavqeini mustahkamlash tashkilotga o'z xodimlarining farovonligini oshirishga, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlashga imkon beradi va pirovardida bu orqali ularning kelajakka ishonchini oshiradi” [12].

Shunday qilib, sifat menejmenti tizimi (SMT) tarkibini quyidagi ikkita asosiy quiyi tizimga keltirish mumkin:

- me'yoriy-nazorat quiyi tizimi, uning doirasida oliy o'quv yurti faoliyatini uchun zarur bo'lgan hujjatlarni (asosiy jarayonlar va faoliyatni tavsiflovchi standartlar va qoidalarni, ishlab chiqilgan me'yorlarning bajarilishini nazorat qilish) tayyorlash amalga oshiriladi;
- aloqa va muvofiqlashtirish quiyi tizimi, u asosiy funksiyalarini amalga oshirish jarayonida xodimlar va bo'linmalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning to'g'ri tartibini, oliy o'quv yurti ma'muriyati va uning xodimlari o'rtasidagi teskari aloqalarni ta'minlaydi.

Har qanday boshqaruv tizimi nafaqat rasmiy ko'rsatkichlar va faoliyat natijalarini hisobga olishi kerak, balki uning haqiqiy mazmunini tahlil qilishga murojaat qilishi kerak. Oliy o'quv yurtlarida sifat menejmenti haqida gap ketganda, sifatni obyektiv baholash va umuman, boshqaruv samaradorligini faqat zarur hujjatlarni tekshirish natijalari, tegishli o'quv-uslubiy hujjatlar to'plamining mavjudligi va boshqalar asosida olish mumkin emasligi aniq, sifat mezonlarini aniqlashga kompleks yondashuv zarur.

Bizning tajriba tadqiqotimiz shuni ko'rsatdiki, oliy o'quv yurtlari boshqaruv tizimiga sifat menejmenti tizimini joriy etish va amalga oshirish uchun jiddiy qiyinchiliklar mavjud. Tadqiqot natijalarini sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash mumkinki, oliy ta'limda sifat menejmenti tizimini yaratishga bir nechta omillar to'sqinlik qilishi mumkin. Tadqiqotdan maqsadimiz, professor-o'qituvchilar va mutaxassislarining universitetdagi sifat menejmenti tizimi mazmuni va samaradorligini baholashiga, ularning ushbu boshqaruv resursiga va uni oliy ta'lim muassasalarida joriy etish istiqbollariga bo'lgan munosabatiga aniqlik kiritishdan iborat edi.

Biz o'z oldimizga qo'ygan vazifalarimizdan biri, professor-o'qituvchilardan universitetda sifat menejmenti tizimi samaradorligini baholash bo'yicha ma'lumotlarni olish, xorij oliy ta'limi tajribasi va an'analarini hisobga oлган holda, mahalliy o'ziga xosliklar nuqtai nazaridan, SMTni optimallashtirish va uni oliy o'quv yurtlarida joriy etish istiqbollarini belgilashdir [13].

Tadqiqot respublikamiz oliy o'quv yurtlarida 2022 yil mart-oktyabr oylarida o'tkazildi. Tadqiqotda oliy o'quv yurtlaridan 612 ta respondent qatnashdi. So'rov anketasi 25 ta savoldan iborat bo'lib, unga asosan universitet haqida va undan sotsial, iqtisodiy va boshqa sharoitlar, ya'ni professor-o'qituvchilarning dars jarayoniga munosabatlari, universitetdagi ta'lim sifati, ta'lim jarayonidan qoniqish darajasi va sifat menejmenti tizimi va uning samaradorligini baholash bo'yicha muammolar kiritildi.

Respondentlar orasida universitetda 15 yildan ortiq ishlab kelayotgan professor va dotsentlarning 74 foizi, ish stajlari 5 yil va undan ortiq bo'lgan o'qituvchi va katta o'qituvchilarning 26 foizi ishtirot etdi. Respondentlarning yoshi quyidagicha bo'ldi: yosh o'qituvchilar (35 yoshgacha) – 46,5%, 35 yoshdan oshgan “yetuk” o'qituvchilar – 53,5%. Erkaklar va ayollar mos ravishda 38% va 62% ni tashkil etdi.

Professor-o'qituvchilardan va xodimlardan sifat menejmenti tizimi haqida so'ralganda, ulardan 45% habari borligini va qolgan 55% qisman ma'lumotga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Professor-o'qituvchilar yangi boshqaruv resursiga bo'lgan ehtiyojni to'liq baholay olishlari uchun ularni ushbu sohadagi tajriba bilan tanishtirish, mohiyatini tushuntirish va ushbu resursning samarali ishlashi uchun nima qilish kerakligini ko'rsatish kerak bo'ladi. Aksariyat nazariyotchilar tashkilotda SMTni joriy etish jarayoni treningdan boshlanishi kerakligini ta'kidlaydilar. Innovatsiyalarni rad etish, ko'pincha, ularning mohiyati va maqsadini noto'g'ri tushunish bilan bog'liq. Ta'lim

muassasalariga SMTni joriy etishning dastlabki bosqichida uning mohiyatini o'rgatish jarayoni ko'pincha majburiy asosda amalga oshiriladi. Majburiy omil g'oyaning o'zini rad etishga olib kelishi mumkin.

So'rov natijalarini sarhisob qilish shuni ko'rsatdiki, SMT bo'yicha ma'lumotga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar, xodimlar, umuman olganda, SMT yutuqlarini ijobiy baholadilar va juda aniq va qiziqarli javoblarni shakllantirdilar, chunki respondentlarda ochiq savollarga javob berish imkoniyati ham mavjud edi.

"Sizningcha, sifat menejmenti tizimi (SMT)ga universitetda boshqarishning muqobil resurslari bormi?" degan savolimizga respondentlardan quyidagi javoblarni oldik: "hozirgi kunda SMTga muqobil yo'q" – 20%, "SMT an'anaviy boshqaruv usullari bilan bir qatorda qo'llanilishi mumkin" – 50%, "universitetda an'anaviy (vaqt sinovidan o'tgan) boshqaruv usullaridan foydalanish yaxshiroqdir" – 15%, "universitet SMTsiz ham yaxshi faoliyat yurita olgan va yurita oladi" – 12%, qolgan respondentlar esa javob berishga qiyonalishgan. Qayd etish joizki, 15 yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilar oliy o'quv yurtida SMT mavjudligi zarurligini butunlay inkor etishgan. Bundan tashqari, bizning fikrimizcha, universitetda SMTni joriy etish istiqbollari ko'proq yosh o'qituvchilar va universitet xodimlari tomonidan ijobiy baholangan.

Respondentlarga "Sizningcha, respublikada oliy ta'limni isloh qilish jarayonlari OO'Yuda sifat menejmenti tizimini joriy etish bilan qanday bog'liq?" degan savol bilan murojaat qildik. Javoblar turlicha bo'ldi: so'rov ishtirokchilarining 36% "to'g'ridan-to'g'ri bog'liqdir, chunki SMTni amalga oshirish dunyo ta'lim standartlarining majburiy talabidir", 22% "bir-biriga bog'langan, chunki SMTni joriy etish jahon hamjamiyatining oliy o'quv yurtlariga talabidir va biz ham dunyo oliy ta'lim makoniga integratsiyalashmog'imiz zarur", 13% "qisman bog'liq, chunki SMT ta'lim sifatini yaxshilashga imkon beradi", "unchalik bog'liq emas, chunki ta'lim sifati universitetdagi SMT bilan uzviy bog'lanmagan", 6% "umuman bog'liq emas" deya javob berishgan bo'lsa, qolgan 1% respondent esa javob berishga qiyonalishgan. Respondentlarning ko'pchiligi respublikada oliy ta'limni isloh qilish jarayoni universitetda SMTni joriy etish bilan bog'liq ekanligiga ishonchi komil.

Anketa so'rovining asosiy savollaridan yana biri "Sizningcha, universitetdagi SMTdagi "iste'molchilar ehtiyojini qondirish" nimani anglatadi? deb nomlangan bo'lib, 41% respondent "iste'molchilar yuqori malakali mutaxassislariga ega bo'ladi", 35% respondent "talaba, ota-onalar, ish beruvchi, davlat sifatida iste'molchilar oliy ta'lim sifatiga e'tirozga ega emas", 22% respondent "bu iqtisodiyot sohasidan olingan atama bo'lib, ta'lim bilan bog'liq bo'lishi mumkin emas" deya javob bergen, 2% respondent esa javob bermagan. Iste'molchi bugungi kunda universitet uchun uning taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'ziga xos ko'rinnas kuchni anglatadi. Darhaqiqat, oliy ta'lim sohasi uchun SMTdagi iste'molchi ish beruvchi, davlat va umuman jamiyat, shuningdek, talaba va uning ota-onasi sifatida tushuniladi. Respondentlarning 22% berilgan savolga javob berar ekan, shubhasiz, oliy ta'limda "iste'molchi" atamasi qo'llanilishi kerak, degan fikrga qo'shilmaganlar. Axir, ta'lim, o'qitish, dunyoqarashni shakllantirish haqida gap ketganda, ushbu jarayonlarni "iste'molchi" tushunchasi bilan bog'lash qiyin. Bizning fikrimizcha, bu zamonaviy sharoitda ta'lim xizmat sifatida talqin qilinishi bilan bog'liq. Biroq, yuqorida biz bunday talqinni mazmunli xususiyatlar bilan to'ldirish kerakligini ta'kidlagan edik.

Respondentlarga "Sizningcha, universitetda SMTni joriy etishga qanday omillar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin?" degan savol berdi va quyidagi javoblarni oldik: "universitetda SMTni joriy qilish uchun oliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan metodologiya yo'q" – 41%, "universitet rahbariyati va xodimlarining SMT sohasida bilimlarining yetishmasligi" – 38%, "universitetning SMTni joriy etishga tayyor emas" – 56%, "universitet rahbariyati va xodimlari o'rtasida uzviy aloqaning yo'qligi" – 28%, "javob berishga qiynalaman" – 5%, "boshqa omillar" – 2%. Bu savolga javobda mutaxassislarini biron bir omilni tanlashda cheklab qo'yilmadi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilib, yuqoridagi barcha omillar u yoki bu darajada universitetda SMTni joriy etishga ta'sir qilishi mumkin, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Universitetlarda SMT standartlarini bevosita qo'llashda ma'lum qiyinchiliklar mavjud, albatta. Ishlab chiqarish korxonalari uchun ishlab chiqilgan SMT standartlari tizimi tegishli ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirilmagan va unchalik rivojlanmagan. Yana shuni ta'kidlaymizki, ta'lim haqida gapirganda, bu ijtimoiy hodisaning mohiyati

va maqsadini tushunish kerak. Uning natijasi texnik mahsulot emas yoki jonsiz narsa emas, balki intellektual jihatdan tayyorlangan madaniy va ma'naviy jihatdan shakllangan shaxsdir.

Universitet rahbarlari va xodimlarining SMT bo'yicha bilimga ega emasligi ham to'siq bo'ladi. Universitet rahbaryati universitetda SMTni joriy etishning mazmuni, maqsad va vazifalaridan xabardor bo'lishi va o'zining sifat g'oyalariga sodiqligini shaxsan ko'rsatishi kerak. Bundan tashqari, universitet xodimlari ham SMT haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak, chunki bilimsizlik universitet xodimlari tomonidan yangi boshqaruv usullarini rad etishga olib keladi. Sifat menejmenti tizimi tashqaridan kiritilmasligi kerak, u universitetda butun jamoa ishtirokida yaratiladi.

Respondentlarga "Universitetda SMTning joriy etilishi ta'lim sifatini yaxshilashga ta'sir qiladimi?" degan savol bilan murojaat qilganimizda, ularning 10% "albatta ta'sir qiladi", 31% "ta'sir qiladi, chunki SMT iste'molchilararning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan", 39% "faqat qisman ta'sir qiladi, chunki ta'lim sifati faqatgina universitetda boshqaruv qanchalik samarali ekanligiga bog'liq emas", 12% "ta'sir qilmaydi, chunki barcha jarayonlarni rasmiylashtirish va hujjatlashtirish ta'lim sifatini yaxshilay olmaydi", 7% "umuman ta'sir qilmaydi" deb belgilashgan bo'lsa, qolganlar esa javob berishga qiyinalishgan.

Ta'lim sifati har kim tomonidan turlicha qabul qilinadi. Ba'zilar ta'limning asosiy sifati iste'molchilar ehtiyojini qondirish, deb hisoblassa, boshqalari buni shakllangan kasbiy va umumiy madaniy kompetensiyalarning mavjudligi, deb bilishadi. Ushbu maqolada biz aholining ta'lim sifatiga munosabatini aniqlash maqsadida o'tkazilgan sotsiologik so'rovlar ma'lumotlarini keltirdik. Bizning so'rovimiz ushbu konsepsiyaning ko'p qirrali va ko'p qiymatligini tasdiqladi. Bu respondentlarning berilgan savolga bergen javoblarida ham o'z aksini topdi.

XULOSA

Oliy ta'lim jamiyatning iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishining eng muhim omillaridan biridir, chunki iqtisodiy va ijtimoiy o'sishni jadallashtirish uchun mamlakatimizning ilmiy va intellektual salohiyatiga tayanish zarur. Bu, o'z navbatida, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishining sharti bo'lib xizmat qilishi kerak .

Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish, global ta'lim makoniga kirish uchun oliy o'quv yurtlari yangi boshqaruv texnologiyalaridan foydalanish masalasini hal qilishlari kerak. Bu ularga raqobatbardosh bo'lish, faoliyati madaniyatini va samaradorligini oshirish imkonini beradi, bu esa universitetning yanada rivojlanishi va farovonligiga xizmat qiladi.

Bugungi kunda universitetlarni boshqarishda turli xil yondashuvlar mavjud. Samarali boshqaruv vositalariga sifat menejmenti tizimi kiradi, bu ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, shuningdek, oliy o'quv yurtining mavjud an'analari va tajribasini hisobga olgan holda universitetni innovatsion boshqarishning samarali elementi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bir qator SMT tadqiqotchilarining fikrlarini hisobga olish va to'ldirish orqali faoliyat metodologiyasi orqali sifat menejmenti tizimi tushunchasini quyidagicha aniqlash mumkin: bu universitet faoliyati parametrlarining belgilangan talablarga muvofiqligini ta'minlash uchun xodimlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish uchun mo'ljallangan standartlarni ishlab chiqish va ularning bajarilishini nazorat qilish orqali harakatlarni rasmiylashtirishdan iborat boshqaruv vositasidir.

O'tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish oliy o'quv yurtlarida sifat menejmenti uchun zarur bo'lgan quyidagi fundamental tamoyillarni shakllantirish imkonini berdi:

1. Sifat menejmenti ko'p bosqichli bo'lishi va uning asosiy tarkibiy qismi talabalarni tarbiyalash va rivojlantirish bo'lishi kerak. Bu tamoyil ta'lim sifatini aniqlashning turli usullaridan (testlar, anketalar va boshqalar) foydalanishni o'z ichiga oladi.

2. Sifatni boshqarish dasturlari tadqiqot va natijalar tahlilini o'z ichiga olishi kerak. Natijalar talqin qilinishi, tahlil qilinishi va saqlanishi kerak. Demak, sifat menejmenti kelajakda, vaqt o'tishi bilan farq qiladigan natijalar solishtirilganda ham foydali bo'ladi.

3. Sifatni boshqarish dasturlari real bo'lishi kerak. Ko'rinish turibdiki, sifat menejmenti ko'zlangan maqsadlarga erishish nuqtai nazaridan real umidlardan boshlanishi kerak.

4. Oliy o'quv yurtlarining maqsadlari uning resurslariga mos kelishi kerak.

5. Sifatni boshqarish natijalarining asosiy afzalligi shundaki, u boshqa yo'l bilan mavjud

bo‘lмаган, ammo qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni taqdim etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. – Toshkent, 2022. 20-dekabr.
2. Бекмуродов М.Б., Бегматов А. Миллий менталитет ва раҳбар маънавияти. – Тошкент: Адолат, 2003. – Б. 11.
3. Бекмуродов М.Б. Замонавий бошқарув социологияси//Дарслик. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – Б.136.


Yoshlarning xayotida oilaviy udumlardan tiyilish bilan birga, o‘tkinchi tarbiyaviy jarayonlarga intilish, milliy xikmatlardan begonalashuv, umumiylit qadriyatiga ko‘p vaqt ajratish natijasida oilaviy qadriyatlarning nochorligi, ota-onalardan begonalashuv jarayoni tarbiya munosabatlarida ommaviylashmoqda. Shu o‘rinda, yoshlar fe’l-atvorida yangi «**Ommaviy tarbiya**» - shaxsnинг shakllanishida milliy-estetik va milliy-etik qiymatsiz, hammaga to‘g‘ri keladigan yengil-yelpi xususiyatlarga moyil turli xil jarayon va predmetlarni tarbiyasi shakllanib, zamonaviy ilmiy texnika taraqqiyotining ijtimoiy-ruhiy muhitiga globallashuv ta’sirining ifodasi deb hisoblaymiz.

«Ommaviy madaniyat» niqobi ostida yoshlarning maqsadi, xohish-istiklari va turmush tarzining transformatsiyalashuvi intolerantlik muammosini ham keltirib chiqarmoqda. Ya’ni, yoshlarning hayot ne’matlarining tez sur’atda olish, tatib ko‘rish, his qilish, tushunish va iste’mol qilish kayfiyati shakllanishi orqali intolerantlik fe’l-atvori yuzaga keldi. Natijada, sabrsizlik, betoqatlik, qanoatsizlik, chidamaslik, murosasizlik, muvozanatsizlik, jizzakilik, qahr, g‘azab, nafrat, isyonkorlik, qo‘pollik, befarqlik, loqaydlik, tushunmaslik, begonalashuv kabi yoshlarda illatlarning rivojlanishi tolerantlik madaniyatiga bo‘lgan ehtiyoj yanada oshmoqda.

Yoshlar hayotida «Ommaviy madaniyat»ga bo‘lgan munosabatini aniqlash uchun o‘tkazilgan sotsiologik so‘rovnoma: ««Ommaviy madaniyat» vakillari bilan munosabatingiz?» degan savol berildi. So‘rovnoma qatnashganlarning 1300 nafar respondent bo‘lib, undan 487 (38,1 %) «Ko‘rmayman yoki muloqot qilmayman», 315 nafar respondent (24,6 %) «Menga farqi yo‘q», 194 nafar respondent (15,2 %) «Hozir xamma shundayku», 282 nafar respondent (22,1 %) esa ««Ommaviy madaniyat» bu zamonaviylik» javobini belgilab, bugungi transformatsiyalashayotgan jamiyat yoshlari hayotning naqadar o‘zgarayotganligi, loqaydlik, befarqlik va begonalashuv bilan ijtimoiy sabr madaniyatiga zaruratni tasdiqladi.

Xorijiy manbalarda zamonaviy tahdidlarning orasida **diniy jihodning** ikkinchi yo‘nalishi “rahbarsiz, lidersiz yoshlarning ijtimoiy voqelikka qarshiligidagi tashkili” bloggerlik harakatida rejalashtirilgan [5, S. 12]. OAV orasida Internet va mobil aloqalarning yangi imkoniyatlari yoshlar

ma'naviyatida qadriyat transformatsiyasiga salbiy ta'sir etishi bilan birga jismoniy salbiy ta'siri ham aniqlandi. Axborot resurslaridagi «**ommaviy qadriyatlar**» - ijtimoiy tabaka va qatlarning barchasiga mos past saviyali badiiy-estetik madaniyat namunalari va narsa va buyumlarga suniy andoza tusini berish jarayoni bo'lib, ko'p hollarda yoshlarimiz o'zligining milliy qadriyatlardan mosovo etib, yoshlarda vulgar modalashgan kiyinish, insonni kuchli emotsiyaga olib boruvchi jarayonlarga maylning ortishi hayot mazmuniga aylanishi tufayli bo'sh vaqtning mazmunsizligi, nafis didni dag'allashuvi ostida «**kitch-did**» - (nem. Kitsch - sifatsiz, arzon, yengil-yelpi, saviyasi past) nafosatsizlikka boshlovchi, arzon va jo'n yaratilan narsa va buyumlarga suniy joziba tusini berish jarayoni yoshlarning ahloqida hosil bo'lmoqda. Bu hol behayolik va zo'ravonlik, notabiyyilik, andozasizlik, madaniyatsizlik, ma'naviyatsizlik, millat va uning ma'naviy qadriyatlariga bepisandlik bilan ijtimoiy manfaatlarga daxl qiluvchi holatni tug'diradi. Yoshlarda ijtimoiy-madaniy ornament – belgilarini transformatsiyasi ma'naviyat, qadriyatlariga nisbatan begonalashtirmoqda.



1. Rasm. «Ommaviy madaniyat» vakillari bilan munosabatingiz? [10]

Biz, yoshlar sotsiologiyasi bo'yicha transformatsiya jarayonining shartli ravishda quyidagicha ijtimoiy tahlillashtirish mumkin deb hisoblaymiz:

1. Jamiyat hayotini laxzada o'zgarishi inson ehtiyojlariga ta'sir etib, yoshlarning musiqaga bo'lgan extiyojida estetik transformatsiyaga olib kelishini kuzatish mumkin. Zamondan-zamonga o'tib odamlarni ruhiga ma'nan ozuqa berib kelgan milliy-klassik musiqa janrlarga yoshlarning murojaatlari jiddiy qisqarishi g'arbning quloqni qomatga keltiruvchi rok yoki asl san'at asarini qayta buzilgan "Cover version" [6] janrlariga murojaatlarining ortishini 1-jadval dallillaymiz. Misol:

1-jadval Yoshlarning "Karvon" taronasiga murojaatining qiyosiy holati

Nº	Ijrochi	Musiqa nomi	Internetga joylangan vakti	Murojaat soni	Ijtimoiy portal nomi
1	Sherali Jo'raev [14]	Karvon	2018	30.165	Youtube
2	Sandjey [15]	Karvon (Cover version)	2018	4.386.369	

2. Dunyoning texnika taraqqiyoti inson hayotini farovonlashuviga imkon berdi. Ammo kino san'ati transformatsiyasi yoshlar fe'l-atvorida vatanparvarlik, mehnatsevarlik, sabrlik, do'stlik, kechirimlilik, bag'rikenglik kabi sifatilarni yaratishga xizmat qiluvchi janrlardan jizzakilik, qo'pollik, sabrsizlik, dangasalik, xiyonatkorlik uyatsizlik kabi sifatlarni rivojlantiruvchi kino janrlariga murojaati kuzatilmoqda.

3. Bugungi zamонавиј юшларни театр, опера, балет, музеј ва галереядан компьютер-video о‘йин ва тунги клублар орқали бадиий-естетик дунёоқараш трансформатсијасини ҳам кузатиш мумкин.

4. О‘збек ҳалқи таріксан миллий байрамлар: деhqонларнинг xирмон саълари, бадиий кечалар, миллий-диниј тадбирларда инсон fe’l-atvorining ijобиј сифатларини шакллантирувчи санат байрамлари, миллий аския кечаларидан ахлоqsiz, давлат, жамият ва инсон sha’нига қаратилган түрли xил жамоаларни конserти hazil-mutoyiba, аския трансформатсијасини ijtimoiylashuvini 2-jadval dallillaymиз. Misol:

2-jadval

Yoshlarning hazil-mutoyiba va askiyaga murojaatining qiyosiy holati

№	Jamoa yoki guruh nomi	Internet joylangan vakti	Murojaat soni	Ijtimoiy portal nomi
1	Askiya sayli [11]	2019	43.306	Youtube
2	Million [12]	2019	39.960.108	
3	Bravo [13]	2019	29.733.499	

5. XX аср компьютер технологијасини юратилиши келгуси асрга халокатли тараqqiyot omili bo‘ldi. Yoshlarda kitob, журнал ва газетага нисбатан kitobxonlik ва mutolaa madaniyat susayib, bugungi ijtimoiy tarmoq kanallarida түрли xил yengil-yelpi kundalik axborot kanal ва guruhlarning ko‘pligi mutolaa трансформатсијасини isbotlaydi.

6. Geosiyosiј jihatdan bir millatni ma’naviy qul qilishda ilk “Ommaviy madaniyat” importi инсон организми учун foydali миллий taomlardan инсон sog‘lig‘iga psixo-biologik mutelikni hosil etadigan fast-fudlarning is‘temoli yoshlarning oziq – ovqat трансформатсијаси hisobланади.

7. Insoniyat тараqqiyotida yoshlarning ijtimoiy-hayotiy imidji, uni fe’l-atvori, ахлоqi, ijtimoiy maqomini anglatuvchi omilga aylandi. Ammo globallashuv yoshlar hayotiga “ommaviy madaniyat”ning didsizlik ва axloqsizlikni targ‘ib qiluvchi illatlari, sport, oversayz, granj, eklektik, ich-keyim, kejual uslublari orqali kiyinish madaniyatida трансформатсија jarayoni sodir bo‘lmoqda.

8. Insoniyatni xayvonot olamidan farqlab turuvchi belgi so‘zlashuv-muomala madaniyatni bo‘lib, so‘zlashuv madaniyatni kishilarda ilk ta’ssurat qoldirishning eng muhim omili hisobланади. Odamlarning o‘zaro muloqotida xushmuomalalik esa so‘z san’ati hisobланади. Ammo texnika тараqqiyoti yoshlar muomalasida yangi so‘z va birikmalarning qo’llash adabiy til qoidalariga axloqsiz, qo‘pol so‘zlar, ITdan kelib chiqqan yangi qisqartma so‘zlar madaniyatni трансформатсијасига fundament qo‘ydi.

9. Yoshlarda kitobxonlik ва mutolaa madaniyatini susayib ketishi, ularni ongidagi fikr-mulohazalarini oq qog‘ozga tushirish madaniyatini mo‘rtlashuviga olib keldi. Yoshlarning sabrsizligi, shoshqoloqligi миллий-tabiyy yozma shakldan qog‘ozga xunuk va xato bilan yozish, ijtimoiy tarmoq ва elektron xatlarda o‘z ifodasini topmoqda. Jumladan: Sh-W, Ch-4 harf va belgilarni almashtirish holatida yozish madaniyatni трансформатсијасини kuzatilmоqda.

10. Emo (ing. emo - hissiy-emotsional) submadaniyat bo‘lib, tushkun kayfiyatdagи musiqiy janr orqali g‘arb jamiyatida шаклланган [7]. Bu submadaniyat vakillari jamiyat manfaatlariga zid миллий anana va odatlar, umuminsoniy qadriyat, ахлоqiy madaniyat normalarni mensimaslik, shaxsiy manfaatlarga berilib, sub’ektiv ehtiroslarni namoyish qilishga intilishdir. Mazkur harakatning yurtimizga kirib kelishi инсон huquq va erkinliklarini ta’minalashdagi erishilgan yutuqlar tufayli tadbirkorlikdagi yangi qatlaming шаклланishi, ayniqla sanatkorlarning yosh estrada yulduzlarining миллий ma’naviyatga salbiy ta’sir etuvchi оmmaviy chiqishlari, babs-munozaralari, ko‘p holatlarda sanat asarlarini yengil-yelpi, past savyada оmmaga havola etishi nafaqat sanatni, balki millatni миллий ideal va nafosatiga tahdid soladi. Shu ma’noda yoshlar ijtimoiy ruhiyatida tolerantlilik, qanoatlilik, sabrlilik, toqatlilik, chidamlilik, bag‘rikenglilik, yumshoqlilik, ishonchlilik, sahiylik, irodalilik, muruvvatlilik, xursandlilik, intizomlilik, aybdorlilik, kechirimlilik, uyatlilik, tavba qilish, rashqlilik, xushyoqishlilik, minnatdorlilik kabi ijobjiy ruhiy-hislatlardan jizzalik, qaxrlilik, g‘azablilik, nafrat, qayg‘u, g‘am, qo‘rquv, isyonkorlik, depressiya, xasadlilik, qanoatsizlik,

befarqlik, loqaydlik, umidsizlik, bezovtalik, qo‘pollik, ajablanish kabi salbiy ijtimoiy-ruhiy holatlarga transformatsiyasi tabiylashayotgani xususida ma’lumotlar bazasi hosil bo‘lmoqda [4, B. 285].

11. Xar bir millat o‘z o‘zligini saqlab qolish uchun urf-odat va an’analarini davomiy va merosiy shaklda milliy bayramlar, xirmon sayllar va turli xil tadbirlarda erkagu-ayolni fe’l-atvorida ijobiy sifatlarni rivojlantiruvchi milliy an’anaviy o‘yinlarni zamonaviy yoshlarimiz hayotida kompyuter video o‘yinlarga transformatsiyasini ko‘rshimiz mumkin.

12. Sport davlatni va xalqni dunyoga tez mashhur qiluvchi soha bo‘lib, mamlakatimizda sportni rivojlantirish va yoshlar hayotida sportga jalb uchun davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. Bugungi kunda jamiyatda ijtimoiy muammo sifatida sport bilan shug‘ullanadiganlardan sportni tomosha qiladiganlarga auditoriyasini oshayotgani sportni transformatsiyasini isbotlab beradi.

13. Yoshlarda axborotga nisbatan bo‘lgan munosabatining shiddatkorligi va istemolchilar jamiyatida yoshlar tomonidan har qanday axborotni video-rolik shaklida YouTube, Tik-Tok, Instagram, Telegram, Facebook kabi ijtimoiy tarmoqlarga joylanishi bilan shaxs daxlsizligi, inson, oila, jamiyat, davlat sha’ni va qadr-qimmatiga jiddiy salbiy ta’siri axborot madaniyatida transformatsiya jarayonini ko‘rish mumkin.

14. Axborot texnologiyalarning dunyo miqyosidagi moliyalashuvi kapital jamiyat yoshlarining bugungi kundagi ehtiyojini qulay va oson yo‘llar orqali internetda katta miqdordagi mablag‘ topishga ruhlantirdi. Natijada, o‘qituvchi, shifokor, quruvchi, oshpaz, ichki ishlar xodimi va arxitektor kabi kasblar o‘rniga internet axborot maydonida yoshlarning yangi kasbi: Blogger, Vlogger, Viner, TikToker, Follower, Hater, Clicker, Crush, Cheater, Troll kabi onlayn faoliyat olib boruvchi yangi avlodni paydo bo‘lmoqda.

TAKLIF

Sotsiologik tadqiqotdan kelib chiqqan holda yoshlarning milliy ma’naviyat va qadriyatlardan uzoqlashuvi, begonalashishini oldin olish maqsadidagi ijtimoiy - amaliy tavsiya va takliflar:

- yoshlarda (onlayn) kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishda Internet tizimidan yangi sayt, bloglarni ishlab chiqish;
- yoshlarda sportni tomosha qilishdan ko‘ra sport bilan shug‘llanish madaniyatini rivojlantirish zarur;
- yoshlar mobil qurilmasida milliy, ta’lim va tarbiyaviy dasturlarni shakllantirish va rivojlantirish kerak;
- mutolaa madaniyatni rivojlantirish uchun umumiyo‘rtta maktablarda adabiyot, tarbiya, tarix kabi fan dasturilariga eshitishga mo‘ljallangan audio dars programmasini shakllantirish zarur;
- o‘quvchi-talabalarini ta’lim muasassasidagi dars jadvali va o‘quvchi-talabalar ijtimoiy-ta’limiy maqomini bildirib turuvchi mobil qurilmasiga dastur yaratish kerak. Dastur orqali dars jadvalidan o‘quvchi-talaba va ota-onas xabardorligi, ijtimoiy-ta’limiy maqomi bo‘yicha dasturida ota-onas o‘z farzandini ta’lim muasassasida qanday ta’lim olayotgani xaqida onlayn xabar olib turadi;
- umumiyo‘rtta maktablarda miliy etnografik an’ana, qadriyat va o‘yinlarni amaliy darslashtirish kerak;
- yoshlarni ijtimoiy tarmog‘dagi faoliyatini “Ommaviy madaniyat”ga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, vandalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish lozim;
- o‘quvchi-talabalar uchun internet: ijtimoiy tarmog‘da fan-manbaa, audio-teatr, audio-kitob kanallarini tashkili bilan ijtimoiy tarmog‘lardagi yoshlar faoliyatini unumli qilish lozim;
- ixtisoslashtirilgan maktab va xususiy universitetlarning tashkil etish orqali ziyoli qatlamini demografiyasini o‘sishiga olib keladi;
- yoshlarda onlayn-tadbirkorlikni shakllantirish kerak;
- bola-onas-vatanparvalik dasturini rivojlantirish lozim;
- oilada bola tarbiyasini “odatlantirish” va mehnat terepiyasi orqali barkamol avlod muhitini shakllantirish zarur.

XULOSA

Har qanday halq va millat o‘zining ko‘p asrlik milliy odat va ananalarini bilan o‘zligini saqlab qolishi, taraqqiyotga milliy ma’naviyat bilan erishishi ijtimoiy qonuniyatdir. Shu ma’noda yoshlar

tarbiyasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar osnosida sog‘lom his-tuyg‘u, maqsad-mo‘ljallar aniq estetik tarbiyasini tashkili o‘ta muhim milliy vazifaga aylanishining guvohi bo‘ldik. Millat yoshlarining kelajagini belgilab beruvchi ma’naviy madaniyat va ma’rifat “Ommaviy madaniyat”, “Ommaviy qadriyat”, “Ommaviy tarbiya” kabi tahdidlardan himoyalash immunitetiga qaratilishi darkor. Milliy manfaat va maqsad, ezgu niyatlarni amalga oshirishga qodir bo‘lgan yangi avlodni tarbiyalash masalasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oya, aslida milliy madaniyatni rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi. Darhaqiqat, mamlakatimizda yoshlar tarbiyasi milliy ruhni uyg‘otish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlarda shakllantirish ijtimoiy taraqqiyotning yuksak darajasining shartidir.

Globallashuv sharoitida axborot texnologiyalarining ijtimoiy madaniyat, yani yoshlarning mediamadaniyat sifatida shakllanishi ta’lim va tarbiya sohasida ahloqiy tarbiyaga e’tiborni talab etadi. Yoshlar o‘zaro bevosita munosabatida nafosat va farosat qanchalik muhim bo‘lsa, aloqalarning onlayn odob, onlayn ahloq, onlayn fazilat shaklida yoshlarning ma’naviyatida madia tarbiyasini talab etmoqda. Bu masala onlayn qaramlik, onlayn qullikni (sindromi) oldini olish uchun onlayn fe’l-atvorda milliy an’ana, onlayn til kabi savodxonlik ma’rifatini shakllantirishga chaqiradi.

Har qanday jamiyatda ta’lim va tarbiya jarayoni uyg‘un bo‘lishi bilan birga muayyan tizim va funksionallik tartibida ishlashi maqsadga muvofiqdir. Bizning kuzatishlarimiz ta’lim tizimi faollashib borishi bilan birga OAV tarbiyada ta’limning mantiqiy davomi bo‘laolmay, kommersiyalashgan alohida bozor iqtisodiy siyosatida yengil-yelpi yosh sanat vakillarini “mashhurlashish kasalini” davolash ishi yoki “reklama biznesi”ga aylandi. Jamiyatimizda sog‘lom fikr, sog‘lom kuch ustuvorligida yoshlarni axborotning zararli ta’sirlaridan asrash, ularni har tomonlama xalqimizning munosib farzandi bo‘lib, yurtimiz dovrug‘ini yana dunyoga tanitishi uchun ta’lim sohasi vakillarining ma’naviy-ma’rifiy ishlari hal qiluvchi hayot-momot omiliga aylanmoqda [8, B. 229].

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Т.: Ўзбекистон, 2021. - 464 б.
2. Шаров А.В. Трансформация ценностей в меняющемся мире // Вызовы современности и ответственность философа. / Материалы «Круглого стола», посвященного всемирному Дню философии. Кыргызско-Российский Славянский университет. Под общ.ред. И.И. Ивановой Бишкек: 2003. С.85-88
3. Романова К.С. Трансформация ценностей как индикатор изменения общества и личности // Научный ежегодник Института философии и права. Уральского отделения Российской академии наук. 2008. Выпуск 8, С. 166.
4. Мирзахмедов Х.А., Эмоционаллашаётган ёшлар. // Социологияни ўқитиши ва социал тадқиқотларни ташкил этишнинг долзарб масалалари. Республика илмий – амалий конференцияси мақолалари тўплами. – Тошкент, 2020. – Б. 284-288.
5. Сундиев И. Россия-часть нового халифата? // Комсомольская правда. www.kp.ru – С.12-13
6. Кавер-версия. URL: <https://ru.wikipedia.org/wiki/Кавер-версия>
7. Эмо (субкультура) URL: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Эмо_\(субкультура\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/Эмо_(субкультура))
8. Мирзиёев Ш. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2- жилд, -Т.: «Ўзбекистон» НМИУ, 2018. - Б. 229.
9. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т-ҳарфи. Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”, 2004. – Б. 634.
10. Муаллиф диссертация тадқиқот сўровномасидан берган таҳлили (Мирзахмедов Х.А. Ёшларнинг толерантлик маданиятини шакллантириш ва ривожлантиришнинг социологик таҳлили. соц.ф.ф.док. (PhD) Дис. Т.: 2022)
11. Аския сайли.– URL: <https://www.youtube.com/watch?v=W7qO7WbwIDg> (мурожаат санаси:: 08. 09. 2022)
12. “MILLION” JAMOASI KONSERT DASTURI – 2019 // URL: <https://www.youtube.com/watch?v=jo3aLcacRow> (Мурожаат санаси: 08. 09. 2022).

-
13. “BRAVO” JAMOASI KONSERT DASTURI – 2019 // URL:
<https://www.youtube.com/watch?v=6Qy8IrumoiE> (Мурожаат санаси: 08. 09. 2022).
14. Sherali Jo'rayev - Karvon (jonli ijro) //
URL: <https://www.youtube.com/watch?v=s5bMNQeTzgo> (Мурожаат санаси: 08. 09. 2022).
15. Sanjay - Karvon // URL: <https://www.youtube.com/watch?v=lb53rKt8meM> (Мурожаат санаси: 08. 09. 2022).

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Zaretdinova Nesibeli,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Tarix fakulteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti
email: znesibeli@gmail.com

Xakimniyazova Mavluda,

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Tarix fakulteti Sotsiologiya yo‘nalishi 3-kurs talabasi
email: mavludaxakimniyazova167@mail.com

МЕХНАТ МИГРАЦИЯСИНинг DEMOGRAFIYAGА TA’SIRI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mehnat migratsiyasining demografik jarayonlarga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Mehnat migratsiyasi bugungi global jarayonlarning ajralmas qismi bo‘lib, u aholining soni, tarkibi va hududiy taqsimotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Asosan, mehnat migratsiyasining tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlariga, nikoh va ajralish jarayonlariga hamda aholi tarkibidagi yosh va jinsiy mutanosiblikka ta’siri tahlil qilingan, xususan, yosh, jins va oilaviy ahvol kabi omillarga e’tibor qaratilgan. Maqolada muhojirlar orasida yoshlarning ustunligi va bu guruhlar ichida ayollar va erkaklarning taqsimlanishi tahlil qilinadi. Mehnat migratsiyasining ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari bilan bir qatorda, uning demografik jarayonlarga uzoq muddatli ta’sirini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan. Ish migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish va demografik muvozanatni saqlash uchun amaliy tavsiyalarni o‘z ichiga oladi. Bu mavzu aholining demografik rivojlanishini o‘rganishda va davlatning migratsiya siyosatini shakllantirishda dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy sabablari ham ko‘rib chiqilgan, mehnat migratsiyasining mamlakat demografik, iqtisodiy tuzilmalariga ta’siri chuqurroq o‘rganilgan va bu jarayonlarni samarali boshqarish mexanizmlari muhokama qilingan.

Kalit so‘zlar: mehnat migratsiyasi, migrantlar, demografik omillar, demografik tuzilma, demografik muvozanat, demografik o‘zgarish, tashqi mehnat migratsiyasi.

Заретдинова Несибели,

доцент кафедры Социальных наук Исторического факультета
Каракалпакского государственного университета имени Бердаха
email: znesibeli@gmail.com

Хакимниязова Мавлуда,

студентка 3 курса направления Социологии Исторического факультета Каракалпакского
государственного университета имени Бердаха
email: mavludaxakimniyazova167@mail.com

ВЛИЯНИЕ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ НА ДЕМОГРАФИЮ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается влияние трудовой миграции на демографические процессы. Трудовая миграция является неотъемлемой частью современных глобальных процессов, которая существенно влияет на численность, состав и территориальное размещение населения. В основном анализировалось влияние трудовой миграции на рождаемость и смертность, процессы бракосочетания и развода, а также половозрастное соотношение населения, в частности, обращалось внимание на такие факторы, как возраст, пол и семейное положение. В статье анализируется преобладание молодежи среди иммигрантов и распределение женщин и мужчин внутри этих групп. Помимо социальных и экономических аспектов трудовой миграции, особое внимание уделяется изучению ее долгосрочного влияния на демографические процессы. Работа включает практические рекомендации по эффективному управлению миграционными процессами и поддержанию демографического баланса. Данная тема имеет актуальное значение при изучении демографического развития населения и формировании миграционной политики государства. Также были рассмотрены социально-экономические причины трудовой миграции, углубленно изучено влияние трудовой миграции на демографическую и экономическую структуру страны, обсуждены механизмы эффективного управления этими процессами.

Ключевые слова: трудовая миграция, мигранты, демографические факторы, демографическая структура, демографическое равновесие, демографические изменения, внешняя трудовая миграция

Zaretdinova Nesibeli,

Associate Professor of the Department of Social Sciences, Faculty of History, Karakalpak State University named after Berdakh
email: znesibeli@gmail.com

Khakimniyazova Mavluda,

3rd year student of the Sociology department, Faculty of History, Karakalpak State University named after Berdakh
email: mavludaxakimniyazova167@mail.com

THE IMPACT OF LABOR MIGRATION ON DEMOGRAPHY

ABSTRACT

This article examines the impact of labor migration on demographic processes. Labor migration is an integral part of modern global processes, which significantly affects the size, composition and territorial distribution of the population. The main analysis was made of the impact of labor migration on the birth and death rates, marriage and divorce processes, as well as the age and sex ratio of the population, in particular, attention was paid to such factors as age, gender and marital status. The article analyzes the predominance of youth among immigrants and the distribution of women and men within these groups. In addition to the social and economic aspects of labor migration, special attention is paid to the study of its long-term impact on demographic processes. The work includes practical recommendations for the effective management of migration processes and maintaining demographic balance. This topic is of current importance in the study of the demographic development of the population and the formation of the state migration policy. The socio-economic causes of labor migration were also considered, the impact of labor migration on the demographic and economic structure of the country was studied in depth, and the mechanisms for the effective management of these processes were discussed.

Keywords: labor migration, migrants, demographic factors, demographic structure, demographic balance, demographic change, external labor migration.

KIRISH

Mehnat migratsiyasi dunyo miqyosida aholining joylashuvi va tuzilmasiga ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon bo'ylab millionlab odamlar iqtisodiy imkoniyatlar izlab bir mamlakatdan boshqasiga ko'chib o'tmoqda. Aholi ko'chishi demografik muvozanatni buzishi mumkin. Migratsiya natijasida kelib chiqadigan asosiy o'zgarishlardan biri aholi sonining qisqarishi yoki ayrim hududlarda aholi zichligining oshishidir. Ishchi kuchining ketishi tug'ilish darajasiga ham ta'sir qilishi mumkin. Mehnat migratsiyasi asosan yosh va mehnatga layoqatli aholining ketishini anglatadi, bu esa manba mamlakatlarda qariyalar ulushining oshishiga va yosh avlod bilan qariyalar o'rtasidagi demografik nomutanosiblikka olib keladi. Mehnat migratsiyasining demografik o'zgarishlarga ta'sirini o'rganish va tahlil qilish kelajak uchun ahamiyatli bo'lib, global miqyosda barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun zarurdir.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda bilishning analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy tahlil usullaridan, shuningdek, o'zaro aloqadorlik, tizimlilik tamoyillaridan foydalanilgan.

Kastelsning hisoblashicha uzoq muddatl iistiqbolda transmilliy mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlik, davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik strategiyasining muhim yo'nalishi hisoblanadi, chunki ular iqtisodi tabaqalanishning global tizimini yaratishdan manfaatdordir [1]. Yana bir tadqiqotchi Ye.Ostergaard-Nilsen migratsiya siyosatining ikki turi: qabul qiluvchi davlatning migratsiya siyosati va jo'natuvchi davlatning migratsiya siyosati haqida yozadi [2].

D.N.Muydinovning fikricha "migratsiya jarayoni insonlarning hududiy harakatlari natijasida yuzaga keladigan jo'natuvchi" va "qabul qiluvchi" jamiyatning barcha sohalarida rivojlanish dinamikasini belgilaydigan ikkiyoqlama xususiyatga ega siyosiy jarayonning bir qismidir" [3].

Aholining yagona ijtimoiy tizimga bo'ysunishi demografik jarayonlarning ham yagona ish uslubi va ish jarayoniga bog'liqligini ta'minlaydi. Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tabiiy rivojlanish natijasi bo'lib, turli omillar tufayli rivojlanmoqda. Demografiya, iqtisodiyot, sotsiologiya, geografiya, tibbiyot, tarix kabi fanlar o'z mavzularini tahlil qiladi, ularning rivojlanishidan foydalanadi, vaqt o'tishi bilan ularga kerakli ma'lumot beradi.

Hozirgi kunda dunyoda migrantlar bilan bog'liq muammolarning siyosiyashuvi, ular bilan bog'liq muammolar, ushbu davlatlarda turli yo'llar bilan kirib kelayotgan migrantlar hisobiga ishsizlik darajasining yildan-yilga ortib borishiga sabab bo'layotgani, o'z jamiyatidan uzoqlashishi makon va zamon nuqtayi nazaridan shaxsni mutlaqa o'zgarishi, hatto o'z jamiyati uchun begonalashuviga olib kelishi mumkinligi, boshqa tomondan, o'z jamiyatining qadriyatlarini, an'analarini, tilini saqlab qolishga urinish va harakatlar u brogan joydagisi jamiyat uchun begonaligi, ushbu aksioma jamiyatda turli ijtimoiy-siyosiy muammolarni vujudga keltirmoqda [4].

ASOSIY QISM

Mehnat migratsiyasining demografik o'zgarishlarga ta'siri turli jihatlar orqali tahlil qilinishi mumkin. Quyida uning asosiy ta'sir yo'nalishlari keltirilgan:

Aholi soniga ta'siri. Mehnat migratsiyasi natijasida qabul qiluvchi davlatlarda aholi soni oshadi, ammo jo'natuvchi davlatlarda aholi soni kamayadi. Bu ayniqsa, yosh va ishga layoqatli aholining qisqarishiga olib keladi. Migrantlar odatda yirik shaharlarga ko'chadi, bu esa urbanizatsiya darajasining oshishiga olib keladi.

Demografik tarkibga ta'siri. Migratsiya, odatda, yoshlarga xos bo'lgani sababli jo'natuvchi davlatlarda yosh aholining ulushi kamayib, qarish jarayoni tezlashadi. Ko'p hollarda erkaklarning migratsiyasi natijasida jo'natuvchi davlatlarda ayollar sonining ko'payishi kuzatiladi.

Oilaviy struktura va tug'ilish darjasasi. Migratsiya tufayli ko'p oilalar uzoq masofada yashashga majbur bo'ladi, bu esa oilaviy bog'liqlik va bolalarga tarbiya jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Jo'natuvchi davlatlarda tug'ilish darjasasi pasayishi mumkin, chunki yosh va tug'ish yoshidagi aholining katta qismi migratsiyada bo'ladi.

Ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirlar. Mehnat migrantlarining yuborgan pullari jo'natuvchi davlatlardagi oilalarining iqtisodiy farovonligini oshiradi, ammo bu pulning noto'g'ri sarflanishi ham

muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Migratsiya tufayli mahalliy madaniyatlar o‘zgaradi, xalqaro madaniy ta’sirlar kuchayadi.

Uzoq muddatli ta’sirlar. Jo‘natuvchi davlatlarda malakali ishchi kuchining kamayishi iqtisodiyotga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Qabul qiluvchi davlatlarda turli millat vakillari birga yashab, ijtimoiy birlashuv va ko‘nikish jarayonlarini shakllantiradi.

Ammo, migratsiyaning salbiy ta’sirlari ham kuzatiladi. Masalan, yuqori malakali mutaxassislarning boshqa davlatlarga ko‘chishi “miya oqimi”ga olib keladi, bu esa demokratik institutlarni rivojlantirishda qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Bundan tashqari, migratsiya natijasida yuzaga keladigan oilaviy va ijtimoiy bo‘shliqlar ijtimoiy barqarorlikni zaiflashtirishi ehtimoli mavjud.

Mehnat migratsiyasining sabablari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va shaxsiy omillarga bog‘liq bo‘lib, ular quyidagicha tasniflanishi mumkin:

1. Iqtisodiy sabablari. Ishsizlik, past daromad va bu ko‘pgina davlatlarda ish joylarining yetishmasligi odamlarni xorijda ish izlashga undaydi va odamlar moliyaviy ahvolini yaxshilash uchun yuqori maosh taklif qiluvchi mamlakatlarga ketadilar. Kambag‘al davlatlardan iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga borishadi.

2. Ijtimoiy sabablari. Yashash sharoitlarini yaxshilash orqali sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa ijtimoiy xizmatlarning yuqori darajada bo‘lishi mehnat migrantlarini jalb qiladi. Migrantlar oilasini moddiy jihatdan ta’minlash uchun chet elda ishlashadi.

3. Siyosiy sabablari. Ayrim mamlakatlar chet el ishchilariga qulay ish sharoitlarini yaratadi va vizalarni soddalashtiradi.

4. Demografik sabablari. Aholi zichligi va cheklangan resurslar tufayli odamlar boshqa davlatlarga va rivojlangan mamlakatlar demografik qarish sababli yangi ishchilarni jalb qilishga muhtojligi sababinan da mehnat qilishga chiqib ketadi.

5. Shaxsiy sabablari. Oliy ma’lumotli va malakali mutaxassislar o‘z kasbiy ko‘nikmalarini qadrlaydigan mamlakatlarga boradilar. Ayrim shaxslar shunchaki yangi madaniyat va tajribalarni o‘rganish maqsadida ko‘chib ketadi.

6. Global tendensiyalar. Xalqaro hamkorlik va integratsiya jarayonlari mehnat migratsiyasini osonlashtiradi. Xalqaro aloqa va transport tizimlarining rivojlanishi migratsiya jarayonlarini tezlashtiradi.

BMT Kotibiyatining Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar departamenti ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda dunyo bo‘ylab migrantlar soni taxminan 281 million kishini tashkil qiladi. So‘nggi bir necha o‘n yilliklarda migratsiya, jumladan, jo‘nab ketish mamlakati va boradigan mamlakatlardagi siyosiy, ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar tufayli tobora murakkablashdi [5].

Mehnat migratsiyasi ko‘pincha iqtisodiy rivojlanishning muhim omili bo‘lsa-da, u bilan bog‘liq muammolar – ijtimoiy muvozanat buzilishi, ishchi kuchi oqimi yoki mehnat migrantlarining huquqiy himoyasi masalalari ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi (TMMA) ma’lumotlariga ko‘ra, 2023-yilning dekabr oyi holatiga ko‘ra xorijdagi o‘zbekistonlik mehnat migrantlarining soni qariyb ikki million kishini tashkil etadi – 1,452,300 nafar erkaklar (72.4%) va 547,7 ming nafarga yaqin ayollardir (27.6%). Bu davrda O‘zbekistondan ketgan mehnat migrantlarining aksariyati Rossiya Federatsiyasida qayd etilgan (60% yoki 1,2 million kishi), undan keyin Qozog‘iston (10% yoki 191,8 ming kishi), Turkiya Respublikasi (6% yoki 113,8 ming kishi), Koreya Respublikasi (3% yoki 68,1 ming kishi) va boshqa mamlakatlar (21% yoki 424,4 ming kishi) bo‘lgan (TMMA, 2024-yil). Mehnat migrantlarining asosiy qismi qurilish (52.7%) sanoat (12.8%), xizmat ko‘rsatish (9.7%), umumiy ovqatlanish (6.9%), savdo (6.7%), transport (4.3%) qishloq xo‘jaligi (4.1%) va boshqa tarmoqlarda (2.8%) faoliyat yuritgan (TMMA, 2024-yil). TMMA 2023-yilda ham O‘zbekistondan mehnat migrantlari uchun potensial tashqi mehnat bozorlarini diversifikatsiya qilish bo‘yicha sa’y-harakatlarini davom ettirdi hamda shu davrda O‘zbekistondan mehnat migrantlarini yollash bo‘yicha bir qancha mamlakatlardagi ish beruvchilar bilan 118 ta bitim va kelishuvga erishganliklarini ma’lum qildi. Ushbu shartnomalar

TMMA va asosan Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Litva, Yaponiya va boshqa davlatlardagi bandlik agentliklari o'rtaida tuzilgan. Bu kelishuvlar O'zbekistondan o'sha davatlarga mehnat migrantlarini yollashga qaratilgan.

Bundan tashqari, TMMA 2023-yilda tashkil etilgan chet elga ishga yuborish dasturlari orqali jami 38,401 kishiga chet elda ish bilan ta'minlashda yordam ko'rsatdi. Ularning ko'pchiligi Rossiya Federatsiyasiga (29,249 kishi), shuningdek, Koreya Respublikasi (4,882 kishi), Buyuk Britaniya (1,929 kishi), Qozog'iston (1,326 kishi) va boshqa mamlakatlarga (1,015 kishi) mehnat faoliyatini olib borishga yuborilgan (TMMA, 2024-yil) [6].

Mehnat migratsiyasi mamlakatdagi migratsiyaning asosiy omili bo'lib qolmoqda, chunki O'zbekiston hukumati xorijda ishlashni xohlovchi O'zbekiston fuqarolarining xavfsiz, muntazam va tartibli mehnat migratsiyasini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlarini davom ettirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2024-yil yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligiga (TMMA) 100 ming nafar ishchi va xorijiy tillarni biladigan malakali kasb egalarini tashkillashtirilgan tashqi mehnat migratsiyasi uchun tayyorlash bo'yicha topshiriq bergan edi (Prezident matbuot xizmati, 2024-yil). Shundan so'ng, TMMA 2024-yilda Germaniyada xorijiy ish beruvchilar bilan hamkorlikda 50,000 ta bo'sh ish o'rnlari uchun tanlov o'tkazishini e'lon qildi, jumladan, hamshira, yuk mashinasi haydovchisi, yuk mashinalari va qishloq xo'jaligi texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish, mehmonxona boshqaruvi, restoran, ish, turizm, hunarmandchilik, mexatronika, qurilish va boshqa sohalar (TMMA, 2024-yil (a)). 2024-yil mart oyida TMMA 2024-yilda Koreya Respublikasida 37,000 ga yaqin ish o'rnlari uchun tanlov asosida 100,000 ga yaqin kishi jalb etilishini e'lon qildi. Ishga qabul qilingan mehnat migrantlari ishlab chiqarish (22,248 kishi), qishloq xo'jaligi (6,858 kishi), xizmat ko'rsatish sohasi (5,403 kishi) va qurilish (2,898 kishi) sohalarida ish bilan ta'minlanadi (TMMA, 2024-yil(b)) [7].

Mehnat migratsiyasi aholining yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ko'nikishining shakli sifatida, ba'zan aholining ayrim qismining farovonligini oshirishning yagona imkoniyati sifatida yuzaga chiqadi. Unga turli kasb, ijtimoiy maqom, jins, yosh va talim darajasiga ega odamlar tortilgan.

Shu bilan bir qatorda Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari bo'yicha agentlik mamlakat fuqarolarining xorijda ishga joylashtirish uchun kvotalar ajratish masalalarini hal etadi. Bu to'g'risida tegishli mamlakatlar migratsiya xizmatlari bilan shartnoma va bitimlar tuzadi hamda ularning bajarilishini muvofiqlashtirib boradi.

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bosh boshqarmalari takliflariga muvofiq tashqi mehnat migratsiyasi jarayonlarini tahlil etadi, aholi mehnat migratsiyasini rivojlantirishning uzoq muddatli va o'rta muddatli prognozlarini hisobga olgan holda xorijiy fuqarolarga mamlakat hududida m ehnat faoliyatiga tasdiqnomalar beradi. Shuningdek, agentlik Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish hududiy organlari bilan birqalikda xorija yuborilgan fuqarolar mamlakatga qaytganlaridan keyin ishga joylashtirilishini tashkil etadi. Shu bilan birga, u xorijiy mamlakatlarning mehnat bozorini o'rganadi, chet ellarda mehnat faoliyatini amalga oshirishni xohlovchi fuqarolar to'g'risidagi maiumotlar bazasini shakllantiradi.

Shunday qilib, fuqarolarning chet ellardagi mehnat faoliyatida ularning huquqiy, ijtimoiy, sog'liqni saqlash masalalari qonuniy ta'minlanishi O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bilan birkatorda mintaqalardagi fuqarolarni chet ellarda ishga joylashtirish bo'yicha xo'jalik hisobidagi byurolar zimmasidadir.

Shuningdek, o'tgan yillar davomida mehnat migratsiyasida feminizatsiyalashuv jarayoni kuzatilib, migrantlarning 47,5 foizini – ayollar tashkil qilmoqda [8]. Ayollar soni oshishi – migrant bolalar sonining oshishini anglatadi. Bunda ayollar kuzatib boruvchi shaxs sifatida emas, tirikchilik vositalarining asosiy topuvchisi sifatida migratsiya qiladilar. Aksariyat holatlarda bu jarayon odam savdosi, majburiy mehnat, shahvoniy ekspluatatsiya, surrogat onalik kabi g'ayriqonuniy faoliyat bilan shug'ullanishlariga olib kelmoqda.

UNICEF tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda ota-onalarning migratsiyasi, xususan, bolaning ta’lim olishiga, sog‘lig‘iga, ovqatlanishigava ijtimoiy holatigi salbiy ta’sir ko‘rsatib, tushkunlik (depressiya) holatini keltirib chiqarishi aniqlangan. Uning zimmasiga uy yumushlarining yuklatilishi bolaning erta ulg‘ayishiga sabab bo‘ladi. Ko‘pincha, onalar 6 yoshga to‘limgan bolalarini tashlab, migratsiya qilishmoqda. Bu yillar bolalarning rivojlanishida muhim davr sanaladi. Chunki bu yosh ota-onalar bilan bolalar o‘rtasida munosabatlar o‘rnatish davri hisoblanadi. Tabiiyki ota-onasi ketgan bolalarning ruhiyatida o‘zgarishlar kuzatiladi. Xalqimiz orasida vasiylar qo‘lida qolgan farzandlar tarbiyasida tajovuzkorlikning har xil turlari: qoidalarga amal qilmaslik, mushlashish, kattalarga va tengdoshlarga nisbatan qo‘pollik, uydan ketib qolish, odamovi bo‘lib qolishlari uchrab turadi. Bolalarning qariyb 37 foizi qarindoshlari qaramog‘ida yashaydi. Vasiylar bolalarni tarbiya va nazorat qilishda turli usullardan foydalanishadi: bolalarning 12 foizi imtiyozlardan mahrum qilingan, 3 foizi telba, dangasa va shu kabi so‘zlar bilan kamsitilgan, bolalarning 8 foiziga nisbatan qo‘pol munosabatda bo‘lgani sotsiologik tadqiqotlarda aniqlangan [9]. O‘zbekistonda so‘nggi yillarda tashqi mehnat migratsiyasi tizimini tartibga solish borasidagi islohotlar O‘zbekiston yangi hukumatning asosiy vazifasiga aylandi. Mamlakatimiz rahbari qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish jarayonida mehnat migratsiyasiga ham katta e’tibor qaratmoqda. Davlat rahbari bu borada quyidagi fikrlarni bildirib o‘tadi: davlat tashrifi chog‘ida mehnat migratsiyasi bo‘yicha muhim kelishuvga erishdik. Bizning bu boradagi pozitsiyamiz aniq: odam qaerda bo‘lsa ham ishlashi, oilasi, bolachaqasini boqishi kerak [10].

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mehnat migratsiyasi demokratik o‘zgarishlarga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, biroq bu jarayonni ijobjiy yo‘nalishda rivojlantirish uchun davlat tomonidan migratsiya siyosati va fuqarolik ishtirokini mustahkamlovchi mexanizmlar joriy etilishi zarur. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik va tajriba almashinuvni bu jarayonni yanada samarali qilishga yordam beradi.

Mehnat migratsiyasi rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy jihatdan foyda keltirishi mumkin, lekin u demografik tarkibda muhim o‘zgarishlar keltirib chiqaradi. Shuning uchun davlatlar migratsiyani boshqarishning samarali usullarini qo‘llab, ijtimoiy va demografik oqibatlarni muvozanatlashga harakat qilishlari lozim.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Конвенция о правовом статусе трудящихся-мигрантов и членов их семей государств участников Содружества Независимых Государств от 14.11.2008года.// URL:<http://www.cis.minsk.by/reestr/ru/index.html#reestr/view/ tex-t?doc=2554>
2. Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда Женева: Международное бюро труда, 1991. Т.II.1957–1990. – С.1783.
3. Конвенции и рекомендации, принятые Международной конференцией труда Женева: Международное бюро труда, 1991. Т.І.1919–1956. – С.982
4. Глобальный договор о безопасной, упорядоченной и легальной миграции. Доклад Генерального секретаря ООН на Семьдесят пятая сессия Генеральной Ассамблеи ООН. //A/75/542 Distr.: General 26 October 2020 https://migrationnetwork.un.org/sites/default/files/docs/russian_0.pdf
5. Декларация о согласованной миграционной политике государств – участников Содружества Независимых Государств//URL: <http://cis.minsk.by/reestr2/doc/2289#text>.
6. Migratsiya vaziyatiga oid hisobot. 2023-yil oktabr-dekabr. O‘zbekiston migratsiya bo‘yicha xalqaro tashkilot (IOM). Mobillikti kuzatish matritsasi (MTM). Б 6,7 https://dtm.iom.int/dtm_download_track/56266?file=1&type=node&id=38711
7. Yanvar-mart 2024-yil migratsiya vaziyatiga oid hisobot. – Б.7. <https://uzbekistan.iom.int/sites/g/files/tmzbdl2566/files/Publications/ozbekiston-migratsiya-vaziyatiga-oid-hisobot-2024-yil-yanvar-mart.pdf>
8. Murtazayeva R. O‘zbekiston – jahon migratsiya jarayonlarining ajralmas qismi. Jamiat va innovatsiyalar jurnali. Special Issue - 2, №01 (2020). – Б.28.

9. YUNICEF tomonidan o‘tkazilgan «O‘zbekiston sharoitidagi migratsiyaning bolalarga tasiri» tadqiqotining toliq hisoboti (2019) <https://www.unicef.org/uzbekistan/en/reports/study-report-effects-migration-children-uzbekistan>

10. Mirziyoyev Sh.M. Millatlararo do‘slik va hamjihatlik – xalqimiz tinchligi va farovonligining hayotbaxsh manbai// Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1- jild. Toshkent: NMIU, 2018. – Б.474.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Mo‘minov Zokirjon,
Namangan davlat universiteti huzuridagi
TTRPMXQT va MO markazi direktori
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
e-mail: zokir_odiliy@mail.ru

IJTIMOIY MOBILLIK TURLARI: VERTIKAL VA GORIZONTAL IJTIMOIY MOBILLIK HAQIDA TUSHUNCHА



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Ijtimoiy mobillik sotsiologyaning muhim masalasidir. “Ijtimoiy mobillik” tushunchasi tarixan yangi tushunchadir va paydo bo‘lganiga bir asrdan kamroq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, sotsiologiya fani tomonidan o‘rganib chiqilgan barcha masalalar orasida alohida o‘rin tutadi. Ijtimoiy mobillik – ijtimoiy guruh, guruh tuzilishi va insonning kasbiy mobilligi toifasini anglatadi. Ijtimoiy mobillik deganda bir xil ijtimoiy shakl doirasidagi ijtimoiy guruh va qatlamlar tarkibining miqdoriy o‘zgarish jarayoni, shuningdek, insoniyatning ishlab chiqarish strukturasidagi o‘z garishlarni namoyon bo‘lishi tushuniladi. Xususan, bu odamlarning to‘rtta sinfining harakati va o‘zgarishi, odamlarning kasbiy pozitsiyalari, ya’ni bir sinfdan ikkinchisiga o‘tish, mobillik va bir professional pozitsiyadan ikkinchisiga o‘tish, bir professional sohadan boshqasiga o‘tish bilan namoyon bo‘ladi. Biz usbu maqolada ijtimoiy mobillik turlari: vertikal va gorizontal ijtimoiy mobillik haqidagi tushunchani keng yoritish ustidagi tadqiqotlarimiz to‘g‘risida so‘z yuritamiz.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy, shaxs, rahbar, jamiyat, mobillik, vertikal, gorizontal, omil, maqom, mavqe, qatlam, oqim.

Муминов Зокиржон,
Директор Центра ПиПКРПССО
при Наманганского государственного университета
доктор философии (PhD) по социологии, доцент
e-mail: zokir_odiliy@mail.ru

ВИДЫ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ: ПОНЯТИЕ О ВЕРТИКАЛЬНОЙ И ГОРИЗОНТАЛЬНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ

АННОТАЦИЯ

Социальная мобильность является важным вопросом социологии. Понятие социальной мобильности является исторически новым понятием и, хотя с момента его появления прошло менее века, занимает особое место среди всех вопросов, изучаемых социологической наукой. Социальная мобильность обозначает категорию социальной группы, групповой структуры и профессиональной мобильности человека. Под социальной мобильностью подразумевается процесс количественного изменения состава социальных групп и слоев в рамках одной и той

же социальной формы, а также проявление собственных взглядов на производственную структуру человечества. В частности, это проявляется в перемещении и изменении четырех классов людей, профессиональных позиций людей, то есть в переходе из одного класса в другой, в мобильности и переходе с одной профессиональной позиции на другую, из одной профессиональной сферы в другую. В этой статье мы поговорим о наших исследованиях, посвященных широкому освещению концепции типов социальной мобильности: вертикальной и горизонтальной социальной мобильности.

Ключевые слова: социальный, человек, лидер, общество, мобильность, вертикаль, горизонталь, фактор, статус, положение, слой, поток.

Muminov Zokirjon,
Director of the Center for R and ATMTSES
at Namangan State University
Doctor of Philosophy (PhD) in sociology, docent
e-mail: zokir_odiliy@mail.ru

TYPES OF SOCIAL MOBILITY: THE CONCEPT OF VERTICAL AND HORIZONTAL SOCIAL MOBILITY

ABSTRACT

Social mobility is an important issue in sociology. The concept of social mobility is a historically new concept and, although less than a century has passed since its appearance, it occupies a special place among all issues studied by sociological science. Social mobility refers to the category of social group, group structure and professional mobility of a person. Social mobility refers to the process of quantitative changes in the composition of social groups and strata within the same social form, as well as the manifestation of one's own views on the production structure of humanity. In particular, this is manifested in the movement and change of four classes of people, professional positions of people, that is, in the transition from one class to another, in mobility and the transition from one professional position to another, from one professional sphere to another. In this article we will talk about our research on broad coverage of the concept of types of social mobility: vertical and horizontal social mobility.

Key words: social, person, leader, society, mobility, vertical, horizontal, factor, status, position, layer, flow.

KIRISH

Ijtimoiy mobillik tushunchasi boshqa sotsiologik atama – ijtimoiy stratifikatsiya (tabaqlanish) bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy stratifikatsiyani tahlil qilish statistik nuqtai nazardan ijtimoiy guruhlarning differensiatsiyasi [1], mazmuni, shakli, tuzilishini sifatli tahlil qilishdir. Ijtimoiy mobillikni tahlili jarayon rivojlanishida amalga oshiriladi: miqdoriy ma'lumotlarni hisobga olgan holda ijtimoiy tuzilishning har bir darajasining o'zaro ta'siri, o'sish mexanizmlari, vaqt va makon, yo'nalishi va farqlash tezligi tahlil qilinadi. Ijtimoiy tabaqlanish tajribasi va ijtimoiy mobillik tadqiqotlari o'zaro bog'liq va bir-birini doimo to'ldirib turadi.

Hozirgida ijtimoiy mobillik ob'ekti bo'lgan tadqiqotlar asosan miqdoriy bo'lib, statistik tahlil usullarini qo'llash masala yechimini murakkablashtirdi. Mobillikni tadqiq qilishda ikkita an'anaga amal qilinadi:

- birinchisi bir xil guruh tuzilishi doirasida mobillikni o'rganish;
- ikkinchisi ijtimoiy ierarxiyaning o'zgarishi, ya'ni iqtisodiy yoki ijtimoiy maqom.

Zamonaviy ijtimoiy mobillikni o'rganishda bu ikki farq unchalik aniq emas va ijtimoiy munosabatlardagi o'zgarishlar odatda alohida kasblardagi o'zgarishlar bilan o'zaro o'rinn almashtadi.

ASOSIY QISM

Individual shaxsning ijtimoiy mavqeining boshlang'ich nuqtasi shaxsning boshlang'ich pozitsiyasi sifatida belgilansa va yakuniy nuqta shaxsning hozirgi mavqeい sifatida aniqlansa, unda

ushbu tadqiqotning asosiy masalasi hozirgi ijtimoiy mavqeiga faktor(manba)larning [2] ta'siri natijasidir. Olingan manbalarning ta'sir darajasi ijtimoiy tuzilmaning ochiqlik darajasini namoyon etadi hamda bu tadqiqotlarni avladlararo mobillik tadqiqotlari deb atash ham mumkin.

Shaxsiy ijtimoiy mavqeining boshlang'ich nuqtasi uning ijtimoiy kelib chiqishi, yakuniy nuqtasi esa shaxsning hozirgi mavqeい sifatida belgilansa, bu tadqiqot otaning ijtimoiy mavqeи va bolaning ijtimoiy mavqeи o'rtasidagi munosabatlarga bog'liq bo'ladi [3]. Ushbu turdagи tadqiqotlar avlodlararo mobillik deb atalib, bu jamiyatning mobillik darajasini aks ettiradi. Mobillik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy tuzilma shunchalik ochiqlik bo'ladi va mobillik darajasi qanchalik past bo'lsa, ijtimoiy tuzilma shu darajada berk bo'ladi. Biroq, hech bir jamiyat hech qachon mutlaqo ochiqlik yoki mutlaqo yopiq bo'lmaydi.

Ijtimoiy mobillik tajribalarining bosqichma-bosqich rivojlanishi bilan tadqiqotchilar turli mamlakatlarda ijtimoiy mobillik modellari va tendentsiyalarini umumiyl kontseptual asos bilan solishtirishga urinib, o'zaro birlikda muammolarini o'rgana boshladilar. Ijtimoiy mobillik muammolarini taqqoslashning asosiy muammosi-bu turli mamlakatlardagi ijtimoiy mobillik modellari bir xilmi yoki farqlimi degan savolga javob topishdir. Statistik usullarning rivojlanishi tufayli qiyosiy ijtimoiy mobillikni o'rganish qisqarib bordi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ijtimoiy mobillik sohasidagi turli tadqiqotlarning asosiy masalalari 1-jadvalda keltirdik.

1-jadval.


Ijtimoiy mobillikning asosiy muammolari [4]

Mobillik turlari	Tadqiqotning asosiy muammosi
Avlod ichidagi mobillik	Omil(faktor)lar shaxsiy ijtimoiy mavqega ega bo'lishga, belgilangan omillar va olingan omillar o'rtasidagi bog'liqlikka ta'sir qiladi.
Avlodlararo mobillik	Otaning ijtimoiy mavqeи ta'sir effekti, ijtimoiy tuzilmaning ochiqlik darajasini belgilaydi.
Qiyosiy ijtimoiy mobillik	Sanoat ishlab chiqarishining ustunligi bilan rivojlanishning ijtimoiy mobillik modellariga ta'siri, siyosiy tuzimlar va ijtimoiy mobillik munosabatlarida o'zaro bog'liqlikni namoyon etadi.

Ijtimoiy mobillik-bu jamiyat a'zolari bir ijtimoiy maqomdan ikkinchisiga o'tadigan hodisa. Masalan, jamiyatning ijtimoiy qatlamlari tarkibida o'tish yo'nalishi shaxs past ijtimoiy maqomdan yuqori ijtimoiy maqomga o'tganda yuqoriga ko'tarilishi mumkin, ammo shu bilan birga teskarisi bo'lishi ham mumkin, ya'ni – yuqori ijtimoiy maqomdan pastroqqa. Jamiyatning ayrim a'zolari bir kasbdan ikkinchi kasbga o'tadi, lekin ularning daromadi, obro'si va ijtimoiy mavqeи mohiyatan o'zgarmaydi (masalan, universitet o'qituvchisi ilmiy xodim sifatida ilmiy bo'limga o'tkaziladi). Shu munosabat bilan biz ijtimoiy oqimning yo'nalishi bilan belgilanadigan turli xil mobillik turlari mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ularning barchasi quyidagi rasmda keltirilgan [5] (1-chizma).

Rasmda ijtimoiy mobillikning ikki turi ko'rsatilgan bo'lib, ular-gorizontal va vertikal turga ajraladi. Vertikal ijtimoiy mobillik-bu shaxsning ijtimoiy mavqeining o'zgarishi, uning mavqeini oshishi yoki pasayishi bilan birga hosil bo'ladi. Shaxsning maqomi yuqoriga yoki pastga, vertikal mobillik ikkita kichik turni o'z ichiga oladi. Kishining yuqori sinf mavqeiga o'tishi ko'tarilgan ijtimoiy mobillik deb ataladi. Misol uchun yosh ayol oz maoshli kotiba lavozimida ish boshlagan va keyin uning iqtidoriga tashkilot rahbari lavozimini erishgan holatni ko'rish mumkin. Biror kishining yuqori darajadan past ijtimoiy maqomga o'tishi - bu ijtimoiy mobillikning pasayishi. Masalan, keyinchalik oddiy xodim bo'lishga majbur bo'lgan yirik korxona direktorining bankrot bolishi.

Bandlik tizimi jamiyat a'zolari uchun ma'lum bir ijtimoiy kasbiy maqomga ega bo'lish uchun lozim bo'lgan shartlar, usullar va tartiblarni belgilab beradi. Ijtimoiy mobillikning ma'lum bir modelida jamiyat a'zosi yetarli ijtimoiy mavqega ega bo'lishi mumkinmi degan savol tug'uladi. Bunda uning mavqeи jamiyat tomonidan taqdim etilgan bandlik imkoniyatlari va jamiyat a'zolarining shaxsiy fazilatlariga bog'liq bo'ladi.



1-chizma. Ijtimoiy mobillik turlari tasnifi


Pastga siljish (vertikal ijtimoiy mobillik) jamiyat a'zolarining ijtimoiy mavqeining pasayishini anglatadi, ammo bu harakat hali ham bugungi kunda ham mavjuddir. Birinchidan, jamiyat a'zolarining ijtimoiy mavqeining pasayishi ijtimoiy sabablarga bog'liq bo'lib, ular orasidan hududlardagi ishsizlikni ajratib ko'rsatish mumkin. Ikkinchidan, ijtimoiy maqomning pasayishi normal kasbiy maqomning bekor qilinishi (pensiya va boshqalar) tufayli yuzaga keladi. Jamiyat a'zolarining ijtimoiy mavqeining pasayishi, shuningdek, ma'muriy yoki sud jazosi kabi jamiyat a'zosiga nisbatan jazo choralar sababli vujudga keladi.

Ijtimoiy mobillikning yana bir turi gorizontal mobillikdir. Ushbu turdag'i mobillik - shaxsning ijtimoiy mavqeining o'zgarishi tushunilib, vertikal mobillikda bo'lgani kabi uning maqomining oshishi yoki pasayishiga olib kelmaydi. Misol uchun, gorizontal ijtimoiy mobillik, shaxs o'z kasbini mavqeい darajasi bilan bir xil darajadagi kasbga o'zgartirganda kuzatish mumkin bo'ladi.

Gorizontal mobillik-bu bir xil darajadagi ijtimoiy mavqega ega bo'lgan jamiyat a'zolari oqimidir. U vertikal oqimdan tubdan farq qilib, ijtimoiy maqomning ierarxik tuzilishi bilan bog'liqmas. Gorizontal ijtimoiy mobillik shaxslarning ijtimoiy mavqeiga ma'lum darajada ta'sir qilib, u ijtimoiy tuzilishdagi o'zgarishlarga yetarli ta'sir etadi.

Gorizontal mobillikka ta'sir etuvchi eng muhim ijtimoiy omil bu ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida kasbiy tuzilmaning o'zgarishidir. Gorizontal mobillikning bir turi geografik mobillik hisoblanadi. Bu shaxs yoki guruhning holatini o'zgarishni emas, balki avvalgi maqomini saqlab qolgan holda bir joydan ikkinchi joyga o'tishnidir. Bunga xalqaro va mintaqalararo turizm, shahardan qishloqqa va orqaga ko'chish, bir korxonadan ikkinchisiga o'tish misol bo'la oladi.

Agar joy o'zgarishiga holat o'zgarishi qo'shilsa, unda geografik mobillik o'z- o'zidan migratsiyaga aylanadi. Agar qishloq aholisi shaharga qarindoshlarini ziyorat qilish uchun kelsa, bu geografik mobillikdir. Agar u shaharga doimiy yashash uchun ko'chib kelsa va bu erda ishlsa, demak bu migratsiyadir hamda u o'z navbatida kasbini o'zgartirgan bo'ladi. Ijtimoiy mobillik ob'ekti kim ekanligiga qarab ijtimoiy mobillikning bo'linishi vujudga keladi, ya'ni individual shaxs yoki odamlar guruhlariga bo'linadi [6]. Shu munosabat bilan 2-chizmada keltirilgan ijtimoiy mobillikning quyidagi turlari ajratish mumkin.



2-chizma. Ijtimoiy mobillik turlarini mobillik obyekti bo'yicha tasniflash

Shunday qilib, ijtimoiy mobililik ikki turga bo‘linadi – guruh va individual. Individual ijtimoiy mobililik shaxslarning bir jamoadan boshqasiga o‘tishi bilan bog‘liqdir. Individual ijtimoiy mobililik kanallari armiya, masjid, mакtab, siyosiy va professional tashkilotlar, qadriyatlarni ishlab chiqaradigan va tarqatadigan institutlar, oila va nikohdan iborat. Ijtimoiy mobililik namunasi sifatida shuni ta‘kidlash lozimki, Boburning Hindistonni egallashi tan olingen yuqori mavqega ega bo‘lmagan Boburiylarning yuksalishiga olib keldi. Braxmanlar uzoq va qattiq kurash natijasida eng yuqori avlodga aylandilar. Qadimgi Yunonistonda Konstitutsiya qabul qilingandan so‘ng, o‘z-o‘zidan odamlar qullikdan ozod bo‘ldilar. Natijada ularning ijtimoiy mavqeい ko‘tarildi va sobiq qudlorlarning maqomi pastladi.

Ijtimoiy mobillikning ijtimoiy tuzilishiga ta’sir qiluvchi omillar mavjud [7], ular ijtimoiy tabaqalanish sistemasi, ijtimoiy uzluksizlik qoidalari, jamiyatning tabaqalanishidan iborat [8].

Jamiyat har doim ma’lum bir ijtimoiy maqom ierarxiyasiga muvofiq shakllanadi. Turli darajadagi ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan jamiyat a’zolari turli xil vakolatlar, obro’-e’tibor va boshqa ijtimoiy manbalardan foydalanadilar. Yashash sharoitidagi farqlar tufayli barcha darajadagi a’zolarning sevimli mashg’ulotlari va turmush tarzi bir-biriga doim mos kelavermaydi. Ushbu ijtimoiy tabaqalanish tizimi o‘z navbatida jamiyat a’zolarining ijtimoiy mobilligiga ta’sir ko‘rsatadi [9].

Agar ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi chegaralar qat’iy qo‘yilgan bo‘lsa hamda ijtimoiy tuzilma yopiq bo‘lsa, jamiyat a’zolarining ijtimoiy mobilligi bir xil ijtimoiy ierarxiya bilan kifoyalanadi, masalan, qadimgi Xitoyda irsiy tizim va Hindistondagi nasl tizimi. Aksincha, agar jamiyat majburiy ierarxik chegaralarga ega bo‘lmasa va ijtimoiy tuzilma nisbatan ochiq bo‘lsa, unda zamonaviy sanoat jamiyatlarida bo‘lganidek, jamiyatning ko‘p sonli a’zolari turli xil ijtimoiy vaziyatlar o‘rtasida mobilligini namoyon qiladi.

Ijtimoiy uzluksizlik prinsipi jamiyat a’zolari mavqeini belgilaydigan ijtimoiy me’yorlardir [10]. Jamiyatdagi har qanday bo‘sh o‘rin uning a’zosi tomonidan to‘ldirilishi lozim. Bo‘sh ish o‘rinlarini to‘ldirish muayyan talab va me’yorlarga amal qilib, u ustuvorligi jozibadorligi va o‘z-o‘zini ta‘minlashi bilan ajralib turadi. Agar jamiyat ustuvor shartlarga ko‘proq rioya qilsa, demak unda irsiy prinsip mavjud bo‘ladi. Agar u o‘zini o‘zi ta‘minlashga e’tibor bersa u holda mustaqil boshqrish printsipiga aylanadi. Albatta, irsiyat yoki mustaqil boshqrish tamoyilini batamom amalga oshiradigan jamiyatlar juda oz bo‘lib, ikkala tamoyil ham nisbatan teng darajada faoliyat yuritadigan jamiyatlar mavjud. Jamiyat a’zolari uchun o‘zini-o‘zi rag‘batlantirish prinsipi - ijtimoiy mobillik uchun teng imkoniyatlarni oolib berishi mumkin.

Jamiyatlarning tabaqalanishi va tashkilotlarning tabaqalanishi ham ijtimoiy mobillikka ta’sir o‘tkazadi [11]. Bunga-ijtimoiy urbanizatsiya misol bo‘la oladi. Albatta, bunda jamiyatni tabaqalanishi va tashkiliy tabaqalanishning ta’siri bu bilan chegaralanmaydi. Masalan, Xitoyning qirg‘oqbo‘yi hududlarida iqtisodiy rivojlanishning nisbatan yuqori darajasi tufayli bu hududlarga yaqin mamlakatlardan ko‘plab migrantlar harakatini kuzatish mumkin. Bundan, nisbatan yomon yashash sharoitlari hamda nisbatan past ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan jamiyat a’zolarini yaxshi jamoalar va tashkilotlarga kirishini kuzatiladi.

Tabiatdan iqtisodiy, tabiiy hamda ijtimoiy omillarga qo‘srimcha ravishda, muqobil omillar ham ijtimoiy mobillikka o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Ulardan biri ta’lim tizimining tuzilishi va qadriyatlari alohida ahamiyatga egadir [12].

Ta’lim tizimini ta’siri jamiyatda ijtimoiy mobillikni rivojlanishi uchun tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sotsiolog Vo Miller va boshqalar ijtimoiy mobillikni o‘rganishmaqsadida hududiy tadqiqotlarini amalga oshirdilar va ta’limni rivojlanish darajasi jamiyat a’zolarining mobilligini oshirishda muhim ahmiyat kasb etishini aniqladilar. Xozirgi sanoatlashgan jamiyatda uni a’zolarining ta’lim darajasi sezilarli darajada yaxshilandi va xodimlar soni sezilarli darajada oshdi [13].

Ijtimoiy mobillikdagi qadriyatlarning roli asosan jamiyat a’zolarini ehtiyojlari va qarashlarida aks etadi. Turli xil qadriyatlar jamiyat a’zolarini turli xil ijtimoiy maqsadlarga erishishga yo‘naltiradi va jamiyat a’zolaring xatti-harakatlari va ish natijalarini baholashga yo‘naltiradi [14].

Shunday qilib, ijtimoiy mobillikka ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganildi. Ushbu omillarning barchasini to'rt guruhga bo'lish mumkin:

- iqtisodiy;
- tabiiy;
- ijtimoiy va boshqalar, shu jumladan ta'lim va jamiyat qadriyatlari.

Yuqoridagi omillarning ta'siri jamiyat 'zolarining bir ijtimoiy sinfdan ikkinchisiga o'tishiga olib keladi, bu esa jamiyatning ijtimoiy mobilligining paydo bo'lishiga olib keladi [15].

Ijtimoiy mobillik sotsiologyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, boshqa muhim tushuncha – ijtimoiy tabaqlanish bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy mobillikning mohiyati jamiyatdagi individual yoki shaxslar guruhining – bir ijtimoiy qatlamdan boshqasiga o'tishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy mobillik fenomeni o'tgan asrning 20-yillarda paydo bo'lган, ammo u 50-60-yillarda sotsiologiya fanida alohida rivojlangan va mustaqillikka erishgan.

XULOSA

Ijtimoiy mobillik sotsiologyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, boshqa bir xil darajada muhim tushuncha – ijtimoiy tabaqlanish bilan chambarchas bog'liqdir. Ijtimoiy mobillikning mohiyati shundan iboratki, u jamiyatdagi individual shaxs yoki shaxslar guruhining – bir ijtimoiy qatlamdan boshqasiga o'tishidir. Ijtimoiy mobillik fenomeni o'tgan asrning 20-yillarda paydo bo'lган, ammo u 50-60-yillarda sotsiologiya fanida alohida rivojlanish va mustaqillikka erishgan.

Hozirgi vaqtida ijtimoiy mobillikning quyidagi asosiy turlari mavjud:

- individual va guruhlar;
- vertikal va gorizontal;
- avlodlararo va irsiy;
- tarkibiy va tashkiliy.

Ijtimoiy mobillikning har bir turi o'ziga xos xususiyatlar va ularga ta'sir etuvchi omillar bilan tavsiflanadi.

Ijtimoiy mobillik omillari orasida iqtisodiy, tabiiy, ijtimoiy va boshqalarni, shu jumladan jamiyatning ta'limi va qadriyatlarni ta'kidlash mumkin. Ushbu omillarning ta'siri jamiyat a'zolarining bir ijtimoiy sinfdan ikkinchisiga o'tishiga olib keladi hamda jamiyatning ijtimoiy mobilligining paydo bo'lishiga asos bo'ladi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Differensiatsiya (frans. differentiation, lot. differentia — farqlanish, farq), ixtisoslashish – dastlab bir xil elementlardan iborat bo'lган sistemaning sifat jihatidan farq qiladigan bir qancha qismlarga ajralib ketishi.
2. Faktor (lat. faktor “qilish, ishlab chiqarish”) - har qanday jarayonning sababi, manbasi, omili, harakatlantiruvchi kuchi, uning xarakterini yoki individual xususiyatlarini belgilaydi.
3. Bekmurodov M., Sodirjonov M. Human capital is made in the family. Economics, Education, 2020. <https://www.semanticscholar.org/author/Bekmurodov-Mansur-Bobomurodovich/1659034544>.
4. Bekmuradov M., Abdullayev A. International Journal of Advanced Science and Technology. – 2020. V No. 7, p. 2074.
5. Ван Фуцин. Обзор западных исследований социальной мобильности // Ланчжоуский академический журнал. 2008. №8. – С.203-205.
6. Ли Цзян. Исследование социальной мобильности нового поколения трудящихся-мигрантов // Селская экономика и технологии. 2018. №29 (14). – С. 184-186.
7. Социология. Автор: Шестак О.И., https://abc.vvstu.ru/books/u_sotsiology/page0009.asp.
8. Zokirjon Muminov. Ijtimoiy mobillik omilini tadqiq etishning metodologik jihatlari. Ижтимоий таддикотлар журнали. №1-maxsus son / 2024. 51-57b. <http://dx.doi.ora/10.5281/zenodo.10800128>.

-
9. Хуан Цзянсин. Социалная мобилность: содержание, влияющие факторы и меры // Журнал Путяńskiego университета. 2008. №15 (6). – С.25-27.
 10. Сұжан Ләй. О факторах, влияющих на социальную стратификацию и социальную мобилность // Экономика знаний. 2018. №10.
 11. Madaminov B. O‘zbek xalqi milliy qahramonlarining vatanparvarligini ahloqiy mohiyatini o ‘rganish //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 10. – С. 479-486.
 12. Baxodir M. The place and role of family physical education in govermental politics of uzbekistan //Thematics Journal of Sociology. – 2020. – Т. 4. – №. 12.
 13. Ли Сжичэн. О роли образования как фактора социальной мобилности в Китае // Социальные науки: полный текст. 2016. №11. – С. 298.
 14. Сүнэн Лян. Анализ образования как фактора социальной мобилности // Вестник университета Внутренней Монголии (Серия образование). 2009. №22 (3). – С. 47-50.
 15. Сұжан Ләй. О факторах, влияющих на социальную стратификацию и социальную мобилность // Экономика знаний. 2018. №10.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Узакова Зарина,
заместитель директора
Филиал НИЯУ МИФИ в г. Ташкенте,
доктор философии (PhD), доцент
e-mail: uzf-dba@mail.ru

ДОШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК ЭТАП ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА ДЕТЕЙ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

АННОТАЦИЯ

В статье социальный капитал рассматривается через призму дошкольного образования, который является значимым показателем в формировании человеческого капитала начиная с раннего возраста в особенности для детей с инвалидностью. На основе анализа действующих услуг по уходу за детьми дошкольного возраста предоставляемые, как государственным, так и частным секторами, позволяет сделать вывод, что определенная часть детей с инвалидностью остается исключенной из системы образования ввиду недостаточным развитием различных моделей услуг и ростом рождаемости детей с инвалидностью в отдельных регионах республики, актуальным остается вопрос социального сиротства.

Ключевые слова: поставщик, услуги по уходу за детьми, дошкольное образование, дети с инвалидностью, негосударственные дошкольные образовательные организации, центры раннего развития.

Узакова Зарина,
Тошкент шаҳридан “ММФИ” миллый
тадқикот ядро университети
филиалининг директор ўринбосари
фалсафа доктори (PhD), доцент
e-mail: uzf-dba@mail.ru

МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ШАКЛЛАНИШ БОСҚИЧИ СИФАТИДА НОГИРОНЛИГИ БОР БОЛАЛАРНИ ИЖТИМОЙ КАПИТАЛИ

АННОТАЦИЯ

Мақолада ижтимоий капитал мактабгача таълим призмаси орқали кўриб чиқилади, бу инсон капиталини ёшлигидан шакллантиришнинг муҳим жиҳати ҳисобланади, айниқса ногиронлиги бор болалар учун шакллантиришда муҳим кўрсаткичdir. Ҳам давлат, ҳам хусусий сектор томонидан тақдим этилаётган мавжуд мактабгача ёшдаги болаларни парвариш қилиш хизматлари таҳлил қилиган, ногиронлиг бор болаларни маълум бир қисми турли хил хизмат кўрсатиш моделларининг етарли даражада ривожланмаганлиги ва республиканинг айrim худудларида ногиронлиги бор болалар туғилишининг қўпайиши туфайли таълим

тизимидан четлатилган деган хуносага келишимизга имкон берди, ижтимоий етимлик масаласи долзарбилигича қолмоқда.

Калит сүзлар: провайдер, болаларни парвариш қилиш хизматлари, мактабгача таълим, ногирон болалар, нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари, ерта ривожланиш марказлари.

Uzakova Zarina,
Tashkent branch of NRNU MEPhI
Deputy director
doctor of philosophy (PhD), dotsent
e-mail: uzf-dba@mail.ru

PRESCHOOL EDUCATION AS A STAGE IN THE FORMATION OF THE SOCIAL CAPITAL OF CHILDREN WITH DISABILITIES

ABSTRACT

In the article, social capital is considered through the prism of preschool education, which is a significant indicator in the formation of human capital from an early age, especially for children with a disability. Based on the analysis of existing preschool child care services provided by both the public and private sectors, it can be concluded that a certain part of children with disabilities remains excluded from the education system due to the insufficient development of various service models and an increase in the birth rate of children with disabilities in certain regions of the republic, the issue of social orphanhood remains relevant.

Keywords: provider, child care services, preschool education, children with disabilities, non-governmental preschool educational organizations, early development centers.

ВВЕДЕНИЕ

К дошкольному образованию относятся услуги, оказываемые в детских садах, яслях, дошкольных учреждениях, центрах по уходу за детьми и в других подобных учреждениях[1]. Дошкольное образование-это нечто большее, чем дошкольная подготовка, поскольку оно само по себе является полноценным образованием, цель которого заключается не только в том, чтобы подготовить детей к школе, но и к жизни, подобно тому, как этому способствуют остальные элементы образовательной системы.

Дошкольное образование как одна из первых ступеней системы образования является фундаментом для социализации ребенка в общество и формирования и развития человеческого капитала. Системы дошкольного, школьного, высшего и средне-специального образования, научных и культурных учреждений – это четыре взаимосвязанных звена будущего Ренессанса. Воспитателей детских садов, школьных учителей, профессоров и преподавателей, научную и творческую интеллигенцию мы считаем четырьмя важнейшими опорами в формировании эпохи нового Возрождения, - отметил Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиев[2]. Формирование человеческого капитала начинается с рождения человека и продолжается в течение всей жизни и первая жизненная фаза берет начало в дошкольном возрасте и первое сообщество, в которое человек включается - это семья. И если человеческий капитал родителей высокий, то помогает ребенку познать окружающую среду, способствует процессу обучения, соответственно социальный капитал ребенка в последующем расширяется и позволяет в более взрослом возрасте устанавливать хорошие социальные связи.

Американский социолог Рональд Берт считал, социальный капитал является контекстуальным дополнением человеческого капитала и метафора социального капитала заключается в том, что люди, которые добиваются лучших результатов, каким-то образом имеют лучшие связи[3]. Крупнейший японский предприниматель, основатель и бывший президент фирмы «Сони», президент японской ассоциации раннего развития детей, М. Ибука пишет, что исследования физиологии мозга, с одной стороны, и детской психологии, с другой,

показали, что ключ к развитию умственных способностей ребенка – это его личный опыт познания в первые три года жизни, то есть в период развития мозговых клеток. Ни один ребенок не рождается гением, и ни один – дураком. Все зависит от стимуляции и степени развития головного мозга в решающие годы жизни ребенка. Это годы с рождения до трехлетнего возраста. В детском саду воспитывать уже поздно[4].

В период дошкольного возраста идет формирование костно-мышечной системы, биохимических механизмов, всех подсистем организма как основы здоровья и силы. В этом возрасте ребенок осваивает основы культуры и норм общения - язык, речь, основные жизненные принципы поведения и общения. В этот же период формируются чувственный мир, психомоторные реакции и устойчивость нервной системы[5].

На сегодняшний день Республика Узбекистан прилагает значительные усилия для расширения доступа к дошкольному образованию для детей от 3 до 6 лет в рамках более широких образовательных реформ. Следует отметить, что за последние пять лет количество дошкольных образовательных организаций увеличено с 5211 до 29420. Государство оказывает содействие воспитанию детей через сеть яслей и детских садов. Существуют государственные и коммерческие учреждения воспитательных услуг.

По состоянию на июль 2023 года открыто 6 598 государственных, 833 частных, 1 313 негосударственных ДОО на основе ГЧП и 20676 семейных негосударственных дошкольных образовательных организаций. Охват дошкольным образованием детей 3-7 лет достиг 74%, охват дошкольной подготовкой шестилеток - 93%. Также в результате строительства 438 новых государственных дошкольных образовательных организаций создано 60 335, реконструкции 2064 дошкольных образовательных организаций создано 13 980 новых мест. В рамках проекта «Акльвой» в 142 махаллях республики, где отсутствуют дошкольные образовательные организации, сформировано 387 мобильных групп, охвативших около 7 тысяч детей[6].

Однако расширение услуг дошкольного образования сталкивается с серьезными проблемами, включая их доступность для детей с инвалидностью. Существует неравенство в доступности услуг дошкольного образования между городскими и сельскими районами, при этом сельские районы часто имеют ограниченный доступ. Так «охват детей с инвалидностью детского сада и школьного возраста образованием является самым низким в Кашкадарьинской, Самаркандинской, Сурхандарьинской, Ташкентской областях». В республике 16,5 тыс. таких детей не ходят в школу, 17,5 тыс. - в детский сад, еще 11 тыс. детей учатся в специальных школах-интернатах вдали от родителей[7].

Спрос на услуги по уходу за детьми превышает предложение во многих регионах, что приводит к длинным спискам ожидания в государственных детских садах. Кроме того, качество услуг значительно различается у разных поставщиков. Государственные детские сады часто сталкиваются с проблемами, связанными с финансированием, инфраструктурой и кадровым обеспечением. Существует необходимость в стандартизированном обучении и профессиональном развитии для работников дошкольного образования, чтобы обеспечить постоянное качество ухода и образования.

МЕТОДОЛОГИЯ.

В статье автор опирается на научные исследования американского социолога Роналда Берта о взаимосвязи социального и человеческого капитала, концепции Президента Республики Узбекистан Ш.Мирзиева[8] о развитии человеческого капитала являющийся одним из семи приоритетов Стратегии развития Узбекистана. Целью исследования является анализ уровня предоставления дошкольного образования для детей с инвалидностью и изучение действующих моделей и поставщиков услуг по уходу за детьми в Республике Узбекистан.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

На сегодняшний день проблема социального сиротства для детей с инвалидностью является актуальной для нашей республики, так как согласно данным Агентством статистики при Президенте Республики Узбекистан детей с инвалидностью по состоянию на 2023 год составляет 161 901 тысяч человек (табл.1) и составляет 17 % от общего

количества лиц с инвалидностью. Самая большая численность детей с инвалидностью зафиксирована в Самаркандской, Кашкадарьинской, Сурхандарьинской и Ферганской областях [9]. Основная часть детей или не посещает дошкольные образовательные учреждения или оставлены родителями в специализированных учреждениях интернатного типа.

Таблица 1**Распределение лиц с инвалидностью по регионам в 2023 г.**

	Численность лиц с инвалидностью, всего	в том числе:				человек
		Дети с инвалидностью	1 группа	2 группа	3 группа	
Республика Узбекистан	941946	161 901	87314	631518	61213	
Республика Каракалпакстан	65110	10 426	7073	45909	1702	
<i>области:</i>						
Андижанская область	80624	14 965	7544	51212	6903	
Бухарская область	54713	6 041	4509	41161	3002	
Джизакская область	39889	8 515	3478	25718	2178	
Кашкадарьинская область	95284	19 359	7921	63203	4801	
Навоийская область	42936	6 654	4121	30151	2010	
Наманганская область	75562	12 272	5925	51809	5556	
Самаркандская область	101632	19 779	11400	63809	6644	
Сурхандарьинская область	76833	14 048	7355	51141	4289	
Сырдарьинская область	33719	5 888	2228	24600	1003	
Ташкентская область	68801	10 582	6148	44830	7241	
Ферганская область	88645	14 821	8111	58341	7372	
Хорезмская область	55656	9 735	6499	37302	2120	
город Ташкент	62542	8 816	5002	42332	6392	

Основная цель ухода за детьми - обеспечить безопасность детей, пока родители работают. Качественный уход за детьми должен быть стимулирующим и увлекательным, а также предоставлять детям возможности для игрового обучения и развития физических, когнитивных и социально-эмоциональных навыков.

Типы условий: уход за детьми может осуществляться в различных условиях и в разных странах называется по-разному. Типы ухода за детьми, как правило, делятся на три категории: уход на дому, уход в центре и семейные и другие неформальные договоренности.

Домашний уход: в широком смысле домашний уход делится на два типа:

- уход, осуществляемый кем-то в доме ребенка, кого иногда называют няней или помощницей по хозяйству;
- уход за группой детей в доме опекуна.

Централизованный уход: центры, предоставляющие уход за маленькими детьми, обычно называются дневными яслями, детскими садами. Дошкольные учреждения и детские сады также могут выполнять такую функцию ухода за детьми и будут учитываться, если они специально спроектированы с учетом потребностей работающих родителей. Этот тип предоставления услуг может предоставляться различными субъектами (включая правительство, сообщество, родительские кооперативы, работодателей, неправительственные организации (НПО) и религиозные организации) и осуществляться с помощью различных моделей, включая мобильные ясли и использование пространств на неформальных рабочих местах.

Семейные и другие неформальные договоренности: это договоренности, которые возлагают ответственность за уход на члена семьи. Этот тип ухода может быть или не быть вознагражденным.

В ходе исследования определены Агентства предоставляющие услуги нянь с 1 года до 7 лет в городе Ташкенте: Агентство «Family Service», Няня-центр «Happy kids», Кадровое агентство «Baby sitter», Агентство «NYANYA.UZ», Single Family Service, ООО «Meri Poppins». Все агентства отвечают, что готовы представить специалиста по уходу с ребенком с инвалидностью на основе договора о сотрудничестве и при определенной оплате труда, которая завышена и не подъемна для средней статистической семьи.

Частный сектор представляет услуги по уходу за детьми от 6 месяцев до 7 лет, это центры ранней подготовки, частные детские сады имеющие группы дневного ухода за ребенком и принимают детей с 1 года до 7 лет. Центры раннего развития детей и частные детские сады ясельные группы предлагают пробные занятия, с участием родителей услуги которых начинаются от 600 тысяч сум и выше.

Следует отметить, что в республике внедрены принципы инклюзивного образования и новые формы поддержки детей с инвалидностью, в том числе государственная многопрофильная специализированная дошкольная организация с реабилитационным центром «Имкон» в городах Нукус, Карши и Кибрайском районе. Учитывая большую потребность, запись в реабилитационный центр Имкон осуществляется за два месяца вперед.

В Касансайском районе Наманганской области и Тайлакском районе Самаркандской области, в 2021 году Министерством дошкольного и школьного образования при поддержке Всемирного банка созданы Центры раннего развития, которые обеспечивают дошкольное образование для 4200 детей из бедных семей и с инвалидностью. Центр работает по трем направлениям:

- первая модель посещения на дому, при которой 20 педагогов выезжают в дома детей, проживающих в отдаленных горных районах, и проводят обучение на месте;
- вторая модель – игровые группы, когда занятия проводятся в самом центре;
- третья модель касается детей, нуждающихся в инклюзивном образовании.

Также Всемирный банк утвердил льготный кредит в размере 100 млн долл. для реализации проекта «Инновационная система социальной защиты для интеграции уязвимых групп населения» (INSON) в Узбекистане. Цель проекта – улучшить доступ и качество социальных услуг для людей из уязвимых групп населения. Проект окажет содействие в развитии правовых и институциональных основ сектора «экономики ухода» в Узбекистане. Он также будет способствовать улучшению доступа к востребованным социальным услугам, которые все еще остаются недоступными для тысяч людей, включая пожилых граждан, людей с инвалидностью, лиц, пострадавших от насилия в семье, а также социально уязвимых детей» [10].

Следует отметить общественную организацию «Белый парус», осуществляющий свою деятельность в соответствии с проектом, финансируемым клиникой Международной индийско-узбекской клиники «Eurosun Healthcare». Цель которой поддержка детей дошкольного возраста с задержками в развитии, помочь им адаптироваться в обществе и оказать медицинскую помощь на безвозмездной основе, предпочтение отдается детям с инвалидностью.

На сегодняшний день в республике действуют и частные инклюзивные детский сады, стоимость которых начинается от 5 миллионов и выше и коррекционные центры в рамках сети данных детских садов.

В Республике Узбекистан наряду с частным сектором государством в соответствии с Постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан №46 от 25 января 2024 года «О мерах по организации обучения детей с особыми образовательными потребностями и совершенствованию системы их реабилитации» [11] организованы группы «Гамхурлик» для детей от 3 до 7 лет в государственных многопрофильных специализированных дошкольных образовательных организациях с целью обеспечения ухода, обучения для детей с особыми образовательными потребностями на короткий период времени (до 4 часов), которые не были приняты в специализированные учебные заведения, для содействия их адаптации в обществе и осуществляются бесплатно.

ВЫВОДЫ

Таким образом, в сегменте дошкольного образования для детей с инвалидностью имеются поставщики услуг по уходу за ребенком и в основном это частный сектор, который предоставляет комплексный уход в зависимости от потенциала и развития самого ребенка.

В связи с этим актуальными остаются вопросы поднятые Президентом страны на селекторном совещании по анализу проделанной работы в сфере социальной защиты и приоритетным задачам на 2025 год [7]:

в целях сокращения социального сиротства и развития инклюзивного образования первоочередное для детей находящихся в интернатных учреждениях содействовать со стороны государства и субсидировать процесс открытия групп дневного ухода. Соответственно это требует создание отдельной программы и индивидуальной карты ребенка по уходу за ребенком с инвалидностью в условиях дневного ухода.

до 1 февраля 2025 года открытие инклюзивных образовательных групп в детских садах, по одной в каждом районе с привлечением частного сектора. Для реализации данной формы обучения требуется разработка порядка, кто и на каких условиях может оказывать услуги, так как работа с детьми с инвалидностью требует опыта и понимания и широкого спектра специалистов.

Также для совершенствования процесс предоставления услуг по уходу за детьми предлагается:

создать электронную платформу через edo.gov.uz, где родители смогут ознакомить не только с перечнем действующих частных и государственных и инклюзивных садов, но и с центрами раннего развития с краткой информацией о стоимости и возможностях центра услуг;

расширить спектр услуг предоставляемые квалифицированные услуги по уходу за ребенком от 0 до 3 лет.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. <https://www.csee-etuce.org/ru/razdely/obrazovanie-i-obuchenie/225-2014-09-26-15-09-20>
1. 2.<https://www.csee-etuce.org/ru/razdely/obrazovanie-i-obuchenie/225-2014-09-26-15-09-20>
2. <https://president.uz/ru/lists/view/5698> 15.11.2022 год.
3. Burt S.R. The social capital of structural holes. Часть 7. – С. 1
4. Масару Ибука. После трех уже поздно. – М.: Издательство Студии Артемия Лебедева, 2011. – С.-1
5. В.Т. Смирнов И.В. Сошников и др. Человеческий капитал: содержание и виды, оценка и стимулирование. – М.: Машиностроение–1 2005. – С. – 130
6. <https://www.uzedu.uz/ru/news/1134>

7. Видеоселекторное совещание Президента Республики Узбекистан по анализу проделанной работы в сфере социальной защиты и приоритетным задачам на 2025 год.
@Press_Secretary_Uz

8. <https://president.uz/ru/lists/view/5109> Шавкат Мирзиёев: Наш народ доверяет нам самое дорогое – детей. 05.04.2022

9. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2024/05/24/uzbekistan-to-improve-access-and-quality-of-social-services-for-vulnerable-people-with-world-bank-support>

10. <https://lex.uz/uz/docs/6779571> Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 25 января 2024 года «О мерах по организации обучения детей с особыми образовательными потребностями и совершенствованию системы их реабилитации».

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Alimuxamedova Nodira,

Falsafa doktori (PhD)

«TIQXMMI» MTU

email:alimukhamedova.n@gmail.com

«MILLAT» HODISASINI TUSHUNISHDA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada integratsiya jarayonlari kontekstidagi etnomilliy qadriyatlar va identifikatsiya to‘qnashuvlari, millatlararo munosabatlarning keskinlashib borishi natijasida etnik faktorni faollashuvi, hamda ushbu hodisaning mazmun-mohiyatini anglash maqsadida yangi ilmiy-nazariy yondashuvlar shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Urf-odat va an’analarni qayta tiklashga urinishlar, «xalq ruhi»ni izlashdan tortib milliy davlatchilikni tiklash istagining asosiy sababi globallashuv jarayonlari bo‘lib, avj olib borayotgan integratsiya, madaniyatlar unifikasiyasini va qadriyatlar diffuziyasi etnomilliy konsepsiyalarning ilmiy paradigma sifatida ijtimoiy gumanitar fanlarda muhim ahamiyat kasb etishi bilan bog‘liq. Bugungi kunda doimiy, mutlaqo «izchil» xizmat qiladigan klassik nazariya yaratilmaganligi, «millat» hodisasining mohiyati, milliy identifikasiya jarayonlarini kuchaytirish mexanizmlari masalalarini o‘rganishda ilmiy metodlarning qo‘llanishi har doim ham yetarlicha natijalar bermasligi ham yangi paradigmal yondashuvlarni taqozo etadi.

Kalit so‘zlar: globallashuv, etnos, millat, milliy o‘zlikni anglash, paradigma, etnomilliy konsepsiylar, primordializm, konstruktivizm, instrumentalizm.

Алимухамедова Нодира,

Доктор философии (PhD)

«ТИИМСХ» НИУ

email:alimukhamedova.n@gmail.com

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДЫ К ПОНИМАНИЮ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ПОНИМАНИЮ ФЕНОМЕНА «НАЦИЯ»

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются конфликты идентичности и этнонациональных ценностей в контексте интеграционных процессов, активизация этнического фактора в результате эскалации межэтнических отношений, а также формирование новых научно-теоретических подходов к пониманию сущности этого явления. Попытки возродить традиции и обычии, от поиска «народного духа» до стремления восстановить национальную государственность, основной причиной которых являются процессы глобализации, растущая интеграция, унификация культур и диффузия ценностей, связаны с важностью этнокультурных концепций как научной парадигмы в социально-гуманитарных науках. В настоящее время не создана

классическая теория, служащая перманентно, абсолютно «последовательно», сущности феномена «нации», использования научных методов в изучении механизмов усиления процессов национальной идентификации, она не всегда дает достаточные результаты, также требует новых парадигмальных подходов.

Ключевые слова: глобализация, этнос, нация, национальная идентичность, парадигма, этнонациональные концепции, приморданизм, конструктивизм, инструментализм.

Alimukhammedova Nodira,

Doctor of Philosophy (PhD)

«TIIAME» NRU

email:alimukhamedova.n@gmail.com

SCIENTIFIC-THEORETICAL APPROACHES TO UNDERSTANDING THE PHENOMENON OF «NATION»

ABSTRACT

The article examines conflicts of identity and ethnonational values in the context of integration processes, the activation of the ethnic factor as a result of the escalation of interethnic relations, as well as the formation of new scientific and theoretical approaches to understanding the essence of this phenomenon. Attempts to restore customs and traditions, from the search for the «spirit of the people», the main reason for the desire to restore national statehood is the processes of globalization, and the growing integration, unification of cultures and diffusion of values are associated with the importance of ethno-national concepts as a scientific paradigm in social and humanitarian sciences. To date, no classical theory has been created that would serve as a permanent, absolutely «consistent» one. The use of scientific methods in studying the essence of the «nation» phenomenon and the mechanisms of strengthening national identification processes does not always yield sufficient results and requires new paradigmatic approaches.

Key words: globalization, ethnicity, nation, national identity, paradigm, ethnonational concepts, primordialism, constructivism, instrumentalism.

KIRISH

Globallashuv tufayli jadallahib borayotgan integrasiya jarayonlari natijasida an'anaviy madaniy, xududiy va milliy chegaralar asta-sekinlik bilan yemirilib bormoqda. Etnomilliy qadriyatlar va identifikatsiya to‘qnashuvlari esa asrimizning asosiy tendensiyasi bo‘lib kelmoqda. O‘tgan asrning ikkinchi yarmidan xalqlarning o‘zligini va etnomadaniyatini saqlab qolishga intilishlari ortishi, millatlararo munosabatlarning keskinlashib borishi natijasida barcha qit’alarda «etnik uyg‘onish», «etnik portlash» yoki «etnik paradoks» – etnik faktorni faollashivi kuzatildi va ushbu hodisaning mazmun-mohiyatini anglash maqsadida yangi ilmiy-nazariy yondashuvlar shakllanishiga olib keldi. «Etnik paradoks» bu bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘lgan ikkita qarama-qarshi tendensiya: bir tomonidan, integratsiya jarayonlari kuchayishi, dunyo bo‘ylab millionlab odamlar erkin harakati – mobillik, migratsiya jarayonlarining ortib borishi kuzatilsa, boshqa tomonidan, xalqlarning o‘zligini anglash, millatlararo munosabatlari inqirozining kuchayishi kuzatildi. Bundan tashqari, G‘arbning rivojlangan davlatlarida ham millatlararo to‘qnashuvlar mavjud ekanligi, sobiq Sovet imperiyasi yoki Yugoslaviya hududidagi millatlararo munosabatlari muammosini sotsialistik tizimni qulashi va jamiyat hayotining barcha soxalaridagi chuqur inqiroz bilan bog‘lab tushuntirishga intilishlarni yo‘qqa chiqardi.

O‘zbekiston mustaqillik yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlar oldidagi dolzarb vazifalardan biri – bu jamiyatning trancformasiyalashuvida kechayotgan iclohotlarning milliy qadriyatlar qayta o‘zgarishiga ta’ciri, o‘zlikni anglash macalalarida xalqning millat cihatida yangidan namoyon bo‘lish jarayonlaridagi ilmiy nazariy acoclarni tadqiq etish edi. Yangi O‘zbekistonda milliy rivojlanishdan milliy taraqqiyot cari yuz tutayotgan jamiyatimizning yangilanishida milliy identifikasiya jarayonini optimallashtirish yo‘llari va imkoniyatlarini aniqlash muhimdir. «Xususan, milliy o‘zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiyy va boy tarixini o‘rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini

kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim»ligi [1] ushbu masalaning ahamiyatini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Globallashuv zamonaviy ko'rinishda integrasiyaning ko'p qatlamlili va serqirra tizimi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, milliy integrasiyalashuv munosabatlari ham avj olib borar ekan, kelajakda millatlar bir-biriga singib, assimilyatsiyalashib ketishi haqidagi bashoratlarga qaramay, milliy o'zlikni anglash yuksalib borishi hamda millatni asrab qolishga intilishlarning kuchayishi, mayjud etnomilliy konsepsiyalarning mohiyati, shakllanishi va metodologik yo'nalganligi borasidagi tadqiqotlarning dolzarbligini belgilaydi. Mavjud etnomilliy konsepsiyalarning tarixiy ildizlarini aniqlash, asosiy metodologik va ilmiy-nazariy yondashuvlarni tasniflash, ilmiy yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilib, zamonaviy etnomilliy konsepsiylar shakllanishidagi shart-sharoitlar, geostrategik maqsad va manfaatlarning o'rni va ularning nazariy metodologik yo'nalganligining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda obyektivlik, umumiyligi o'zaro aloqadorlik, vorisiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, tarixiylik, diskursiv tahlil, sinergetika usullaridan foydalaniqda.

ASOSIY QISM

O'tgan asrning 60-70-yillarda Belgiyada flamand, Buyuk Britaniyada shotland va uels, Kanadada frank-kanada millatchiligining uyg'onishi jamiyatshunos olimlarning hayratiga sabab bo'lgan va ular tomonidan «etnik paradoks», deb nomlangan bo'lsa, ba'zi tadqiqotchilar bugungi kundagi etnik millatchilikning avj olishini sunami kabi tabiiy ofatlar bilan taqqoslashmoqda [2, – S.3]. Qanchalik paradoksal bo'lmasin, o'zini turli xil shakllarda namoyon qilgan «etnik portlash» – azaliy urf-odat va an'analarni qayta tiklashga urinishlar, «xalq ruhi»ni izlashdan tortib milliy davlatchilikni tiklash istagini asosiy sababi globalashuv jarayonlari bo'lib, avj olib borayotgan integratsiya, madaniyatlar unifikatsiyasi va qadriyatlar diffuziyasini xalqlar o'z madaniyati va millatining borlig'iga xavf sifatida qabul qila boshladilar. Professor S.Otamuratovning ta'kidlashicha «Bugun globalashuvning avj olishi sharoitida millatni asrash global muammoga aylanmoqda.

Chunki, u jarayon «kichik» va kam taraqqiy etgan mamlakatlardagi xalq (millat)larni yirik va taraqqiy etgan mamlakatlar hamda ularda yashayotgan xalq (millat)larga qo'shilib ketish xavfini kengaytirmoqda. Bunday sharoitda o'z davlatiga ega bo'lish mamlakatlarning ana shu xavfdan himoyalanishida muhim ahmiyatga ega bo'ladi» [3, – S.77]. Etnomilliy konsepsiyalarning ilmiy paradigma sifatida ijtimoiy gumanitar fanlarda muhim ahamiyat kasb etishi ham aynan shu hodisalar bilan bog'liq. Barcha uchun muqobil konsepsiya yo'qligining tabiiyligini J.Xoll quyidagi fikrida ta'kidlaydi: «Umumiy, universal nazariya bo'lishi ham mumkin emas. Chunki, tarixiy o'tmishimiz turlicha, shunday ekan, konsepsiylarimiz ham bir-biridan farq qilishi kerak» [4, – S.5].

Paradigma (yunon. paradeigma – misol, namuna) bir vaqtning o'zida butun ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan, yangi ilmiy tadqiqotlarning asosi va modeli bo'lib xizmat qiluvchi ilmiy yutuqlar majmuidir. Paradigma «ilmiy jamoa tomonidan qabul qilingan g'oyaviy-me'yoriy nazariy an'analar tizimi («tadqiqot normalari va ideallari», «dunyoning ilmiy manzarasi», «texnik va uslubiy vositalar» va boshqa vositalar) jamoaviy va «intizomiy matritsa» (T.Kun), deb nomlangan ilmiy an'ana mavjudligini ta'minlash, uning o'zgarishi o'rganilayotgan obyektning nazariy tushunchasini sifat jihatidan o'zgartiradi» [5, – S.11].

Falsafadagi paradigmal dikurs falsafaning bosh muammosiga borib taqaladi. Falsafaning ushbu muammosini klassik marksistik talqin qilish faqat sobiq Sovet falsafasining mafkuraviy munosabatlari bilan bog'liq holda eskirgan bo'lishi mumkin. Ammo, barcha davrlarda falsafaning asosiy masalasini hal qilishning ko'plab usullari shakllangan va falsafiy diskursning universal mavzusi sifatida ahamiyatini yo'qotmagan. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotlar markazida millat borlig'i masalasi ko'ndalang qo'yilgan: millat obyektiv voqelikmi yoki subyektiv borliqmi, ushbu dixotomiya azaliy falsafiy muammolar sirasidandir. Primordialistik va postmodernistik yo'nalishlari millat hodisasini tadqiq etishda obyektivistik va subyektivistik paradigmalar to'qnashuvi tarzida namoyon bo'lmoqda.

XVIII-XIX asrlarda «millat» ko'p ehtiroslar qo'zg'atuvchisi bo'lishiga qaramay, bu ijtimoiy hodisani o'rganish borasida alohida fundamental tadqiqotlar olib borilmagan. B.Anderson «Agar bizning fikrimizcha, so'nggi ikki asrdagi jahon siyosatida millatchilik ulkan rol o'ynagan bo'lsa, unda

nega ushbu davrning serqirra mutafakkirlari – Marks, Nisshe, Veber, Dyurkgeym, Benyamin, Freyd, Levi-Stross, Keyns, Gramshi, Fuko – u haqda juda oz fikr bildirdilar?», kabi o‘z savollariga «Yevropadagi konservativ dunyoning uzoq yuz yillik davrida (1815-1914) millatchilik, faqat ayrim holatlar munosabati bilan bir necha kishilarnigina nazariga tushgan, ammo bu holatlar juda ibratli bo‘lgan», degan fikrini javob tariqasida keltirgan. «Millat» hodisasi haqidagi qarashlarning shakllanishiga nafaqat falsafiy va siyosiy qarashlar, balki XIX asr oxiriga kelib yetarli darajada bilim va materiallar bazasiga ega bo‘lgan etnografiya, etnologiya, antropologiya hamda evolyusiya nazariyasi ta’siri ham katta bo‘lgan.

O‘tgan asrning boshlarida ushbu fanlar doirasida ikki nazariy yo‘nalish shakllangan: «evolyusionizm» va «diffuzionizm». Ch.Darvinnin 1859-yilda chop etilgan «Turlarning kelib chiqishi» nomli asari evolyusionizm yo‘nalishidagi etnologik tadqiqotlarning nazariy asosiga aylangan edi. Teodor Vays «Yovvoyi xalqlar antropologiyasi» (1859) asarida yevropalik bo‘lmagan xalqlarni o‘rganish asosida to‘plangan etnografik materiallari asosida insoniyatni birligi, irqlarni tengligi haqidagi g‘oyalari, Eduard Taylor har bir madaniyat taraqqiyotning umumbashariy qonuni asosida uzlusiz rivojlanib bir xil bosqichlarni bosib, johillikdan ma’rifatga qarab chiziqli harakatlanishini «Ibtidoiy madaniyat» (1871) asarida yoritgan, Adolf Bastian «Etnologiyaning umumiyy asoslari» (1871) asarida insoniyatning birligi, turli xalqlarning aqliy tafakkuri tengligini ta’kidlagan holda, xalqlar va madaniyatlardagi farqni atrof muhitdagi farqlar bilan tushuntirgan.

Bu asarlar ushbu davrda yaratilgan asarlarning bir qismi bo‘lib, tadqiqotchilar insoniyat tarixi barcha jamiyatlar uchun xos bo‘lgan umumbashariy taraqqiyot bosqichlari mavjud bo‘lgan, umumiy qonuniyatlar asosidagi oddiydan murakkabga to‘g‘ri chiziqli harakatlanuvchi taraqqiyot sifatida tushuntirilib, etnogenez «yagona, birlamchi madaniyat» asosidagi xalqlarning madaniyatining rivoji tariqasida tushuntirilgan. Evolyusionistlar nuqtai nazarida madaniyatlardagi o‘xshashliklar sababi turli madaniyatlar «yagona, birlamchi madaniyat»dan tarqalganligida, xalqlarning o‘zaro ta’siri, madaniyatlararo munosabatlarning esa ahamiyati yo‘q.

Insoniyat taraqqiyoti aslida to‘g‘ri chiziqli emasligi, ilk davrlardan boshlangan xalqlarning migratsiya jarayonlarida etnolarning madaniyati bir-biri bilan qorishib, bir-biriga singib assimilyatsiyalashib borishi – diffuziyasi haqidagi g‘oyalari diffuzionizm yo‘nalishining shakllanishiga olib keldi. Fridrix Ratsel «Antropogeografiya» (1909) asari bilan diffuzionizm an’alarini boshlab bergan bo‘lib, tadqiqotchilar madaniyatlar rivojini migratsiya jarayonlari, xalqlar orasidagi savdoni rivojlanishi, to‘qnashuvlar natijasidagi madaniyatlarning o‘zaro ta’siri, bir-biriga singishi, o‘zaro o‘zlashtirishlar, qorishib ketishi natijasi va bunda ma’lum bir yoki bir necha geografik hududlarni madaniyatlar tarqalishining boshlang‘ich nuqtasi sifatida talqin qila boshladilar. Leo Frobenius «Afrika madaniyatlarining kelib chiqishi» (1898), Fris Grebner «Etnologiya metodi» (1911) asarlarida madaniyat xalqlar ko‘chishi natijasida va xalqlar ko‘chmagan holda madaniyatini tarqalishi mumkinligini, «madaniy aylana» haqidagi, madaniyatni tabiat mahsuli ekanligi haqidagi fikrlarida diffuzionizmning asosiy kamchiligi – madaniyatni inson va jamiyatdan uzib qo‘yanligi ko‘zga tashlanadi.

Zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlarda «millat» hodisasini o‘rganishga davriy yondashuv asosida quyidagi davrlarga bo‘lish mumkin:

Birinchi davr – XX asrning 30-yillarda «millat» hodisasi va «millatchilik»ni o‘rganish borasidagi tadqiqotlar orta boshladi. Bu xolat Yevropadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, imperiyalarning parchalanishi va yangi mustaqil milliy davlatlarning paydo bo‘lishi bilan belgilanar edi. Birinchi jahon urushi olimlar uchun burilish davri bo‘ldi, Yevropaning siyosiy xaritasi keskin o‘zgarganligi, voqealar ko‘lami va dunyoning yangi tartibini o‘rnatalishidan hayratda qolgan tadqiqotchilar tarixiy haqiqatlarni anglash uchun yangi yondashuvlarni ishlab chiqishlari kerak edi. Aynan shu davrda «millat» haqidagi nazariyalarni tasniflashga ilk urinishlar amalga oshirilgan edi.

Ikkinchi davr – o‘tgan asrning 60-yillardan «millat» fenomeniga qiziqishlar ikkinchi Jahon urushidan so‘ng mustamlaka mamlakatlarda avj olgan milliy ozodlik kurashlari natijasida, milliy mustaqillik hamda millat sifatida o‘z taqdirini o‘zi belgilash xuquqini qo‘lga kiritib, uchinchi dunyo mamlakatlari, deb atala boshlagan mustaqil davlatlarni dunyo sahnasiga chiqishi, oxir oqibat mustamlaka tizimining barbod bo‘lishi bilan belgilanadi.

Uchinchi davr – o‘tgan yuz yillikning 80-90-yillaridan bugunga qadar tadqiqotchilar dunyodagi ulkan o‘zgarishlar – sotsialistik tizimning barbod bo‘lishi va buning natijasida vujudga kelgan yangi milliy davlatlar, millatlararo munosabatlар keskinlashib qonli to‘qnashuvlarga olib kelishi, siyosiy va iqtisodiy global lashuvning jadallashuvi oqibatida davlatlarga siyosiy ta’sir o‘tkazishning kuchayishi, iqtisodiy suverenitetning yemirilishi, ommaviy kommunikatsiyalar rivoji, «madaniy gibrildanish» holatlarini anglashga, ilmiy tahlil qilishga intildilar.

Tadqiqotchilar diqqat markazida bir tomonidan «davlat qurilishi», milliy mustaqillikka erishish, milliy mafkura asosida millatni jipslashuvini ta’minalash masalalari turgan bo‘lsa, boshqa tomondan ular «Millatchilikni sayyoohlar uchun «ulkan tarix muzeyi»ga yuborsak bo‘ladimi?» [6, – S.389] kabi savollarni o‘rtaga tashladilar. Chunki «millat» va «milliy davlatlar»ning muqarrar so‘nishi, o‘rniga «global insoniyat», «kosmopolitik madaniyat» yoki «global madaniyat» shakllanishi, ommaviy kommunikatsiyalar va yuqori texnologiyalar «global iste’molchi madaniyati»ni shakllantirib, milliy madaniyatlarni siqib chiqarishi haqida bashoratlar orta boshlagan edi. Ilmiy qarashlardagi bu qarama-qarshiliklar muammoni naqadar murakkabligini bildiradi. Va nihoyat oxirgi o‘n yilliklarda milliy, etnik masalalarni yanada keskinlashuvi va dolzarblashuvi, migrantlar oqimi butun Yevropani yutib borayotganligi «millat» va «milliy identiklik» muammolarini tadqiqotchilarning kun tartibiga olib chiqdi.

O‘tgan asrning 30-yillaridan boshlab millat va millatchilik masalalari bo‘yicha tadqiqotlar asosan tarix fani doirasida olib borilgan bo‘lib, birinchilardan bo‘lib millatni «siyosiy» va «madaniy» tasnifini bergen nemis tarixchisi Fridrix Meyneke bo‘lib, bu g‘oyalarning keyingi rivoji amerikalik faylasuf va tarixchilar Xans Kon va millatchilik mafkurasini din bilan bog‘lagan Karlton Xeys nomlari bilan bog‘liq. Ular dunyoning turli burchaklaridagi millatchilik ko‘rinishlarini o‘rganib va olingan natijalarni tasniflashga harakat qilganlar. X.Kon tomonidan taklif etilgan millat va millatchilikning nazariyalarining «etnik» va «fuqarolik» tasnifi bugungi kunda ham tadqiqotchilar tomonidan qo‘llanilmoqda [7, – S.27].

X.Kon fikricha, XVII asrda Angliyada vujudga kelgan «millat» g‘oyasi va «millatchilik» mafkurasi keyinchalik Buyuk Fransuz Burjua inqilobi tomonidan o‘zlashtirilib, butun Yevropaga so‘ngra esa butun dunyoga tarqatilgan. Har bir insonga xos bo‘lgan oilasiga, vatanga muhabbat – vatanparvarlik hissiga milliy g‘oya o‘zgacha, chuqurroq mazmun-mohiyat baxsh etib va «millat»ga bog‘liqlikni yanada kuchaytiradi, bunda esa umumta’lim, matbuot, iqtisodiy o‘zaro bog‘liqlik va shu bilan birga, ijtimoiy-siyosiy institutlarning ta’siri kattadir, sifatiy jihatdan o‘zga bo‘lgan ushbu hissiyot ommaning integratsiyalashuviga va kollektiv identiklikni shakllanishiga olib keladi, deb hisoblagan tarixchi. Olim uchun qadimdan mavjud bo‘lgan etnik xilma-xillik, millat qurilishida «etnografik material» sifatida ahamiyatga ega. Faqat milliy ongning uyg‘onishi tufayli «etnografik material» tarixning faol kuchiga aylanadi.

Demak, X.Kon uchun millat va millatchilik «modernizm» davrining mahsuli bo‘lib, «millat qurilishi»da qon-qardoshlikni emas, millatchilik mafkurasi ahamiyatli. K.Xeys o‘zining 1926-yilda chop etilgan «Millatchilik haqida esselar» nomli asarida millat bilan milliylikni farqlar ekan, milliy davlat milliylik asosida mavjud bo‘ladi, deydi. Tarixchi millatni bir davlatda yashovchi, turli etnik guruhlarga tegishli insonlar uyushmasi sifatida tushungan bo‘lsa, milliylik olim uchun yagona til va madaniyat asosidagi etnik birlikdir. K.Xeys ham milliy mafkuraning ahamiyatini e’tirof etar ekan, mafkurani intellektual elita tomonidan yaratilishi va uni ommaviy axborot vositalari, umumta’lim tizimi orqali targ‘ib qilib, odamlarning ongiga singdirish orqali mustahkamlash mumkinligini ta’kidlagan.

XX asrning 60-yillarida «millat» fenomeniga qiziqishlar kuchayib, tadqiqotlar orta boshladи. Shu davrda yaratilgan original nazariya millatning kommunikatsiya nazariyasi edi. «Millatchilik va ijtimoiy kommunikatsiya» (1953) asarining muallifi Karl Doych ta’limoti o‘tgan asrning o‘rtalaridagi eng ilg‘or fan yo‘nalishlaridan bo‘lmish kibernetika va o‘z davrining sotsiologik tadqiqotlari ta’sirida shakllangan bo‘lib, mavjud konsepsiyalarning assosiy kamchiliginini miqdoriy o‘lchovlarning va ular asosida bashoratga urinish yo‘qligi bilan tushuntirdi. K.Doych ta’kidlaydiki, axborot madaniyatning hosilasi sifatida o‘zida bilimlar, qadriyatlar, an’analar, yangiliklar va hattoki g‘iybatni ham birlashtiradi. Ma’lum bir jamoaning ichidagi axborot almashinuvi tezkor amalga oshadi, jamoadan

tashqarida esa bu jarayon qiyinlashadi va aynan axborot almashish, muloqotlar – kommunikatsiya intensiv bo‘lgan jamoalarda assimilyatsiya kuchayadi, ushbu hududdagi standart tildan barcha foydalanadi va bu jamoa o‘zlarini boshqalardan ajratib, boshqalardan farqlanishini anglay boshlaydilar. Insonlar axborotni yagona til, yagona ramzlar vositasida qabul qilib, qayta ishlash, saqlash va uzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu tariqa, axborot almashinuvি asosida milliy madaniyat shakllanadi. Demak, K.Doych millatni obyektiv belgi, xususiyatlariga emas, hatto milliy o‘zlikni anglashga ham emas, balki obyektiv jarayonlarga – insonlar orasidagi aloqa, muloqot, kommunikatsiyaning samaradorligi, ya’ni axborot tarqalishining tezligi, yetarlilikiga e’tibor qaratadi. Olim fikricha, millatlar bir-biridan «kommunikatsiya to‘sig‘i, axborot oqimidagi bo‘shliq» [8] bilan ajralib turadilar.

Britaniyalik tarixchi Eli Keduri «Millatchilik» (1960) nomli asarida millat va millatchilik muammolarini ijtimoiy va siyosat falsafasi tahlil qilishi zarurligiga e’tibor qaratadi. Olimni qiziqtirgan eng muhim muammo, nima uchun zamonaviy davrda inson o‘zini ma’lum bir millatga mansubligini his etishi zarur? Milliy identiklikni inert va o‘zgaruvchan hodisa, tilni esa millat shakllanishidagi ahamiyatini shubhali, deb hisoblaydi. Misol tariqasida, Yevropada chegara oldi hududlardagi aholini osonlik bilan bayroq, ya’ni milliy davlatni, milliy identiklikni shart-sharoitlar, manfaatlar va afzallikkardan kelib chiqqan holda o‘zgartirishini aytib o‘tadi.

Buyuk fransuz inqilobi bilan hamnafaslikda vujudga kelgan millat g‘oyasi shakllanishida ziyoli va siyosatchilarining o‘rniga e’tiborini qaratar ekan, ushbu g‘oyalarni jamiyatdagi ma’lum guruhlar manfaatlariga yo‘naltirilganligini tahlil qiladi. Lekin, nima uchun millatchilik mafkurasi osonlik bilan butun dunyoga tarqaldi, degan savolga javoban, jamiyat transformatsiyasi va insonlardagi yangi mansublik hissiga bo‘lgan ehtiyojni, ya’ni obyektiv jarayonlar va insonlardagi subyektiv hissiy ehtiyojlarni sabab sifatida keltirdi. Demak, E.Keduri etniklikning «substansional» asos sifatidagi rolini faqat millatchilik mafkurasi, millat g‘oyasi asosida erishilgan «etnik uyg‘onish» bilan chegaralab, etnoslarni millat qurilishida «etnik material» deb talqin qilgan.

XULOSA

Ilm-fan bilan mafkurani ajratib turadigan chegarani aniqlash har doim ham oson emas. Etnomilliy konsepsiylar ilmiy an’ananing mavjud oqimida bo‘lsa-da, to‘g‘ridan-to‘g‘ri siyosiy harakatlarga yo‘naltirilmagan, ularning asosiy maqsadi voqelikni anglashdir. Shunday bo‘lsada, ular har doim ham mafkuradan butunlay holi emas, bu alohida tadqiqotchilarining fikrlarini ko‘rib chiqishda e’tiborni jalb qiladi [9].

Eng yangi tarix nuqtai nazariga ko‘ra sobiq ittifoq imperiyasi davrida ijtimoiy fanlar kommunistik partiya va uning mafkurasi ta’siridagi «hushyor nigoh» bosimi ostida faoliyat yuritgan. Xususan, ittifoq etnologiyasida «yangi tarixiy jamoa» ittifoq xalqi shakllanganligi e’tirof etilgan. Zamonaviy adabiyotda millatchilik fenomenini o‘rganishda mualliflar betaraflik pozitsiyasi va «obyektivlik»ka da’vo qilsalarda, ularning noxolis pozitsiyasi aslida ranglantrilgan pozitsiya ekanligi aniq seziladi. K.Verderi ta’kidlaganidek, «millat» tushunchasining noaniqligi uning ilmiy tahlilini murakkablashtiradi, lekin uni siyosiy amaliyotda qo‘llashni osonlashtiradi [10, – S.21]. Xulosa qilib aytganda, «millat» tushunchasi, ta’rif va mohiyatini ilmiy assoslab berish uchun ilmiy tadqiqot ishlaridagi qiyinchiliklar mavjud mafkura bilan bog‘liq bo‘ladi va u siyosiy rango-rangliklar bilan hamohanglikda bo‘lishi talab etiladi.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // «Халқ сўзи», 2018 йил 29 декабрь.
2. Этнос и политика: хрестоматия / авт. сост. А.А.Празаускас. – М.: Изд-во УРАО, 2000. – С.3.
3. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2013. – Б. 77.
4. Hall J. Nationalisms: Classified and Explained // Daedalus. Summer 1993. – Р. 5.
5. Кун Т. Структура научных революций. – М., 1975. – С.11.

-
6. Смит Э. Национализм и модернизм: Критический обзор современных теорий наций и национализма. — М.: Практис, 2004. – С. 389.
 7. Кон Х. Идея национализма. Миры и заблуждения в изучении империи и национализма. - М.: Новое издательство, журнал «Ab Imperio», 2010. – С. 27-61.
 8. Deutsch K. Nationalism and Social Communication: An Inquiry into the Foundations of Nationality. Cambridge (Mass.), 1953// Коротеева В.В. Теории национализма в зарубежных социальных науках. Российский государственный гуманитарный университет. – М., 1999.
 9. Алимухамедова Н.Я. Этномиллий концепцияларнинг таҳлил этишда анъанавий ёндашувлар // “ЎзМУ хабарлари”. № 1/2/1 – Тошкент, 2022. – Б. 75-78.
 10. Дробижева Л.М., Аклаев А.Р., Коротеева В.В., Солдатова Г.У. Демократизация и образы национализма в Российской Федерации 90-х годов. – С.21.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Radjabova Aziza,

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
Xalqaro munosabatlar kafedrasi katta o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
e-mail: azizaenvoy1989@gmail.com

GLOBAL GEOSIYOSIY VA GEOIQTISODIY O‘ZGARISHLAR VA ULARNING MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH, NIZOLARNING OLDINI OLISHGA TA’SIRI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Global geosiyosiy va geoijtisodiy o‘zgarishlar jahon siyosati va iqtisodiyotini shakllantirishda, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minalashda muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro munosabatlar tizimining tobora murakkablashuvi va iqtisodiy tizimlarning o‘zgarishi natijasida mintaqaviy nizolar va ziddiyatlarning oldini olish, xavfsizlikni ta’minalash va barqarorlikni saqlash dunyo hamjamiyati barqaror rivojlanishini ta’minalash yo‘lidagi muhim vazifaga aylangan. Ushbu maqolada global geosiyosiy va geoijtisodiy o‘zgarishlarning mintaqaviy xavfsizlikka ta’siri, shuningdek, nizolarni oldini olishda qanday rol o‘ynashiga doir jihatlar ilmiy tahlil qilinadi. Mintaqaviy hamkorlik global tahdidlarga qarshi kurashda eng samarali vosita ekanligi asoslab berilgan. Turli iqtisosiy va siyosiy integratsion ittifoqlar tarkibida o‘zaro hamkorlikni amalga oshirish mamlakatlarning xalqaro munosabatlarda barqaror siyosat olib borishlarini ta’minalovchi eng maqbul vosita ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, global xavfsizlik, arbitraj va mediatsiya, global iqtisodiyot, xalqaro hamkorlik, xalqaro huquq, muzokaralar, xalqaro tashkilotlar.

Раджабова Азиза,

Университет мировой экономики и дипломатии,
стар.преподаватель кафедры международных отношений,
д.ф.н (PhD) по политологии,
e-mail: azizaenvoy1989@gmail.com

ГЛОБАЛЬНЫЕ ГЕОСТАТИЧЕСКИЕ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА РЕГИОНАЛЬНУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ И ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ КОНФЛИКТОВ

АННОТАЦИЯ

Глобальные геополитические и геоэкономические изменения играют важную роль в формировании мировой политики и экономики, а также в обеспечении региональной безопасности. В результате усложнения системы международных отношений и изменений в экономических системах предотвращение региональных споров и конфликтов, обеспечение безопасности и поддержание стабильности стали важной задачей на пути обеспечения

устойчивого развития мирового сообщества. В данной статье дается научный анализ влияния глобальных геополитических и геоэкономических изменений на региональную безопасность, а также их роли в предотвращении конфликтов. Региональное сотрудничество считается наиболее эффективным способом решения глобальных угроз. Подчеркивается, что сотрудничество в рамках различных экономических и политических интеграционных союзов является наилучшим подходом для обеспечения стабильной политики между странами в международных отношениях.

Ключевые слова: интеграция, глобальная безопасность, арбитраж и медиация, глобальная экономика, международное сотрудничество, международное право, переговоры, международные организации.

Radjabova Aziza,

University of World Economy and Diplomacy,
Senior Lecturer, Department of International Relations,
Doctor of Philosophy (PhD) in Political Sciences,
e-mail: azizaenvoy1989@gmail.com

GLOBAL GEOSTATIC AND GEO-ECONOMIC CHANGES AND THEIR IMPACT ON REGIONAL SECURITY AND CONFLICT PREVENTION

ABSTRACT

Global geopolitical and geoeconomic changes significantly shape world politics and the economy, as well as regional security. Due to the increasing complexity of international relations and shifts in economic systems, preventing regional disputes and conflicts has become essential for ensuring security and maintaining stability. These factors are crucial for the sustainable development of the global community. This article offers a scientific analysis of how global geopolitical and geoeconomic changes impact regional security and contribute to conflict prevention. Regional cooperation is considered the most effective way to address global threats. It is emphasized that collaboration within various economic and political integration alliances is the best approach to ensure stable policies among countries in international relations.

Key words: integration, global security, arbitration and mediation, global economy, international cooperation, international law, negotiations, international organizations.

KIRISH

Dunyoning jadal sur'atlarda o'zgarib borayotgan geosiyosi va geoiqtisodiy qiyofasi, xalqaro munosabatlar subyektlari oldida muhim vazifalarni qo'yamoqda. Davlatlar o'z ichki va tashqi siyosatida puxta o'ylangan qarorlarni qabul qilishi, hududiy yaxlitlikni ta'minlash yo'lida yangi siyosiy ittifoqlarga birlashish, iqtisodiy barqarorlikni saqlash maqsadida integratsion jarayonlarning muhim bir qismiga aylanib ulgurishi shular jumlasidandir. Mazkur jarayonlarda hech bir davlat yoxud mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga sezilarli ta'sir qila boshladi. AQSh, Xitoy, Rossiya kabi yirik kuch markazlarining geosiyosi strategiyalari o'zgarishi natijasida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda yangi murakkabliklar paydo bo'ldi. Yangi hududiy ziddiyatlar, xususan, Xitoyning Janubiy Xitoy dengizida kengayishi va Rossiyaning Ukraina bilan bog'liq strategiyasi yangi ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur jarayonlarda siyosiy va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining yangi bosqichga ko'tarilganligini kuzatildi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, NATO, Yevropa Ittifoqi, BRICS kabi tashkilotlar xalqaro hamjamiyat oldida turgan xavfsizlikni saqlash, nizolarni boshqarish va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol

O'tgan asrning 1990-yillardan keyin global geosiyosi muhitda yuzaga kelgan o'zgarishlar, jumladan Sovet Ittifoqining parchalanishi, Xitoyning iqtisodiy kuch markazi sifatida yuksalishi, AQShning global liderlik roliga da'vogarligi, yangi geosiyosi ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarining shakllanishi, noan'anaviy tahdidlarning global qamrov kasb etib, ular sonining ortib borishi mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga sezilarli ta'sir qila boshladi. AQSh, Xitoy, Rossiya kabi yirik kuch markazlarining geosiyosi strategiyalari o'zgarishi natijasida mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda yangi murakkabliklar paydo bo'ldi. Yangi hududiy ziddiyatlar, xususan, Xitoyning Janubiy Xitoy dengizida kengayishi va Rossiyaning Ukraina bilan bog'liq strategiyasi yangi ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Mazkur jarayonlarda siyosiy va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining yangi bosqichga ko'tarilganligini kuzatildi. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, NATO, Yevropa Ittifoqi, BRICS kabi tashkilotlar xalqaro hamjamiyat oldida turgan xavfsizlikni saqlash, nizolarni boshqarish va mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda muhim rol

o‘ynashi jahon siyosatida o‘z aksini topib bormoqda. Global texnologik rivojlanish, ayniqsa kiberxavfsizlik sohasida yuz berayotgan o‘zgarishlar, mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda yangi tahdidlar mavjudligini isbotlamoqda.

METODOLOGIYA

Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimi transformatsion jarayonlar qurshovida qolgan bir paytda global xavfsizlik, jahondagi turli davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi tinchlik va barqarorlikni ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lib, keng va murakkab jarayonlarni boshidan kechirgan. Olimlar, tadqiqotchilar, elchi-diplomatlar, siyosatshunos olimlar bu jabhada turli yondashuvlarni ilgari surishadi. Xususan, Realistik yondashuv vakillari Hans Morgenthau [1] va Kenneth Waltz [2], global tizimni anarxik deb hisoblaydilar, ya’ni davlatlar o‘rtasida yuqori darajadagi tartibsizlik va hech bir global hukumatning mavjud emasligini ta’kidlaydilar. Global xavfsizlik, asosan davlatlarning o‘z manfaatlarini himoya qilish va qudratini saqlashga qaratilgan harakatlaridan iborat deb qaraladi. Shuning uchun, xavfsizlik faqat har bir davlatning o‘ziga xos kuchi va qudrati bilan ta’milanadi. Ular, shuningdek, davlatlarning geosiyosiy manfaatlari o‘rtasidagi raqobat va ziddiyatlarni global xavfsizlikka tahdid sifatida ko‘radilar. Mazkur yondashuvning yana bir vakili, Henry Kissinger [3] bo‘lib, u o‘zining “Realpolitik”, deb nomlanuvchi pragmatik yondashuvi orqali davlatlar o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish uchun amaliy va realist siyosat yuritishlari kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, kuchli davlatlar o‘rtasidagi muvozanat va diplomatik muzokaralar orqali tinchlik va barqarorlikni ta’minlash mumkin. John Mearsheimer “offensive realism” (hujumkor realizm) nazariyasini ishlab chiqqan olim sifatida davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni asosan mintaqaviy gegemonizmga erishish istagi bilan boshqarilishini ta’kidlaydi [4]. Mearsheimerning fikricha, davlatlar o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun kuchli bo‘lishga intiladi va bu jarayonda boshqa davlatlar bilan raqobatlashadi. U shuningdek, xalqaro tizimning anarxik tabiat tufayli davlatlar o‘rtasida doimiy ravishda kuch va ta’sir uchun kurash olib borilishini ta’kidlaydi. U o‘zining “The Tragedy of Great Power Politics” [5] (Buyuk kuchlar siyosatining fojiasi) kitobida u davlatlar o‘rtasidagi raqobat va aggressiyaning sabablarini tahlil qiladi va xalqaro tizimda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash qiyinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, davlatlar o‘rtasidagi kuch muvozanati va raqobat xalqaro munosabatlarning asosiy xususiyatlaridan biridir va bu jarayon davomida davlatlar o‘z manfaatlarini himoya qilish uchun har qanday vositani qo‘llashga tayyor bo‘lishlari kerak.

Liberalizm yondashuvi vakillari esa global xavfsizlikni ta’minlashda hamkorlik va xalqaro institutlarning muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar. Robert Keohane [6] va Joseph Nye [7] kabi olimlar, davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy va siyosiy bog‘liqliklarning kuchayishi, hamkorlik va diplomatiya orqali xavfsizlikni oshirishi mumkin, deb hisoblaydilar. Ular, shuningdek, xalqaro tashkilotlar (masalan, BMT, Jahon savdo tashkiloti) va huquqiy tizimlarning global xavfsizlikni saqlashda samarali bo‘lishi mumkinligiga ishonadilar.

Shuningdek, Johan Galtung [8], singari olimlar tinchlik tadqiqotlari sohasidagi tadqiqotlarida global xavfsizlikni faqat harbiy kuch va davlatlarning qudratini ta’minlash bilan cheklamaslik kerakligini ta’kidlaydilar. Tinchlik va xavfsizlikni “to‘liq xavfsizlik” (positive peace) tamoyilida ko‘radi, ya’ni ijtimoiy adolat, iqtisodiy tenglik va inson huquqlari ham xavfsizlikning ajralmas qismi sfatida baholaydilar. Galtungning fikriga ko‘ra, faqat harbiy tashvishlar emas, balki global darajadagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizliklar ham xavfsizlikka tahdid soladi. Haqiqatdan ham, zamonaviy xalqaro munosabatlarda iqlim o‘zgarishi, noan’anaviy tahdidlar, iqtisodiy inqirozlar natijasida turli ijtimoiy va siyosiy barqarorlikka xavf va tahdidlarni kuzatish mumkin. Bu kabi holatlar resurslarga bo‘lgan talab ortishi, migrantsion oqimlarning kuchayishi va davlatlar o‘rtasida mojarolarning boshlanishiga olib keladi.

ASOSIY QISM

Xalqaro aloqalar, barqaror siyosat, zamonaviy texnologiyalar va madaniyatlararo hamkorlikning o‘zaro uyg‘unlashuvi global xavflarga qarshi kurashishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy geoijtisodiy va geosiyosiy o‘zgarishlar global xavf va tahidlarga qarshi kurashish faqat bir mamlakat yoki tashkilotning salohiyati yetarlicha emasligini ko‘rsatmoqda. Global tahidlarga qarshi mintaqaviy hamkorlik, hozirgi kunda xalqaro munosabatlarning eng muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. Bugungi kunda davlatlar, mintaqaviy tashkilotlar va xalqaro tuzilmalar

o'rtasidagi hamkorlik, global xavfsizlik, barqarorlik va taraqqiyot masalalarini hal etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu hamkorlik tahdidlarga qarshi kurashish, hamda mintaqaviy va global miqyosda umumiy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan.

Dunyoning turli mintaqasida yuzaga kelgan siyosiy qarama-qarshiliklar, resurslar taqsimotidagi nizolar, millatlar va elatlarning ijtimoiy va madaniy turfaxilligi, uchinchi tomon yoxud tashqi kuchlarning aralashuvi mamlakatlardagi joriy holat, mintaqaviy hamkorlikning murakkablashuviga sabab bo'luvchi bosh omillardir. Mazkur holatlarni oldini olishning eng samarali ususli bu mintaqaviy hamkorlikdir. Mintaqaviy hamkorlik, umumiy xavf-xatarlarni bartaraf etish va samarali qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mintaqaviy hamkorlik barcha yo'nalishlarda munosabatlarni manfaatli va samarali olib borish imkonini beradi.

Xususan, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishlariga qarshi kurash, sog'liqni saqlash, iqtisodiy integratsiya, ta'lim va ilm-fan kabi sohalardagi o'zaro munosabatlarni yanada mustahkamlashda mintaqaviy dialoglar o'ta muhimdir. Misol tariqasida, xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda Yevropa Ittifoqi, APT, ASEAN, SHHT kabi mintaqaviy tashkilotlar terrorizmga qarshi kurashish, qurol-yarog'larni tarqatmaslik va boshqa xavfsizlik masalalarida o'zaro yordam ko'rsatadi. Shuningdek, Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi davlatlar iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish uchun birlashgan rejalashtirish va resurslarni taqsimlashda hamkorlik qilishadi. Mintaqaviy hamkorlik orqali iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashishda yagona siyosat mexanizmlarini ishlab chiqishmoqda. Mintaqaviy iqtisodiy integratsion tashabbuslar va loyihibar orqali davlatlar o'rtasidagi savdo va investitsiyalarni oshirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash maqsadida bugun Yevropa va Osiyo o'rtasidagi "Bir kamar, bir yo'l" tashabbusi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Ta'lim va ilm-fan sohalaridagi mintaqaviy hamkorli o'zaro ilmiy tadqiqotlar, tajriba almashish va ta'lim tizimlarini yaxshilash orqali mintaqaviy rivojlanishga hissa qo'shib kelmoqda.

Jahon siyosati bugun har doimgidan ham ko'proq davlatlararo muloqotlar, muzokaralar va kelishuvlarga zarurat sezmoqda. Diplomatik vositalar xalqaro nizolarni oldini olishda, hamkorlikni rivojlantirishda eng samarali vosita hisoblanishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Davlatlar o'rtasida muntazam aloqalar o'rnatish va to'g'ridan-to'g'ri muloqotlar orqali o'zaro ishonchni oshirish, ular o'rtasida ixtiyoflar yuzaga kelganda, muzokaralar orqali nizolarni hal etishda muhim ahamiyatga ega.

So'nggi yillarda xalqaro munosabatlarni tizimida yangi aktorlarning vujudga kelishi, hududiy nizolarni hal qilish, suverenitetni tan olish, siyosiy kelishuvlarni amalga oshirish kabi masalalarda muzokaralar o'tkazilishi zarurligini oydinlashtirdi. Turli xarakterdagi nizolarning vujudga kelishi muammoga yechim topishda neytral uchinchi tomonning ishtiroti zaruratinu tug'dirmoqda. Bunda arbitraj va meditatsiya institutlari rolining ahamiyati ortib bormoqda. Shu o'rinda Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi muhim vositachilik roli hech shak-shubhasiz. Bunda tashkilotning eng muhim quroli bu xalqaro huquqiy normativ me'yorlar, konvensiyalar, aktlar, xalqaro bitimlar va boshqa hujjatlardir. BMT ning roli mazkur jarayonlarda harakatlarning global ko'lamini muvofiqlashtirish hamda ochiq muloqot maydonlarini yaratish, huquqiy me'zonlarini o'rnatish, ijro mexanizmlarini yaratish, nazorat qilish va boshqarish, shuningdek isloh qilish funksiyalarini o'zining global missiyasi sifatida belgilash orqali namoyon bo'lib keladi.

Shunday bo'lsada, zamonaviy jahon siyosati bugun liberalism an'analaridan voz kecholmasligini anglab yetgan holda, ralistik qarashlarini ilgari surishda davom etmoqda. Vaholanki, xalqaro huquq, davlatlar o'rtasidagi nizolarni oldini olish va tartibga solishda, mamlakatlardan o'z majburiyatlarini qonunan bajarishlarini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Afsuski, inson huquqlari sohasidagi kansitilishlar turli ko'rinishda turli mintaqalarda avj olib bormoqda. BMT ning kompleks muammolarga yo'naltirilgan global strategiyalar Ming yillik rivojlanish maqsadlari [9] hamda uning mantiqiy davomchisi Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) [10] barcha mamlakatlarni inson qadr-qimmati,adolat va tenglik tamoyillari global darajada qaror topishiga undovchi yaqin kelajakdagi umumjahon siyosatining ustuvor yo'nalishlarini o'zida qamrab olgan [11]. Mazkur strategik maqsadlar va global xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlik o'ta muhimdir. Barqaror rivojlanish faqat xavfsiz va barqaror jamiyatlar sharoitida mumkin bo'ladi. Tinchlik, adolat, iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik, iqlim xavfsizligi, sog'liqni saqlash va infratuzilma kabi omillar, nafaqat

barqaror rivojlanishni, balki global xavfsizlikni ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, BRM va global xavfsizlikni amalga oshirishda xalqaro hamkorlik va barcha davlatlar o'rtasidagi integratsion yondoshuvlar zarur.

XULOSA

Xalqaro xavfsizlik va global o'zgarishlar – bu hozirgi dunyoning eng muhim va kompleks masalalaridan biriga taalluqli bo'lib, u butun dunyo bo'ylab geosiyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bir qator global o'zgarishlarga bog'liq holda amal qila boshladi. Bugungi kunda global tarmoqlar va savdo yo'llarining kengayishi, xalqaro iqtisodiy aloqalar va integratsiya yanada kuchayishi yangi imkoniyatlarni yaratishi bilan bir qatorda, turli iqtisodiy inqirozlar, moliyaviy krizislari va tabiiy ofatlar global xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi ham yaqqol namoyon bo'lib qoldi. Energiya xavfsizligi, xususan, neft va gaz kabi tabiiy resurslarga bo'lgan ehtiyojning ortishi, global siyosatda muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Bu resurslar uchun kurash, davlatlar o'rtasidagi raqobatni kuchaytirishi va yangi xavfsizlik tahdidlarini keltirib chiqarmoqda.

Shuningdek, iqlim o'zgarishi va ekologik muammolar, ekologik ofatlar, suv ta'minoti va oziq-ovqat xavfsizligi kabi masalalar odamlar va davlatlar o'rtasida ziddiyatlarga sabab bo'layotgan yana bir omillardan biridir. Iqlim migratsiyasi va resurslar uchun kurash — bu ijtimoiy va xavfsizlik muammolarining yangi ko'rinishi sifatida global xavfsizlikka tahdid solmoqda. Yaqin kelajakda dunyo aholisining keskin o'sishi va urbanizatsiya ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Texnologik taraqqiyot, xususan sun'iy intellekt va kiberxavfsizlik muammolari xalqaro xavfsizlikning yangi jihatlariga aylanib ulgurdi.

Kiberxurujlar, raqamli tahdidlar va onlayn tajovuzlar davlatlar va tashkilotlar o'rtasida yangi xavfsizlik cheklarini keltirib chiqarmoqda. Bu kabi jihatlar jahon siyosatida global xavfsizlik tizimining mustahkam tizimi yaratilishi talabini, davlatlarning o'zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan munosabatlarigini mazkur jarayonlarda bardosh bera oladigan muhitni shakllantira olishi mumkin. Geosiyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va ekologik o'zgarishlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning har biri xalqaro xavfsizlikka ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro hamkorlik, diplomatiya va samarali global tashkilotlarning faoliyati bu tahidlarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Glenn H. Snyder; Mearsheimer's World – Offensive Realism and the Struggle for Security: A Review Essay. *International Security* 2002; 27 (1): 149-173. doi: <https://doi.org/10.1162/016228802320231253>
2. Jozef, Hrabina. "The Year of Crises: How 2020 Will Reshape the Structure of International Relations" *Russia in Global Affairs* 19.1 (73) (2021): 174-199.
3. Kissinger, Henry. Does America need a foreign policy?: Toward a diplomacy for the 21st century. Simon and Schuster, 2002.
4. Keohane, Robert O. After hegemony: Cooperation and discord in the world political economy. Princeton university press, 2005.
5. Morgenthau, Hans J. "A realist theory of international politics" *The realism reader*. Routledge, 2014. – P. 53-59.
6. Mearsheimer, John J. The tragedy of great power politics (Updated edition). WW Norton & Company, 2003.
7. Waltz, Kenneth. Man, the state, and war: A theoretical analysis. Columbia University Press, 2018.
8. Galtung, Johan. "Violence, peace, and peace research" *Journal of peace research* 6.3 (1969). – P167-191.
9. https://unic.un.org/aroundworld/unics/common/documents/publications/milleniumdeclaration/Tashkent_UN_Millenium_Declaration_Uzb.pdf

10. SDGs U.N. “United Nations’ Sustainable Development Goals. 17 Goals to Transform our World” (2019).

11. 2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan 17 ta o'zaro bog'liq maqsadlar to'plamidir. BMTning 2030-yilgacha global kun tartibi doirasida qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari keng qamrovli barqaror rivojlanishning eng muhim tarkibiy qismlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni saqlashga qaratilgan.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Dulanbayeva Oygul,

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti

Sotsiologiya kafedrasи katta o'qituvchisi

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

ZAMONAVIY JAMIYAT SHAROITIDA DIN VA IQTISODIY INSTITUTLARNING O'ZARO ALOQADORLIGI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Zamonaviy din odamlarning ongiga tobora ko'proq ta'sir qilayapdi, iqtisodiy munosabatlarda faol ishtirok etayapdi, muayyan masalalarda o'z fikrini bildirayapdi va dunyoda sodir bo'layotgan voqealarga befarq qolmayapdi. Olingan ma'lumotlarga asoslanib, yaqin kelajakda din va iqtisod o'rtasidagi munosabatlar yanada yaqinlashadi, ular o'rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlanadi, degan xulosaga kelishimiz mumkin. Mazkur maqolada, zamonaviy jamiyat sharoitida din va iqtisodiy munosabatlarning o'zaro munosabatlari, aloqadorliklari keltirilgan. Qolaversa, diniy qadriyat va meyorlarning iqtisodiy institutlarning shakllanishiga ta'siri tahlil etiladi. Bundan tashqari, diniy va iqtisodiy institutlarning kelib chiqishiga oid sotsiologik nazariyalar batafsil ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kapitalizm, protestant axloqi, tovar, kalvinizm, ishlab chiqarish munosabatlari, utelitarizm, provoslaviya, diniy xulq-atvor, ishchi kuchi.

Дуланбаева Айгуль,

Старший преподаватель кафедры социологии
факультета социальных наук Национального университета

Узбекистана имени Мирзо Улугбека,

доктор философских наук по социологии (PhD)

e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

ВЗАИМОСВЯЗЬ РЕЛИГИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИХ ИНСТИТУТОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБЩЕСТВЕ

АННОТАЦИЯ

Современная религия все больше затрагивает умы людей, активно участвует в экономических отношениях, выражая свое мнение по тем или иным вопросам, не остается равнодушной к событиям, происходящим в мире. Исходя из полученной информации, можно сделать вывод, что в ближайшее время взаимоотношения между религией и экономикой станут более тесными, и связи между ними только укрепятся. В данной статье представлены отношения и связи между религией и экономическими отношениями в условиях современного общества. Кроме того, анализируется влияние религиозных ценностей и норм на

формирование экономических институтов. Кроме того, подробно раскрываются социологические теории происхождения религиозных и экономических институтов.

Ключевые слова: капитализм, протестантская этика, товар, кальвинизм, производственные отношения, утилитаризм, прославянство, религиозное поведение, рабочая сила.

Dulanbaeva Aygul,

Senior lecturer of the Faculty of Sociology
of the National University of Uzbekistan Mirzo Ulugbek,

Doctor of Philosophy and Sociology (PhD)

e-mail: oyguldulanboyeva@mail.ru

RELATIONSHIP OF RELIGION AND ECONOMIC INSTITUTIONS IN MODERN SOCIETY

ABSTRACT

Modern religion increasingly affects people's minds, actively participates in economic relations, expressing its opinion on various issues, and does not remain indifferent to events taking place in the world. Based on the information received, we can conclude that in the near future the relationship between religion and economics will become closer, and the ties between them will only strengthen. This article presents the relationships and connections between religion and economic relations in the conditions of modern society. In addition, the influence of religious values and norms on the formation of economic institutions is analyzed. In addition, sociological theories of the origin of religious and economic institutions are disclosed in detail.

Keywords: capitalism, protestant ethics, commodity, calvinism, production relations, utilitarianism, slavism, religious behavior, labor force.

KIRISH

Din va iqtisodiyotning o‘zaro ta’sirining sotsial tomonlari jamiyatda ro‘y beradigan muhim o‘zgarishlar nuqtayi nazaridan qiziqish uyg‘otadi. Bu ma’noda ko‘pgina mutaxassislar iqtisodiy o‘zgarishlar jamiyatning madaniy, mental xususiyatlaridan kelib chiqishi zarur ekanini ta’kidlaydilar. Qolaversa, yangi turdagи mehnat motivatsiyalarining poydevori, bandlik, tejamkorlik kabi iqtisodiy munosabatlarning negizini ham ma’naviy, diniy, axloqiy xususiyatlar bilan izohlash mumkin. Aynan shuning uchun ham dinning zamonaviy iqtisodiy tizim rivojidagi ahamiyatini tarixiy, ijtimoiy, madaniy jihatdan ko‘rib chiqish alohida dolzarblik kasb etadi.

Sotsiologiya individning iqtisodiy xulq-atvorini, birinchi navbatda, ijtimoiy-madaniy, xususan, jamiyatdagi diniy tizimning ta’siri doirasida bo‘lgan sotsial rollar hamda tashkilotlarning o‘ziga xos majmui sifatida o‘rganadi.

METODOLOGIYA

Bugungi kunda sotsiologiya fani doirasida siyosiy, madaniy va diniy o‘zgarishlarning iqtisodiy hayotga ta’sirini u yoki bu darajada izohlovchi ikki asosi yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin. Misol uchun, K.Marksning “Iqtisodiy va falsafiy qo‘lyozmalar” deb nomlangan dastlabki asarları iqtisodiyotda muhim bo‘lgan “begonalashuv” hodisasiga bag‘ishlanadi. Marks mazkur tushunchani yangicha talqin bilan izohlaydi. Asarda din begonalashuvning asosiy shakli – iqtisodiy ifodasi sifatida baholaydi. Bu ma’noda, begonalashuvning dastlabki bosqichi mehnat faoliyati bilan ifodalanadi [1].

ASOSIY QISM

Marksning keyingi asarlarida din, siyosat, san’at, falsafa kabi iqtisodiy bazesning ustqurmasi sifatida tavsiflanadi. Unga ko‘ra, jamiyatning iqtisodiy bazes, ya’ni asosi siyosiy va ma’naviy jarayonlarni belgilaydi. O‘z navbatida, ushbu sohalar ham iqtisodiy tizimga teskari ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy harakatlar va sinfiy kurashning ajralmas qismi bo‘lgan ustki tuzilmaviy hodisalar, xususan, din ham ularning iqtisodiy munosabatlardagi vazifalari hamda rolini ochib berish asosida tushuntiriladi. Marksga ko‘ra, din mafkuraning bir turi muayyan sinf manfaatlarini ifodalovchi g‘oya

hisoblanadi. “Zotan, din Xudo tomonidan yaratilgan mavjud ijtimoiy tartibotni yoqlaydi. U tarixiy nuqtayi nazardan, xalqning ongini chalg‘ituvchi “afyun” funksiyasini bajaradi. Lekin, shunga qaramay, u ayrim hollarda ijtimoiyadolatsizlikka qarshi kurashda rag‘bat beruvchi kuch sifatida namoyon bo‘lishi ham mumkin” [2].

Din Marksning fikricha, hukmron sinflarning manfaatlarini oqlovchi mafkuraviy vazifani bajaradi. Shu bois, u insonni inson tomonidan ekspulatatsiya qiluvchi tuzumni himoya qiladi. Dinni mazkur pozitsiyadan, xususan, marksizm nuqtayi nazardan tahlil qilish diniy g‘oyalar jamiyatning real hayotidagi mavjud munosabatlardan kelib chiqishini va shu ma’noda din hamda iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘ziga xos ochib berishni taqazo etadi. Garchand, zamonaviy tadqiqotlarda din va ishlab chiqarishning turli usullari ijtimoiy tabaqlanish, taqsimlanish shakllari o‘rtasidagi bog‘liqliklarni o‘rganuvchi asarlar mavjudligiga qaramay, keyinchalik, sotsiologiya doirasida mazkur yondashuv rivoj topmadi.

Din va iqtisodiyotning o‘zaro aloqadorligiga oid qarashlardan yana biri, Maks Veberga tegishli. O‘zining klassik asarlaridan biri “Protestant axloqi va kapitalizm ruhi”da Veber protestantlik, xususan, kalvinizm yo‘nalishining kapitalizmning vujudga kelishidagi ta’siriga diqqat qaratadi. Bundan tashqari Veber mazkur asar doirasida, K.Marksning dinni iqtisodiy munosabatlarning mahsuli sifatida baholovchi yondashuviga e’tiroz bildiradi. “Protestant axloqi va kapitalizm ruhi” asarida bayon qilingan din va iqtisodiyotning aloqadorligi muammosi Veberning din haqidagi keyingi tadqiqotlarda ham o‘z ahamiyatini saqlab qoladi.

Diniy axloqiy munosabatlar iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishning tabiatiga, mohiyatiga, eng muhimi, rag‘batlantirish shakllariga qanday ta’sir qiladi? Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlarini amalga oshirish diniy axloqiy me’yorlarni, ularning semantik talqinini qanday o‘zgartiradi? Ayni ushbu muammolarni Veber jahon dinlarini tadqiq etishda ko‘rib chiqadi. Olim o‘zining yana bir muhim asari “Jahon dinlarining xo‘jalik axloqi” nomli tadqiqotida yuqoridagi masalalarni ilmiy faktlarga asoslangan holda ochib beradi. Qolaversa, din va xo‘jalik munosabatlari din hamda iqtisodiyot o‘rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydi. Veberga ko‘ra, bu munosabat ikki turdag'i xulq-atvor asketizm va mistik ko‘rinishda bo‘lishi mumkin.

Mistik xulq-atvor harakatga emas, aksincha, egalik qilish, ilohiy mohiyat bilan birlashishga qaratiladi. Obrazli qilib aytganda, mistik faoliyat insonda yaratganning qurolini emas, uning ilohiy nuri bilan to‘ldirilishi lozim bo‘lgan idishni ko‘radi. Shu bois, mistik faoliyat kapitalizmga rag‘bat beruvchi harakatni ko‘zda tutmaydi.

Asketik xulq-atvor ikki yoqlama mazmun kasb etadi. Bir tomondan u dunyodan voz kechish, xalos bo‘lishni anglatsa, ikkinchi tomondan zohidlik mashqlari yordamida to‘plangan tajriba o‘ziga xos xarizmani, xususan, dunyo ustidan hukmronlik qilish istagini yuzaga keltiradi [3].

Veber aynan asketizmni kapitalizmning asosiy xususiyati sifatida tavsiflaydi. Unga ko‘ra, asketlikning individual xususiyati kapitalizm ruhini vujudga keltiradi. Veber dunyoga hukmronlik qilishni nazarda tutuvchi asketik xususiyatni aynan protestantlikning kalvinizm teologiyasining “mutloq taqdir” haqidagi g‘oyalarida ko‘radi. Bu ruhni xalos etish yo‘llari to‘g‘risidagi ta’limot bo‘lib, unda axloqiy g‘oyalar va reformatsiya (islah) qilingan xristianlik dindorlarining sotsial xulq-atvoriga amaliy ta’sir ko‘rsatadi. J.Kalvin g‘oyalariga ko‘ra, xristian jamoasi hayotida dindorlik va dunyoviylik, o‘rta asrlar katolik cherkovi taxmin qilganidek, o‘zaro qarama-qarshi emas, aksincha bir biriga yaqin munosabatlar hisoblanadi.

Shuningdek, Veber xristianlikning o‘ziga xos jihatni sifatida uning e’tiqod masalalarida chuquq individual ekanini alohida ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, har bir inson Xudo oldida yolg‘iz bo‘lib, u cherkov yordamisiz muqaddas kitoblarni o‘qish va sharhlash huquqiga ega. O‘z navbatida, ushbu qarash katolik mazhabida ilgari surilgan “jamoaviy xalos” bo‘lish g‘oyasini inkor qiladi hamda shaxsiy individual najot topish to‘g‘risidagi g‘oyalarga keng yo‘l ochib beradi.

Veber protestantlik teologiyasida ta’kidlangan “bandaning najot topishining” ikki yo‘li haqidagi qarashlarni tahlil etadi. Ushbu qarashlarga muvofiq, protestantlik mazhabidagi kishilar quyidagi ikki ko‘rsatmalarga muvofiq najot topishi mumkin:

1. Inson o‘zi tanlagan yo‘liga ishonmog‘i g‘oyat muhim. Zero, bu yo‘l uning burchi hisoblanadi.

2. Inson o‘zini shubha va gumonlardan xalos etuvchi tinimsiz ishlarga bag‘ishlashi shart.

Shular bilan birga, yaxshi amallar: ibodat, ziyorat, ro‘za yo‘llar kalvinizmga muvofiq, najot yo‘li sifatida rad etiladi. Unga ko‘ra, chin ma’nodagi xristian kishi o‘z hayotiy maqsadini imkoniyati darajasida sidqidildan bajarishi lozim. Muntazam kundalik ish ilohiy irodaning bajarilishini anglatadi. Protestantizmda e’tiqodlilar uchun faqat bitta faoliyat sohasi, xususan, dunyoviy ma’nodagi kasbiy faoliyat “najot yo‘li” sifatida tavsiflanadi. Tinimsiz kasbiy faoliyat bu dunyoda Xudoni ulug‘lash vositasi bo‘lib, u insонning hayotidagi asosiy maqsad bo‘lishi ko‘zda tutiladi.

Bundan tashqari, puritan, ya’ni protestant axloqi oz narsaga qanoat qilish, eng asosiy ehtiyojlarni qondirish bilan cheklanishni, dabdaba va hashamadorlikdan, behuda narsalardan voz kechishni talab etadi. O‘z navbatida, ushbu talablar mehnat orqali erishilgan boylikning oshishiga, to‘plangan kapitalni sarmoya qilishga va doimiy ish faoliyatini sifatida foydalanishga asos bo‘ldi. Kasbiy burchni bajarish natijasida, boylik nafaqat ma’naviy jihatdan oqlandi, balki zaruriy shart sifatida ham belgilandi. Kambag‘al bo‘lishga intilish kasal bo‘lishni istash bilan teng deya baholandi [4].

Shunday qilib, protestantizm odamlarning iqtisodiy faoliyatini bevosa emas, balki bilvosita o‘zgartirib, uni asosiy diniy qadriyatlardan biri darajasiga olib chiqdi. Oqibatda, protestantizm tadbirkorlik, ratsionalizm, pragmatizm xulq-atvorining keng tarqalishiga imkon berdi va ish sifatini maksimallashtirishga e’tibor qaratdi. Asketizm ruhida toblangan mehnat shaxsning muayyan qiyofasini shakllantirishga, kapitalizmni tasavvur qilib bo‘lmaydigan fazilatlar bilan ulug‘ladi. Vijdonliylik, qat’iyatlilik, ehtiyyotkorlik, aniqlik bajarilayotgan ishga kuchli darajada sodiqlik kabi sifatlar kasbiy faoliyat sifatining o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Natijada, tadbirkorlik va boshqa faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lgan protestantlar o‘zlarining iqtisodiy muvaffaqiyatlarini Xudoning qo‘llab-quvvatlashi sifatida baholadilar.

Veberning tadqiqotlarida din sotsiologiyasi uchun muhim xulosa, xususan, kapitalizm protestantizmning diniy axloqiy normalari ta’siri ostida yuzaga keldi, degan mulohaza bilan ifodalanadi. Albatta, kapitalizmning g‘alabasi faqat protestantlik axloqining ta’siri natijasi emas, Veber sanoatlashishning o‘sishiga yordam bergan boshqa omillar harbiy budgetning oshishi, iste’mol tovarlariga nisbatan yuqori talab kabi boshqa jihatlarni ham sanab o‘tadi. Bu o‘rinda, olim jamiyatning dinga ta’sir qilishini ham tan oladi.

O‘z navbatida, Veberning mazkur konsepsiysi turli nuqtayi nazardan ko‘plab tanqidga uchradi. Ushbu tanqidlar kapitalizmning yuzaga kelishida katolik mazhabining roli inobatga olinmaganini, buyuk geografik kashfiyotlarga yetarlicha e’tibor berilmaganini nazarda tutib, uyg‘onish davrining yetuk mutafakkirlarining xizmatlari nazardan chetda qoldirilgani bilan izohlandi.

Biroq, shunga qaramay, Veber konsepsiyasining asosiy qoidalari hali ham ko‘pchilik mutaxassislar tomonidan e’tirof etiladi. Ularning mulohazalariga ko‘ra, Veberning qarashlari, zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot, avvalambor, diniy ideallar kompleksi tomonidan belginanadi [5], degan xulosani keltirib chiqaradi. Keyinchalik, Veberning din va ijtimoiy o‘zgarishlar konsepsiysi bir nechta yo‘nalishlarda rivojlan Tirildi. Ulardan biri amerikalik sotsiolog R.Bellaning Yaponiyaning iqtisodiy modernizatsiyasida dinning roliga bag‘ishlangan tadqiqotlari edi. R.Bella o‘zining “Tokugava davri dini” asarida din va iqtisodiyotning o‘zaro ta’sirini tahlil etish asnosida diniy e’tiqodlarning iqtisodiy rivojlanishga rag‘bat berishi yoki to‘siq bo‘lishi muammolarini ko‘rib chiqadi. U Yaponiyaning jadal modernizatsiya omillariga diqqat qaratarkan, ularga ta’sir qilgan diniy me’yorlarni tahlil qiladi.

Bellaning fikriga ko‘ra, Yaponiya misolida dinning iqtisodiy tafakkurga, mentalitetga bilvosita ta’sir qilishi Veber nazarda tutgan ta’sirdan ko‘ra, boshqacharoq ifodalanadi [6].

Din va iqtisodiyotning o‘zaro aloqasini ko‘zda tutuvchi yana bir konsepsiyalardan biri bu P.Bergerning qarashlari hisoblanadi. Amerikalik ilohiyotshunos va sotsiolog olim P.Bergerning fikriga ko‘ra, xristianlik cherkovi va zamonaviy kapitalizm o‘rtasida hech qanday o‘zaro aloqa mavjud emas.

Menejment, marketing kabi tushunchalarni cherkovning savdo faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq qilib bo‘lmaydi. Lekin tadbirkorlik sohasidan kelgan ba’zi tushunchalar hamda amaliy ko‘nikmalardan foydalanish cherkovning ayrim manfaatlariga mos kelishi mumkin. Olimning qayd

etishicha, so‘ngi yillarda ayniqsa, sobiq sovet imperiyasi parchalangandan keyin kapitalizmning g‘alabasini o‘ziga xos ulug‘lash paydo bo‘ldi. Bu hol kapitalizmni, hatto din darajasigacha ko‘tarishga olib keldi.

Kapitalizmning afzallik tomonlarini qayd etarkan, amerikalik olim quyidagi ikki jihatga diqqat qaratadi:

1. Kapitalizm shu paytgacha misli ko‘rilmagan mo‘l-ko‘llikni yuzaga keltirdi, aholining g‘oyat katta qismini qashshoqlikdan olib chiqib, ularga munosib moddiy turmush darajasini ta‘minladi.

2. Kapitalizmning g‘oyaviy asosi, bиринчи navbatda, demokratiya hisoblanadi.

Berger kapitalizmning ijobiy tomonlarini qayd etish bilan birga uning kamchiliklarini ham tavsiflab o‘tadi. Uning fikricha, kapitalizm kishilarda sotsial himoyalanganlik hissini uyg‘otmaydi. Bundan tashqari, u sabab jamiyat ichida iqtisodiy muvaffaqiyatga erishganlar va erishmaganlar o‘rtasida o‘zaro ijtimoiy konfliktlarning yuzaga kelishi kutiladi.

Din sotsiologiyasi doirasida iqtisodiy tizim va din o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalari rus ilohiyotshunos olimi, sotsiolog S.N.Bulgakovning konsepsiyanarida ham o‘ziga xos tarzda talqin etiladi. S.N.Bulgakov, avvalambor, iqtisodiy munosabatlarni provaslaviya mazhabi qamrovida tahlil qiladi.

Rus jamiyat sharoitida din va iqtisodning o‘zaro ta’siri muammolari Bulgakovning “Cherkov va ijtimoiy muammolar”, “Iqtisodiyot falsafasi”, “Xristianlik va sotsializm” kabi asarlarida tilga olinadi.

Ushbu asarlarda Bulgakov Rossiyada ilk bor provaslaviya va kapitalizm o‘rtasidagi bog‘liqlikka alohida diqqat qaratadi. Olim Veberning “Protestant axloqi” asarini yuksak baholash asnosida, din iqtisodiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkinligi g‘oyasini e’tirof etadi. U diniy omilning iqtisodiy hayotga ta’siri Rossiyada yetarlicha o‘rganilmaganini ta’kidlaydi.

Bulgakov o‘z tahlilida quyidagi mulohazalarga tayanadi: dinni iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qabul qilish har bir jamiyatning tarixi va milliy xususiyatlaridan kelib chiqib e’tirof etilishi lozim. Olim Rossianing iqtisodiy rivojlanishida rus provasloviyasining rolini tahlil qiladi. U Veberning kapitalizm alohida ruhiy stimul – mehnatga faqat axloqiy harakat sifatida munosabatni emas, balki o‘z-o‘zidan boylika bo‘lgan qiziqishni ham anglatadi, degan xulosasini qo‘llab-quvvatlaydi.

Bundan tashqari, Bulgakov o‘z konsepsiysi doirasida iqtisodiy materializm: bentamizm, marksizm kabi nazariyalarni tanqid qiladi. Ayniqsa, olim mazkur nazariyalar tomonidan ilgari surilgan “Iqtisodiy odam” tushunchasini qabul qilmaydi. Bulgakovga ko‘ra, inson ijodiy ibtidoga ega faol mavjudot sanaladi. Shaxs, avvalambor, manfaatlarni hisoblash o‘lchovi emas, balki jonli xulq-atvor egasi sanaladi. Bu ma’noda xuddi inson kabi iqtisodiy munosabatlar ham faqat qandaydir mexanizm bo‘lmay, insonning xulq-atvori mahsuli sanaladi.

XULOSA

Yuqorida tilga olingan mulohazalarni umumlashtirib aytish mumkinki, ayrim diniy qadriyatlar va me’yorlar iqtisodiy tizimning rivojlanishi yoki inqiroziga yetarlicha ta’sir ko‘rsatadi. Agar diniy e’tiqod mehnatsevarlik, tejamkorlik, qat’iyatlilik va kamtarona turmush tarziga yo‘naltirilgan bo‘lsa, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga, tadbirkorlik faoliyatining o‘sishiga, jamiyatda moddiy farovonlikning barqaror taraqqiy etishiga xizmat qilishi mumkin.

Zamonaviy jamiyat sharoitida rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotida diniy tizimning ahamiyati g‘oyat mo‘tadil bo‘lib, u jamiyatning madaniy sohasi bilan birlashtirishda muayyan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga hissa qo‘shadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Маркс К. Религиозное отчуждение // Религия и общество: Хрестоматия по социологии религии. – С. 80-86.
2. Маркс К., Энгельс Ф. Немецкая идеология. (Первая глава) // Социология. – М.: Канон-пресс-Ц; Кучково поле, 2000. – С. 329-331, 408.

-
3. Вебер М. Социология религии (типы религиозных сообществ) // Вебер М. Избранное. Образ общества: Пер. с нем. – М.: Юрист, 1994. – С. 202.
 4. Вебер М. Религиозные идеи и интересы // Религия и общество: Хрестоматия по социологии религии. – С. 327.
 5. Гидденс Э. Социология. – С. 660.
 6. Гараджа В.И. Социология религии.
 7. Дюркгейм Э. Элементарные формы религиозной жизни // Мистика. Религия. Наука. Классики мирового религиоведения: Антология. – С. 230-231.
 8. Белла Р. Религия как символическая модель, формирующая человеческий опыт // Религия и общество: Хрестоматия по социологии религии. – С. 193.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Bekmurodov Xusan,
Ijtimoiy-huquqiy media markazi
direktor o‘rinbosari,
mustaqil tadqiqotchi
e-mail: mansurovichhusan@gmail.com

“МАХАЛЛА YETTILIGI” – JAMIYATDA IJTIMOIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISHNING YANGI MEXANIZMI SIFATIDA (SOTSIOLOGIK TAHLIL)



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Maqlolada bugungi kunga qadar samarali ishlagan mahalla “beshligi” tizimiga endilikda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organida soliqchi va ijtimoiy xodim ham qo‘silib, “yettilik” tarzida ish olib borishi belgilanganligi, “Mahalla yettiligi” tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko‘rsatish uchun safarbar etishga ko‘maklashishining ijtimoiy jihatlari ilmiy o‘rganilgan. Shu bilan birga, mahalladagi muammolarning o‘z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining sa‘y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va yo‘naltirish, mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari va boshqa mablag‘larning maqsadli va manzilli yo‘naltirilishini ta’minlash borasida amalga oshiriladigan ishlarning istiqboldagi imkoniyatlari sotsiologik nuqtai nazardan ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, sotsiologik yondashuv, klassifikatsiya usuli, amaliy faoliyat metodi, fuqarolik jamiyatni institutlari, ijtimoiy munosabatlar, transformatsiya, modernizatsiya, an‘anaviy jamiyat, institut.

Бекмурадов Хусан,
Заместитель директора
социально-правовой медиа-центра,
независимый исследователь
e-mail: mansurovichhusan@gmail.com

“МАХАЛЛИНСКАЯ СЕМЁРКА” – КАК НОВЫЙ МЕХАНИЗМ УЛУЧШЕНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В ОБЩЕСТВЕ (СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ)

АННОТАЦИЯ

В статье утверждается, что эффективно работавшая до сегодняшнего дня система махаллинской «пятерки» теперь будет включать в орган самоуправления граждан сборщика налогов и социального работника и работать в стиле «семерки». Он был научно изучен, чтобы помочь мобилизации. При этом перспективные возможности проведения работы по

своевременному и эффективному решению проблем микрорайона, объединению, координации и направлению усилий представителей государственных органов и организаций микрорайонов, увеличить финансовые возможности района, обеспечить целевое и целевое направление других фондов, были научно проанализированы с социологической точки зрения.

Ключевые слова: махалля, социологический подход, метод классификации, метод практической деятельности, институты гражданского общества, социальные отношения, трансформация, модернизация, традиционное общество, институт.

Bekmuradov Husan,
Social-legal Media Center deputy director,
independent researcher
e-mail: mansurovichhusan@gmail.com

“NEIGHBORHOOD SEVEN” – AS A NEW MECHANISM OF IMPROVING SOCIAL RELATIONS IN SOCIETY (SOCIOLOGICAL ANALYSIS)

ABSTRACT

In the article, it is stated that the neighborhood “five” system, which has been working effectively until today, will now include a tax collector and a social worker in the citizen's self-governing body, and work in the “seven” style. It has been scientifically studied to help mobilization. At the same time, the prospective possibilities of the work to be carried out in the timely and effective solution of the problems of the neighborhood, to unify, coordinate and direct the efforts of the representatives of the state bodies and organizations in the neighborhoods, to increase the financial capabilities of the neighborhood, to ensure the targeted and targeted direction of other funds, have been scientifically analyzed from a sociological point of view.

Key words: neighborhood, sociological approach, classification method, method of practical activity, institutions of civil society, social relations, transformation, modernization, traditional society, institute.

KIRISH

Har qanday davlat va jamiyatda fuqarolik jamiyati institutlarining modernizatsiyalashuvi hamda demokratik davlat qurishdagi ahamiyati bilan bog'liq turli masalalar ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. Biroq, mazkur ishlarda fuqarolik jamiyati institutlarning transformatsiyalashuvi bilan bog'liq jarayonlar, namoyon bo'lish tendensiyalarini ilmiy jihatdan tadqiq etish hamda uning ta'sirida davlat boshqaruvining yangi xususiyatlarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish ushbu tadqiqot ishining dolzarbligini belgilaydi.

Vazirlar Mahkamasining 18.05.2024-yildagi “Mahalla yettiligi” faoliyatini samarali tashkil etish hamda hokim yordamchisi, yoshlari yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baholashda mahalla raisining ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 292-son qarori imzolandi.

Prezidentning “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo'g'in sifatida ishlashini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlari to'g'risida” 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son Farmoniga muvofiq “mahalla yettiligi”ning faoliyati eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baholanadi [1].

METODOLOGIYA

Yangi zamonaviy munosabatlarda demokratik tamoyillar asosidagi jamiyat va davlat qurish bilan bog'liq jarayonlarda fuqarolik jamiyati institutlari, xususan, mahalla institutining ahamiyati, ularda kuzatiladigan o'zgarishlar, ularning zamonaviy jamiyatlardagi siyosiy tizim rivojidagi ahamiyatining konseptual asoslari ochib berilgan. Shuningdek, mazkur tushunchalarining sotsiologiya fanlari tizimida shakllanishining asosiy bosqichlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilib, o'rta asrlarda yashab ijod etgan Sharq va G'arb mutafakkirlari hamda zamonaviy O'zbekiston, shu bilan bir

qatorda, xorijiy olimlarning sohaga oid tadqiqotlari o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda tadqiq etilgan. Ushbu maqolada mahalla instituti misolida yuqoridagi savollarning tub mazmun-mohiyati bilan birga fuqarolik jamiyatni institutlarining Yangi O‘zbekistonda transformatsiyalashuvining davlat va jamiyat boshqaruviga ta’siri tahlil etilgan.

ASOSIY QISM

Jamiyatlarda fuqarolik jamiyatni institutlarning o‘zgaruvchanligi va transformatsiyalashuvi, shu asosda unga xos boshqaruvning ta’siri barcha davlatlar hamda jamiyatlar uchun xosdir [2, – C.17]. Fuqarolik jamiyatni institutlarning transformatsiyalashuvida yangi jamiyatlar boshqaruv tizimini takomillashtirish negizida an’anaviy qarashlar va maqsadlardan foydalanishning asosiy xususiyatlari masalasi o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Tan olish kerak, so‘nggi yillarda mahallani jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo‘g‘iniga aylantirish, uning jamiyatdagi o‘rni va rolini kuchaytirish, mahallalardagi muammolarni o‘z vaqtida va samarali hal etishda davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining imkoniyatlarini yana-da kengaytirish bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, mahalladagi hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori faoliyatini baholashda mahalla raislarining maqomini oshirish zarurligi taqozo etilmoqda. Bu tizim jamiyatning ijtimoiy munosabatlarini tartibga solishning muhim bir mexanizmi sifatida yuzaga keldi. Bu tizim davlat boshqaruvni joylarda amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Mahalla yettiligi” instituti – Yangi O‘zbekistonda davlat va jamiyat munosabatlarida yangicha ijtimoiy taranglikni oldini olishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu institutning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyatdagi rolini tubdan oshirish va uning aholi muammolarini hal etishda birinchi bo‘g‘in sifatida ishlashini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 21-dekabrdagi PF-209-son Farmoniga [3] hisoblanadi.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 13.06.2024-yildagi “Mahallalar faoliyatini tartibga solishga doir normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 334-sen qarori qabul qilindi. Xususan, hujjat bilan jamoatchilikni mahalla yettiligi a’zolari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida xabardor qilish tartibi tasdiqlandi. Nizom “mahalla yettiligi” a’zolari – mahalla raisi, hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, ijtimoiy xodim va soliq inspektori tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘ini oldida har chorakda hisobot berish tartibini belgilaydi.

Shuningdek, bu tizimning yana bir xususiyati – uning faoliyatining ochiqligi va shaffofligidir. Bu ochiqlikning umumiy manzarasi quyidagicha hisoblanadi: yettilikning har bir a’zosi o‘z faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha batafsil hisobot beradi. Hisobot fuqarolar yig‘inida har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 10-sanasigacha eshitiladi. Ko‘chaboshi va uyboschilar faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizom tasdiqlandi. U ko‘chaboshi va uyboshi saylovini tashkil etish va o‘tkazish tartibi, ularning asosiy vazifalari va funksiyalari, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi. Ko‘chaboshi va uyboschilar saylovi tegishli hududda doimiy yoki vaqtincha istiqomat qilayotgan fuqarolarning fuqarolar yig‘ini raisi rahbarligidagi yig‘ilishda ochiq ovoz berish orqali o‘tkaziladi.

Bu tizimning avvalo Yangi O‘zbekistonda ijtimoiy davlat qurishning alohida, uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik g‘oyasi sifatida har bir yettilik a’zolarining manzilli ishlash (muammolarni o‘z vaqtida hal etish)da alohida ahamiyat kasb etmoqda. Misol tariqasida, hokim yordamchisi o‘z hududida doimiy daromad manbaiga ega bo‘lmagan ishsiz aholini kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish hamda ularning bandligini ta’minlash; aholining tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, shu jumladan, kredit va subsidiyalar ajratilishida ko‘maklashish; dehqon xo‘jaliklari bilan eksport qiluvchi, broker va qayta ishlovchi korxonalarining hamkorligini tashkil etish; mahallalarda mikroloyihalar manzilli dasturini shakllantirish va ularning amalga oshirilishiga ko‘maklashish; bo‘sish turgan bino va inshootlar hamda yer maydonlarini auksion savdolariga chiqarishda ko‘maklashish; kambag‘al oilalarning daromadini oshirish choralarini ko‘rish; mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan yoki qaytib kelgan fuqarolar va ularning oila a’zolari bilan ishlash; tomorqa va ijara

yerlaridan samarali foydalanish ishlarini tashkil etish kabi 8 turdag'i aholining ijtimoiy kayfiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lan muammolarning monitoring qilish, o'rghanish, uning yechimlarini izlash yuzasidan o'z xizmat vazifalarini amalga oshiradilar.

Aholining ijtimoiy kayfiyatining o'rghanish – davlat va uning barqarorligining asosiy indikatori hisoblanadi [4, – C.301]. Bu tizimning yana bir muhim elementlaridan biri sifatida endilikda hududlar kesimida mahalla hududida jamoat tartibini saqlash; huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan manzilli ishslash; mahalladagi kriminogen vaziyatni tahlil qilish, huquqbuzarliklarni sodir etish sabablarini aniqlash va bartaraf etish choralarini ko'rish; qarovsiz va nazoratsiz qolgan voyaga yetmaganlarning ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta'minlash; aholini terrorchilik, ekstremistik va boshqa g'ayriqonuniy buzg'unchilik hamda axloqsizlik yo'nalishidagi oqimlar ta'siridan himoya qilishning yagona, o'rnatiligan, nazorat ostidagi ijtimoiy strukturasi shakllantiriladi.

O'rta asrlarda Abu Nasr Forobiy jamiyatda ijtimoiy mazmundagi me'yorlar (ya'ni, fuqarolik institutlari) zarurligini Aflatun qayd etgani misolida "Tarbiya oqillikni vujudga keltiradi. Kishining tarbiyasi bo'lmasa, u bekorchilikni ko'radi. Qonun farovonlik yo'lidir, shunday ekan, sohibi qonun tarbiyani mustahkamlashga alohida harakat qilishi zarur" [5, – Б.30], degan edi. Mahalla institutini mavjudligi an'anaviy va zamonaviy jamiyatlarga ham birdek xos. Platon fuqarolik jamiyatining markaziga davlatchilik va qonunchilik institutini qo'yadi [6, – C.74]. Demak, insonlar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan me'yorlarning taraqqiyoti asosida ijtimoiy, siyosiy institutlar takomillashgan. An'anaviy jamiyat va unga xos bo'lgan institutlarning eng kuchli jihat – an'analarning davlat boshqaruv sohasi bilan uyg'unlashuvi asosida ta'sir kuchiga ega ekanligi bilan izohlanadi [7, – C.270].

Mahalla va unga xos bo'lgan yangi o'zgarishlar aslida ana shu an'anaviy jamiyatimizning muhim bir imkoniyati sifatida namoyon bo'ladi.

Tan olish kerakki, mahalla – xalqimizning turmush tarzi, ma'naviy ehtiyoji, tafakkuri, insonlarning o'zaro qo'shnichilik aloqalari, oilaviy munosabatlarni shakllantiruvchi o'ziga xos maskan hisoblanadi. Bugun mahallaning jamiyat hayotidagi o'rni, nufuzi yana-da mustahkamlanib, u aholiga ijtimoiy ko'mak ko'rsatishning adolatli va ta'sirchan institutiga, samarali jamoatchilik nazoratini o'rnatadigan, odamlarga eng yaqin xalqchil tuzilmaga aylanmoqda. Eng muhim jihatini aytib o'tish lozim. Davlatimiz rahbari 2023-yil 16-17-noyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida Ma'naviyat va ma'rifat Kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida hududlardagi to'rtta sektorga qo'shimcha beshinchi – "Ma'naviyat sektori"ni tashkil qilish, bu borada "Surxondaryo tajribasi"ni yaratish bo'yicha taklif bildirgan edi. Bu taklif mahallani jamiyatning ma'naviy qiyofasiga aylantirish bo'yicha yangi harakatni yuzaga keltirdi. Albatta har bir tushunchaning asl mazmun-mohiyatini anglash muhim hisoblanadi. Misol uchun, "Ma'naviyat sektori"ning vazifalariga qisqacha to'xtlib o'tsak. Ushbu sektorga tashkilot va korxonalarning mas'ul rahbarlari, ziyorilar biriktirilib, hududlarning ijtimoiy-ma'naviy xaritasi yaratiladi. Sektor jamiyatdagi mavjud muammolarga tizimli yondashib, amalga oshirilayotgan ishlarni muvofiqlashtiradi hamda mazkur sohadagi vazifalar bo'yicha javobgar hisoblanadi.

Mahallalarda ma'naviyat sektorini tashkil qilish ijtimoiy-ma'naviy muhitni barqarorlashtirish bilan birga, aholini kitobxonlikka jalb etish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, madaniyat va san'atga oshno qilish, unutilib ketilayotgan milliy qadriyatlar va an'analarni ommalashtirish hamda xalqimiz orasida mehr-oqibat tuyg'ularini kuchaytirish kabi bir qator muhim vazifalarini amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu jamiyatning ma'anaviy imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiluvchi muhim bo'g'in bo'lib xizmat qiladi.

"Mahalla yettiligi" tizimiga o'zgartirish bu boshlangan islohotlarning mantiqiy davomi desak bo'ladi. Xususan, bugungi kunga qadar samarali ishlagan mahalla "beshligi" tizimiga endilikda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organida soliqchi va ijtimoiy xodim ham qo'shilib, "yettilik" tarzida ish olib borishi belgilandi. "Mahalla yettiligi" tomonidan mahallaning ichki resurslarini aniqlash hamda ularni ijtimoiy xizmatlar va yordam ko'rsatish uchun safarbar etishga ko'maklashish, mahalladagi muammolarning o'z vaqtida va samarali yechilishida davlat organlari va tashkilotlarining mahallalardagi vakillarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, muvofiqlashtirish va

yo‘naltirish, mahallaning moliyaviy imkoniyatlarini oshirish, kambag‘al oilalarga ajratilayotgan byudjet mablag‘lari va boshqa mablag‘larning maqsadli va manzilli yo‘naltirilishini ta’minlash borasida amalga oshiriladigan ishlar ham qayd etilgan.

2024-yil 1-yanvardan boshlab barcha tuman va shaharlarda “Mahalla byudjeti” tizimi amaliyatga joriy etildi [8]. Mazkur bo‘g‘inda yana ko‘plab yangilik va o‘zgarishlar kutilmoqda. Bu esa tizim faoliyatini shunga mos tarzda, yangicha asosda yo‘lga qo‘yishni taqozo etadi. Belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida sifatlari amalga oshirishni tashkil qilish maqsadida Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tomonidan mutasaddi vazirligini va idoralar bilan hamkorlikda har bir tuman (shahar) dagi “mahalla yettiligi” o‘qitish yo‘lga qo‘yildi va buning asosiy maqsadi sifatida “mahalla yettiligi”ning siyosiy-huquqiy, kasbiy bilimini oshirish, jamoatchilik va aholi bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat, deb belgilandi.

O‘quv kurslarini samarali tashkil etish maqsadida birinchidan, Farmon mazmun-mohiyati hamda ularda belgilangan topshiriqlarning amaliyatga uyg‘unligini ta’minlash uchun 11 ta dolzarb mavzuni o‘z ichiga olgan maxsus o‘quv dasturi ishlab chiqildi; ikkinchidan, “mahalla yettiligi” faoliyati uchun mas‘ul bo‘lgan vazirligini va idoralarning yuqori malaka va tajribaga ega 2 nafar mutaxassislardan iborat Ekspertlar guruhi shakllantirildi; uchinchidan, Ekspertlar guruhi tomonidan maxsus o‘quv dasturidagi har bir mavzu bo‘yicha o‘quv-metodik materiallar (ma’ruza matni, taqdimot materiallari, testlar) ishlab chiqildi; to‘rtinchidan, “mahalla yettiligi” faoliyati uchun mas‘ul bo‘lgan vazirligini va idoralarning hududiy bo‘linmalari mas‘ul xodimlaridan iborat jami 300 nafardan ortiq hududiy trenerlar ro‘yxati tuzildi. Albatta, bu tizim yangilik sifatida doimiy izlanishlarni, ilmiy tadqiqotlarni talab qiladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, ushbu tizim ijtimoiy muammolarning aniq motivlarini aniqlash, uning sabablarini aniqlashning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu o‘rinda ushbu tizimning samarali faoliyati ko‘rsatishi uchun quyidagilarni alohida tavsiya qilamiz:

1. Ushbu tizimda faoliyat ko‘rsatuvchi xodimlarning bilim va alakalarining sohaga mosligini ta’minlash;
2. Hududlarda “mahalla yettiligi” tizimi va mahalliy Kengash deputatlari o‘rtasida uzviy aloqalarni o‘rnatish;
3. O‘rganilgan ijtimoiy muammolarning doimiy ravishda monitoring qilish va ijtimoiy reyestrga kiritib borish.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zini o‘zi boshqarishning muhim instituti bo‘lmish – mahalla faoliyatining huquqiy asoslari Konstitutsiya darajasida bir qator masalalarda takomillashtirilyapti.

Birinchidan, Bosh qomusimizda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tegishli hududda tadbirkorlik va hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida maslahat markazlarini tashkil etish huquqiga egaligi belgilandi.

Ikkinchidan, mahallalarning boshqaruvi xodimlari soni soliqchi va ijtimoiy xodim qo‘silishi hisobiga yettitaga ko‘paydi.

Uchinchidan, mahallaning o‘zida 70 dan ortiq masala, jumladan, moddiy yordam va kreditlar hal etilishi, tizim to‘liq raqamlashtirilishi, mahalla raisining vakolatlari kengayishi belgilab qo‘yildi.

Shu bilan birga, bizning fikrimizcha, jamiyatda mahalla institutining rivojlanishi O‘zbekistonda demokratlashuv bilan bog‘liq quyidagi shart-sharoitlarni amalga oshirish imkoniyatlarini oshiradi: jamiyatda ijtimoiy qarashlarning aniq maqsadlar va harakatlar, dasturlar, fikrlar asosida birlashuvini ta’minlash platformasini shakllantiradi; fuqarolarning siyosiy qarorlarni qabul qilish bilan birga, unga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini (texnologiyalarini) qo‘llash richaglarini takomillashtiradi; eng avvalo, siyosiy tizimning davlat manfaatlaridan emas, balki jamiyat manfaatlariga ko‘proq xizmat qilish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi; davlat boshqaruvining ijtimoiy jihatdan maqbullashtirish va tiyib turish siyosatini amalga oshirishning yetakchi ijtimoiy instituti sifatida uning barqarorligiga hissa qo‘sadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/mahalla_ettiligi_faoliyatini_baholash_mehanizmi_takomillashtiriladi.
2. Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. – М., Фонд экономической книги «Начала», 1997. – С. 17.
3. <https://lex.uz/ru/docs/6931871>
4. Парсонс Т. (2018). О структуре социального действия. – М.: Академический проект. – С. 301.
5. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент: А.Қодирий номидаги ҳалқ мероси нашриёти, 1993. – Б. 30.
6. Платон. Законы. Сочинения, Т.ХIII. Петербург. 1923. – С.74.
7. Парсонс Т. Система современных обществ. – М., 1998. 270 с.
8. <https://lex.uz/ru/docs/5461749?ONDATE=23.09.2023>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Samadov Shohzod,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi mas’ul xodimi,
mustaqil izlanuvchi
e-mail: shaxzodsamadov9419@gmail.com

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINING IJTIMOIY TRANSFORMATSIYASIGA DOIR QARASHLAR (SOTSILOGIK TAHLIL ASOSIDA)



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada jamiyatning asosiy institutlarining fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy faolligini oshirishdagi o‘rni, davlat va siyosiy tizim, shuningdek, fuqarolik jamiyatining mavjudligi indikatori darajasiga erishish yangi jamiyatlarda qay tarzda sodir bo‘lishi, fuqarolik jamiyatini bir qator o‘zini namoyon etuvchi xususiyatlarga ega ekanligi, xususan, jamiyat va shaxs ehtiyojlari tizimida faol ijobjiy faoliyat va mehnatning roli alohida mazmunga ega bo‘lishi, mehnatga asoslangan ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar tizimining qaror topishi, jamiyat mazmuni, uning rivojlanish qonuniyatlari mohiyatining xususiy mulkchilik munosabatlari orqali belgilanishi, xususiy mulk barcha mulk shakllari qatori ravnaq topishi va uni muhofazalashda qonunning, davlat hokimiyatining alohida o‘rin tutishi, fuqarolarning huquqiy jihatdan bir xil maqomga egaligi va qonun oldida tengligi, jamiyatda adolatli sud tizimining qaror topishi va uning fuqarolarni himoyalovchi posbon idoraga aylanishi sotsiologik jihatdan tahlil etilgan. Muallif, jamiyatda ijtimoiy institutlar, xususan, fuqarolik jamiyatni institutlari, uning shakllari faoliyatidagi o‘zgarishlar, ularning transformatsiyalashuvi jarayoniga nisbatan turlicha qarashlar asosida ta’riflar, shu nuqtayi nazardan, avvalo, mutaxassislar tomonidan ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini, ilmiy konseptual asoslari, ushbu jarayonda jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni, xususan, fuqarolik jamiyatni va uning shakllariga xos o‘zgarishlarning davlat va jamiyat boshqaruviga ta’siri tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyatni institutlari, o‘zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy institutlar, modernizatsion, omillar, fuqarolik jamiyatni institutlari, ijtimoiy munosabatlari, transformatsiya, modernizatsiya, siyosiy mafkura, sotsiologik yondashuv.

Самадов Шохзод,
Сотрудник Олий Мажлиса Республики Узбекистан,
независимый соискатель
e-mail: shaxzodsamadov9419@gmail.com

ВЗГЛЯДЫ НА СОЦИАЛЬНУЮ ТРАНСФОРМАЦИЮ ИНСТИТУТОВ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА (НА ОСНОВЕ СОЦИОЛОГИЧЕСКОГО АНАЛИЗА)

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль основных институтов общества в повышении социальной и политической активности граждан, государства и политической системы, а также то, как происходит достижение показателя существования гражданского общества в новых обществах, факт что гражданское общество обладает рядом самопрезентирующихся характеристик, в частности, активная положительная деятельность и особое значение имеет роль труда в системе общества и индивидуальных потребностей, решение системы социальных потребностей и интересов на основе труда, содержание общества, сущность законов его развития определяются через отношения частной собственности, развитие частной собственности наряду со всеми формами собственности и особой роли закона и государственной власти в ее защите, правового положения граждан и их равенства перед законом, установления справедливой судебной системы в обществе и превращения ее в Сторожевой офис, защищающий граждан, был подвергнут социологическому анализу. Автор определяет социальные институты в обществе, в частности институты гражданского общества, изменения в деятельности его форм, исходя из различных взглядов на процесс их трансформации в обществе, в частности в гражданском обществе, и на влияние этих изменений на специфику его форм по государственному и общественному управлению.

Ключевые слова: институты гражданского общества, изменения, общественно-политические институты, модернизация, факторы, институты гражданского общества, социальные отношения, трансформация, модернизация, политическая идеология, социологический подход.

Shohzod Samadov,
An employee of the Oliy Majlis of the Republic
of Uzbekistan, an independent applicant
e-mail: shaxzodsamadov9419@gmail.com

VIEWS ON THE SOCIAL TRANSFORMATION OF CIVIL SOCIETY INSTITUTIONS (BASED ON SOCIOLOGICAL ANALYSIS)

ABSTRACT

The article analyzes the role of the main institutions of society in increasing the social and political activity of citizens, the state and political system, as well as how the achievement of the indicator of the existence of civil society occurs in new societies, the fact that civil society has a number of self-representing characteristics, in particular , active positive activity and the role of work in the system of society and individual needs have a special meaning, the decision of the system of social needs and interests based on work, the content of society, the essence of its development laws are determined through private ownership relations, the development of private property along with all forms of property and the special role of the law and state power in its protection, the legal status of citizens and their equality before the law, the establishment of a fair judicial system in society and its transformation into a watchdog office protecting citizens have been sociologically analyzed . The author defines social institutions in society, in particular civil society institutions, changes in the activity of its forms, on the basis of different views on the process of their transformation. social relations in society, in particular civil society and the impact of changes specific to its forms on state and community management.

Key words: civil society institutions, changes, socio-political institutions, modernization, factors, civil society institutions, social relations, transformation, modernization, political ideology, sociological approach.

KIRISH

Jahonda yuzaga kelgan keskin o‘zgarishlar jarayonida insoniyat oldida jamiyatning muhim fuqarolik jamiyatni institutlari transformatsiya-lashuvining asosiy xususiyatlarini tadqiq etish hamda

ularning rivojlanishga xos bo‘lgan imkoniyatlarini tizimli o‘rganish har doimgidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv sharoitida demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni shakllanayotgan, bozor munosabatlariga o‘tilayotgan bir davrda, jamiyatning fuqarolik jamiyati institatlari faolligini oshirish hamda mavjud boshqaruvni barqarorligini ta’minlashda ularning transformatsiyalashuv jihatlarini, omillarini konseptual jihatdan o‘rganish har bir demokratik davlatning har tomonlama imijini belgilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, demokratik rivojlanishga xos bo‘lgan tamoyillarni muayyan mamlakatda yana-da rivojlantirish hamda mustahkamlashning asosiy sharti sifatida aynan fuqarolik jamiyati institatlari muhim rol o‘ynamoqda. Bu jarayon bevosita har qanday davlat va jamiyat ijtimoiy-siyosiy muhitining evolyutsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi obyektlardan biri hisoblangan – fuqarolik jamiyati institatlari transformatsiyalashuvi jarayonining qay tarzda amalga oshirilishi, kechishi, ularning faolligi hamda muayyan davlat va jamiyat tizimi takomilidagi ishtirokida qanchalik ahamiyatini doimiy ravishda tadqiq etishga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

METODOLOGIYA

Rivojlangan xorijiy mamlakatlardagi yetakchi ilmiy markazlar tomonidan jamiyatni yana-da demokratlashtirish, fuqarolik jamiyati institatlarning transformatsiyalashuvi jarayonlarini tahlil qilish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga xos bo‘lgan yangi konseptual-metodologik masalalarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilishi ushbu muammoning naqadar dolzarbligidan dalolat bermoqda. Dunyo miqyosida global o‘zgarishlarning davlatlarga ta’siri hamda bunda fuqarolik jamiyati institatlarning qanchalik o‘zgarishlarga tayyorligi, ularni qabul qila olishi, holati, evolyutsiyasi va ularning transformatsiyalashuvi hodisasining ijtimoiy xususiyatlari kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa fuqarolik jamiyati institatlari rivojlantirish masalasining amaliy chora-tadbirlarini ko‘rish hamda davlatlar, jamiyatlar, millatlar hamda ularga xos boshqaruvning uzoq muddatli taraqqiyoti istiqbollarini belgilashning asosiy va yetakchi ko‘rsatkichi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

ASOSIY QISM

Sotsiologik ta’limotlarga ko‘ra, fuqarolik jamiyati bu – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an’ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e’zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so‘zsiz ta’milnadanigan, davlat hokimiyati organlari ustidan samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, inson omili va insoniy munosabatlar chuqur ma’naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin fuqarolik jamiyatidir. Shuningdek, fuqarolik jamiyati o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi ochiq jamiyat va unda markaziy o‘rinni inson egallaydi. Aynan shu ma’noda bunday jamiyat siyosiy-mafkuraviy, ayniqsa, avtoritar jamiyatga qarama-qarshi turadi. Oila, mulk, shaxs, erkinlik, huquq, qonun, fuqarolik jamiyatining qadriyatlaridir.

Fuqarolik jamiyatining dastlabki bosqichi, ya’ni 17-18 asrlarda, uning iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy zaminlari yaratilgan. Bu davrda sanoat va savdo rivojlanishi, ishlab chiqarish tarmoqlarining ixtisoslashishi va mehnat taqsimotining chuqurlashishi, shuningdek, tovar va pul munosabatlarining kengayishi asosiy omillar sifatida xizmat qilgan. Sanoat inqilobi va shaharlarni o‘z-o‘zini boshqarish tizimi fuqarolik jamiyati rivojida muhim rol o‘ynagan. O‘scha paytlarda G‘arbiy Yevropadagi shahar jamoalari a’zolari o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyatiga ega bo‘lishgan: adolatli sud tizimi, asossiz qamoqqa olishning bekor qilinishi, saylovda ovoz berish va boshqaruv organlariga saylanish huquqi, shuningdek, qurol olib yurish huquqi mavjud bo‘lgan. Sharqda esa bu boshqa turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘lgan.

Ko‘plab tadqiqotchilar bunday huquqlarni “fuqarolik huquqlari” deb atashgan va ular fuqarolik jamiyatining shakllanishi uchun zarur asos, deb hisoblangan. Fuqarolik jamiyatini bir qator o‘zini namoyon etuvchi xususiyatlarga ega bo‘lib, bularga: jamiyat va shaxs ehtiyojlari tizimida faol ijobjiy faoliyat va mehnatning roli alohida mazmunga ega bo‘lishi; mehnatga asoslangan ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar tizimining qaror topishi; jamiyat mazmuni, uning rivojlanish qonuniyatları mohiyatining xususiy mulkchilik munosabatlari orqali belgilanishi; xususiy mulk barcha mulk shakllari qatori ravnaq topishi va uni muhofazalashda qonunning, davlat hokimiyatining alohida o‘rin tutishi; fuqarolarning huquqiy jihatdan bir xil maqomga egaligi va qonun oldida tengligi; jamiyatda

adolatli sud tizimining qaror topishi va uning fuqarolarni himoyalovchi posbon idoraga aylanishi; shaxsning xususiy hayoti va iqtisodiy faoliyatiga davlat aralashuvining qonun doirasida cheklanishi; huquqiy davlatchilikning mayjud bo‘lishi; shaxsning davlat hokimiyatiga nisbatan mulkiy va iqtisodiy mustaqilligi; davlat, davlat idoralari va fuqarolar huquqning teng subyekti sifatida munosabatga kirisha olishi, ularning sudda teng taraflar sifatida maydonga chiqa olishi, fuqarolar huquqlarini kafolatlash va ustuvor ta’minalash mexanizmlarining yaratilganligi; fuqarolik jamiyatining tarkibiy institatlari, jumladan fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tizimining mayjudligi; jamiyatning yuksak ma’naviy-madaniy va axloqiy rivojlanganligi insonlar o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat, iymon-insof doirasida, shaxs qadrini e’zozlash asosiga qurilganligi kabilarni keltirsak bo‘ladi [1, – Б. 160].

Tarixiy rivojlanish evolyutsiyasida fuqarolik jamiyatini bunday sifatlab beradigan bir nechta insonlar o‘z asarlari orqali bizgacha yetib kelgan bo‘lib, shularning konsepsiya va nazariyalari orqali biz fuqarolik jamiyatini xususiyatlarga ajratamiz yoki sifatlaymiz. Unga ko‘ra, fuqarolik jamiyatning fundamental va dastlabki nazariyalari Gretsiyaga borib taqalsada, O‘rta Osiyoning bir qator olimlari asarlarida keltirilgan g‘oyalarni keltirib o‘tmasak bo‘lmaydi. Bularidan Abu Nasr Farobi fuqarolik jamiyatining muqobil varianti bo‘lgan kishilik jamiyatni haqida keltirganligi uchraydi. Forobi “Fozil shahar odamlari qarashlari” asarida jamiyat (inson jamoasi)ning kelib chiqish sabablarini ilmiy jihatdan asoslab beradi: “Har bir inson o‘z tabiatini bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliv darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, uning bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga krita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun kishilik jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo‘lgan, kishilarni bir-biriga yetkazib beruvchi va o‘zaro yordamlashuvchi ko‘p kishilarning birlashuvni orqaligina odam o‘z tabiatini bo‘yicha intilgan yetuklikka erishuvni mumkin. Bunday jamoa a’zolarining faoliyati bir butun holda ularning har biriga yashash va yetuklikka erishmoq uchun zarur bo‘lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson ko‘paydi va yerning aholi yashaydigan qismiga o‘rnashdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi”—deb aytadi [2, – Б. 57].

Yana bir mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiyning adolatli jamiyat to‘g‘risidagi qarashlari o‘z asarlarida aks etib, u hamisha “yuksak jamiyat” tashkil etishni orzu qiladi, “odil shoh”ni ulug‘laydi, jamiyatda yuz berayotgan nohaqliklar, adolatsizliklarni esa qattiq qoralaydi. Haqiqiy insoniy fazilatlar – adolat, mehru muruvvat, mehnatsevarlik, to‘g‘riso‘zlik, vatanparvarlik, halollik, insonparvarlik, qahramonlik kabi fazilatlarning ijobjiy jihatlarini keng va chuqur oshib beradi. Navoiyning fikricha, adolatli jamiyatni yuksak fazilatli, ma’naviyatli insonlargina barpo etishlari mumkin. Shuning uchun ham mutafakkir inson ma’naviyatini yuksaltirish asosida “yuksak jamiyat” qurish g‘oyalarni ilgari suradi. U insoniyatni ikkiga – “ahli ma’ni” va “ahli suvrat”ga bo‘lib, ularning har birini chuqur ta’riflab beradi [3, – Б. 64].

Lekin, mazkur keltirilgan mutafakkirlar fuqarolik jamiyatining asosiy institutlarini emas, balki unga xos bo‘lgan ilk g‘oyalarni keltirishadi. Fuqarolik jamiyatining asosiy konsepsiyalari butunlay boshqa davlatlar va boshqa davr odamlari tomonidan yaratilgan bo‘lsada, sharq adabiyotlari ularning mazkur konsepsiyalarni yaratishlari uchun asos bo‘ladi. Bu esa o‘rta asrlarda yaratilgan adabiyotlarning qadrini yana-da oshirib yuboradi. Fuqarolik jamiyatni masalalarini o‘rganishda klassik yondashuvlar barobarida, albatta zamonaviy yondashuvlarni ham o‘rganish zarur. Zero, bu hodisa asrlar osha o‘zining klassik mohiyatini saqlab qolgan bo‘lsada, uning ta’ifi va tuzilmasi davr o‘tishi mobaynida o‘zgacha tus olmoqda.

Fuqarolik jamiyatiga nisbatan bildirilayotgan ilmiy munosabat uning o‘zi singari murakkablashayotgani tufayli fuqarolik jamiyatni ilmiy doiralarda ham davr, ham mohiyat nuqtai nazaridan qayta-qayta tafakkur chig‘irig‘idan o‘tkazilmoqda. Fuqarolik jamiyatni haqidagi konsepsiyalar asosan yangi davrda kelib chiqqan bo‘lib, bularning asosi A.Aratoning dastlabki, qarashlariga borib taqaladi. Uning ta’kidlashicha, bu rivojlanish jarayoni “radikal islohotchi” yoki “evolyutsion” yondashuvlarni qamrab olgan ikki yo‘nalishli strategiyaga asoslanadi. Bu strategiya, dastlab Sharqiy Yevropa va keyinchalik Lotin Amerikasida, avtoritar davlatlar doirasidan tashqarida jamiyatning o‘zini-o‘zi tashkil etish g‘oyasiga asoslangan ijtimoiy aloqalarni qayta tiklashni o‘z

ichiga olgan. Shuningdek, Arato bu jarayonda har qanday rasmiy davlat yoki partiya nazoratidan mustaqil ommaviy fikrni shakllantirishga intilgani keltiriladi [4, – C.48].

Aynan shu qarashlar fuqarolik jamiyatini konsepsiyasini totalitarizmga qarshi kurashda umumiyligi strategiya sifatida muhim ahamiyatga kasb etadi. Bu yondashuv Polsha va boshqa Sharqiye Evropa mamlakatlarda keng tarqalib, butun dunyoga yoyiladi. Ushbu jarayonlar natijasida ko‘plab mamlakatlarda fuqarolik jamiyatining institutsional tuzilmalar orqali cheklangan huquqiy himoya sohasiga ega emasligi ayon bo‘ladi. Gegel va Tokvil kabi faylasuflar bu tushunchalar o‘z ilmiy qarashlariga asoslanib, norasmiy ijtimoiy aloqalarni fuqarolik jamiyatining rasmiy va institutsional tuzilmalaridan farqlash zarurligini ta’kidladilar. Yana Aratoning konsepsiyalari ko‘ra, o‘z-o‘zini tashkil etuvchi harakatlar, tashabbuslar va uyushmalar ijtimoiy sohani harakatga keltirib, jamiyat avtonomiyasini qo‘llab-quvvatlaydi va fuqarolik jamiyatining institutsional tuzilmalarini rivojlantirishga asos bo‘ladi. Shunday qilib, Arato fuqarolik jamiyatini bir harakat sifatida ko‘rib chiqish bilan bir qatorda, uni institutsionallahtirilgan tuzilma sifatida ham tan oladi. Uning nazariga ko‘ra, fuqarolik jamiyatining bu ikki shakli tarixiy va ijtimoiy bog‘liqlik orqali rivojlanadi, birinchisi o‘zini o‘zi tashkil etuvchi fuqarolik jamiyatni bo‘lsa, ikkinchisi uning institutsionallahtirilgan rasmiy shaklidir.

Fikrimizcha, bu fuqarolik jamiyatini institutlari haqidagi konsepsiylar o‘rtasida qaramaqarashiliklar keltirib chiqarib, yagona yaxlit fuqarolik jamiyatini institutlari haqidagi fikrlar shakllanishiga xizmat qila boshlaydi. Dunyoning boshqa tomonida fuqarolik jamiyatini konsepsiylari bilan bog‘liq bir qator nazariyalar urchiy boshlaydi. Bir qator ilmiy yondashuvga ko‘ra, ko‘plab adabiyotlarda fuqarolik jamiyatini va davlatning klassik (liberal) qaramaqarashiligi masalasi qayta ko‘rib chiqiladi. Ko‘p mualliflar fuqarolik jamiyatini va davlat o‘rtasidagi chegaralarni qat’iy belgilamaslik zarur deb hisoblaydi. Davlat ham fuqarolik jamiyatini kabi o‘z maqsadlariga erishishda keng resurslar va institutsional harakat shakllaridan foydalanadi, lekin ular o‘rtasidagi funksional va tuzilmaviy tafovutlarni tan olish zarurati mavjud. Bu nuqtai nazardan, Ralf Darendorf fuqarolik jamiyatini “ijodiy tartibsizlik” deb ta’riflaydi, bu jamiyat assotsiatsiyalarning ko‘p qirrali va mustahkam tuzilishidan iborat bo‘lib, har bir guruh o‘ziga xos asosga, tarixga va a’zolik shakllariga ega ekanini bildiradi. Darendorfning fikricha, erkinliklarni saqlash uchun davlatning roli minimal bo‘lib, asosiy funksiyalar bilan chegaralanishi yoki fuqarolar tomonidan tashkil etilgan birlashmalarning mavjud bo‘lishi kerakligi haqida edi [5, – C.41].

I.Kant o‘zining “Butunjahon fuqarolikda umumiyligi tarix g‘oyasi” asarida huquqiy fuqarolik jamiyatini sifatida markazga davlatni qo‘yadi. Chunki, aynan shunday jamiyatda uning fuqarolariga buyuk erkinlik berilishi mumkin. Harqalay, erkinlikni aniq ta’riflash va uni boshqalarniki bilan mutanosibligini ta’minlash, insoniyatning barcha sir-sinoatini ochib berish tabiatning eng oliy maqsadi hamdir [6, – B.95].

G.Gegel yondashuvi bo‘yicha xususiy mulk fuqarolik jamiyatining negizini tashkil etadi. Kishilar, avvalo xususiy manfaatlarga asoslangan holda harakat qilishadi, ammo ular bir-birlari bilan bog‘liq bo‘lganliklari tufayli ular o‘rtasida ijtimoiy aloqa o‘rnataladi. Fuqarolik jamiyatni xususiy mulkka asoslangan ijtimoiy tuzilma sifatida bozor munosabatlari tizimini, oila va davlat orasida joylashgan jamiyatning hayotiyligini, fuqarolik huquqlarini ta’minlaydigan oraliq shaklini ifoda etadi [7, – B.228].

A.Fergyusson qarashlarida fuqarolik jamiyatni to‘g’risidagi fundamental konsepsiyanini ko‘rish mumkin. Olimlar fikriga ko‘ra, fuqarolik jamiyatni tushunchasini dastlab aynan A.Fergyusson qo‘llagan. Uning qarashlari bo‘yicha shaxslarning baxti fuqarolik jamiyatining asosiy maqsadidir: a’zolarining har biri baxtsiz bo‘lgan jamiyat qanday farovonlikka erisha oladi? Fegryusson o‘z ta’limotida insonning axloqiy qarashlarini birinchi o‘ringa olib chiqadi. U J.J.Russonning tabiiy holat borasidagi fikrlariga qarshi chiqar ekan, insonning jamiyat ichida tug‘ilishi va jamiyat ichida qolishi to‘g’risidagi Sh.Monteskye fikriga to’liq qo‘shiladi. U insondagi xudbinlikni qoralar ekan, o‘ta xudbin inson ijtimoiy faoliyat yuritishi mumkin emasligini ta’kidlaydi [8, – B.107].

Aslini olganda “fuqarolik jamiyat” g‘oyasi turli madaniy, axloqiy, iqtisodiy va siyosiy omillardan kelib chiqib, ko‘p darajali tizim sifatida shakllanmoqda. Bu tizim mexanik jihatdan boshqa jamiyatlardan model sifatida o‘zlashtirilishi yoki yuqorida o‘rnatalishi qiyin, aks holda bu

deformatsiyaga yoki siyosiy guruhlar tomonidan maqsadli ravishda foydalanishga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda rus olimlari fuqarolik jamiyatini tushunishning ikkita an'anaviy yondashuvini ko'rsatadi: bu yondashuvlar "L-an'anasi" va "M-an'anasi" deb ataladi. "L-an'anasi" maktabi J.Lokk ta'limotiga asoslangan bo'lib J.Lokk o'zining "Fuqarolik boshqaruvi haqidagi ikkinchi risola" deb nomlangan asarida "har qanday odam uchun tabiiy (ya'ni, sodda, johil, ibtidoiy – muallif izohi) holatni inkor etgan holda fuqarolik jamiyati talablari darajasiga yetish uchun yagona yo'l boshqalar bilan kelishgan holda ijtimoiy birlikka qo'shilish yoki birlashishdan iboratdir" keltirib o'tadi [9, – C. 34].

Fuqarolik jamiyatini tabiiy holatdan keyingi ijtimoiy rivojlanish bosqichi sifatida ko'radi va asosan Angliya-Amerika nazariyalariga tayanadi. Bu an'anada fuqarolik jamiyati huquqiy tuzilma sifatida ta'riflanadi, shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qilish g'oyasi asosiy o'ringa chiqadi. L-an'anasi maktabi asosida fuqarolik jamiyati yangi siyosiy va ijtimoiy tuzilmaning to'liq tavsiflovchi tushunchasi hisoblanadi. Bu tushuncha fuqaroni jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida birinchi o'ringa qo'yib, shaxsiy huquq va erkinliklarni himoya qiluvchi, liberal-demokratik tizimni ta'riflaydi.

M-an'anasi maktabi asoschilaridan biri Sh.Montaskye bo'lib, u fuqarolik jamiyatini keltirib chiqaruvchi omillarga to'xtalar ekan, u shunday yozadi: fuqaro uchun erkinlik o'z xavfsizligi borasida ishonchga asoslangan ruhiy xotirjamlikdir. Bunday xotirjamlikka erishish uchun shunday boshqaruv bo'lishi kerakki, bu holatda bir fuqaro boshqa fuqarodan qo'rmasin. Fuqarolik jamiyatida qonunlarning hayotda amal qilishiga urg'u bergen olim "men biror mamlakatga borsam, u yerda yaxshi qonunlar mavjudligi bilan emas, balki qonunlarga qanday itoat etilayotganligi bilan qiziqaman" [10, – C.143]. Demak, fuqarolik jamiyati institatlari jamiyatda barqarorlikning asosiy barometridir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, fuqarolik jamiyati va uning institutlariga oid zamonaviy yondashuvlar turli jihatlar bilan farqlanadi. Agar tadqiqotlarni tarixiy nuqtai nazardan ko'rib chiqsak, fuqarolik jamiyatining klassik xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan hozirgi tadqiqotlar uning tarixiy asoslarini yoritishga harakat qilmoqda. Ayniqsa, fuqarolik jamiyatining iqtisodiy poydevorini o'rganishda uning ilk davrlariga, xususan, o'rta mulkdorlar qatlami va shahar aholisining shakllangan davriga murojaat qilish muhim hisoblanadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyati rivojlanishi jarayonida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar ham e'tiborga olinishi lozim, chunki bu o'zgarishlar jamiyatni yana-da mustahkamlash va barqarorlikka erishishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, fuqarolik jamiyati va uning asosiy institutlariga xos zamonaviy konsepsiyalari faqat tarixiy jihatlarga emas, balki dolzarb ijtimoiy ehtiyojlarga ham moslashishni talab qiladi. Bu esa fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va ularning barqarorligini ta'minlash uchun yangi, innovatsion yondashuvlar va strategiyalarga ehtiyoj tug'diradi. Shu sababli, fuqarolik jamiyati va uning asosiy institutlarini o'rganishda nafaqat klassik nazariyalarni, balki zamonaviy sharoitda yangilanayotgan paradigmalarining ahamiyati doimiylik kasb etadi.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Кўлдошев А. Фуқаролик жамияти тараққиётида Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. Ўкув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 160 б.
2. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: А.Қодирий ном. ҳалқ мероси нашриёти. 1993. – 57 б
3. Навоий А. Ҳайратул-аббор. (Яхшилар ҳайрати). – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашри., 1974. – 64 б
4. Арато А. Концепция гражданского общества: рождение, упадок и восхождение – и направления для дальнейших исследований // Полис. 1995. №3. – С. 48.
5. Дарендорф Р. От социального государства к цивилизованному обществу // Социс. 1993. №5. – С.33.

-
6. Гегель Г.В. Ф. Философия права. Пер. с нем.: Ред. и сост. Д.А.Керимов и В.С.Нерсесянц; Авт. вступ. ст. и примеч. В.С.Нерсесянц. – М.: Мысль, 1990.
 7. Идея всеобщей истории во всемирно-гражданском плане. В кн.: Кант, Иммануил. Сочинения в шести томах. – М., «Мысль», 1994. – (Философ. наследие). Т. 6. – 743 с. – С.5-23.
 8. Фергюсон А. Опыт истории гражданского общества. Пер. с англ. И.И.Мюрберг; Под ред. М.А. Абрамова. – М.: РОССПЭН, 2000.
 9. Гоббс Т. Избранные произведения. В 2-х томах. Т.2. – М., 2006. – С. 41.
 10. Монтескье Ш.Л. Избранные произведения. О законах в их отношениях к различным существам. – М., 1955 – С. 143.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Мирзаева Шахноза,
докторант кафедры Социальная работа
Национального университета Узбекистана

НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН: ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СФЕРЕ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается обзор сложившейся ситуации в стране гендерного равенства в сфере предпринимательства. Даётся характеристика проводимым реформам по развитию гендерного равенства и поддержки женского бизнеса. Проанализировано женское предпринимательство как неотъемлемая часть предпринимательства Узбекистана, которое непосредственно влияет на развитие экономики страны и, как следствие, общее благосостояние. Выявлены причины участия женщин в предпринимательстве – стремление самореализоваться, стремление получить образование и реализовать свои профессиональные возможности. В статье рассмотрены реализация программ, предусматривающих социальную помощь, поддержку предпринимательства и самозанятости на уровне махалли. Статья основана на отчете Международного банка реконструкции и развития «Страновая гендерная оценка для Узбекистана 2024».

Ключевые слова: гендерное разнообразие, женское предпринимательство, корпоративное управление, права женщин, гендерные исследования, малый и средний бизнес среди женщин, индекс женской предпринимательской активности.

Mirzayeva Shahnoza,
O'zbekiston milliy universiteti
Ijtimoiy ish kafedrasi doktoranti

YANGI O'ZBEKISTON: TADBIRKORLIK DAGI GINDER TENGLIGI

ANNOTATSIYA

Maqolada tadbirkorlik sohasida gender tengligi bo'yicha mamlakatdagi mavjud vaziyat haqida umumiy ma'lumot berilgan. Gender tengligini rivojlantirish va ayollar biznesini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning tavsifi berilgan. Xotin-qizlar tadbirkorligi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga va natijada umumiy farovonlikka bevosita ta'sir ko'rsatadigan O'zbekiston tadbirkorligining ajralmas qismi sifatida tahlil qilingan. Xotin-qizlarning tadbirkorlikda ishtirok etishi sabablari - o'zini namoyon qilish, ta'lim olish va kasbiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish istagi aniqlangan. Maqolada mahalla miqyosida ijtimoiy yordam, tadbirkorlik va yakka tartibdagi bandlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha dasturlar ijrosi o'rganilgan. Maqola Xalqaro

tiklanish va taraqqiyot Bankining “Mamlakatning Gender Baholash O‘zbekiston 2024” hisobotiga asoslangan.

Kalit so'zlar: gender xilma-xilligi, ayollar tadbirkorligi, korporativ boshqaruv, ayollar huquqlari, gender tadqiqotlari, ayollar o‘rtasida kichik va o‘rta biznes, ayollar tadbirkorlik faoliyati indeksi.

Mirzaeva Shakhnoza,
doctoral student of the Department of Social Work
National University of Uzbekistan

NEW UZBEKISTAN: GENDER EQUALITY IN ENTREPRENEURSHIP

ABSTRACT

The article provides an overview of the current situation in the country of gender equality in the field of entrepreneurship. It provides characteristics of the ongoing reforms to develop gender equality and support women's business. It analyzes women's entrepreneurship as an integral part of entrepreneurship in Uzbekistan, which directly affects the development of the country's economy and, as a result, overall well-being. The reasons for women's participation in entrepreneurship are identified - the desire for self-realization, the desire to get an education and realize their professional potential. The article discusses the implementation of programs that provide social assistance, support for entrepreneurship and self-employment at the mahalla level. The article is based on the report of the International Bank for Reconstruction and Development “Country Gender Assessment for Uzbekistan 2024”.

Key words: gender diversity, women's entrepreneurship, corporate governance, women's rights, gender studies, small and medium-sized businesses among women, index of women's entrepreneurial activity.

ВВЕДЕНИЕ

На современном этапе развития мировой экономики все заметнее становится роль современной женщины в бизнес-среде, малого и среднего предпринимательства. Несмотря на то, что на сегодняшний день есть четкое различие между делением профессии на «мужские» и «женские», можем увидеть, что как мужчины, так и женщины могут столкнуться с гендерными проблемами, предрассудками и с устаревшими взглядами общества.

По статистике чаще всего сталкиваются женщины в трудовом круге. Это говорит о том, что вопрос гендерного неравенства в профессиональной сфере остается все также актуальным и требует разрешения, как со стороны общества, так и со стороны государства. В рамках исследования, проведенном агентством «McKinsey», было установлено, что если бы все страны мира пришли бы к гендерному равенству в корпоративном сегменте, то мировой ВВП к 2025 году вырос бы на 12 трлн \$ [1]. Активное вовлечение женщин в бизнес-процессы способствует созданию новых рабочих мест и, как следствие, стимулирует экономический рост государств, а также позволяет наращивать инновационный потенциал.

Узбекистан осуществляет трансформационную программу политических, социальных и экономических реформ, в том числе уделяя особое внимание гендерному неравенству. Объявленная в 2022 году Стратегия развития Нового Узбекистана основывается на приоритетах предыдущих концепций, но при этом подчеркивает стратегические темы справедливости, достоинства и инклюзивности. Законодательство и государственные программы, запущенные в 2022 году, гарантируют равные права и возможности для женщин и мужчин. Активные программы, направленные на расширение участия женщин в государственном управлении, и государственное финансирование для поддержки женщин с низким доходом, получающих высшее образование, являются одними из многих новых инициатив по содействию большему равенству [2,3,4,5].

Принятие Новой Стратегии, особое внимание направляется на достижение гендерного равенства к 2030 году [6]. Стратегия включает план действий гендерного равенства, а также ключевые принципы достижения гендерного равенства в различных сферах, включая в сфере бизнеса.

МЕТОДОЛОГИЯ

В научной литературе вопросы разработки поддержки женщин предпринимательниц также представляют большой интерес, и составляет объемный практический материал. В основном в научных изысканиях исследуются вопросы предпринимательства в различные исторические периоды, основываясь на учете социокультурных условиях, модели политики поддержки в отношении женщин, уровни социальной защиты женщин, концепции предпринимательства и бизнеса различных государств. Отечественных ученых по степени и с точки зрения подходов можно разделить на две группы. К первой группе ученых, которые в своих исследованиях рассматривали социальное положение женщин и их роль относятся такие как Ганиева М.Х. [7], Нарбаева Т.К. [8], Гаффарова М. [9] и др.

В научных трудах отечественных ученых, например, Н.Х.Рахимовой, женское предпринимательство характеризуется как социальная направленность, как и в других странах мира [10]. По ее мнению, женщина ближе к сердцу воспринимает проблемы окружающих ее людей, создавая свое предприятие, ориентируется на более конкретные и реальные цели, меньше рискует и, как правило, не гонится за сверхприбылью.

Женское предпринимательство – неотъемлемая часть предпринимательства Узбекистана в целом, которое непосредственно влияет на развитие экономики страны и, как следствие, общее благосостояние. В предпринимательство женщину подталкивает и стремление самореализоваться, стремление получить образование и реализовать свои профессиональные возможности. В настоящее время в Узбекистане действует ряд мер для поддержки женского предпринимательства [11]:

- профессиональное образование женщин;
- поддержка бизнеса, обеспечивающего занятость нуждающихся женщин;
- льготные кредиты женщинам-предпринимателям;
- в период 2022-2024 годов реализуется программа «Бизнес-леди»;
- создаются центры обеспечения занятости и укрепления здоровья женщин в махаллях.

За последние 5 лет число женщин-предпринимателей в Узбекистане удвоилось. На сегодняшний день, 40% предпринимателей в стране составляют женщины [12]. Положительной тенденции удалось добиться благодаря ряду государственных мероприятий и программ, направленных на создание безопасной среды для женщин, включая финансовую.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

В исследовании, проведенным 2023 году Международным банком реконструкции и развития показали, что женщины по-прежнему сталкиваются с препятствиями на пути к владению и управлению бизнесом. По мере того, как доли малого бизнеса, принадлежащего мужчинам и женщинам, выравниваются, недостаточность средних и крупных предприятий, принадлежащих, женщинам становится, все более очевидной, равно как и ограниченное число случаев, когда предприятия, принадлежащие женщинам, выросли до среднего или крупного размера. В последнем обследовании предприятий Всемирного банка, проведенном в 2019 году, только 29 % средних фирм имели долю участия женщин во владении (по сравнению с 37% в среднем в странах с низким средним уровнем дохода, таких как Узбекистан), а в крупных фирмах этот показатель снизился до 27 % (по сравнению с % среди стран с низким средним уровнем дохода). Только 7% среднего размера фирм и 2,5% крупных фирм имели топ-менеджеров-женщин (по сравнению с 18% и 20% в среднем в странах с низким средним уровнем дохода) [13, – С.31].

Доля женщин среди зарегистрированных предпринимателей выросла на 9 процентных пунктов в период с 2018 по 2022 год. В 2018 году 31% официальных малых и микропредприятий был зарегистрирован на женщин, но к 2022 году это число возросло до более, чем 40 %. В Каракалпакстане и Навоийской и Хорезмской областях самая высокая доля

женщин в малых и микропредприятиях достигла 51, 48 и 46 % от совокупных региональных показателей соответственно. Однако в период с 2018 по 2022 год многие регионы с наиболее быстрорастущей долей предприятий, возглавляемых женщинами, были регионами с наибольшим разрывом.

В Самаркандской области доля за это время выросла на 31%, а в Ферганской области эта доля, выросла почти на 39 %. В Наманганской области, регионе с самой низкой долей женского предпринимательства в 2018 году, к 2022 году эта доля увеличилась более чем на 59 %. Согласно репрезентативной выборке руководителей махаллей, опрошенных по всей стране в рамках обследования «Слушая граждан Узбекистана», около 15% местных администраций махаллей активно продвигали и содействовали субсидированному кредитованию предпринимательской деятельности женщин на местах в первом квартале 2023 года, а 58 % активно внедряли программы переквалификации, ориентированные на женщин [14, – С. 34].




Рис 1. Число женщин, зарегистрированных в ГНС в качестве индивидуальных предпринимателей в 2022 г. Источник: Агентство статистики, 2022 г.

Для решения проблем предпринимательства и создания рабочих мест в 2018 году правительством начаты две программы: «Каждая семья – предприниматель» и «Молодежь – наше будущее», направленные на поддержку микропредпринимательства и самозанятости. Эти программы предоставляют льготные кредиты целевому населению на основе выявления местных экономических потребностей и возможностей. Несмотря на эти усилия, существующие банковские каналы также имеют ограниченный опыт работы с населением с низкими доходами.

Более того, владельцы микро- и малых предприятий сообщали об отсутствии технических и деловых навыков, что мешало им расширять свой бизнес и получать право на более крупные кредиты. Малые и средние предпринимательства, принадлежащие женщинам, сталкиваются с дополнительными проблемами, поскольку они, как правило, меньше по размеру из-за ограниченных ресурсов и возможностей.

В 2023 году Министерство занятости и сокращения бедности реализовало 36 отдельных программ, предусматривающих социальную помощь, поддержку предпринимательства и самозанятости на уровне махалли. К ним относятся разовые денежные пособия, стипендии для детей и молодежи, субсидии на швейные машины, целевые пособия через реестры потребностей, организованные махаллей («Женская тетрадь», «Железная тетрадь» и «Молодежная тетрадь»).

Центры женского предпринимательства, созданные во всех районах и финансируемые Общественным целевым фондом поддержки женщин и семьи; Общественный фонд

поддержки женщин и семьи начал предлагать субсидированные кредиты для женщин в 2022 году, наряду с субсидиями для женщин на создание сельскохозяйственных кооперативов. В рамках программ развития на базе общин под названием «Каждая семья – предприниматель» и «Молодежь – наше будущее» также были предоставлены субсидированные кредиты для поддержки новых деловых предприятий. Обучение в моноцентрах («Ишга Мархамат») часто включает программы, специально ориентированные на профессии и навыки, востребованные женщинами, ищущими работу по профессиональным специальностям [15, – С.39].

Все эти программы, которые поддерживаются государством, во благо гендерного равенства в различных сферах жизни общества. Несмотря на то, что Узбекистан отстает от многих стран по уровню благоприятной среды для развития женского предпринимательства, тем не менее, на сегодняшний день можно заметить повышенную деловую активность женщин в бизнесе. Начинающие женщины- предприниматели и наемные сотрудники все больше стремится к получению новых знаний, которые пригодятся им для взаимодействия и продвижения в бизнес-среде.

Женское предпринимательство является важным фактором в развитии экономики Нового Узбекистана, способствует стабилизации экономики и динамичному росту, именно поэтому государству следует остановить свое внимание на данном вопросе.

ВЫВОДЫ

Система работы с предпринимателями должна строится на основе профилактических основ, тем самым параллельно выполняют функции социально - правовой защиты и поддержки предпринимательства.

В целом анализ сущности государственной поддержки женского предпринимательства позволяет выделить следующие позитивные стороны:

1. Четкую ответственность государства за поддержку частного бизнеса и предпринимательства, в том числе женского, проявляющейся в широкой сети охвата органами государственной власти и управления;

2. Социальную ориентированность на поддержку женщин. К примеру, к данным мерам относятся поддержка одаренных женщин, предпринимательства, охвата и доступность образования;

3. Фокус на развитии системы негосударственных некоммерческих организаций, предоставляющих социальные услуги, социальную помощь развитие бизнеса.

Отличительной особенностью государственной поддержки женского предпринимательства является закрепление в нормативно - правовых актах, государственных программах приоритетного направления реализации политики – формирование духовных, нравственных и культурных ценностей. Признание необходимости включения данного приоритета в качестве принципа реализации политики поддержки женского предпринимательства позволяет сделать вывод о том, что вопрос формирования успешной бизнес-леди является первостепенной задачей государственной политики. Как уже было сказано в предыдущей главе, женщины предприниматели могут стать ресурсом наравне с предпринимателями мужского пола для общества в том случае, если ценности и нормы общества являются признанными данными социальными группами. Именно эта позиция четко прослеживается в законодательных нормах. Таким образом, государственная политика вбирает в себя особенности государства, сильную социально – правовую защиту, а также поддержку инициатив с упором на перспективу развития потенциала предпринимательства.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Макроэкономическая сила гендерного паритета. – [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://econs.online/articles/ekonomika/makroekonomiceskaya-sila-gendernogo-pariteta>. (Дата обращения: 20.09.2024).

2. Закон Республики Узбекистан о внесении дополнений и изменений в закон Республики Узбекистан от 15.12.2022 г. № ЗРУ-809 «О гарантиях равных прав и возможностей для женщин и мужчин». <https://lex.uz/ru/docs/6314592>.

3. Закон Республики Узбекистан от 11.04.2023 г. № ЗРУ-829 «О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан в связи с дальнейшим совершенствованием системы надежной защиты прав, свобод и законных интересов женщин и детей». Принят Законодательной палатой 23 марта 2023 года, Одобрен Сенатом 6 апреля 2023 года. <https://lex.uz/ru/docs/6430278>.

4. Закон Республики Узбекистан № ЗРУ-874 от 31.10.2023 г. «О внесении изменений и дополнений в Уголовный кодекс Республики Узбекистан и Кодекс Республики Узбекистан об административной ответственности». <https://lex.uz/docs/6649124>.

5. Указ президента Республики Узбекистан от 07.03.2022 г. № УП-87 «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин». <https://lex.uz/uz/docs/5899500>.

6. Указ президента Республики Узбекистан от 07.03.2022 г. № УП-87 «О мерах по дальнейшему ускорению работы по системной поддержке семьи и женщин». <https://lex.uz/uz/docs/5899500>.

7. Ганиева М.Х. Социальное сопровождение ребёнка с особыми потребностями. Организация оказания социальной помощи с участием ближайшего окружения семьи. – Ташкент: РЦСАД, 2016. – 76 с.

8. Нарбаева Т.К. Ўзбекистонда хотин-қизларни ижтимоий ҳимоя қилиш тизими самарадорлигини оширишнинг инновацион модели. Соц.фанлари доктори. дисс... – Тошкент: 2020. – Б. 239/21.

9. Гаффарова М.К. Повышение роли и статуса женщин в обществе. SOCIOLOGIA # 8, 2016. – С 134-135.

10. Рахимова Н.Х. «Женщина и предпринимательство в Узбекистане». Мониторинг общественного мнения. №2 (78), апрель-июнь 2006 г.

11. Женское предпринимательство в Узбекистане. Что уже делается и что еще нужно решить? https://plov.press/news/zhenshchiny_uzbekistana/zhenskoe_predprinimatelstvo_v_uzbekistane_chto_uzhe_delaetsya_i_chto_eshche_nuzhno_reshit/ (Дата обращения 22.09.2024).

12. Доклад Касимова Д.С. Уполномоченный при Президенте Республики Узбекистан по защите прав и законных интересов субъектов предпринимательства. 12 декабря 2023г. <https://biznesombudsman.uz/ru/news/1173>.

13. Страновая гендерная оценка для Узбекистана. © 2024 Международный банк реконструкции и развития/Всемирный банк 1818 H Street NW Вашингтон, округ Колумбия, 20433 Вебсайт: www.worldbank.org. – С. 42. Напечатано и изготовлено в Вашингтоне, округ Колумбия. Первое издание: Май 2024.

14. Страновая гендерная оценка для Узбекистана. © 2024 Международный банк реконструкции и развития/Всемирный банк 1818 H Street NW Вашингтон, округ Колумбия, 20433 Вебсайт: www.worldbank.org. – С. 42. Напечатано и изготовлено в Вашингтоне, округ Колумбия. Первое издание: Май 2024.

15. Страновая гендерная оценка для Узбекистана. © 2024 Международный банк реконструкции и развития/Всемирный банк 1818 H Street NW Вашингтон, округ Колумбия, 20433 Вебсайт: www.worldbank.org. – С. 42. Напечатано и изготовлено в Вашингтоне, округ Колумбия. Первое издание: май 2024.

Mirjavxarova Farida,
O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari
Akademiyasining mustaqil izlanuvchisi
e-mail: farihon72@mail.ru

TRANSFORMATSION JAMIYATDA HARBIYLIK KASBI: ORIENTATSIYA VA DEFORMATSIYA (KASBIY BUZILISH) SABABLARI, OMILLARI VA UNING NAMOYON BO‘LISHI

ANNOTATSIYA

Har bir soha foliyatida bo‘lgani kabi harbiy xizmatchi shaxsi va uning faoliyatida ham o‘ziga yarasha kamchilik va kasbiy buzilishlari uchrab turadi. Bunday jarayonlarni ilmiy tadqiq etish, salbiy oqibatlarini oldini olish bugungi fanimizning dolzarb masalalaridan biridir. Maqolada tarsnformatsion jamiyatda harbiylik kasbining orientatsiyasi, insonning harbiy xizmatga bo‘lgan qiziqishi, faoliyati ifodalangan. Harbiylik kasbini tanlash, xizmat qilish, harbiylik sohasida profesional rivojlanishni hamda harbiy xizmatchilardagi kasbiy buzilishning pedagogik-psixologik jihatlari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Kasbiy buzilishning yuzaga kelish sabablari, omillari va uning namoyon bo‘lishini yoritishga harakat qilingan. Harbiy xizmatchilar kasbiy buzilishining yuzaga kelishiga xizmatda ko‘p yillar bo‘lishi, ish joyidagi muhit va boshqa sabablar to‘g‘risida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy orientatsiya, harbiy madaniyat, harbiy-kasbiy faoliyat, harbiy sotsiologiya, harbiy-sotsiologik tadqiqotlar, jamiyat-davlat-armiya, “ruhiyat indeksi”, harbiy xizmatchi, deformatsiya, buzilish, omillar, kasb psixologiyasi, progress, regress, xarakter, temperament.

Мирджавхарова Фарида,
Независимый исследователь Академии
Вооружённых Сил Республики Узбекистан
e-mail: farihon72@mail.ru

ВОЕННАЯ ПРОФЕССИЯ В ТРАНСФОРМИРУЮЩЕСЯ ОБЩЕСТВЕ: ПРИЧИНЫ, ФАКТОРЫ ОРИЕНТАЦИИ И ДЕФОРМАЦИИ (ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАССТРОЙСТВА) И ЕГО ПРОЯВЛЕНИЕ

АННОТАЦИЯ

Как и в любой сфере деятельности, личность военнослужащего и его деятельность также имеют свои недостатки и профессиональные расстройства. Научное исследование таких процессов и предотвращение негативных последствий является одной из актуальных задач современной науки. В статье описывается ориентация военной профессии в трансформационном обществе, заинтересованность и активность человека на военной службе. Рассмотрены выбор военной профессии, службы, профессиональное развитие в военной сфере, педагогико-психологические аспекты профессиональных нарушений у военнослужащих. Сделана попытка выяснить причины, факторы и проявления профессиональных расстройств. Рассмотрены многолетний стаж, условия труда и другие причины возникновения профессиональных проступков военнослужащих.

Ключевые слова: профессиональная ориентация, военная культура, военно-профессиональная деятельность, военная социология, военно-социологические исследования, общество-государство-армия, «психологический индекс», военнослужащий, деформация, разлад, факторы, профессиональная психология, прогресс, регресс, характер, темперамент.

Mirjavxarova Farida,
Independent researcher at the Academy

MILITARY PROFESSION IN A TRANSFORMING SOCIETY: CAUSES, FACTORS AND MANIFESTATION OF ORIENTATION AND DEFORMATION (PROFESSIONAL DISORDERS)**ABSTRACT**

As in any field of activity, the personality of a serviceman and his activities also have their drawbacks and professional violations. The scientific study of such processes and the prevention of negative consequences is one of the urgent tasks of modern science. The article describes the orientation of the military profession in a transformation society, the interest and activity of a person in military service. The choice of a military profession, service, professional development in the military sphere, pedagogical and psychological aspects of professional violations in military personnel are considered. An attempt was made to find out the causes, factors and manifestations of professional disorders. Long-term experience, working conditions and other causes of professional misconduct of military personnel are considered.

Key words: professional orientation, military culture, military-professional activity, military sociology, military-sociological research, society-state-army, "psychological index", serviceman, deformation, discord, factors, professional psychology, progress, regression, character, temperament.

KIRISH

Mamlakatimiz hayotini modernizatsiyalash jarayonida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va ular negizida kechayotgan ijtimoiy taraqqiyot hodisasi o‘z vaqtida, o‘ziga xos yondoshuv hamda sa‘yi-xarakatlar natijasidir. Mazkur jarayonlarning qonuniyatini esa sotsiologiya fani ham nazariy, ham amaliy tadqiq etish salohiyatiga egadir. Globallashayotgan dunyoda o‘z o‘rnini topib borayotgan mustaqil O‘zbekiston Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibining sifatli jamlanishi ehtiyojlari ushbu omillarni o‘rganilishini talab etadi. O‘ziga xos ijtimoiy tashkilot bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari ham jamiyatimizning ajralmas bo‘lagi sifatida bundan istisno emas [1].

Har qanday kasb egalarida bir kasbda uzoq yillar ishlashi oqibatida kasbiy buzilish, zerikish yuzaga keladi, eng asosiysi, bunday buzilish kasbning mohiyati bilan bog‘liq bo‘lsa, boshqa tomondan esa kasb egasining individual o‘ziga xosligi, xarakteri, dunyoqarashi, atrof-muhitning unga ta’siriga, yoshiga, jinsiga, ish joyining joylashgan joyiga, oilasiga, ustoz-shogird munosabatlariiga va boshqa omillarga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Harbiy xizmatchilardagi kasbiy buzilish deganda nimani tushunishimiz mumkin, bunga turli ta’riflar bor, lekin fanda uning lo‘nda mazmuni, bizningcha, quyidagicha: “Harbiy xizmatchining kasbiy faoliyatidagi salbiy o‘zgarishdir”. Salbiylikning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi bir qancha omillar bor, bunga biz yuqorida qisman to‘xtalib o‘tdik, lekin bunday omillar geografiyasini yanada kengaytirishimiz mumkin, kasbning mohiyatidan kelib chiqib kasbiy buzilishining natijasini biz harbiy xizmatchining kasbiy vazifalarini bajarishlaridagi salbiylikda ko‘rishimiz mumkin bo‘lsa, boshqa tomondan esa harbiy xizmat jarayonidagi ijtimoiy munosabatlarda ham ko‘rinadi.

METODOLOGIYA

O‘zbekiston davlatchiligi harbiy soha tarixida O‘zbekiston o‘z davlat mustaqilligini tiklagan istiqlol davri alohida o‘rin egallaydi. O‘zbekistonda qariyb 130 yillik mustamlakachilik tuzumiga barham berilib, mustaqil davlatchilik tiklanishi bilan mamlakat harbiy tarixida mutlaqo yangi davr boshlandi. O‘z mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlab olgan xalqimiz osoyishtaligi, tinch taraqqiyotini ta’minlash, bepoyon vatanimiz sarhadlarini qo‘riqlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga asos solindi.

Eng avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini shakllantirishning huquqiy asoslarini yaratishga kirishildi. Bunda Qurolli Kuchlar faoliyatidagi muhim masalalardan biri – bu yoshlarni harbiy xizmatga jalb etish masalasi bo‘lib, bu borada ham yangi tartiblar ishlab chiqildi va amalga kiritildi [2]. Ma’lumki, umumiy harbiy majburiyat fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasini

himoya qilishga majburiy harbiy tayyorgarligidan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safini butlash va ularning rezervini tayyorlashni ta’minlash maqsadida joriy etiladi. Umumiy harbiy majburiyat o‘z ichiga fuqarolarni harbiy xizmatga tayyorlash, harbiy xizmatga chaqirish (kirish), chaqiruv yoki shartnoma bo‘yicha harbiy xizmat o‘tash, rezervdagi xizmat va muqobil xizmat o‘tash, harbiy ro‘yhatdan o‘tish qoidalariga rioya etish, favqulodda vaziyatlarda yoki O‘zbekiston Respublikasiga qarshi harbiy tajovvuz sodir etilganida aholini muhofaza etish chora-tadbirlarini qamrab oladi [3].

ASOSIY QISM

Ma’lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy va ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga, taraqqiy etayotgan jamiyatning har bir bo‘g‘iniga moslasha olishiga bog‘liq. Zero, jamiyatimizning ma’naviy yangilanishida, ijtimoiy yo‘naltirilgan jamiyatni shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo‘shilishini ta’minlaydigan demokratik huquqiy davlat qurishda kadrlar milliy masalasi ustuvor mezon sifatida muhim rol o‘ynaydi. Inson uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro‘ybga chiqarishning sharoitlarini va ta’sirchan mexanizmlarini yaratish eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o‘zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va xarakatlantiruvchi kuchi ekanligi hammamizga ma’lum [4]. Mana shu ma’noda bugungi o‘ta murakkab sharoitida har tomonlama kamol topgan, jamiyat hayotiga moslashgan ta’limtarbiyani ongli ravishda qabul qila oladigan davlat, jamiyat va oila oldida yuksak javobgarlikni his qila oladigan fuqarolarni, shu bilan bir qatorda, harbiy xizmatchilarini tarbiyalash sohasini tubdan isloh qilish lozim. Chunki, kelajagimiz egalari bo‘lgan yoshlarga ta’lim berish ularni o‘qitish bilan bog‘liq ayrim muammolar bugungi kunda kishini o‘ylantirib qo‘yayotgani tabiiy.

Binobarin, zamонави shiddatkor jamiyat esa yetuk bilimdon mutaxassislarga muhtoj bo‘lib boraveradi. Eng muhimi shuni anglab yetishimiz kerakki, kasbiy yondoshuv masalasini hal etmas ekanmiz, sa’i-xarakatlarimiz kutilgan natijalarini berishi kiyin kechadi. Aytish mumkinki, barkamol insonning shakllanishi uning munosib kasbni egallashi jamiyat taraqqiyoti uchun o‘z hissasini qo‘shib yashashi va shu orqali jamiyatda o‘zligini namoyon etishi, ya’ni shaxsning kamol topishi nazarga olinadi. Keng ma’noda kasbiy shakllanish, deganda insonning o‘z aqliy qobiliyatları jismoniy imkoniyatlari u yoki bu sohaga bo‘lgan layoqatlari, malakali mutaxassis bo‘lib yetishishi tushuniladi.

Qurolli Kuchlarimiz safida ongli, har tomonlama yetuk tayyorgarlikka, zamонави harbiy saboqlardan aniq bilimga ega, ijtimoiy motivi kuchli ifodalangan harbiy xizmatchilarining bo‘lishi harbiy qurilish sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy talablaridan biridir. Keyingi yillarda “Xalq va armiya – bir tanu bir jondir” degan ezgu tamoyil asosida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtida butun jamiyatimizda, jumladan, Qurolli Kuchlarimiz tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlarda «Inson qadri uchun» degan muhim tamoyil markaziy o‘ringa qo‘yilayotgani yaxshi ma’lum. Bu ishning amalga oshirilishi zamонави harbiy xizmatchilarining optimal ijtimoiy qiyofasini shakllantirish lozimligini ham bildiradi. Qurolli kuchlar harbiy xizmatchilarining ijtimoiy qiyofasi xususiyatlarini tadqiq etish sotsiologiyaning ham vazifasi hisoblanadi. Chunki, Qurolli Kuchlar jamiyatning bir bo‘lagidir. Armiya jamiyat xavfsizligini ta’minlash borasida muhim o‘rinnni egallaydi [5].

Harbiy xizmatchilar kasbiy orientatsiyasiga ta’sir ko‘rsatuvchi shart-sharoitlar va omillar sifatida mulohaza qilishdan avval ushbu yo‘nalish bo‘yicha xorijiy davlat vakili bo‘lgan Fransiya harbiy attashesi podpolkovnik Jan-Mari Xoltsingerning “Dunyo xaritasiga qaraydigan bo‘lsak, O‘zbekiston Afg‘oniston bilan chegaradosh. Ushbu davlatning shimoliga to‘g‘ri keladigan ayrim xududlarda terrorchi kuchlar harakatlari kuzatilmoqda. Shuning uchun, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari har doim terrorizmga qarshi kurashishga qobiliyatli bo‘lishi kerak. Bu nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo uchun muhim”, deya harbiy xizmatchilar hamisha sergak va hushyor bo‘lishi lozimligini aytib o‘tganligini eslaymiz.

Keyingi yillarda amalga oshirgan tub islohotlarimiz tufayli tarixan qisqa davrda O‘zbekiston Respublikasi suvereniteti va hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ishonchli himoya qilishga qodir bo‘lgan, tezkor va ixcham milliy armiyani tashkil etilishiga erishilmoqda. Ana shunday

buyuk tarixiy jarayonda xalqimizning harbiy sohadagi boy merosiga tayanib, Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk sarkarda bobolarimizning jangovar an'analarini munosib davom ettirib kelayotgan, jismoniy va ma'naviy yetuk, zamonaviy bilim, qurol-yarog' va texnikalarni puxta egallagan, davlat va xalq manfaatlari uchun har qanday sinov va mashaqqatlarni yengib o'tishga tayyor bo'lgan harbiyalarimiz doimo faol ishtirok etib kelayotganlari har qanday yuksak e'tirofga munosibdir.

Bugungi globallashuv va keskin raqobat davri, dunyoning turli burchaklarida, jumladan, mintaqamizda yuz berayotgan qurolli mojaro va qarama-qarshiliklar, yangi tahdid va xatarlar oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifalarni qo'yamoqda. Ana shunday g'oyat mas'uliyatli vaziyatda mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash va himoya qilishda Qurolli Kuchlarimiz, xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu haqiqatni hisobga olgan holda, mamlakatimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimiz qudratini oshirish Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ustuvor yo'nalişlaridan biri etib belgilandi. Harbiy xizmatchilar, ayniqsa, komandirlar tarkibining professional tayyorgarligini oshirish, ularning zamonaviy qiyofasini shakllantirish milliy armiyani yanada rivojlantirishning eng muhim sharti bo'lib qolmoqda.

Jahon axborot makonida keskin kurash ketayotgan hozirgi vaziyatda muhim Qurolli Kuchlarning axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish ham davr talabidir. Globallashayotgan dunyoda o'z o'rnnini topib borayotgan mustaqil O'zbekiston Qurolli Kuchlari shaxsiy tarkibining sifatli jamlanishi ehtiyojlari ushbu omillarni o'rganilishini talab etadi.

Har bir soha foliyatida bo'lgani kabi harbiy xizmatchi shaxsi va uning faoliyatida ham o'ziga yarasha kamchilik va kasbiy buzilishlari uchrab turadi. Bunday jarayonlarni ilmiy tadqiq etish, salbiy oqibatlarini oldini olish bugungi fanimizning dolzarb masalalaridan biri. Uning ayrim sabablari va omillariga to'htalib o'tamiz:

Kasbiy buzilish (deformatsiya)ning harbiy xizmatchilarda namoyon bo'lishi ochiq yoki yopiq holatda namoyon bo'ladi, ya'ni ochiq holat harbiy xizmatchilarning xizmat jarayonidagi xatti-harakatlarida, ijtimoiy-huquqiy munosabatlarida, eng asosiysi, xizmatga munosabatlarining natijalarida ko'rinadi. Yopiq holatda kasbiy deformatsiyaning namoyon bo'lishi, eng avvalo, ijtimoiy-huquqiy, kasbiy munosabatlarga kirishishda namoyon bo'lishi bilan birga, qo'yilgan vazifalarni bajarishdagi xatti-harakatlarida ham namoyon bo'lib boradi. Ko'pgina pedagogika, psixologiya sohasidagi tadqiqotchilarining [6] izlanishlarida kasbiy deformatsiyani quyidagi omillarga bo'lib o'rganishga harakat qilishgan:

a) obyektiv omillar, bunga ish joyidagi, jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar;

b) subyektiv omillarga harbiy xizmatchini shaxs sifatida o'ziga xos xarakteri, temperamenti;

v) xizmat vaqtida bajarayotgan vazifasining mohiyatidan kelib chiqadi va uning harbiy xizmatchi ruhiyatiga ta'siri, ba'zida xizmatni o'zi xohlab tanlamaganligi ham ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida doimo o'zining faoliyatidan qoniqmaslik hissi yuzaga keladi. Bu esa, o'z navbatida, albatta, kasbiy buzilishga [7] olib keladi. Kasbiy buzilishning xavfli tomoni shundaki, ushbu jarayon ba'zi bir harbiy xizmatchilarning shaxsiy hayotiga, oilasiga ham kirib boradi. Natijada, oilalarning parokandaligiga sabab bo'lishi mumkin.

Kasbiy deformatsiyaning harbiy xizmatchilarda yuzaga kelishiga eng avvalo, kasbiy faoliyatga moslasha olmaslik yoki o'ta sekin moslashish ham sabab bo'lishi mumkin ekanligini harbiy xizmatchilar bilan bo'lgan bevosita va bilvosita suhbatlarda bildik. Kasbiy deformatsiyaning yuzaga kelishi harbiy xizmatchilarning kasbiy fikrlashida ham o'zgarishlar mavjudligini biz ularning faoliyatini bevosita kuzatishlarimiz natijasida ko'rdik.

Kasbiy deformatsiyaning yuzaga kelganligini biz quyidagi psixologik xatti-harakatlarida ko'ramiz, ya'ni asab jarayonidagi rigidlikda [8], axloqidagi qo'pollikda, kasbiy motivatsiyaning torligida, axloqidagi buzilishlarda, aqliy rivojlanishidagi ba'zi bir deyarli sezilmaydigan xatti-harakatlarida, eng asosiyalaridan biri tanqidni ko'tara olmasligida, tanqidni to'g'ri tushunmasligida,

qabul qilmasligida. Kasbiy deformatsiyaning yuzaga kelishiga har bir kasbning o‘ziga xosligining va mohiyatining ta’siri bor. Eng asosiysi, ko‘p hollarda ish vaqt, kun tartibi belgilanmaganligi, lekin unga doimo ham rioya qilishning imkonи yo‘q, chunki bunga jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ta’siri katta. Psixologik va fizologik yuklamasining haddan tashqari ortiqchaligi – bu esa dam olishni buzilishiga olib keladi va bu tabiiyidir.

Favquloddagi holatlarning dam-badam bo‘lib turishi, turli siyosiy-ijtimoiy tadbirlarga jalb qilinishi harbiy xizmatchilar uchun oddiy holdek tuyuladi. Lekin, uning baribir inson ruhiyatiga ta’siri bo‘lishini amaliy-kasbiy faoliyat ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, turli ijtimoiy tadbirlarga jalb qilinishida yuz beradigan har xil vaziyatlarni va vaziyat nima bilan tugashini bilmaslik ham harbiy xizmatchilarning asta-sekinlik bilan kasbiy buzilishiga o‘z hissasini, ta’sirini ko‘rsatib boradi. Demak, bir qancha kasbiy, kerak bo‘lsa, shaxsiy, oilaviy salbiy omillarning ta’siri shaxsiy kasbiy deformatsiyaning yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Undan tashqari, kerak bo‘lsa, boshliqning rahbarlikdagi nokompetentligi ham harbiy xizmatchining xizmatga bo‘lgan munosabatini sovutadi, xizmatga sovuqqonlik bilan qarash esa javobgarlikdan tashqari harbiy xizmatchida kasbiy deformatsiyaga olib keladi, agar ularda yetarli darajada psixologik, axloqiy iroda shakllanmagan bo‘lsa.

Biz bilamizki, xizmat faoliyati harbiy xizmatchilarni tarbiyalaydi, shakllantiradi, eng asosiysi, professional bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi, lekin xizmat faoliyati har dam ham bunday holatni yuzaga keltirmaydi balki bir xizmat turi bo‘yicha bir joyda ko‘p yil xizmat qilishi harbiy xizmatchida kasbiy deformatsiyani yuzaga keltiradi. Kasbiy deformatsiyani nimalarda, qaysi xatti-harkatlarda ko‘rshimiz mumkin.

Masalan, xizmatdoshlarini o‘ziniki qilib olishlarida. Bunda subordinatsiya yo‘qolgan bo‘ladi. Boshliq bilan qo‘lostidagilar o‘rtasida harbiy xizmatchi boshliq bo‘libdiki, qo‘lidagi, imkoniyatidagi barcha narsalardan iloji boricha foydalanim qolishga harakat qilishadi, bu ham deformatsiyaning bir ko‘rinishi hisoblanadi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy buzilishi bu nafaqat atrof-muhitga bog‘liq, shuningdek, harbiy xizmatchining individual o‘ziga xosligiga, irodasiga ham ko‘p jihatdan bog‘liq hisoblanadi. Buni ko‘p yillar harbiy sohada xizmat olib borgan va kasbiy deformatsiya qo‘pol ko‘rinishda namoyon bo‘lmagan ofitserlar bilan bevosita suhbatimizda va ularning xizmat faoliyatini kuzatishimizdan ma’lum bo‘ldi. Kasbiy deformatsiya hamma harbiy xizmatchilarda ozmi, ko‘pmi bor bo‘lishi mumkin, lekin deformatsiyaning namoyon bo‘lishi turlicha, ochiq namoyon bo‘lishi mumkin yoki yopiq namoyon xarakterga ega bo‘lib, ular bilintirmaslikka harakat qilishi mumkin va bu tabiiyidir.

Harbiy xizmatchilardagi kasbiy buzilishni bu progress va regress nuqtai nazardan qarashimiz ham mumkin ekan. Regress nuqtai nazardan deyilganda, harbiy xizmatchi kasbiy faoliyati davrida haddan tashqari xizmat bilan bog‘liq bo‘lgan xatti-harakatlarni bo‘rttirib, oshirib, ko‘pirtirib ko‘rsatishga harakat qiladi va bu xatti-harakatlar oilasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, oiladagilar bilan ham harbiy xizmatchilarga qilgan kasbiy muomalasini qilishga harakat qiladi, o‘zi bu xatti-harakatlarining natijalarini keyinroq tushunadi. Regressivda harbiy xizmatchi kasbiy faoliyatga moslashishi qiyin, progressivda esa xizmatda o‘sish, ijobiliyik yuzaga keladi va bu regressivning aksi hisoblanadi. Kasbiy faoliyatidagi harbiy qadriyatlarni qadrlaydi, kasbiy ko‘nikmalarning hosil bo‘lishi tez, kasbiy tajribalarni maksimal darajada keng qamrovli o‘zlashtiradi. Kasbiy deformatsiyaning yana bir salbiy tomoni shundan iboratki, harbiy xizmatchida shakllanib bo‘lgan kasbiy sifatlarni ham buzib yuborishga qodir. Harbiy xizmatchilardagi kasbiy buzilishni quyidagi holatlarida ko‘rshimiz mumkin, ya’ni:

- 1) jismoniy holatidagi o‘zgarishlarda;
- 2) xizmat jarayonidagi shaxsiy, kasbiy munosabatlarida;
- 3) xizmat vaqtidagi ruhiy zo‘riqishlarida;
- 4) kasb sohasidagi kasallanishida;
- 5) kasbiy muomalasida ko‘rinadi;
- 6) o‘zini xizmat faoliyatidan doimo qoniqmaslik;
- 7) kasbiy xizmat sirini saqlay olmaslik;
- 8) xizmat faoliyatini olib borishini asosiy vazifa, deb qaramaslik holatlarida ko‘rinadi.

Harbiy xizmat bu davlat xizmati hisoblanadi shuning uchun xatti-harakatlarida kasbiy buzilish boshlandimi, sezildimi, demak, bunday harbiy xizmatchini tibbiy ko'rikka yoki ruhiy ko'rikka yuborish masalasi ko'riliши kerak, aks holda bunday harbiy xizmatchini qurol bilan xizmatga qo'yish masalasi yoki qo'ymaslik masalalari qo'mondonlikning muhokama mavzusiga aylanishi lozim.

Harbiy xizmatchilarining kasbiy xizmat faoliyatni turli vaziyatlarda, holatlarda ish kunining tartibga solinmagani, ob-havo tanlamasligi, bayram va dam olish kunlari ham xizmat olib borishlari, bayramdagi va kechasi navbatchilikni olib borishlari va shunga o'xshash omillar kasbiy deformatsiyaning shakllanishiga ham olib keladi.

Harbiy xizmatchilarining kasbiy deformatsiyasini oldini olish bugungi kunda eng dolzarb muammolardan hisoblanadi, masalan, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kasbiy orientatsiyaning o'rni va roli alohida ahamiyatga ega, chunki kasbiy yondoshuvi va qiziqishlari harbiy xizmatchilarini turli vaziyatlarga, holatlarga tez moslashishlari va o'zlashtirib olishlarini ta'minlovchi xususiyatdir. Masalan, amaliy mashg'ulotlarning maqsadi va vazifalari ham ruhiy, ham irodaviy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltiriladi, ushbu yo'nalishdagi mashg'ulotlar, eng avvalo, jamoaviy va psixologik trening (mashq)lar orqali olib boriladi. Mashqlarda faol bo'lishi va yangi bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llay olish har bir harbiy xizmatchidan xohish, istak talab qiladi. Xohish, istagi yo'q harbiy xizmatchi professional bo'lib shakllana olmaydi va kelajakda professional deformatsiyaga moyilligi ko'proq va oldinroq yuzaga keladi.

XULOSA

Yuqorida aytib o'tilgan kasbiy deformatsiyalarni oldini olish va bunday salbiy holatlarga yo'l qo'ymaslik, ayniqsa harbiy shaxsnинг ruhida Vatan oldidagi burchni his qilish tuyg'ularini orttirilishiga erishilishi, buning uchun esa unda harbiy vatanparvarlikdan tashqari harbiy hamdo'stlikni, o'z safdoshlariga ishonch ruhini tarbiyalash lozim ekanligini anglash mumkin. Bu tushuncha va ko'nikmalarни ruhlariga singdirish shaxsiy tarkibning jangovarlik ruhini ko'taribgina qolmay ularda ko'tarinki jangovarlik ruhining namoyon bo'lishiga olib keladi.

Demakki, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi, suvereniteti, hududiy yaxlitligini himoya qilish va tinchligini ta'minlash har bir fuqaroning muqaddas burchi hisoblanadi. Ushbu burchni O'zbekiston Respublikasida Qurolli Kuchlar safida xizmat qilayotgan harbiylar o'ziga sharaf, deb bilib, ado etadilar [9].

Harbiy xizmatchilarining kasbiy orientatsiyasi va deformatsiyasini tahlil qilishning nazariy-metodologik asoslarining tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini berdi. Birinchidan, harbiy xizmat davri davlat boshqaruvi, qonunchiligi, harbiy san'at masalalariga oid mulohazalarni, sohalarda olib borilgan strategik harakatlar, davlatni qudratli va jamiyatni isloh etishga qaratilganini yodda tutish biz uchun g'oyatda muhimdir. Qurolli Kuchlarni yanada rivojlanishiga bo'yicha olib borayotgan ishlar, birinchi navbatda, xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan [10]. Ikkinchidan, armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi bilan bir qatorda harbiy xizmatchining bugungi zamon talablariga mos ravishda intelektual rivojlanish, konstitutsiyaviy-huquqiy jihatdan himoyalangan bo'lishining muhimligi ijtimoiy o'rganishning dolzarb masalasi atroficha tushunib olindi. Uchinchidan, shu o'rinda harbiy xizmatchining harbiycha yondoshuvi, madaniyati nafaqat o'z jamoasida, balki jamiyat faoliyatida ham ijtimoiy qiyofa nufuzini oshirishda ahamiyatli ekanligini ko'rib chiqdik.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 23.02.2018 йил 140-сон “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик руҳида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш түғрисида”ги Карори:// <https://lex.uz/docs/3571158>.
2. Vazirlar Mahkamasining 6.06.2018 yil 424-son “O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi. Qarori.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 12 сентябрдаги ПҚ-4447-сон қарорига 1-илова Ўзбекистон Республикаси фуқароларининг ҳарбий хизматни ўташ тартиби тўғрисида Низом. //<https://lex.uz/docs>.
4. Vazirlar Mahkamasining 6.06.2018 yil 424-son “O’zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilarini ijtimoiy qo’llab-quvvatlashga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi. Qarori.
5. O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2016.
6. Шишкова Г.В. Социологические аспекты детерминант профессиональных деформаций [Текст]/Шишкова Г.В./Вестник Уральского государственного университета путей сообщения. – 2014. №1 (21). – С. 116-122.
7. Жамият ва инновациялар – общества и инновации – Society and innovations. Специал Исс. – 02 (2022) / ИССН 2181 – 1415.
8. Kasbiy buzilish-kasbiy deformatsiya ma’nosida tushuniladi. Rigidlik – “lotin” tilidan olingan bo’lib qattiq, o’zgartirish qiyin degan ma’nolarni anglatadi. Психологический словарь под редакцией В.П. Зинченко и Б.Г.Мехеряков. – М., Аст. Астрел. Хранитель, 2004. – С. 366-367.
9. O’zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-yanvardagi O’RQ 458-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan “O’zbekiston Respublikasining Mudofaa doktrinasi” // <https://lex.uz/docs/-3495885>.
10. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 23.02.2018 йил 140-сон “Ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик рухида тарбиялаш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”gi Қарори. // <https://lex.uz/docs/3571158>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Xaytboev Boburjon,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti

ijtimoyi – gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

e-mail: bobur323bobur@gmail.com

INSON, FAN VA TEKNIKA TUSHUNCHALARI – FALSAFIY TADQIQOD OBYEKTI SIFATIDA



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Texnikaning rivojlanishi natijasida uni inson tafakkuri va amaliy faoliyatiga ko'rsatayotgan ta'sirini turli xil yondashuvlar asosida tahlil qilinishi asosida falsafaning maxsus yo'nalishi ya'ni texnika falsafasi shakllandi. Inson – bu shunday jonli mavjudotki, unda (boshqa jonli mavjudotlarga qaraganda) borliqning ontologik darajasi boshqacha namoyon bo'ladi. Inson hayotining tabiiy, tabiatli xossalari evolyutsion – genetik tarixning o'zoq davomli jarayonida shakllandi. Ushbu maqolada inson, fan va texnika tushunchalari – falsafiy tadqiqod obyekti sifatida, tabiat masalalariga san'at, ilohiyot, sun'iy intellekt nazariyasi, iqtisod, siyosat va insonlar hayotini boshqacha gavdalantiradigan qolgan sohalarning qiziqishi u haqda yozilgan ishlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: inson, fan va texnika, gumanizm, individual va kollektiv, koinot, katarsis, san'at, ilohiyot, sun'iy intellekt nazariyasi, iqtisod, siyosat va insonlar.

Хайтбоев Бобуржон,
Ташкентский государственный
университет узбекского языка и
литературы имени Алишера Навои
Кафедра социально-гуманитарных наук
e-mail: bobur323bobur@gmail.com

ПОНЯТИЯ ЧЕЛОВЕКА, НАУКИ И ТЕХНОЛОГИИ – КАК ОБЪЕКТ ФИЛОСОФСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В результате развития техники сформировалось особое направление философии, а именно философия техники, основанная на анализе ее влияния на мышление и практическую деятельность человека на основе различных подходов. Человек – такое живое существо, что онтологический уровень существования у него иной (по сравнению с другими живыми существами). Естественные, естественные особенности жизни человека сформировались в далеком непрерывном процессе эволюционно-генетической истории. В данной статье анализируются понятия человека, науки и техники как объекта философского исследования,

интереса искусства, теологии, теории искусственного интеллекта, экономики, политики и других областей, по-иному воплощающих человеческую жизнь.

Ключевые слова: человек, наука и техника, гуманизм, индивидуальный и коллективный, вселенная, катарсис, искусство, теология, теория искусственного интеллекта, экономика, политика и люди.

Khaytboev Boburjon,

Teacher of the Department of Social and Humanitarian Sciences,
Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

named after Alisher Navoi

e-mail: bobur323bobur@gmail.com

CONCEPTS OF HUMANITY, SCIENCE AND TECHNOLOGY – AS OBJECTS OF PHILOSOPHICAL RESEARCH

ABSTRACT

As a result of the development of technology, a special direction of philosophy was formed, namely the philosophy of technology, based on the analysis of its influence on human thinking and practical activity based on various approaches. Man is such a living being that his ontological level of existence is different (compared to other living beings). Natural, organic features of human life were formed in the distant continuous process of evolutionary-genetic history. This article analyzes the concepts of man, science and technology as an object of philosophical research, the interest of art, theology, the theory of artificial intelligence, economics, politics and other areas that embody human life in a different way.

Keywords: man, science and technology, humanism, individual and collective, universe, catharsis, art, theology, theory of artificial intelligence, economics, politics and people.

KIRISH

Insonni o‘zining o‘rganish predmeti bo‘lishiga biologiya, fiziologiya, arxeologiya, sotsiologiya, psixologiya, lingvistika, tibbiyat, pedagogika va boshqa fanlar da’vo qiladilar. Biroq, tabiat masalalariga san’at, ilohiyot, sun’iy intellekt nazariyasi, iqtisod, siyosat va insonlar hayotini boshqacha gavdalantiradigan qolgan sohalarning qiziqishini ham kam deb bo‘lmaydi. Ular bilan taqqoslaganda falsafa inson muammosini uning borlig‘i, hayoti, tarixi, madaniyati, jamiyat, shaxsning eng keng ma’nolari asosida o‘rganishga intiladi.

Borliq, bilish va muloqotning ko‘plab sirlari insonda ildiz otgandir. Inson doimo o‘zining tabiat dunyosiga, boshqa odamlar dunyosiga, o‘z tarixi va madaniyatiga munosabatini, o‘zining o‘ziga munosabatini bilishga intiladi, o‘z hayotining ideallari, qadriyatlari va normalarini aniqlab olishni istaydi. Har bir tarixiy davrda madaniyat inson tabiatini haqidagi masalani o‘zicha qo‘yan va o‘zicha hal qilgan. Inson – bu shunday jonli mavjudotki, unda (boshqa jonli mavjudotlarga qaraganda) borliqning ontologik darajasi boshqacha namoyon bo‘ladi. Inson hayotining tabiiy, tabiatli xossalari evolyutsion – genetik tarixning o‘zoq davomli jarayonida shakllandi. Holbuki, insonning madaniy – tarixiy, ijtimoiy va individual – shaxsiy sifatlari o‘z hayotining sivilizatsion ukladi davridagina shakllana boshladi. Faqat sivilizatsiya inson borlig‘ining ma’nosи va maqsadlarini izlashga mumkinlik berdi. Tarixning har qanday davrida, har qanday madaniyatda va jamiyatda, ertami – kechmi inson o‘zining mayjudligi va vazifasini bevosita yoki bilvosita aniqlashga harakat qiladi. «Yo hayot, yo o‘lim», - («быть или не быть») – mana inson mavjudligining chegaralarini belgilovchi chegarasi. Inson o‘z borlig‘ining chegaralarini bilgisi va unda chekkalarga ham nazar solgisi keladi. U o‘zining borlig‘ini borliq bo‘lmaslik nuqtai – nazaridan qarashi mumkin. Har birimiz ham o‘z borlig‘imiz sharoitlari va o‘z hayotiy istiqbolimizni o‘ylaymiz. Insonning har kungi intilishlari, bezovtaligi ko‘p darajada uning kechagi yoki bugungi kuni bilan emas, ertangi kuni bilan bog‘langan.

METODOLOGIYA

Har holda insonlarning hayotiy tajribalarini faqat o‘zlarining borliqlarini aniqlab olishga yordam beradigan manba va usul bo‘libgina qolmasdan, falsafa taraqqiyoitning bizning kunlarimizgacha inson haqidagi ta’limotining asosiy muammolaridan biri bo‘lib keladi. Inson haqidagi eng qadimgi yunon falsafiy ta’limotlarining manbai bo‘lib, insoning koinot arxetipi ekanligi haqidagi mifologik g‘oyasi xizmat qilgan edi. Uning ma’nosи makrokosmos (katta dunyo) va mikrokosmos (kichik dunyo)ning paralelligi haqidagi, ya’ni Koinot (Kosmos) va insonning paralelligi haqidagi kosmologik mifdan keltirib chiqarilgan edi. Bu rivoyatga ko‘ra, insonning koinotiy arxetipi jismidan Yerning paydo bo‘lishi kelib chiqar edi. Uning suyaklaridan – toshlar, qonidan – daryolar, sochlaridan – daraxtlar, nafas olishidan – shamol paydo bo‘ladi va sh.o‘ [1, – B.187].

Qadimgi xind, hitoy va ilk yunon falsafasida insonning tabiat haqidagi syujetlar ratsional jihatlar ola boshladi. Inson Koinotning jon xossalariiga ega bo‘lgan simvoli deb qarala boshladi. Demokrit insonni makrokosmosning uning jon xossalariini o‘zida kamroq mukammalikda aks ettirgan analogi mikrokosmos deb faraz qilgan edi. Makro va mikrokosmos orasidagi antik analogiya turlicha argumentatsiya qilinar edi. Agar odam makrokosmosga o‘xshatilsa, u holda inson haqidagi tushuncha naturalistik, tabiiy belgilarga ega bo‘lar edi. (Demokrit varianti). Agar mulohazalar mikrokosmosdan makrokosmosga yo‘naltirilsa, u holda kosmik jon yoki ruh borligi xuddi insondagi qobiliyat singari tushuntirilar edi. (Masalan, Anaksagor yoki Platon) shunday o‘ylar edilar [2, – B.264].

ASOSIY QISM

Protagor «inson hamma narsa uchun me’yordir» deb tasdiqlar ekan, insonlarning birgalikdagi yashashlariga kosmik qonunlar emas, inson tabiat qonunlari asos qilib olinadi, deb uqtirgan edi. Bunda olamni bilish o‘z-o‘zini bilishga aylanar edi. «O‘z-o‘zingni bil!» deganda shu narsa ko‘zda tutilgan edi. Keyingi yunon falsafasi (masalan, Platin yoki Porfiriy) kosmos to‘g‘risidagi tasavvurning jon (ruh) tushunchasi bilan, ruhni esa aql tushunchasi bilan qorishtirib yubordi. Shuni aytib o‘tish kerakki, insonning Koinotning analogi bo‘lgan mikrokosmos ekanligi haqidagi gipoteza vaqt – vaqt bilan o‘rta asr falsafasida (diniy – falsafiy, yoki shuningdek, mistik ta’limotlarda) va Yangi davr falsafasida (masalan, Leybnisning «monoda kosmik universumning in’ikosidir», degan monadologiyasida) uchrab turdi.

Inson haqidagi ta’limotda boshidan oxirigacha mavjud bo‘lgan mavzulardan biri ruh va jism (jon va tana)ning munosabati masalasıdir. Inson ruhi va jismi turli asoslarining kombinatsiyasi inson tabiatini belgilaydi. Pifogorga xos an’ana ruhni demonik asosga ega, u o‘lmaydi va jonivorlar hamda o‘simliklar tanalari bo‘ylab sayr etib yuradi, deb tasdiqlaydi. Jism ruhning go‘rkovi hisoblanadi. Biroq, pifagorchi Filolayning qilgan faraziga ko‘ra, insonning taqvodorlik hayotining maqsadi iflosliklardan tozalash» katarsis bo‘lgani uchun odamlarda o‘z ayblarini yuvib, o‘z ruhlarini kosmik asl vataniga qaytarish imkonibor.

Geraklit va Anaksimenda ruhning ahamiyati xuddi hayot, havo, nafas olish ahamiyatini kasb etib, dunyoviy ruh tushunchasi bilan mos keladi. Platonning fikriga ko‘ra, ruxning o‘lmasligi va boshidanoq jismiy emasligi (tanasing yo‘qligi) uni his – tuyg‘udan yuqori bo‘lgan olamga, g‘oyalar olamiga yaqinlashtiradi va bu bilan, ularni eslash, hotirlash orqali bilish imkonini yaratadi. Platon ruhni, pastdagи jismga asira bo‘lgan ruhni yuksaltiradi, unga nisbatan balandlarga ko‘taradi. Ruh (jon) faqat inson o‘lganidagina jism zindonidan qutiladi va uning chegaralaridan tashqariga chiqadi. O‘lim tanani (jismni) tabiatning bir bo‘lagiga aylantirgani singari, ruh ham ideal dunyoga aralashib ketadi, turli aylanishlarni, metamorfozalarni boshidan kechiradi va olam bo‘ylab cheksiz sayohatlarga kirishib ketadi. Aristotel jonni (ruhni) kosmologik sharqlashlardan voz kechdi va uning uch qobiliyatini sanab o‘tdi: oziqlanish, sezgi – tuyg‘uli va aqliy qibiliyatlar. Oziqlanish qibiliyat faqat o‘simliklarga, oziqlanish va his – tuyg‘u qibiliyati – jonivorlarga, har uchala hosiyati – insonlarga xosdir. Bundan tashqari, Aristotel jism va ruhning o‘zarо ta’siriga e’tibor berdi. Ular o‘zarо shakl va materiya, akt va potensiya nisbatida bo‘ladilar, shu bilan birga insonning faqat intellektual (aqliy) ruhingga o‘lmaslik, abadiylikka ega bo‘ladi [3, – B.240].

Uyg‘onish davrida insonga va shu bilan jism va ruh masalasiga yangicha yondoshuv shakllana boshladi. Falsafa xristianlik dogmatikasidan voz kechsadi va insonni o‘zining predmetli manfaatlari markaziga qo‘yadi. Uyg‘onish davri mutafakkirlari insonning o‘zi o‘z borlig‘ining erkin

o‘zlashtirishga qodir, deb faraz qiladi. Inson tanasi gunohkorligini bartaraf etish Uyg‘onish madaniyatida amalga oishildi. Ruh va jismni dastlab rassomlar va shoirlar teng huquqlilik darajasiga olib chiqdilar. Ularda ruh metaforik jismiylikka erishdi, jism esa tasviriy ruhlanish kasb etdi. Ular insonning ruhi va jismida inson shaxsnинг individualligi, unikalligi, takrorlanmasligi, almashtirilib bo‘lmasligi singari jihatlarini ko‘rdilar. So‘ngra ruh va jism faylasuflarning stoliga “ko‘chdi”.

Biroq, Yangi davr klassik falsafasi xristian aqidachiligidan uzoqlashaolmay, tatqiqotlarda ruh va jism orasidagi masofani saqlashda davom etdilar. Jismning rolini argumentlar asosida muxokama qilish o‘rniga u to‘g‘risida gapirmay qo‘ya qoldilar. To‘g‘ri, B.Spinosa masalan, Bibliya aqidalariga qarshi chiqqanlarning biri bo‘ldi. Uning jismga ahloqiy tus berishi bu aqidaga zid edi. Barcha odamlarda ruhi va jismini muvofiqlashtirish uchun, Spinozaga ko‘ra, yagona «ruh jism»ga to‘plash kerak. R.Dekart falsafasida ruh jismning munosabatini hal qilishdagи dualizm uzoq muddat antropologik muammolarni muhokamasini belgilab turdi. Dekart ikki substansional asos – fikrlovchi ruh va fazodagi jism (tana) ning paritetini tasdiqladi. Undan farqli ravishda fransuz ma’rifatchilari orasidan chiqqan «jangovor» ateistlar (P.Golbax, F.Volter, J. Lametri va b.) ruhning jismga bo‘lgan ahamiyatini pasaytirib, uni ruhning ishini mashinaning ishiga o‘xshatib talqin qildilar. Biroq, ruhni mexanistik vulgarlashtirish va jismni mashinaga tenglash ko‘plarning hushiga yoqmadи. Jism, ilgarigi hatto sensualizm va ratsionalizmning intensiv tanqidiy ziddiyatli bo‘lgan davrda ham falsafiy tafakkurning chekka masalasi bo‘lib qolaverdi. Tana, jism haqida gunohga taaluqli bo‘lgan salbiy atamalar bilan gapirar edilar, holbuki, begunoh ruh insoniy qadriyatlar orasida yuqori o‘rnni egallar edi. masalan, ruh va jism munosabati to‘g‘risida gapirganida G.Leybnis, garchi jism gunoh va yomonlikning majmui bo‘lsa – da, u ham haqiqatni bilish uchun ishlaydi va ruh sirlarining ochilishiga yordam beradi, deb gapirgan edi.

I.Kant o‘zining «Sof aqlni tanqid» asarida jismning resurslari va qobiliyatisiz ruhning mahsuldor ishlashi mumkin emasligini ko‘rsatadi. Tana tuzilishi fazo va vaqt shakkllari atamalarida idrok qilish yoki xis qilishining aprior qobiliyatlarining asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bundan tashqarida, tanada tasavvurning transental qobiliyati ildiz otgan deb o‘ylayshga asos bor. Kantning «Amaliy aqlni tanqid» asariga kelsak, unga muvofiq jismning instinctiv mexanizmlari yomonlik mexanizmlariga o‘xshatiladi va bu xristianlikdagi «birinchi tur gunoh» aqidasi sifatida ruh xossaliga qarama – qarshi qo‘yilgan [4, – B.456].

Hozirgi kunda ruh va jismning an‘anaviy antinomiyasi sezilarli darajada to‘ldirishlar va o‘zgarishlarga duch kelgan. Insonning ruhiy va tanaviy jihatlarini o‘rganuvchi fanlar nuqtai – nazaridan ular to‘g‘risidagi masala alohida dolzarblik kashf etadi. Birinchidan, ruh va tana orasidagi o‘tib bo‘lmas chegara borligi haqida tezis «vayron» bo‘ldi. Ularning bir – biri bilan shartlanganligiga shubha qolmadи. Ruh – insonning universal va integral qobiliyati sifatida o‘zining sohibi – tirik organizm, ya’ni jism bilan aloqadorlikda qaraladi. O‘z navbatida jism ham yuqori darajada differensiallashgan psixik imkoniyatlarga egadir.

Ikkinchidan, shu narsa ma’lum bo‘lkidi, jismga napisand va bogmatik qarashni Bibliyaning avtoriteti ham yoki ratsionalizmning falsafiy ideallari bilan ham oqlab bo‘lmas ekan. Aynan ularning aytganlari ta’sirida falsafada hanuzgacha jismni faylasuf tahlil qilishi lozim bo‘lмаган predmet deb g‘ayri olmiy qarash mavjud bo‘lib kelmoqda. Har holda Vena to‘garagi faylasuflarining umuman metafizikani, xususan jism tana metafizikasii, fantastik yozuvlar qatoriga kiritishlariga oid qarashlarida ham xuddi jismga nisbatan Bibliyadagi singari qalloblarga qarashdek dogmatiklik bor deb aytishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorda ruh tushunchasi, haqida uning mexanistik tasavvuri singari har qanday vulgarlashtirishlarni ham qabul qilib bo‘lmaydi. Bu oxirgi gapimizni aytishimizdan maqsad shuki, bunday vulgarlashtirishlar hozir ham uchrab turadi. Biz bu yerda o‘zining ma’naviyatsiz yoki jismliliksizligi bilan klassik falsafadagi mexanistik konstruksiyalarni eslatuvchi «sun’iy intellekt» modellarini ko‘zda tutmoqdamiz. Ruh va jismni vulgarlashtirishga oid eng yangi kompter usullarining havfiliги shundaki, ular virtual reallikning samarasi va imkoniyatlari ko‘ra nihoyatda niqoblangan bo‘lishi mumkin.

Falsafiy tafakkur taraqqiyotidan ma’lumki fan va uning insonparvar xususiyati to‘g‘risida xar-xil konsepsiylar, ziddiyatli, bahs-munozarali qarashlar ilgari surilgan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos mazmun mohiyat kasb etadi. Shu ma’noda fan va uning insonparvar xususiyati, rivojlanish

bosqichidagi maqsad va vazifalarini ilmiylik asosida tahlil qilish hozirgi kunning dolzarb falsafiy muammolaridan hisoblanadi. Shuningdek gumanizm g'oyalarni vujudga kelishi ham o'ziga xos ahamiyat kasb etgan bo'lib, uning rivojlanishi va jamiyat hayotida munosib o'rinni egallashini tushuntirib olish ham hozirda muhim ijtimoiy zaruratga aylanib bormoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, fan ham gumanizm g'oyalari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Dastlab fan to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak fan bu insonning faoliyati orqali dunyoni anglash borasidagi bilimlar tizimidir. Fan strukturasi, funksiyasi va metodologik xususiyati ijtimoiy tarixiy taraqqiyot davomida yanada rivojlanib, takomillashib kelgan.

Fan o'zining dinamik xususiyati bilan yanada mazmundor ahamiyat kasb etadi. Chunki fandagi ko'pgina ilmiy-nazariy bilimlar o'zgaradi va bu asosida fan tadqiqot obyektining miqdori kengayib boradi. Fanda dinamik xususiyatni mavdujligi uni ta'riflashda ham aks etadi. Shu ma'noda fanni har bir olim turlicha ilmiy yondashuvlar asosida ta'rif va tavsif etadi. Masalan rus faylasufi va sotsiologi B.T.Yudin "fan dunyo haqidagi insonni obyektiv bilimlar tizimi va faoliyat yo'nalishi demakdir" [5, – B.311] degan bo'lsa, o'zbek faylasufi O.Fayzullayev "fan-dunyo haqidagi obyektiv bilimlar sistemasi: ijtimoiy ong shakllaridan biri" [6, – B.319] deb ta'riflagan. Umuman olganda fanga berilgan ta'rif va tavsiflar mazmunan ilmiylik mezonlari, talablaridan chetga chiqmasligi lozim. Shuning uchun ko'pchilik olimlar tomonidan qabul qilingan ta'rif va tavsiflardan samarali foydalanish maqsadga muvofiq fanni bilish jarayonidagi formulasi ni D.I.Tryadovoy quyidagi jadval orqali ko'rsatib o'tadi.

Fanning tadqiqot doirasiga ko'ra predmeti esa tabiiy-ilmiy bilimlarni tizimlashtirish, insoniylik, inson qadr qimmati to'g'risidagi pozitiv bilimlar tizimidan iborat. Shuningdek, fan o'zida tabiiy-ilmiy madaniyat va gumanitar madaniyatni aks ettirishi bilan alohida ajralib turadi. Fan ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida o'ziga xos akseologik xususiyatga ega. Chunki ilm-fan, texnika va texnologik taraqqiyot ilmiy bilish tizimida insonparvar g'oyalarni ustuvor ahamiyat kasb etishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham fan to'g'risidagi akseologik konsepsiyalarni turlari bo'lgan etikaviy, sintetik, pragmatik, stagnatsionistik, prognostik kabilarga ajratib o'rganiladi. Bunda etikaviy tur fan sohasida ilmiy faoliyat olib borayotgan olimning ahloqiy kodeksdan chetga chiqmasligi va umuman ilmiy faoliyat sohasida ahloqiy me'yorlarning ustuvor bo'lishga qaratilgandir. Fanni to'g'risidagi akseologik konsepsiyanı sintetik turida esa tabiiy-ilmiy va gumanitar fanlarni o'zaro aloqadorligi va munosabatlariga alohida e'tibor beriladi. Pragmatik shunda esa texnika taraqqiyoti, energetika, ekologiya va boshqa sohalarda amaliy chora-tadbirlarni, ishlab chiqarishni mutloqlashtirish nazarda tutiladi. Stagnatsionistik turda esa tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarni ilmiy mohiyati konservatsiya qilinishi e'tirof etiladi. Prognostik turda fan taraqqiyoti, ijtimoiy o'zgarishlar, texnikani rivojlanishi tabiiy qonunlarga mos kelishi talab qilinadi.

Fan falsafiy nuqtai nazarga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi:

1. Falsafiy fanlar (ontologiya, gnoseologiya, mantiq, sotsiologiya, etika, estetika, falsafa tarixi).
2. Matematik fanlar (matematik mantiq, matematika, amaliy matematika).
3. Ijtimoiy fanlar (tarix, arxeologiya, etnografiya, iqtisodiy geografiya, iqtisod, huquq, san'atshunoslik, psixologiya, pedagogika, dinshunoslik va boshqalar).
4. Tabiiy va texnika fanlari (mexanika, astronomiya, astrofizika, fizika, kimyo, odam fiziologiyasi, texnik fizika, qishloq xo'jaligi uyushmalari, meditsina, tog' kon sanoatiga oid fanlar va boshqalar shular jumlasidandir).

Umuman olganda fan qanday tavsiflanmasin inson hayoti uchun zarur bo'lgan gnoseologik, texnologik, ma'naviy va moddiy ehtiyojlarni ta'minlashdan iborat. Chunki aynan fan inson organizmi, atrof muhit, bepoyon olam sirlarini va rivojlanish mexanizmlarini o'rganib, ulardan jamiyat ravnaqi uchun unumli foydalanishga sharoit yaratib berishi bilan ham alohida ajralib turadi.

Umuman olganda fan insoniyat uchun qanchalik foydali imkoniyatlar va qulayliklarni yaratib bergen bo'lsa, bunday amaliy chora-tadbirlarni u albatta texnika va texnologiyalarga suyangan holda ulardan unumli foydalangan holda amalga oshirgan. Shu ma'noda texnika va texnologiyani rivojlanirish bosqichlarini to'g'ri anglab olish uchun inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarida tutgan o'rnini ilmiylik asosida tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir.

Texnika rivojlanish bosqichlarini tarixiy aspektida yoritish bilan birgalikda uni falsafiy nuqtai-nazardan tahlil qilish ham bu maummoni tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Texnika» tushunchasi, uning paydo bo‘lishi va hozirgi davrdagi talqini, texnikaviy bilishning tabiatni, texnika va global muammolar doirasi, texnikani insoniylashtirish va texnik qadriyatlar xususida ma’lumot berish va falsafiy fikr-mulohazalarini ilgari surishdan oldin bu atamani lug‘aviy ma’nosini va shakllanish tarixiga nazar solishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Texnika so‘zi yunoncha va lotincha techne ya’ni san’at, ustamonlik degan ma’noni bildiradi [7, – B.712]. Texnikaga tarixiylik nuqtai nazaridan baho beradigan bo‘lsak u odamzotning moddiy narsalarga muayyan shakl berib yashash uchun kurash vositalarini (masalan, toshdan turli asbob uskunalar) yaratish san’ati ma’nosida, yaqin 2 million yillik tarixga, ya’ni u pitekantrop haqidagi odamlar faoliyatiga borib taqaladi. G‘arbiy Yevropada XVII asrdan boshlab, mashina mehnati shakllana boshladidi va u XX asrga kelib inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarini qamrab oldi. Bunday sharoitda «texnika» atamasi o‘zining ilgarigi tor ma’nosini doirasidan chiqib, odamlarning ehtiyojlari va istaklariga muvofiq ravishda, muayyan narsalarni maqsadli o‘zgartirish, ularga shakl berish, jismoniy va aqliy faoliyatning iloji boricha, ko‘pincha moslama (mashina)lar bajarishiga qaratilgan hamma faoliyat yo‘nalishlari ma’nosini anglatadigan bo‘lib qoldi.

Odamzot mehnatini yengillashtirish, turmush qulayliklariga erishish, tabiatning stixiyali kuchlari ustidan xukmronlikni kuchaytirish yo‘lida tabiat qonunlarini kashf etish, hozirgi zamон texnikasi va texnologiyasi rivoji hamda takomili uchun shart-sharoit yaratib berdi. Bu hol, avvalo tabiatshunoslik va texnika fanlarining misli ko‘rilmagan darajada rivojlanishiga olib keldi. atomning parchalanishi ayon bo‘lgach, zarralar sir-asrori yalpi avtomatlashtirish, boshqarishni kompyuterlashtirish davri boshlanib, insoniyat endilikda informatika davriga qadam qo‘ymoqda. Natijada industriallashgan jamiyatlar vujudga kelib, odamzot hayoti va faoliyatining texnika ishtirok etmayotgan biron taʼsiriga qarab qolmayapti.

Texnika taraqqiyoti tufayli bir tomondan misli ko‘rilmagan darajada turmush qulayliklari vujudga kelib, insonning yashash imkoniyati kengayib borayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa texnika rivoji ta’sirida u o‘zining ijtimoiy mohiyatidan tobora uzoqlashib, an’anaviy turmush tarzining tarix sinovlaridan o‘tgan ma’naviy-axloqiy jihatlarning ko‘pidan mahrum bo‘lib bormoqda.

Hozirgi zamон texnikasi odamlarning muayyan ixtisoslik bo‘yicha uyushgan jamoasi (kollektivi)dan chuqur bilim, yetuk malaka va qattiq intizomni taqozo etadi. Shu tufayli individ tor, cheklangan soha bilimdoni va malakali funksioner (ish bajaruvchisi) bo‘lishga intilib, uning hayot ma’nosini va maqsad-muddaosi to‘g‘risidagi tasavvurlari cheklanib qolmoqda. Jamiyatni industriallashtirish jarayoni natijasida g‘arb mamlakatlarida yuzaga kelgan sivilizatsiya bo‘hroning oldini olish, istiqboldagi muqarrar halokat tufayli yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kelajakka umidsizlik, ishonchszilik va vahima ruhining cheklanishiga erishish uchun turli loyihibar ishlab chiqilmoqda. G‘arbcha texnogen jamiyatlarini Sharq donishmandligi bilan qo‘sib, yagona chinakam insoniy sivilizatsiyaga asos yaratish imkoniyati mavjud, degan fikr ilgari surilmoqda. Shuning uchun, biosferaning noosfera bilan uzviy bog‘liqlik davrini insoniyat aql-zakovati va uning mevasi – fan – texnika muvaffaqiyatlarini faqat bunyodkorlik, yaratuvchilik tomoniga burib yuborishga buyuk ishonch ruhida kamol toptirish, tarbiyalangan yangi avlodni shakllantirish favqulotda ahamiyatli, umummilliy va umumbashariy vazifa bo‘lib qolayotganini anglash davri keldi, deb hisoblaymiz.

Texnikaning rivojlanishi natijasida uni inson tafakkuri va amaliy faoliyatiga ko‘rsatayotgan ta’sirini turli xil yondashuvlar asosida tahlil qilinishi asosida falsafaning maxsus yo‘nalishi ya’ni texnika falsafasi shakllandidi. Shu o‘rinda qayd qilish lozimki texnika inson faoliyatining maxsus sohasi sifatida qadimgi davrdan boshlab faylasuflarni qiziqtirib kelgan qadimgi yunon va Rim, uyg‘onish davri va yangi davr faylasuflari texnikani nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilishga harakat qilganlar, uning falsafiy ma’nosini ochib berish uchun anchagina faoliyat ko‘rsatganlar. Biroq, “texnika falsafasi” atamasi E.Konning 1877-yilda Germaniyada chiqqan “Texnika falsafasi asoslari” kitobida ilk bor ishlatilgan. Texnika falsafasi bu zamonaviy g‘arb falsafasining muhim muammolaridan biri hisoblanib, u texnikaning tarixiy-sivilizatsiyaviy kontekstidagi ijtimoiy fenomen ekansligini tizimli tahlil qilishdan iborat falsafiy yo‘nalish sifatida e’tirof etiladi [8, – B.765]

XX asrning 60-yillaridan boshlab an'anaviy falsafiy yondashuvlarni «moddiy madaniyat» qismini tahlil qilish asosida texnikaning nazariy va amaliy foydali xususiyatlari to‘g‘risida o‘ziga xos falsafiy konseptual yondashuvlar ishlab chiqildi. Bunday yondashuvlarni ilgari surgan olim va faylasuflar qatoriga F.Ropp (texnikaning amaliy xususiyatlari to‘g‘risida), Ellyul (texnikaviy dunyoqarash), A.Xun (texnika antropologiyasi) va boshqalarni keltirish mumkin.

Shuningdek texnika falsafasini gnoseologik va metodologik nuqtai nazardan o‘rgangan faylasuf olimlar ham muhim ilmiy-nazariy qarashlarni ilgari surib, texnika falsafasini ilmiy asoslari shakllanishida o‘zlarini munosib hissalarini qo‘sghanlar. Bular P.Engelmeyer, J.Lenski, Mak-Lyuen, Xarkxaymer, Adorno, Xabermas, Markuze, T.Rozzak, Memford, X.Shelski, Bell, Toffler, A.Gelen, T.Ropol, S.Karpenter, Talbreyt, Parsone, Bernxem, M.Allen, M.Soref, D.Maynixen, Gouldner, V.Bol, J.Uaynsteyn va boshqalar hisoblanadilar [9].

XULOSA

Biosferaning noosfera bilan uzviy bog‘liqlik davrini insoniyat aql-zakovati va uning mevasi – fan – texnika muvaffaqiyatlarini faqat bunyodkorlik, yaratuvchilik tomonga burib yuborishga buyuk ishonch ruhida kamol toptirish, tarbiyalangan yangi avlodni shakllantirish favqulotda ahamiyatli, umummiliy va umumbashariy vazifa bo‘lib qolayotganini anglash davri keldi, deb hisoblaymiz.

Umuman olganda, bu olimlarning nuqtai nazarlari neotexnokratik ma’no-mazmunga ega bo‘lib, asosan tizimni ratsional faoliyat va texnikani gumanizatsiyalashtirish muammolari bilan chambarchas bog‘liq tarzda muhim ilmiy-falsafiy qarashlar ishlab chiqilgan.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Джиган О.В. Философские аспекты конвергенции наук и технологий: диссертация ... кандидата философских наук. – М., 2017. – 187 с.
2. Гайденко П.П. История греческой философии в ее связи с наукой. Изд.стереотип. Книжный дом ЛИБРОКОМ, 2019. – 264 с.
3. Кошкарян М. Из истории философии. Античная философия Издательство гуманитарной литературы, 2009. – 240с.
4. Российская социологическая энциклопедия. Под общей редакцией академика РАН Т.В.Осипова. – М.: Изд. Группа норма-инфра. – М.: 1998. – С. 311.
5. Российская социологическая энциклопедия. Под общей редакцией академика РАН Т.В.Осипова. – М.: Изд. Группа норма-инфра. – М.: 1998. – С. 311.
6. Фалсафа қисқача изоҳли лугат – Тошкент: «Шарқ», 2004. – 319 б.
7. Новый философский словарь / Сост. А.А. Трицанов.-Мн.: Изд. В.М.Скаун, 1998. – С. 712.
8. Новейший философский словарь / Сост. А.А.Трицанов. -Мн.: Скаун, 1998, – С. 765.
9. Гейзенберг, В. Избранные философские работы. Шаги за горизонт. Часть и целое / пер. А. В. Ахутина, В. В. Бибихина. СПб. : Наука, 2005. – С. 222.
10. Лейси Х. Свободна ли наука от ценностей? Ценности и научное понимание / пер. с англ. Л.В.Сурковой, В.А.Яковлева, А.И.Панченко; под ред. В.А.Яковлева. – М.: Логос, 2001. – С. 165.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Хо‘jamqulov Adham,
Samarqand davlat universiteti
tayanch doktoranti
e-mail: adhamxojamqulov561@gmail.com

YANGI O‘ZBEKISTONNING YOSHLARGA DOIR SIYOSATI: YOSHLAR IJTIMOIY KAPITALINI RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Hozirgi kunda dunyoda ildam qadamlar bilan o‘zgarib borayotgan, tobora insoniyat olamini o‘z domiga tortib va ularning hayotiga chuqurroq kirib, milliy madaniyati va ma’naviyatiga ta’sir etayotgan globallashuv jarayoni yuz bermoqda. Mazkur maqolada bugungi globallashuv davrida O‘zbekiston Respublikasida zamon talabiga javob bera oladigan, raqobatbardosh yosh kadrlar va mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarning yoshlari siyosati sohasidagi asosiy prinsiplari, vazifalari aks etgan huquqiy hujjatlar va ushbu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar, strategiyalar tahlil etilgan. Yoshlarga oid siyosatida yoshlari ijtimoiy kapitalini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: yoshlari, yoshlari siyosati, ijtimoiy kapital, hukumat va yoshlari, mahalla va yoshlari, oila va yoshlari.

Хўжамқулов Адҳам,
Базовый докторант

Самаркандского государственного университета
э-майл: adhamxojamqulov561@gmail.com

ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА МОЛОДЕЖИ В МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКЕ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

АННОТАЦИЯ

В настоящие времена в мире происходит глобализация, которая постепенно меняется, которая все больше затягивает мир человечества в свою ловушку, проникая в его жизнь, затрагивая его национальную культуру и духовность. В данной статье в современную эпоху глобализации научно освещено содержание и сущность государственной политики в отношении молодежи, направленной на подготовку конкурентоспособных молодых кадров и специалистов, способных отвечать требованиям времени. Также анализируются правовые документы, отражающие основные принципы и задачи развитых стран в сфере молодежной политики, а также меры и стратегии в этом направлении. В молодежной политике также даются предложения и рекомендации по развитию социального капитала молодежи.

Ключевые слова: молодежь, молодежная политика, социальный капитал, правительство и молодежь, соседство и молодежь, семья и молодежь.

Khojamqulov Adham,
PhD student at Samarkand State University
e-mail: adhamxojamqulov561@gmail.com

THE IMPORTANCE OF DEVELOPING THE SOCIAL CAPITAL OF YOUNG PEOPLE IN THE YOUTH POLICY OF THE NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

Currently, globalization is taking place in the world, which is gradually changing, which is increasingly dragging the world of humanity into its trap, penetrating into its life, affecting its national culture and spirituality. In this article, in the modern era of globalization, the content and essence of the state policy towards youth aimed at training competitive young personnel and specialists capable of meeting the requirements of the time are scientifically highlighted. Legal documents reflecting the basic principles and objectives of developed countries in the field of youth policy, as well as measures and strategies in this direction, are also analyzed. Youth policy also provides suggestions and recommendations for the development of youth social capital.

Key words: youth, youth policy, social capital, government and youth, neighborhood and youth, family and youth.

KIRISH

Bugungi kunda yuz berayotgan global o‘zgarishlar va global inqirozlar jahon hamjamiyatini hushyorlikka chaqirmoqda. Bunda barcha mamlakatlar o‘zining tabiiy-geografik, siyosiy-iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib vaziyatga oqilona yechimlar topishga harakat qilmoqda. Har bir mamlakatning jadal rivojlanishi ushbu mamlakat yoshlarining bilimi, salohiyatiga uзвиy bog‘liq ekanligini hisobga olsak, yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirish masalasi jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki, yoshlar har bir davlatning ertangi kuni va aynan ular davlatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar masalasi juda muhim masala ekanligini ta’kidlab quyidagi fikrni bildirgan edi: “yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo, biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda” [1, – B.507]. Darhaqiqat, yoshlar masalasi o‘z holiga tashlab qo‘yiladigan masala emas.

“Yurtimiz yoshlari o‘rtasida ilm-fan, ta’lim-tarbiya, tibbiyat, madaniyat, adabiyot va san’at, sport, ishlab chiqarish, harbiy xizmat sohalarida, umuman, barcha jabhalarda jonbozlik ko‘rsatib kelayotgan azamat yigitlarimiz juda ko‘p. Ular o‘zining jismoniy va ma’naviy salohiyati, iste’dod va mahoratini namoyon etishi uchun zarur sharoitlarni yaratib berish borasida mamlakatimizda ko‘p ishlar qilinyapti va kelgusida ham ularni albatta davom ettiramiz.

Ayni vaqtida halol va samarali mehnati, ilmiy-ijodiy yutuqlari, Vatanga sadoqatli xizmati bilan barchaga o‘rnak bo‘layotgan mard o‘g‘lonlarimizni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish davlatimiz va jamiyatimizning e’tibor markazida bo‘lishi zarur” [2], deb ta’kidlagan edi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev. Bu borada respublikamizda bir qator amaliy ishlar bajarilmoqda. Jumladan, ta’lim tizimiga ko‘plab normativ-huquqiy hujjat (qonunlar, dasturlar, konsepsiylar va hakozo)lar qabul qilinmoqda va ijrosi ta’minlanmoqda.

METODOLOGIYA

Yoshlar masalasini o‘rganish ilk svilizatsiyalardan buyon mayjud bo‘lib, har bir davrning mashxur olimlari yosh avlod tarbiyasiga oid o‘z fikrlarini bayon etganlar. Jumladan, Aristotel o‘zining “Politika” (yunoncha. “Siyosat”) asarida “yoshlar tarbiyasi” masalasini ko‘taradi va bu mayjud bo‘lmagan joyda davlatning asoslariga putur yetadi” [3], deb hisoblaydi.

Buyuk mutafakkir “Sharq Arastusi” va “Muallim us-soniy” (“Ikkinch muallim” Aristoteldan keyingi) deb tan olingen Abu Nasr Forobiya ko’ra “Agar yoshlar kasb-hunar egallashga moyil bo’lsalar, qiziqsalar, ushbu qiziqish ularni butunlay shunga jalg etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo’ladilar, uning sirlarini mukammal o’zlashtiradilar” [4], deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, yoshlar masalasiga to’xtalganda ularni kasbga o’rgatish, raqobatbardosh mutaxassis etib tayyorlash bugungi kunning dolzarb muammolaridan sanaladi.

Jadid ma’rifatparvarlari yetakchisi Maxmudxo‘ja Behbudiy Turkiston yoshlariga murojaatida yoshlar vatan ravnaqi uchun jonkuyar bo’lishi kerakligini uqtiradi: “Har bir mamlakatda islohot va madaniyat asbobiciga tavassul va tashabbus etmoqlik harakati u mamlakatning yoshlari tarafidan zuhur eta boshlagani kabi, bizning Turkistonda ham madaniyat eshigi manzalasida bo’lgan makotibi ibtidoiyya ila intiboh va islohot jarchisi bo’lgan milliy matbuot g’ayratlu yoshlarning harakoti maorifparvaronalar soyasida vujudga keldi. Shuning uchun har bir milliy havoyijimizdan bo’lgan mushkul ishlarda yolg‘iz yoshlarimizni marja’ va umidgoh tutib, alardan yordam so’raymiz [5].

ASOSIY QISM

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng ilmiy nuqtai nazardan yoshlar siyosati tushunchasining mohiyati siyosatshunoslik fanlari doktori S.A.Jo’rayev ta’rifida ochib berilgan: “Yoshlar siyosati bu jismonan va ruhan sog’lom milliy-etnik genofondni saqlash, qayta ishlab chiqarish, rivojlantirishga, intellektuallashtirish, ijtimoiylashtirish darajasini yaxshilash hisobiga uning salohiyati va mobilligini oshirishga, har bir yoshni faol jamiyat a’zosi, uyg‘un rivojlangan shaxs sifatida yetishib chiqish jarayonlarini rag’batlantirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy- huquqiy, madaniy-ma’naviy shart-sharoitlar majmuuni yaratish sari maqsadli yo’nalish olgan davlat va jamiyat, partiyalar va harakatlarning alohida siyosiy yo’lidir [6].

Shu o’rinda bugungi kunda jahon miqyosidagi yoshlar masalasiga oid qarashlarga e’tibor qaratish joiz deb hisobladik. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (a’zo davlatlar tomonidan berilgan har qanday boshqa ta’riflarga zarar yetkazmagan holda) 15 yoshdan 24 yoshgacha bo’lgan shaxslarni yoshlar deb belgilaydi. Bugungi kunda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo’lgan 1,2 milliard yoshlar dunyo ahonisining 16 foizini tashkil qildi. 2030-yilga kelib ushbu ko’rsatgich 7 foizga o’sib, qariyb 1,3 milliardga yetishi kutilmoqda [7].

Ukrainalik olim Yu.Tereshenkonning fikriga ko’ra birinchidan, hozirgi zamon yoshlari iqtisodiy jihatdan erkin, tadbirkor, ishbilarmon va qobiliyatlidir, ikkinchidan yoshlar siyosiy erkinlikka o’z qiziqishlarini namoyon qiladigan shaxslardir [8]. Uning fikriga ko’ra bunday shaxs o’zining huquqiy va axloqiy majburiyatlarini sidqidildan bajaridi, shuning bilan birga o’zini hamda o’zgalarni himoya qila oladi. Uchinchidan, bu naqshinkor ekologik dunyoqarashga ega. To’rtinchidan, u milliylikni ham anglagan inson. Bunday inson o’z xalqini sevadi, u uchun ona tili va milliylikni anglatuvchi har qanday madaniyat turi milliylikni namoyon qiluvchi muhim o’zo’zini anglashidir.

Yoshlar o’z davlatlaridan adolatli va ilg‘or imkoniyatlarni talab qilayotgani sari, yoshlar duch keladigan ko’p qirrali muammolarni (masalan, ta’lim, sog’liqni saqlash, bandlik) hal qilish zarurati har qachongidan ham dolzarb bo’lib qoldi. Yoshlar masalasiga har bir davlatning o’ziga xos yondashuvi va siyosati mayjud bo’lib, ushbu siyosat ana shunday sharoitlarni yaratishga qaratilgan bo’ladi.

Bugun globallashuv jarayonlari shiddatli rivojlanib borayotgan davrda barcha jabhalarda bo’lgani kabi yoshlar siyosatini amalga oshirish, ular bilan ishlash sohasida ham yangicha qarashlar, munosabatlar tizimini ishlab chiqish hamda xorijiy davlatlarning ilg‘or texnologiyalaridan foydalanish taqozo etmoqda. Zero, ushbu tajribalarni tahlil qilish, ulardan mamlakatimiz amaliyotida unumli foydalanish yo’llarini o’rganish orqali ijobjiy natijalarga erishish mumkin.

Xorijiy mamlakatlarning aksariyatida davlatning yoshlar siyosati sohasidagi asosiy prinsiplari, vazifalari aks etgan huquqiy hujjatning ishlab chiqish masalasiga katta e’tibor qaratiladi. Ozarbayjon, Belarus, Finlandiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Latviya, Litva, Janubiy Koreya kabi davlatlarda Yoshlarga oid davlat siyosati to’g’risida qonunlar qabul qilingan (1-rasm).



1-rasm. Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida qonun qabul qilingan davlatlar

Keyingi yillarda aksariyat Yevropa davlatlarida yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishda o‘rta va uzoq muddatlarga mo‘ljallangan strategiya va dasturlarni ishlab chiqish tajribasidan keng foydalanilmoqda. Xususan, Albaniya, Avstriya, Bolgariya, Vengriya, Makedoniya, Ruminiya, Serbiya, Slovakiya va boshqa davlatlarda ushbu yo‘nalishdagi chora-tadbirlar strategiyalar orqali amalga oshirilmoqda (2-rasm).



2-rasm. Yoshlarga oid davlat siyosatni amalga oshirishda strategiyaga ega davlatlar.

Mamlakatimizning taraqqiyotini ta’minlovchi yoshlар to‘g‘risidagi qarashlarni o‘rganish, bu qarashlarning bugungi kundagi ahamiyatini tahlil qilish hamda o‘ziga xos jihatlarini ochib berish dolzarb masala hisoblanadi. Chunki, O‘zbekistonda 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlар va bolalar soni 18 milliondan oshdi. Bu esa mamlakatimiz aholisining 54 foizini tashkil etadi [9]. Yoshlarning miqdor jihatidan o‘sishi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ham yuqori ko‘rsatkichga ega. Shu boisdan mamlakatimizda ham yoshlар masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qarab kelinmoqda. Xususan, yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan isloh qilish va yanada rivojlantirish maqsadida 2021-yil mamlakatimizda “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili” deb e’lon qilingan bo‘lsa, joriy 2024-yil “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili” deb e’lon qilindi. Zero, bugungi kun yoshlari Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy

davlat sifatida ravnaq topshirishga qodir avlod bo‘lishi mumkin. BMT bosh kotibi Antoniu Guterrishga ko‘ra “O‘zbekiston muhim demografik bosqichda bo‘lib, aholining 60 foizini 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi. Kelgusi yigirma yil ichida bugungi ko‘p sonli bolalar va yoshlar ishchi kuchiga o‘tadi va bu O‘zbekiston tarixidagi eng katta davlatga aylanadi. Hozirda to‘g‘ri yo‘naltirilgan sarmoya bilan bugungi kundagi ko‘payib borayotgan yoshlar O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning keyingi bosqichiga olib chiqadigan avlod bo‘lishi mumkin” [10].

Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev O‘zbekiston yoshlar ittifoqini tashkil etishga bag‘ishlangan nutqida “Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish nainki Prezident devoni, balki barcha bo‘g‘indagi davlat organlari rahbarlarining doimiy ishiga aylanishi zarur. Bundan buyon bu sohada aniq tizim asosida ish olib boramiz” [11, – B.578] deb ta’kidladilar.

Qonunchiligidan ko‘ra yoshlarga oid siyosat O‘zbekiston Respublikasi davlat faoliyatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lib, uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodiy iqtidori jamiyat manfaatlari yo‘lida imkonimiz boricha to‘la-to‘kis ro‘yobga chiqishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iboratdir.

Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash;

- yoshlarning hayoti va sog‘lig‘ini saqlash;

- yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko‘maklashish;

- yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minalash;

- yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish;

- yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruvida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega qilib tarbiyalash;

- yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish;

- yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish;

- iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish;

- yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- yoshlarda sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- yosh oilalarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, ular uchun munosib uyjoy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish;

- yoshlarning huquqlari va erkinliklarini ro‘yobga chiqarish sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni rivojlantirish [12].

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga binoan tuzilgan “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi”ning 1-yo‘nalishi “Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlangan bo‘lib, 4-bandji “Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar”ga bag‘ishlangan. Ushbu bandda quyidagi maqsadlar qo‘yilgan:

- yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o‘qitish tizimini yaratish;

- yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag‘batlantirish;

- yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish;

- yoshlar o‘rtasida it sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish;

- jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish;

- respublikada sport bilan professional va doimiy shug‘ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish;

- milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish;

➤ olimpiya va paralimpiya harakatini rivojlantirish [13].

Biz rivojlanayotgan davlatlarning hukumatlari tomonidan ishlab chiqilgan yoshlarga oid milliy siyosatni o'rganib chiqdik. Shu asosda yoshlarga oid milliy siyosat bo'yicha xalqaro standartlarni tahlil qildik. Mamlakatlarning yoshlarga oid milliy siyosatini amalga oshirish bo'yicha harakatlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, yoshlarga oid milliy siyosatning o'zi yetarli emas. Siyosatni amalga oshirish bo'yicha harakatlar rejasiga ega bo'lish ham muhimdir.

XULOSA


Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, fikrimizcha, yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirish yoshlarga oid davlat siyosatining uzviy bo'g'ini bo'lishi lozim. Yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirishda quyidagilarni e'tiborga olish muhim hisoblanadi:

Birinchidan, yoshlarning yangicha muammo va ehtiyojlarini tan olish. Chunki, jamiyatimizda ayrim stereotiplarga tayanib ushbu ehtiyojlar va muammolarga salbiy munosabatlar shakllangan.

Ikkinchidan, yoshlarga oid siyosatda marginallashuvni bartaraf etish. Ya'ni, yoshlarga oid siyosat yoshlarning barcha qatlamlariga (uyushmagan yoshlar, qishloq yoshlari, migrant yoshlar, nogironligi bor yoshlar) yetib borishi lozim;

Uchinchidan, yoshlarga "resurs" sifatida qarash, ularning salohiyatidan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy rivojlanishning asosiy boyligi sifatida foydalanish. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" [14].

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytganda, Yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirish hukumat, mahalla va oila institutlarida bosqichma-bosqich quyidagi ishlarni amalga oshirilishini taqozo etadi (3-rasm)::



2-rasm. Yoshlar ijtimoiy kapitalini rivojlantirishda hukumat, mahalla va oila institutlarida bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ishlar

1-bosqich. "Hukumat va yoshlar". Yoshlarning Oliy Majlisdagi imkoniyatlarini kengaytirish va ularni davlat hokimiyati qurilishiga oid qarorlar qabul qilish jarayonlariga jalb qilish orqali yoshlar salohiyati va imkoniyatlarini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga oladi.

Bunda yoshlar parlamenti faoliyatini kengaytirish, senat va qonunchilik palatasida yoshlar ulushini oshirish lozim.

2-bosqich. "Mahalla va yoshlar". Yoshlarni mahalliy rivojlanishga oid jarayonlarga jalb etish orqali har xil toifadagi yoshlarni o'zaro manfaatli munosabatini ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Bunda har bir mahallada yoshlar uylarini tashkil etish va mahalla yoshlar yetakchisining vakolatlarini kengaytirish lozim.

3-bosqich. “Oila va yoshlar”. Yoshlarda oilaviy munosabatlar haqidagi bilimlarini rivojlantirish orqali yosh oilalarda jismoniy, aqliy, hissiy va psixologik farovonligini ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Bunda yosh oilalar o‘rtasida ommaviy sport o‘yinlari, zakovat kabi intellektual o‘yinlarni o‘tkazish zarur. Shuningdek, har bir mahallada oila psixologi lavozimini joriy qilish lozim. Ta’kidlash joizki, yosh oilani qo‘llab-quvvatlash va yosh oilalarning muammolarini hal etish tizimli xususiyatga ega bo‘lishi, hamda yosh oilalarga nisbatan amalda yangi ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni belgilash lozim. Ushbu bosqich eng muhimi hisoblanadi, chunki sog‘lom turmush tarziga ega bo‘lgan, sog‘lom psixologik muhit ta’milangan oiladan kelajakda sog‘lom avlod yetishib chiqadi. Faqat sog‘lom avlod vakillarigina jamiyat va davlat taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘sha oladilar.

Shuningdek, yoshlarning muammolarini o‘rganish samaradorligini yanada oshirish uchun har bir tumanda yoshlar muammolarini, yutuq va kamchiliklarini tahlil qilib boruvchi sotsiologik markazlar faoliyatini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/ Literatura/ References:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. <https://uza.uz/oz/posts/jismoniy-va-ma-naviy-yetuk-yoshlar-ezgu-maqsadlarimizga-yeti-30-06-2017>
3. Аристотел. Сиёsat // Бир неча жилдли асарлар. – М.:Мысль, 1983. Т.4. С.А.Жебелев таржимаси.
4. Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент,1993.
5. Беҳбудий М. Мухтарам ёшларга мурожаат. Ойна, 1914. 41-сон.
6. Жураев С. Особенности формирования государственной молодежной политики Республики Узбекистан в переходный период: теория и практика. Дисс...док.полит.н. – Ташкент, 1994. – С.17.
7. <https://www.un.org/en/global-issues/youth>
8. Қозоқов С. “Ёшлар сотсиологияси” фанидан ўқув-услубий мажмуа. Наманган 2010.
- Б.7.
9. <https://uz.wikipedia.org>
10. https://www.unodc.org/roca/en/news/safe-spaces-for-the-youth-of-central-asia_-unodc-supports-tashkent-international-mun.html
11. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
12. <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022>
13. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
14. Мирзиёев Ш.М. БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида сўзлаган нутки. 2017.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Qobilov Uchqun,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat boshqaruvi akademiyasi doktoranti,

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi ofitseri, mayor

DAVLAT BOSHQARUVINI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLAT XIZMATCHILARINING KASBIY KOMILLIGINI SHAKLLANTIRISH



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Global raqamlashtirish jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga ta’sir qila boshladi. Davlat boshqaruvi bundan mustasno emas. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini hokimiyat organlariga joriy etish bir vaqtning o‘zida davlat xizmatchilariga “aqli mashinalar” bilan ishlash ko‘nikmalarini talab qilishga olib keldi. Malakali mutaxassislarining yetishmasligi, shuningdek, davlat xizmatchilari tomonidan sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nuqtai nazaridan huquqiy tartibga solishning yetishmasligi tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslaydi. Maqolada davlat xizmatchilari o‘rtasida raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish zarurligini tasdiqlash, ularning tartibga solishni kuchaytirishni talab qiladigan tarkibini aniqlash, shuningdek, davlat xizmatchilarining AT tizimlari bilan ishlash ko‘nikmalarini egallash usullarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, davlat xizmati, davlat xizmatchisi, komillik, raqamli kompetensiyalar, davlat boshqaruvi.

Кабилов Учкун,

Докторант Академии государственного управления

при Президенте Республики Узбекистан,

офицер Министерства обороны Республики Узбекистан, майор

ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ГОСУДАРСТВЕННОГО УПРАВЛЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

Глобальные процессы цифровизации стали затрагивать все сферы жизни общества. Государственное управление не является исключением. В то же время внедрение информационно-коммуникационных технологий в органы власти привело к востребованности навыков работы с «умными машинами» для госслужащих. Отсутствие квалифицированных специалистов, а также отсутствие правового регулирования в части использования технологий искусственного интеллекта государственными служащими обосновывают актуальность выбранной темы исследования. Цель статьи – подтвердить необходимость развития цифровых

компетенций у государственных служащих, определить их содержание, требующее усиления регулирования, а также определить методы приобретения навыков государственных служащих по работе с ИТ-системами.

Ключевые слова: цифровая экономика, государственная служба, государственный служащий, компетенции, цифровые компетенции, государственное управление.

Kabilov Uchkun,

Doctoral student of the Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan,
officer of the Ministry of Defense of the Republic of Uzbekistan, major

FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF CIVIL SERVANTS IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION OF PUBLIC ADMINISTRATION

ABSTRACT

Global digitalization processes have begun to affect all spheres of society. Public administration is no exception. At the same time, the introduction of information and communication technologies in government bodies has led to the demand for skills in working with "smart machines" for civil servants. The lack of qualified specialists, as well as the lack of legal regulation in terms of the use of artificial intelligence technologies by civil servants, justify the relevance of the chosen research topic. The purpose of the article is to confirm the need to develop digital competencies among civil servants, determine their content, requiring increased regulation, and determine methods for acquiring skills of civil servants in working with IT systems.

Keywords: digital economy, civil service, civil servant, competencies, digital competencies, public administration.

KIRISH

Davlat xizmati davlat boshqaruvi tizimining markaziy elementidir. Konservativ xarakterga ega bo‘lgan davlat boshqaruvi zamonaviy axborot jamiyatni tomonidan talab qilinadigan muammolarga, xususan, “iqtisodni raqamlashtirish” fenomeniga xali unchilik moslashmagan. Davlat xizmatining maqsadi, bir tomondan, davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini, ikkinchi tomondan, birinchilar faoliyatida ustuvor bo‘lgan inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini ta’minlashdan iborat. Shunday ekan, zamonaviy davlat xizmati davlat oldida turgan vazifalarini amalga oshirishning samarali vositasi bo‘lishi, shuning uchun uning faoliyatiga raqamli vositalarni joriy etishdan manfaatdor bo‘lishi kerak. Shu munosabat bilan, davlat xizmatchilarida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun raqamli tizimlarni malakali boshqarish vakolatlarini rivojlantirish zarur. Natijada, davlat xizmatining samaradorligi butun davlat boshqaruvi samaradorligini kafolatlaydi.

Davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda asosiy vazifalarini amalga oshirish raqamli texnologiyalarni muvafaqqiyatli tatbiq etish bilan uzviy bog‘liqdir. Davlatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoev takidlaganidek: “Bugun axborot texnologiyalari har bir jahaga kirib borgan. Bu soha rivojlansa, boshqa sohalar ham ilgarilaydi, odamlarga qulayliklar oshadi” [1]. Haqiqatdan ham, bugungi kunda davlat boshqaruvi va jamiyatning barcha sohalarida aniq maqsadlarga erishish raqamlashtirish tizimini qo‘llanmasdan amalga oshirish mumkin emas. Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayonida qay darajada muvaffaqiyat qozonishi ko‘p jihatdan bu masalaning texnik, huquqiy jihatlari bilan birgalikda subektiv omilga, yani davlat xizmatchilarining va jarayon subektlarining bu g‘oyani qo‘llab-quvvatlashi, uni amalga oshirishi bilan ham bog‘liqdir. Davlatimiz Prezidenti ham haqli ravshda ta’kidlaganidek, “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart” [2], deya aholining va davlat organlari xodimlarining raqamli savodxonligini va madaniyatini oshirish orqali yuqori samaradorlikga erishish mumkinligini takidlaydi.

Bugungi raqamlashtirish sharoitida raqamli savodxonlikni oshirish konceptual hujjatlarda, shuningdek, davlat rahbari tomonidan asosiy vazifalar sifatida belgilab berilayotgan bo‘lsa ham, ushbu tushunchalar amaldagi qonunchiligidan o‘z aksini topmagan. Ammo, axborot texnologiyalari sohasidagi talim berishni takomillashtirishda «Raqamli O‘zbekiston-2030» Strategiyasining 2-bobida qo‘yidagicha asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlar nazarda tutilganligini ko‘rish mumkin: aholining raqamli ko‘nikmalarini oshirishga doir; davlat boshqaruvida raqamli ko‘nikmalarni oshirishga doir; talim sohasida raqamli ko‘nikmalarni oshirish yo‘naltirilgan chora-tadbirlar shular jumlasidandir. Shuningdek, mazkur Strategiya va 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasining mantiqiy davomi sifatida davlatimiz Prezidenti tomonidan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi”da va “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” [3]gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagи №PQ-357 qarorida ham muhim sohalarni raqamlashtirilishga alohida etibor qaratilgan.

METODOLOGIYA

Raqamlashtirish jarayonlarining davlat boshqaruvi sohasiga tarqalishi munosabati bilan davlat xizmatchilarida raqamli kompetentsiyalarni rivojlantirish zarurati muammolari bo‘yicha tadqiqotlarga qiziqish ortdi. Masalan, A.A.Koldushkoning ta’kidlashicha, davlat boshqaruvi sohasida “axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jadal joriy etish” yo‘nalishi raqamli platformalarning rivojlanmaganligi, shuningdek, davlat organlari xodimlarining raqamli kompetentligi muammosining mavjud [1]. N.S.Karapetyan hamda E.N.Kaunovlar tomonidan, davlat xizmatchilarining kompetentligini to‘liq ochib berishga yagona me’yorlar va umumiyligini yondashuvning yo‘qligi, shuningdek, menejerning shaxsiy xususiyatlarini kompetentsiya modeli sifatida hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [2]. E.V.Vasilieva, V.N.Pulyaeva, V.A.Yudinalar raqamli kompetentsiyalarni (kompyuter va ofis dasturlari bilan ishlash ko‘nikmalari, axborot tahlillari va xavfsizlik asoslarini bilish) AKT kompetentsiyalarining tarkibiy qismlari sifatida tavsiflaydi va ularni asosiy, ilg‘or va maxsus qismlarga ajratishni taklif qiladilar [3]. I.B.Bayxanovning ta’kidlashicha, transformatsiya davlat xizmatchilaridan nafaqat raqamli kompetentligini, balki davlat sektorining qiymat munosabatlari bilan ifodalangan raqamli moslashuvchanlik va yetuklikni ham talab qiladi, bu davlat boshqaruvining raqamlashtirishga tayyorlik darajasini ko‘rsatadi [4]. M.B.Dobrobaba davlat xizmatining raqamli transformatsiyasidagi kechikish muammolariga to‘xtalib o‘tadi [5]. M.S.Oborin oliy o‘quv yurtlari bilan faol hamkorlikda raqamlashtirish sharoitida davlat xizmati uchun kadrlar tayyorlash zarurligini qayd etadi [6].

A.V.Baranov, O.V.Kotlyarovalar davlat xizmatchilarini raqamli texnologiyalarni joriy etishga qiyinchiliksiz moslashtirish maqsadida davlat hokimiyati organlarida davlat xizmatchilariga nafaqat raqamli ko‘nikmalarni egallahsga, balki ushbu ko‘nikmalarni qo‘llash jarayonlarida ularga yordam berishga imkon beradigan raqamli transformatsiya guruhlarini yaratish taklif etiladi [7].

ASOSIY QISM

Keng ma’noda raqamlashtirish “raqamli texnologiyalarni jamiyat hayotining barcha sohalariga integratsiya qilish strategiyasi [8]”, deb tushunilishi kerak. Lekin, biz davlat boshqaruvining o‘zagi – davlat xizmatiga raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, joriy etish va amalda qo‘llash bo‘yicha strategiyadan manfaatdormiz.

Shunday qilib, raqamli iqtisodiyot deganda strategiya iqtisodiy faoliyatni tushunadi, bunda ishlab chiqarishning asosiy omili raqamli shaklda ma’lumotlar bo‘lib, katta hajmlarni qayta ishslash va tahlil natijalaridan foydalanish an’anaviy boshqaruv shakllariga nisbatan turli xil ishlab chiqarish, texnologiyalar, uskunalar, saqlash, tovarlar va xizmatlarni sotish, etkazib berish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Davlat xizmatchilarining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari muhitida jadal o‘zgarishlarga tayyorligi haqida savol tug‘ilmoqda. Amaldorlarning bo‘shatilgan apparati yangi vazifalarni qanday bajarishini tasavvur qilish qiyin, chunki u butun xizmat faoliyati davomida ma’lum bir funktsiyalarga ega edi va endi u professional “inson” qarashini talab qiladigan mutlaqo boshqa, yanada murakkab vazifalarni hal qilish uchun keskin o‘zgarishi kerak.

M.B.Dobrobaba intellektual tizimlarning to‘g‘ri ishlashini ta’minalash, ularni takomillashtirish va zaruriy ishlash qoidalarini ishlab chiqish uchun sobiq xodimlarning bir qismini “davlat tizimi ma’murlari” tarkibiga yo‘naltirishni yoki davlat xizmatchilarini davlat sektorida axborot texnologiyalari sohasida amalga oshirilayotgan jinoyatlarni aniqlash, oldini olish, ularga chek qo‘yish va ochish uchun kiberpolitsiya sohasiga o‘tkazishni taklif qilgan [9]. Kiberxavfsizlik tendentsiyalari raqamli innovatsiyalar qanday qilib ish o‘rinlarini yaratishini va ishsizlikka olib kelmasligini, balki yangi ish o‘rinlarini yaratishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, davlat xizmatchilarining yo‘nalishini o‘zgartirish uchun, birinchi navbatda, mansabdor shaxslar o‘zlarining keyingi martaba faoliyati uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar to‘plamini o‘zlashtira olishlari uchun ularni malaka oshirish dasturlari va kasbiy qayta tayyorlash dasturlaridan o‘tishga yuborish kerak. Bu erda onlayn ta’lim va texnologiya bozori yordamga keladi.

Shu bilan birga, davlat xizmatchilarining raqamli tizimlar bilan to‘g‘ri ishlashi uchun kasbiy rivojlanishi “yangi avlod” ompetensiyalari yo‘nalishi bo‘yicha ham amalga oshirilishi kerak. Kompetentsiya nima? Ilmiy adabiyotlarda ushbu kontseptsianing ko‘plab ta’riflari mavjud.

Shunday qilib, masalan, I.B.Bayxanov kompetentsiya ostida “xodimlarning xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan kasbiy ko‘nikma va bilimlar hajmi, shaxsiy munosabat va xususiyatlar ba’zi ish vazifalarini bajarishni talab qiladi” [10]. Davlat fuqarolik xizmati lavozimlarini egallash uchun malaka talablarini belgilash bo‘yicha uslubiy vositalarga muvofiq, kompetentsiya – bu davlat xizmatchisining xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan kasbiy va shaxsiy fazilatlar majmui, bu ish vazifalarini samarali va unumli bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, shuningdek kasbiy faoliyat tajribasi mavjudligini ko‘rsatadi [11]. Ta’riflarga ko‘ra, kompetentsiya quyidagilardan iborat:

- professional ko‘nikmalar;
- shaxsiy fazilatlar;
- kasbiy komillik.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan kompetentsiyalarning ta’riflariga asoslanib, davlat xizmatchisining raqamli ko‘nikmalarini raqamli muhitda “hardskills” (qattiq ko‘nikmalar), shuningdek, davlat xizmatchilarining o‘z xizmat vazifalarini samarali bajarishi uchun raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan “softskills” (yumshoq ko‘nikmalar) shaxsiy fazilatlari deb ataladigan xodimning xatti-harakatlarida namoyon bo‘ladigan kasbiy bilim va ko‘nikmalar majmuasi sifatida tushunish maqsadga muvofiqdir.

Davlat xizmatchilarining kasbiy faoliyati sohasi va turini hisobga olgan holda davlat xizmatining lavozimlarini egallash uchun zarur bo‘lgan mutaxassisliklar, ta’lim yo‘nalishlari, bilim va ko‘nikmalarga qo‘yiladigan malaka talablari ma’lumotnomasiga muvofiq xodimlar quyidagilarni bilishi kerak:

- shaxsiy kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalar;
- axborot xavfsizligi va axborotni muhofaza qilish asoslari;
- shaxsiy ma’lumotlar va elektron imzolar to‘g‘risidagi qonun hujjalarning asosiy qoidalari;
- elektron hujjat aylanish tizimi faoliyatining umumiy tamoyillari.

N.S.Karapetyan va E.N.Kaunov qo‘llanmada keltirilgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi xodimlarning kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablар umumiyligi xususiyatga ega bo‘lib, raqamli iqtisodiyot davri ehtiyojlariга to‘liq javob bermasligini haqli ravishda ta’kiddilar [12].

Bizning fikrimizcha, raqamli kompetensiyalar modelida shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni qoldirib, ularni uch darajaga bo‘lish kerak:

I. Qo‘llanmada ko‘rsatilgan umumiy kompetensiyalar davlat xizmatining kichik guruhiiga taalluqli bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy daraja;

II. Rاقamli muhitda murakkab professional muammolarni muntazam ravishda hal qilishni o‘z ichiga olgan va quyidagi vakolatlardan iborat bo‘lgan yuqori guruhdan boshlab lavozimlarga qabul qilish uchun talab qilinadigan ilg‘or daraja:

- idoralararo o‘zaro hamkorlik va elektron hujjat aylanishi tizimlari bilan ishlash ko‘nikmalari;

- davlat axborot resurslarini boshqarish tizimlari bilan ishlash qobiliyati;
- ma'lumotlar bazalari bilan ishlash ko'nikmalar;
- tartibga soluvchi axborot tizimlari bilan ishlash qobiliyati;

III. Maxsus daraja, shu jumladan ma'lum bir davlat organi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari va egallab turgan lavozimi bilan belgilanadigan, ya'ni ish beruvchining vakili tomonidan nomzodga taqdim etilgan kompetensiyalar.

Kompetentlik modeliga ko'ra, shaxsiy kompetensiyalar shaxsning raqamli transformatsiya strategiyasi va raqamli rivojlanish loyihibalarini amalga oshirishda muvaffaqiyatli ishtirok etishiga imkon beruvchi individual xususiyatlarini aks ettiradi: natijalarga e'tibor qaratish, mijozga yo'naltirilganlik, muloqot, ijodkorlik, hissiy intellekt. Ushbu ro'yxatni global tafakkur, moslashuvchanlik va axborotni tez qayta ishlash qobiliyati bilan kengaytirish kerak.

Ma'lum bo'lishicha, iqtisodiyotni raqamlashtirishning o'zi davlat xizmatchilar ega bo'lishi kerak bo'lган kompetensiyalarning zamонавиј modelini taqozo etadi. Shu munosabat bilan uslubiy qo'llanmada davlat xizmatchilarining raqamli kompetensiyalari kontseptsiyasini jamlash, qo'llanmaga o'zgartirishlar kiritish, unda shaxsiy raqamli kompetensiyalari tarkibini va xodimning kasbiy kompetensiyalarining uch darajasini e'lon qilish, shuningdek, mehnat reglamentiga raqamli kompetensiyalarga qo'yiladigan talablarni kiritish va davlat xizmatchilarining raqamli ko'nikmalariga qo'yiladigan talablarni sertifikatlash tartibini to'ldirish lozim. Bir davlat organidan boshqasiga o'tishda raqamli kompetensiyalar bo'yicha yagona talablar davlat xizmatchisiga qayta tayyorlash va jarayonlarni tartibga solishga vaqt sarflamasdan, yangi sharoitlarga tez moslashish imkonini beradi.

Qayd etish kerakki, davlat xizmatchilar malakasini oshirish AKT salohiyatidan foydalanish asosida mamuriy jarayonlarni o'zgartirish orqali faoliyatning umumiyo samaradorligini va natijaliligini oshirish bo'yicha vakolatlarini rivojlantirishni o'z ichiga qamrab olmagan bo'lishi mumkin. Buning asosiy sabablari sifatida qo'yidagilarni ko'rsatish mumkin:

- «elektron hukumat» tizimiga o'tish sharoitida obektiv zarur bo'lган vakolatlar tarkibi va darajasini oshkor etishning davlat darajada tasdiqlangan usullari, ularni qo'llash amaliyotining yo'qligi;
- davlat xizmatchilar malakasini oshirish va vakolatlarining zarur darajaga muvofiq o'zgarishini baholashga asoslangan maxsus dasturning mavjud emasligi;
- malaka oshirishga taalluqli yagona axborot resursining etarli darajada shakllanmaganligi (qonun hujjatlari, metodik, tahliliy va turli o'quv qo'llanmalar, shuningdek, talim muassasalarining ixtisoslashuvi) shular jumlasidandir.

XULOSA

Bugungi kunda davlat boshqaruvini modernizatsiyalashda professional yo'naltirilgan kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat boshqaruvining samaradorligi ko'p jihatdan davlat organlari faoliyati sifatiga, shuningdek, davlat xizmatchilarining professional mahoratiga bog'liq. Davlat organlarining vazifalarini amalga oshirish, kun tartibiga qo'yiladigan yangi vazifalarini hal etishning samarali usullarini izlash davlat xizmatchilarining professional jihatdan yuqori mahoratga ega bo'lishini, kasbiy rivojl anishini talab qiladi. Shiddatli ravishda o'zgarib borayotgan ijtimoiy muhitda boshqaruv egiluvchan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, boshqaruv qarorlarini tezkorlik bilan qabul qilish va ularni amalga oshirishni ta'minlash hamma boshqaruvchilarning qo'lidan kelmasligi ham mumkin. Davlat xizmatchisi – vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda doimo ijodiy yondashuvni talab qiladigan kasb. Shuning uchun, davlat xizmati tizimidagi mutaxassislardan o'z professional faoliyatida ilmiy darajalarini muntazam oshirib borish talab qilinadi. Mamalakatimizdagi davlat boshqaruvining tarixiy shakllanishi va rivojlanishi tendensiyalarining mavjudligi davlat xizmatchilarini kompetensiyalarni oshirilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bugungi kunda 78 davlat xizmatchilari kompetensiyalarini oshirishda jahon tajribasida tan olingan ilmiy nazariyalarning hamohangligini ta'minlash taraqqiyotimizning asosiy ustuvor vazifalaridan hisoblanadi. Acosiy qism Buguni kunda boshqaruv kadrlar kompetentligi va uning nazariy asoslarini o'rganish, ular faoliyati yuksalishining nazariy-

konseptual asoslarini takomillashtirishdavlatning rahbar kadrlar tayyorlash siyosati va dunyoda kechayotgan tendensiylar muhim rol o‘ynaydi.

Qayd etish kerakki, raqamlashtirish bo‘yicha davlat dasturlarining muvaffaqqiyatli amalgaga oshirilishi davlat organlari xodimlari va xalqning raqamli savodxonligiga bog‘liq ekanligini amaliyot ham tasdiqlamoqda. Haqiqatdan ham, davlat boshqaruvini raqamlashtirish sohasidagi yuqori darajadagi raqamli madaniyat mamlakatdagi raqamli transformaciyaning harakatlandiruvchi kuchiga aylanishi mumkin.

Raqamlashtirish davrida davlat boshqaruvining evolyutsiyasi samarali va kechikmagan bo‘lishi uchun davlat xizmatchisi texnik innovatsiyalar bilan bir qatorda rivojlanishi kerak. Ikkinchisi birinchilarining xizmat faoliyatini yengillashtirish va modernizatsiya qilish uchun mo’ljallanganligi sababli, ishda quyidagilar zarur ekanligi haqida xulosalar chiqarildi:

- davlat boshqaruvi sohasida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish orqali davlat xizmatchilarining AT-tizimlari bilan o‘zaro hamkorligini moslashtirish;
- davlat xizmatchisining raqamli kompetentsiyalari kontseptsiyasini ma’lum bir lavozimlar guruhini egallash uchun zarur bo‘lgan kasbiy ko‘nikmalar va shaxsiy xususiyatlar ro‘yxatini ko‘rsatgan holda, ular bilan mehnat nizomlari va sertifikatlash tartibini to‘ldirish;
- oliv ta’lim dasturlariga bo‘lajak davlat xizmatchilarini raqamlashtirish yo‘nalishlari bo‘yicha tayyorlash nuqtai nazaridan o‘zgartirishlar kiritish;
- onlayn platformalarni davlat xizmatchisining professional va shaxsiy raqamli kompetensiyalarining yagona modelini takomillashtirishga yordam beruvchi kurslar, vebinarlar va amaliyotlar bilan ta’minlash.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Президент Шавкат Мирзиёевнинг 2022 йил 14 апрел куни ахборот технологиялари соҳасидаги натижалар ва жорий йилги вазифалар муҳокамаси юзасидан ўтказилган йигилишдаги маърузаси. // <https://president.uz/uz/lists/view/5127/>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. //2020 йил 24 январь// (Электрон манба) <https://nrm.uz/>
3. <https://lex.uz/uz/pdfs/6166539>
4. Колдушко А.А. Цифровизация гражданской службы: нормативно-правовой аспект / А.А.Колдушко // Современный город: власть, управление, экономика. 2021. Том 1. – С. 48-55.
5. Карапетян Н.С. Трансформация компетенций государственных служащих в условиях развития цифровых технологий / Н.С.Карапетян, Е.Н.Каунов // Креативная экономика. 2020. Том 14. № 6. – С. 993-1010.
6. Васильева Е.В. Развитие цифровых компетенций государственных гражданских служащих Российской Федерации / Е.В.Васильева, В.Н.Пуляева, В.А.Юдина // Бизнес-информатика. 2018. № 4 (46). С. 28-42.
7. Байханов И.Б. Трансформация профессиональных компетенций специалистов государственного управления / И.Б.Байханов // Миссия конфессий. 2021. Том 10. № 3. – С. 320-327.
8. Добробаба Н.Б. О перспективах цифровой трансформации государственной (муниципальной) службы / Н.Б.Добробаба // Юридический вестник Кубанского государственного университета. № 4. 2018. – С. 54-60.
9. Оборин М.С. Формирование цифровых компетенций управления государственных служащих в условиях нового экономического формата / М.С.Оборин // Научный результат. Технологии бизнеса и сервиса. 2021. Т. 7. №2. – С. 69-81.
10. Баранов А.В. Цифровая компетентность государственных служащих как ресурс политической власти / А.В.Баранов, О.В.Котярова // Государственное и муниципальное управление. Ученые записки. 2021. № 2. – С.11-17.

-
11. Данилова Л.Н. Основные подходы к пониманию цифровизации и цифровых ценностей / Л.Н. Данилова, Т.В. Ледовская, Н.Э.Солынин и др. // Вестник Костромского государственного университета. Серия: Педагогика. Психология. Социокинетика. 2020. №2. [Электронный ресурс]. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-podhody-k-ponimaniyu-tsifrovizatsii-i-tsifrovyh-tsennostey> (дата обращения: 02.04.2022).
 12. Добробаба Н.Б. О перспективах цифровой трансформации государственной (муниципальной) службы / Н.Б.Добробаба // Юридический вестник Кубанского государственного университета. № 4. 2018. – С. 54-60.
 13. Байханов И.Б. Трансформация профессиональных компетенций специалистов государственного управления / И.Б.Байханов // Миссия конфессий. 2021. Том 10. № 3. – С. 320-327.
 14. Справочник квалификационных требований к специальностям, направлениям подготовки, знаниям и умениям, которые необходимы для замещения должностей государственной гражданской службы с учётом области и вида профессиональной служебной деятельности государственных гражданских служащих. Утв. Минтрудом России. [Электронный ресурс]. URL: <https://rosmintrud.ru/> (дата обращения: 20.04.2022).
 15. Карапетян Н.С. Трансформация компетенций государственных служащих в условиях развития цифровых технологий / Н.С.Карапетян, Е.Н.Каунов // Креативная экономика. 2020. Том 14. № 6. – С. 993-1010.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

A'zamova Kumush,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi tayanch doktoranti
e-mail: azamovakumush@gmail.com

INSON QADRINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOIY DAVLAT MEXANIZMLARINING REGULYATIV FUNKSIYASINI RIVOJLANTIRISH



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Maqolada inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining reguliyativ funksiyasini rivojlanirishga oid yondashuvlar sotsiologik tahlil qilingan. Inson qadrini yuksaltirishda davlat mexanizmlaridan reguliyativ (tartibga solish) funksiyasini o'rganish, tizimli tahlil qilish hamda ijtimoiy davlatda inson qadrini yuksaltirish atroficha o'rganilgan. Ijtimoiy davlat mexanizmlarining tartibga solish funksiyasini rivojlanirish insoniy qadriyatlarni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuningdek, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniqlash va ularga moddiy va ma'naviy ko'mak berish, ushbu jarayonda mutasaddi shaxslarning ishtiroki minimallashtirilish yo'llari ko'rsatilgan. Inson qadrini yuksaltirishda xizmat qiladigan manfaatdor vazirlik va idoralar o'rtaida to'siqlarsiz axborot hamda zaruriy ma'lumotlarni almashish tizimi ishga tushirilish ijtimoiy zarurat ekanligi alohida e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: inson qadri, ijtimoiy himoya, ijtimoiy davlat, reguliyativ funksiya, mehanizm, ijtimoiy ko'mak, ijtimoiy xizmat, ijtimoiyadolat.

А'замова Кумуш,

Базовый докторант Академии государственного управления
при Президенте Республики Узбекистан
e-mail: azamovakumush@gmail.com

РАЗВИТИЕ РЕГУЛИРУЮЩЕЙ ФУНКЦИИ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОГО ГОСУДАРСТВА В ПОВЫШЕНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА

АННОТАЦИЯ

В статье представлен социологический анализ подходов к развитию регулирующей функции механизмов социального государства в повышении человеческого достоинства. При изучении регулятивной (регулирующей) функции государственных механизмов в повышении человеческого достоинства, систематическом анализе и повышении человеческого достоинства в социальном государстве подробно изучены. Развитие регулятивной функции механизмов социального государства имеет решающее значение в повышении человеческих ценностей. А также способы выявления слоев населения, нуждающихся в социальной защите и оказания им материальной и моральной поддержки, а также способы минимизации участия чиновников в этом процессе. Особо было признано, что социальной необходимостью является запуск системы обмена информацией и

необходимой информацией между заинтересованными министерствами и ведомствами, служащей повышению человеческого достоинства.

Ключевые слова: человеческое достоинство, социальная защита, социальное государство, регулирующая функция, механизм, социальная поддержка, социальное обслуживание, социальная справедливость.

Azamova Kumush,

Basic doctoral student of the Academy
of Public Administration under the President
of the Republic of Uzbekistan
e-mail: azamovakumush@gmail.com

DEVELOPMENT OF THE REGULATORY FUNCTION OF THE MECHANISMS OF THE SOCIAL STATE IN RAISING HUMAN VALUE

ABSTRACT

The article presents a sociological analysis of approaches to the development of the regulatory function of the mechanisms of the social state in increasing human dignity. When studying the regulatory (regulating) function of state mechanisms in increasing human dignity, systematic analysis and increasing human dignity in the social state are studied in detail. The development of the regulatory function of the mechanisms of the social state is of decisive importance in increasing human values. As well as ways to identify segments of the population in need of social protection and providing them with material and moral support, as well as ways to minimize the participation of officials in this process. It was especially recognized that the social need is the launch of a system of exchange of information and the necessary information between interested ministries and departments, serving to increase human dignity.

Keywords: human values, social protection, social state, regulatory function, mechanism, social support, social services, social justice.

KIRISH

Bugungi O‘zbekistonda inson qadri davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatda inson huquqlari, qadr-qimmatini yuksaltirish va fuqarolarning hayot sifatini oshirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Inson qadri uchun” tamoyili davlat siyosatining asosiy ustuni sifatida belgilandi. Ushbu tamoyil barcha qarorlar va islohotlarning markaziga inson manfaatlarini qo‘yishni ko‘zda tutadi. Jumladan, Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarining birida “Inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayot kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta’minlashni nazarda tutamiz” deya alohida ta’kidlagan edilar [1].

Darhaqiqat, hozirgi vaqtida yurtimizda inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan jadal islohotlar o‘zining shiddati va keng qamrovi bilan faqat yurtdoshlarimizni emas, balki xorijlik siyosatchilar, olim-u mutaxassislarning ham e’tiborini o‘ziga jalb etmoqda. Bugungi kunda jahon hamjamiyati tomonidan mamlakatimizga nisbatan “Yangi O‘zbekiston” degan iboraning qo‘llanilayotgani tarixan qisqa davr davomida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, o‘zgarish va yangilanishlarga berilayotgan o‘ziga xos munosib tarif deyishimiz mumkin. Bu haqda Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, Yangi O‘zbekiston – bu “Xalq manfaati hamma narsadan ulug“, degan ezgu g‘oya amaliy ishlar bilan o‘z tasdig‘ini topayotgan zamondir [2].

Jumladan, bugungi kunda inson qadrini yuksaltirish uning huquqlarini himoya qilish hamda aholini ijtimoiy himoyalash tizimini yanada takomillashtirishda mavjud tajribani tanqidiy-tahliliy o‘rganish, ushbu sohadagi muammoli nuqtalarni aniqlash, ijtimoiy davlat mexanizmlaridan aynan tartibga solish funksiyasini faollashtirish orqali ijtimoiy davlatning tartibga solish funksiyasini samaradorligini oshirishni muhimligi. Shuningdek, inson qadrini yuksaltirishning tartib-tamoyillari, mezonlarni va hamda

ko'rsatkichlar doirasini aniqlash, ijtimoiy davlat mexanizmlaridan tartibga solish funksiyasini ilmiy-amaliy baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

METODOLOGIYA

Ijtimoiy davlat mexanizmlarining tartibga solish funksiyasini rivojlantirish insoniy qadriyatlarni oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ijtimoiy davlat mexanizmlari deganda shaxslar, guruhalr va davlat o'rtaqidagi munosabatlarni tartibga soluvchi institutlar va jarayonlar tushuniladi. Ushbu mexanizmlarning tartibga solish funksiyasi quyidagilarni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega (1-chizma).

1) Ijtimoiyadolat – bu insonlarning ijtimoiy hayotidaadolatni ta'minlash va ularning huquq va burchlarini teng vaadolatli tarzda ta'minlash bo'yicha tushunchadir. Bu konsepsiya insonlar o'rtaqidagi tenglik, ehtiyojlar va imkoniyatlar asosida amalga oshiriladi. Ijtimoiyadolatning maqsadi har bir insonning qadrini tan olish va ularga barcha ehtiyojlariga muvofiq ravishda xizmat ko'rsatishdir.

Ijtimoiyadolat funksiyasi

Ijtimoiy tenglik funksiyasi

Inson huquqlarini ta'minlash funksiyasi

1- chizma. Ijtimoiy davlat mexanizmlarning tartibga solish funksiyasi

2) Ijtimoiy tenglik funksiyasi – bu iqtisodiyot va ijtimoiy fanlarda tadqiq etiluvchi mexanizm bo'lib, u ijtimoiy tenglikka erishish uchun amalga oshiriladigan amaliy yoki nazariy funksiyalarini ifodalaydi. Bu funksiyalar ijtimoiy va iqtisodiy resurslarniadolatli taqsimlash, imkoniyatlarni tenglashtirish va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan bo'ladi.

3) Inson huquqlarini ta'minlash funksiyasi – bu davlatlar, tashkilotlar va jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar hisoblanadi, ularning maqsadi har bir insonning asosiy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish va amalga oshirishdir. Ijtimoiy davlat mexanizmlarining tartibga solish funksiyasining rivojlanishini turli nazariylar orqali tushunish mumkin [3].

Jumladan ijtimoiy shartnoma nazariyasiga to'xtaladigan bo'lsak shaxslar o'z huquq va erkinliklarini himoya qilish uchun davlat bilan shartnoma tuzadilar. Fransiyalik faylasuf, sotsiolog va musiqashunos Jon Jak Russo "Ijtimoiy shartnoma" asarida ijtimoiy shartnomani odamlarning umumiy irodaga ega bo'lishini ta'minlovchi mexanizm sifatida ko'rsatadi. Russoning fikricha, "Davlat jamiyatning umumiylar irodasini vaadolatni ta'minlashga xizmat qiladi" [4].

Jon Lokk ijtimoiy shartnomani insonlarning tabiiy huquqlarini himoya qilish va davlatni shu maqsadda tashkil etish sifatida ko'radi. Unga ko'ra, davlat odamlarning hayot, erkinlik va mulk huquqlarini himoya qilish uchun barpo etilgan bo'lishi kerak deya ta'riflaydi. Shuningdek inson huquqlarini nazariyasi ham mavjud bo'lib bu nazariyaga ko'ra inson huquqlari va qadr-qimmatini himoya qilish muhimligini ta'kidlaydi. Inson huquqlari nazariyasi keng konsepsiya bo'lib, insonlarning tabiiy, universal va ajralmas huquqlari va ularning himoyasiga oid prinsiplarni o'rganadi. Bu nazariya asosida inson huquqlarining kelib chiqishi, turlari, ahamiyati va ularni ta'minlash mexanizmlari haqidagi tushunchalar shakllangan.

Bugungi kunda inson qadr-qimmatini yuksaltirish uchun O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining bir qator moddalarda mustahkamlab qo'yilgan. Jumladan, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish bo'yicha Konstitutsiyaning 13-moddasida har bir shaxsning huquq va erkinliklari oliy qadriyat sifatida tan olinishi belgilangan. Bu norma davlatning fuqarolar huquqlarini ta'minlashga majbur ekanligini ko'rsatadi. Shaxsiy erkinlik va daxlsizlik uchun esa Konstitutsiyaning 25-moddasida har kimning erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi himoya qilinishi

ta'kidlangan. Shuningdek, inson qadrini yuksaltirish uchun uning xavfsizligi va shaxsiy hayotini hurmat qilish zarurligini anglatadi.

Bundan tashqari ijtimoiy himoya huquqi 39-modda ijtimoiy himoya huquqini kafolatlaydi. Har kim qarilik, mehnat qobiliyatini yo'qotish yoki turmushda ehtiyoj sezish kabi holatlarda davlatdan ijtimoiy yordam olishga haqli ekanligi ko'rsatilgan. Bu norma insonning qadrini saqlab qolish va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Shuningdek, ta'lif olish huquqi Konstitutsiyaning 41-moddasida har bir fuqaroning bilim olish huquqi ta'minlanishi belgilangan. Bu norma inson qadrini oshirishda ta'limning muhim o'rinn tutishini anglatadi [5].

O'zbekiston Konstitutsiyasi fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlash orqali inson qadrini yuksaltirishning huquqiy asoslarini yaratadi. Ushbu me'yorlar inson qadr-qimmatini ta'minlashda ijtimoiy davlatning asosiy reguliyativ funksiyalari hisoblanadi. Bizga ma'lumki, jamiyatda qachonki adolat, tenglik, g'amxo'rlik bo'lsagina shu jamiyatda inson qadri yuksak bo'ladi. Sotsiologiyada adolatga ikki xil qarash bo'lib, biri hamma boylik va imkoniyatlar hammaga teng taqsimlanishi kerak deydi – bu distribuyutiv adolat, deb ataladi, ikkinchisi boylik va imkoniyatlar har kimning qilgan mehnati va erishgan yutuqlariga qarab bo'linishi kerak, deydi – bu hissaviy yoki kontribuyutiv adolat, deb ataladi. Bu ikki yondashuv juda keskin yondashuv bo'lib, ularning biriga amal qilgan jamiyat muammolardan aziyat cheka boshlaydi va tanazzulga uchraydi.

Distribuyutiv adolat tarafdorlariga biz sobiq Savet tuzumini olishimiz mumkin hamma teng bo'lgan boy ham kambag'al ham bo'lmaydigan jamiyat hisoblanadi. Sovetlar qurgan davlat ana shu tamoyilga asoslangan bo'lib, mafkuraga ko'ra unda daromadlar ham, imkoniyatlar ham har kimga teng berilishi, jamiyatda boy va kambag'allar, savodli va savodsizlar bo'lmasligi kerak. Bu yondashuvning afzalligi juda ko'p: "har kim qonun oldida barobarligi, har kim bepul ta'lif va tibbiy yordam olishi" kabi qadriyatlar aynan shu falsafaga asoslangan [6].

Ammo, distribuyutiv adolat jiddiy bir muammoni ham keltirib chiqaradi: umumiy manfaatlardan hamma bilan teng ulush olgan odam hech narsaga intilmay qo'yadi, o'z mehnati samaradorligini oshirmaydi. Bunday muhitda odam hech nima qilmasa ham, hamma qatori jamiyat ne'matlaridan bahramand bo'laveradi. Va aksincha – ko'p mehnat qilgan va jamiyatga ko'p foyda keltirgan odam ham undan kamroq harakat qilganlar qatori ulush oladi. Natijada jamiyatda yangilikka intilish, ilm-fan va texnologiyani rivojlantirish orqaga ketadi. Jamiyat o'sishdan to'xtaydi. Bu muammoni kontribuyutiv adolat prinsipi hal qiladi: u har kimga uning mehnati va umumiy farovonlikka qo'shgan hissasiga qarab ulush berish kerakligini targ'ib qiladi. Bu yondashuv ham kuchli fazilatlarga ega: intiluvchan yoshlarga rag'bat berish, yaxshi mehnatni mukofotlash kabi qadriyatlar shu falsafaga asoslangan.

Ammo, bu yondashuvda ham bir yaqqol kamchilik bor: u jamiyatda sinflar paydo bo'lishiga, bu sinflar bir-biridan keskin uzoqlashishiga va dushmanlashishiga olib keladi. Bu yondashuvning asosiy quroli raqobat bo'lib, odamlarga hech bir qoidasiz ochiq raqobat qilishga qo'yib berilsa, ular me'yorni bilmaydilar. Bunday muhitda boyning bolasi hech bir iste'dodga ega bo'lmasa ham, bilim olish uchun barcha imkoniyat va sharoitga ega bo'ladi, kambag'al bolasi esa kuchli iste'dodi bo'lsa ham, bilim olish imkoniyatida keskin cheklangan bo'ladi. Natijada boy tabaqa avlodlar osha boyligicha – nochorlar nochorligicha qoladi.

Shuningdek, bugungi kunda Ijtimoiy davlat mexanizmlarining tartibga solish funksiyasini rivojlantirish bir qancha yo'llari mavjud:

Birinchidan, institutlarni mustahkamlash – bu o'z navbatida sud, parlament va huquqni muhofaza qilish organlari kabi institutlarni mustahkamlash ijtimoiy davlat mexanizmlarining tartibga solish funksiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, qonunlar va siyosatlarni takomillashtirish – bu ayni paytda ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlarini ilgari surish uchun qonunlar va siyosatlarni takomillashtirish ijtimoiy davlat mexanizmlarining tartibga solish funksiyasini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Uchinchidan, jamoat ishtirokini kuchaytirish – bu qarorlar qabul qilish jarayonlarida jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish ijtimoiy davlat mexanizmlarining tartibga solish funksiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. To'rtinchidan, oshkorlik va hisobdorlikni qo'llab-quvvatlash: Davlat institutlarida shaffoflik va hisobdorlikni rag'batlantirish ijtimoiy davlat mexanizmlarining tartibga solish funksiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

So‘ngi yillarda yurtimizda olib borilayotgan islohotlar orqali erishilgan barcha yutug‘ va natijalar jahon hamjamiyati va bir qator xorijiy ekspertlarning alohida e’tirofiga sazovor bo‘layotganligi hammamizni behad xursand qilayotgani shubhasiz, albatta.

Xususan, “Medium” xalqaro internet nashrida “O‘zbekistonning Uchinchi Renessans poydevoriga insonparvarlik va ilm-fan asos bo‘ladi” mavzusidagi chop etilgan maqolada O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar ahamiyatga molik islohotlar bugun dunyo siyosatida o‘ziga xos yangi to‘lqinni ko‘rsatayotganligini anglatadi.

Shu bilan birga, muallif o‘zining maqolasida amerikalik olim Eforim Gurmfanning Shavkat Mirziyoyev davlat rahbarlari orasida birinchilardan bo‘lib, o‘z siyosatida xalqini kelajakda emas bugundan boshlab yaxshi yashashi kerak degan g‘oyani ilgari surdi, degan fikrlarini keltirish bilan O‘zbekistonning hozirgi siyosati boshqa ko‘plab xalqaro ekspert tomonidan ham e’tirof etilayotganligini qayd etgan [7].

Bundan shuni anglash lozimki, mamlakatimizda insonparvarlik borasida amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosat zamirida avvalo xalqimiz va fuqarolarimizni rozi qilish davlatimizning o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlaridan biridir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu haqda “insonparvarlik ruhi bilan yo‘g‘irilgan bunday islohotlarimiz buyuk Alisher Navoiy bobomizning bitta ko‘ngli o‘ksik odamni xursand qilish – Ka’bani obod etish bilan barobar, degan teran ma’noli so‘zlariga, mehr-oqibat, saxovat, oljanoblik kabi fazilatlarni doimo qadrlab, ulug‘lab yashaydigan xalqimizning orzu intilishlariga har tomonlama uyg‘un va hamohangdir” [8].

Bundan ko‘rinadiki bugun O‘zbekiston ijtimoiy davlat maqomiga har jihatdan tayyor. Ijtimoiy davlat bizda asrlar davomida shakllanib kelgan bo‘lsa ham fanga birinchi marta 19-asr o‘rtalarida L.Fon Shteyn tomonidan ishlab chiqilgan, so‘ngra, ma’lumki, Germaniyada O. Fon Bismark, Buyuk Britaniyada V.Beverij tomonidan hayotga tatbiq etilgan farovonlik davlati tamoyillari Yevropa mamlakatlari butun asr davomida. Keyinchalik bu tamoyillar ijtimoiy bozor iqtisodiyoti va farovonlik jamiyatni nazariyasi uchun retseptlar bilan to‘ldirildi.

Lorents Fon Shteyn (1815-1890) nemis sotsiologi va huquqshunos bo‘lib, u “ijtimoiy davlat” tushunchasini ilmiy muomalaga kiritgan asosiy nazariyotchilardan biri hisoblanadi. Uning ijtimoiy davlat haqidagi qarashlari, ayniqsa, jamiyatdagи sinfiy tengsizlikni kamaytirish va davlatning ijtimoiy funksiyalarini kuchaytirishga qaratilgan. Fon Shteynning fikricha, farovonlik davlatining vazifasi “tabaqalarning erkin ijtimoiy harakati har xil turdagи huquqiy to’siqlarni bartaraf etish; jamoat ehtiyojlarini bartaraf etishga g‘amxo‘rlik qilish; iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun yetarli kapitalga ega bo‘lмаганларга ijtimoiy yordam berish zarur”ligi haqida so‘z yuritgan [9]. Fon Shteynning ijtimoiy davlat haqidagi nazariyalari davlatning faqat huquqiy va siyosiy emas, balki ijtimoiy jihatdan ham faol bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. U davlatni ijtimoiy adolatni ta’minlashning asosiy mexanizmi sifatida ko‘rib, uning ijtimoiy vazifalarini kengaytirishga chaqirgan. Bu g‘oyalari hozirgi ijtimoiy davlat konsepsiyasining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy davlat mexanizmlarini ochishda birinchi o‘rinda ijtimoiy davlatning asosiy vazifalarini bilish zarur avvalo – fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta’minlash, hayot sifatini oshirish va ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdir. Bu jarayonda reguliyativ funksiyalar davlatning ijtimoiy-siyosiy tizimini barqaror saqlash, inson qadrini yuksaltirishga xizmat qiluvchi mexanizmlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali ta’milanadi. Inson qadrini yuksaltirishda ijtimoiy davlat mexanizmlarining reguliyativ funksiyasini rivojlantirishning tahlili va natijalari jamiyatning umumiyligi holati va taraqqiyotiga ko‘p jihatdan ta’sir ko‘rsatadi.

Shu jihatdan avvalo davlat tomonidan qabul qilingan yangi qonunlar va me’yorlar inson huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan. Bu himoya mexanizmlarini kuchaytirish va ularning samaradorligini oshirish imkonini beradi. O‘zbekistonda inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan islohotlar doirasida ko‘plab qonunlar, farmonlar va qarorlar qabul qilinmoqda.

Masalan, 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan muhim tashabbuslarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, 2023-yil 28-fevralda tasdiqlangan davlat dasturida ham inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar belgilangan [10]. Bundan tashqari, xotin-qizlarning huquq va

manfaatlarini himoya qilish, gender tenglikni ta'minlash, onalik va bolalikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qonunlar va qarorlar ham qabul qilinmoqda[11].

Shu bilan birga, mahalla institutini rivojlantirish, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga qaratilgan hujjatlar ham inson qadrini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Umuman olganda, O'zbekistonda inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan qonunlar, farmonlar va qarorlar muntazam ravishda qabul qilinib, ularning soni ortib bormoqda.

Hozirgi kunda institutsional tartiblarning yaxshilanishi, davlat muassasalari, huquq-tartibot organlari va ijtimoiy himoya tizimlari orasidagi hamkorlikni kuchaytirish inson qadrini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. Ijtimoiy davlat zaruriy hodisadir, chunki u jamiyatda sinflar va millatlar o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy portlashlar va ijtimoiy qo'zg'alishlarga olib kelmaydigan holatni ta'minlaydi. Davlat o'z fuqarolarining munosib turmush darajasini ta'minlashga ko'maklashmoqda, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarga alohida g'amxo'rlik ko'rsatmoqda, ta'lim, sog'liqni saqlash, dam olish va odamlarning kundalik turmushi muammolariga katta e'tibor qaratmoqda. Bunday mamlakatda inson eng oliy qadriyat sifatida tan olinadi.

Aytishimiz mumkinki, ijtimoiy sohaning institutsionalizatsiyasi dunyodagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, shaxs maqomidagi o'zgarishlar, zamonaviy jamiyatdagi global o'zgarishlar bilan bog'liq. Dunyoda mustahkam qaror topgan bu davlat va jamoat tuzumining kelib chiqishi har bir davlatga xos bo'lган xayriya an'analarida yotadi. So'nggi paytlarda ijtimoiy ta'minot institut sifatida eskirganmi, ijtimoiy ta'minot tizimi samarali ishlayaptimi, inson salomatligini yaxshilashga qaratilgan sa'y-harakatlar qilinyaptimi va hokazolar haqida ko'proq savollar tug'ilashadi.

Ijtimoiy sohaning xalqaro tajribasi shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy ta'minot bo'yicha individual xususiy tashabbuslarni yoyish uchun bir qator huquqiy, siyosiy va iqtisodiy sharoitlarni yaratish kerak. Bu, eng avvalo, bozor iqtisodiyotining huquqiy ta'minotidir. Ikkinci nuqta – iqtisodiy siyosat. Har bir shaxs uchun bu uning moliyaviy jamg'armalarini himoya qilishni anglatadi. Uchinchi nuqta – ijtimoiy siyosat va fuqarolarni to'liq ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymaydigan, balki ijtimoiy himoyaga erishishga qaratilgan ijtimoiy siyosat, uning doirasida individual, shaxsiy tashabbus uchun imkoniyat mavjud. To'rtinchidan, bu qo'shimcha ijtimoiy ta'minot bilan shug'ullanadigan muassasalarning tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar va qoidalardir. Va nihoyat, individual ijtimoiy ta'minot tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash uchun soliq imtiyozlari mavjud.

Ijtimoiy funksiyaning samaradorligi ko'p jihatdan davlat nazorati va nazorati samaradorligiga bog'liq. Ijtimoiy qonunchilikni amalga oshirish bosqichida ijtimoiy davlatni amalga oshirish mexanizmida nazorat-nazorat funksiyasi va davlatning ijtimoiy funksiyasining o'zaro ta'siri aniq namoyon bo'ladi.

XULOSA

Ijtimoiy davlatning reguliyativ funksiyalarini rivojlantirish inson qadrini yuksaltirishda muhim rol o'ynaydi. U inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, adolatli va teng imkoniyatlar yaratish, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish va barcha fuqarolar uchun yaxshi hayot sharoitlarini ta'minlashga yordam beradi. Ijtimoiy davlatning reguliyativ funksiyalarini kuchaytirish orqali biz inson qadr-qimmatini yuksaltirish va barqaror va adolatli jamiyat qurishga erishamiz.

Ijtimoiy davlatda insoniy qadriyatlarning tartibga solish funksiyasi tartibni saqlash, adolatni ta'minlash va uning a'zolari o'rtasida hamjamiyat va o'zaro hurmat tuyg'usini rivojlantirish uchun muhimdir.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

- Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
- Mirziyoyev Sh.M. "Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz". O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljalangan taraqqiyot strategiyasini belgilash

hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan. 26.01.2022. Manba: <https://president.uz/oz/lists/view/4942>.

3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416-bet.
4. Lokk. Ta’lim to‘g‘risida ba‘zi fikrlar, 1693.
5. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Mazkur yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o’tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumuxalq ovoz berish orqali qabul qilingan. 01.05.2023. <https://lex.uz/docs/-6445145>.
6. Vyshinskiy A.Y. “Sotsialisticheskoye pravosoznaniye” (Sotsialistik huquq ongingin nazariyasi): Huquqiy tenglik va davlatning ijtimoiy vazifalari haqida fundamental tadqiqot.
7. Marshall T.H. “Citizenship and Social Class”. Cambridge University Press.
8. Prezident Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 30 yilligiga bag‘ishlangan bayram oldidan bergen intervyusi 2021-yil 26-avgust kuni e’lon qilingan. <https://president.uz/oz/lists/view/4595>
9. Fon Shteyn L. “Geschichte der sozialen Bewegungen in Frankreich”. Leipzig: Brockhaus, 1850
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini mustahkamlash” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 30-oktyabrdagi 669-sonli Qarori Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 2020-yil 31-oktyabr.
11. Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.03.2022 yildagi PF-87-son <https://lex.uz/docs/-5899498?ONDATE=27.05.2024&ONDATE2=29.12.2023&action=compare>
12. Mirziyoyev Sh.M. “Hamma islohotlarni, hamma harakatlarni jamiyat bilan birga qilamiz”. O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini belgilash hamda uni joriy yilda amalga oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi nutqidan. 26.01.2022. Manba: <https://president.uz/oz/lists/view/4942>.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Tajieva Dilnoz,

DBA mustaqil tadqiqotchisi

O'zLiDeP Toshkent shahar Kengashi

Yoshlar muommolarini o'rghanish va tadbirkorlarni

qo'llab-quvvatlash bo'limi mudiri

dilnozatajiyeva@gmail.com

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING O'RNI VA MAVQEI: SOTSIOLOGIK TAHLIL



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda O'zbekistonda ham xotin-qizlarning turmush tarzi, faolligi, bandligi, ijtimoiy himoyasi, yetaklanuvchi maqomidan yetaklovchi maqomiga olib o'tish, ularni qo'llab-quvvatlash masalalariga katta e'tibor berilmoqda. Maqlada Yangi O'zbekiston taraqqiyotida xotin-qizlarning o'rni va mavqeining sotsiologik tahlili keltirilgan. "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta'minlash bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlari to'g'risida tahlil qilingan. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy va sotsial faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat va imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoitlar, vazifalar hamda yangilanayotgan O'zbekistonda ayollarning jamiyat siyosiy hayotidagi ishtiroki to'g'risida tushuntirib berilgan.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, gender tenglik, BMT, "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", jamiyat, ilm, fan, YuNISEF, Qizlar akademiyasi, mahallalar.

Таджиева Дильноз,

Независимый исследователь АГУ,

начальник отдела изучения проблем молодежи

и поддержки предпринимателей Ташкентского горсовета УзЛиДеп

dilnozatajiyeva@gmail.com

МЕСТО И ПОЛОЖЕНИЕ ЖЕНЩИН В РАЗВИТИИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА: СОЦИОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

АННОТАЦИЯ

Сегодня в Узбекистане большое внимание уделяется вопросам образа жизни, активности, трудоустройства, социальной защиты женщин, перехода из статуса лидера в статус лидера, их поддержки. В статье представлен социологический анализ роли и статуса женщин в развитии Нового Узбекистана. В рамках стратегии «Узбекистан-2030» проанализированы широкомасштабные меры по повышению политической, социальной и экономической активности женщин, защите материнства и детства, установлению гендерного равенства, обеспечению прав и интересов женщин. Разъясняются условия, задачи и участие

женщин в политической жизни общества в модернизирующемся Узбекистане в целях повышения общественно-политической и общественной активности женщин, реализации их способностей и возможностей в различных областях и отраслях.

Ключевые слова: женщины, стратегия «Узбекистан – 2030», гендерное равенство, ООН, «Женский регистр», «Молодежный регистр», общество, наука, ЮНИСЕФ, Женская академия, махалля.

Tajieva Dilnoz,

Independent Researcher, Academy of Public Administration,

Head of the Department for the Study of Youth Problems and Support of Entrepreneurs of the

Tashkent City Council

of the Liberal Democratic Party of Uzbekistan

dilnozatajiyeva@gmail.com

THE PLACE AND POSITION OF WOMEN IN THE DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN: SOCIOLOGICAL ANALYSIS

ABSTRACT

Today, Uzbekistan also pays great attention to the issues of lifestyle, activity, employment, social protection of women, the transition from the status of a leader to the status of a leader, their support. The article presents a sociological analysis of the role and status of women in the development of New Uzbekistan. Within the framework of the “Uzbekistan-2030” strategy, the wide-scale measures to increase the political, social, and economic activity of women, protect motherhood and childhood, establish gender equality, and ensure women's rights and interests were analyzed. The conditions, tasks, and the participation of women in the political life of the society in modernizing Uzbekistan are explained in order to increase the socio-political and social activity of women, to realize their abilities and opportunities in various fields and industries.

Keywords: women, “Uzbekistan – 2030” strategy, gender equality, UN, “Women's Notebook”, “Youth Notebook”, society, science, knowledge, UNICEF, Girls' Academy, mahalla.

KIRISH

Bugun O‘zbekiston ayollari barcha jabhalarda o‘z o‘rni va munosib mavqeiga ega bo‘lib bormoqda. Keyingi saylovlarda yurtimiz tarixida birinchi marta milliy parlament tarkibidagi xotin-qizlar soni dunyo miqyosida namunalı ko‘rsatkichga ko‘tarilgani ham bu fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. “Xotin-qizlar va oila masalasi nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir” [1]. Yurtimizda xotin-qizlarimiz uchun erkin, obod va farovon hayot barpo etish – davlatimiz va jamiyatimizning eng ustuvor vazifasi etib belgilangan. Jumladan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida xotin-qizlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy faolligini oshirish, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglikni qaror toptirish, ayollarning huquq va manfaatlarini ta’minalash bo‘yicha keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

METODOLOGIYA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030 Strategiyasi”da ham 1.3 yo‘nalishi 25-maqсадида “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta’minalash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta’minalash” [2] uchun 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari quyidagicha bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida belgilab berilgan:

Gender tenglikni ta’minalash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish.

Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minalash, “Ayollar daftari” bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatish bo‘yicha hozirda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda ham xotin-qizlarning turmush tarzi, faolligi, bandligi, ijtimoiy himoyasi, yetaklanuvchi maqomidan yetaklovchi maqomiga olib o‘tish, ularni qo‘llab-quvvatlash masalalariga katta e’tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev alohida ta’kidlaganidek, “mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim” [3], degan so‘zlarini keltirishimiz o‘rinlidir. Xotin-qizlarning jamiyatdagi faoliyati, ularning hayotiy talab va ehtiyojlari, manfaatlari, qarashlari, maqsadlari, orzu-niyatlari, qadriyatlari, shuningdek, innovatsion jarayonlarga integratsiyalashuvi muhim ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblangan.

ASOSIY QISM

Hozirgi vaqtida xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi 2017-yildagi 27 foizdan 35 foizga yetgani ayniqsa e’tiborlidir. Shu bilan birga, yuzlab oqila ayollar hayotimizning barcha sohalarida jonbozlik bilan faoliyat ko‘rsatayotgani barchamizni quvontiradi [4].

Shu maqsadda, avvalo, milliy qonunchiligidan takomillashtirilib, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Buning tasdig‘ini birlina misol, ya’ni, saylov kodeksimizda deputatlikka nomzodlarning kamida 40 foizi yoki har 5 nafaridan 2 nafari ayol kishi bo‘lishi zarurligi mustahkamlab qo‘yilganida yaqqol ko‘rish mumkin.

Bu borada Gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi samarali ish olib borayotganini ta’kidlash lozim.

Xotin-qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ular o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda.

So‘nggi 5 yil ichida O‘zbekistonda ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 205 mingdan oshdi. Birgina 2023-yilda 279 mingdan ziyod tadbirkorlik loyihibalariga 13 trillion so‘mdan ortiq kredit, qariyb 57 ming nafar xotin-qizga salkam 300 milliard so‘m subsidiya ajratildi. Shuningdek, 200 mingga yaqin ayollar kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitildi. Eng asosiysi – 400 mingdan ortiq opa-singillarimiz ish bilan ta’mindan.

Bundan tashqari, xotin-qizlarga ajratilgan 6 trillion so‘mlik ipoteka kreditlari hisobidan 25 mingdan ziyod oilalar o‘z uyiga ega bo‘ldi. Bu borada 6 ming 200 nafar ayolga uy-joy sharoitini yaxshilash va kreditning boshlang‘ich badalini to‘lash uchun 200 milliard so‘m subsidiya ajratilganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, joylarda xotin-qizlar muammolarini o‘rganish va hal etishga qaratilgan ishlar yangi bosqichga ko‘tarilmoqda. O‘tgan yilning o‘zida “Ayollar daftari” bo‘yicha 1 trillion 234 milliard so‘m hisobidan qariyb 994 ming nafar xotin-qizning muammosi hal etilgani bu fikrni tasdiqlaydi.

Bu vazifalarni bajarishda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi hamda mahallalardagi xotin-qizlar faollarining ishtiroki kuchayib borayotgani ayniqsa muhimdir. Ular tomonidan “xonardonbay” o‘rganishlar natijasida ijtimoiy yordamga muhtoj 690 mingdan ziyod oilaga manzilli yordam ko‘rsatilgani, 116 mingta notinch oilada muhit sog‘lomlashtirilganini bugun alohida e’tirof etamiz.

Mamlakatimizda bo‘lg‘usi onalar, kelajak tarbiyachilari bo‘lmish qizlarimiz kamolotiga, ularning oliy ta’lim olishi, zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalar, xorijiy tillarni egallahiga katta ahamiyat berilmoqda.

Hozirgi kunda oliygochlarda ta’lim olayotgan 1 million 300 ming nafarga yaqin talabaning yarmidan ko‘pi – e’tibor bering, yarmidan ko‘pi, ya’ni, 653 ming nafardan ziyodini qizlar tashkil etmoqda. Magistraturada o‘qiyotgan yoshlarimiz orasida qizlarning ulushi yanada ko‘p, ya’ni, salkam 14 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu – jami magistrantlarning qariyb 60 foizi degani.

Joriy o‘quv yilida ehtiyojmand oilalarga mansub 1 ming 914 nafar xotin-qiz oliygochlarga qo‘srimcha davlat granti bo‘yicha o‘qishga qabul qilindi. 181 ming 500 nafardan ortiq qizlarimiz uchun imtiyozli ta’lim kreditlari ajratildi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning vakillari, yetim qolgan yoki ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan 2 mingdan ziyod talaba uchun 14 milliard 500 million so‘m kontrakt puli mahalliy byudjetlar hisobidan qoplab berildi. So‘nggi yillarda davlat

oliygohlarining magistratura bo‘limida o‘qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt pullari byudjetdan to‘lanmoqda.

Eng muhimi, qizlarimiz o‘rtasida zamonaviy bilim va kasb-hunarlargacha qiziqish tobora ortib bormoqda. Masalan, “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida ta’lim olgan yoshlarning 47 foizi, ya’ni qariyb yarmini qizlar tashkil etgan.

Keyingi paytda yurtimizda ilm-fan va ta’lim, xususan, oliy ta’lim sohasi isloh etilib, jahon standartlariga moslashtirilayotgani sababli xotin-qizlar bu yo‘nalishda ham katta natijalarga erishmoqdalar. Buning amaliy ifodasini so‘nggi yetti yilda 5 ming 247 nafar ayollarimiz fan doktori (DSc) va o‘z sohalari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgani misolida ko‘rish mumkin. Birgina 2023 yilning o‘zida 147 nafar xotin-qiz fan doktori, 1 ming 238 nafari esa falsafa doktori ilmiy darajasiga erishgani barchamizni mammun etadi.

Hozirgi kunda ilm-fan sohasida jami 5 mingga yaqin olima ayollarimiz faoliyat ko‘rsatmoqda. Oliygohlarda esa 14 mingdan ziyod opa-singillarimiz pedagogika va ilmiy tadqiqot yo‘nalishida ish olib bormoqda.

Mustaqillik yillarda 17 nafar hurmatli ayollarimiz “O‘zbekiston Qahramoni” degan oliy unvonga sazovor bo‘lgan bo‘lsa, ularning 7 nafari fan, ta’lim va san’at sohasi vakillari ekanini alohida ta’kidlash lozim. 11 nafar ayol fan sohasidagi eng yuksak darajaga, ya’ni akademik unvoniga sazovor bo‘lgani, minglab xotin-qizlarimiz davlatimizning faxriy unvon, orden va medallari bilan taqdirlanib kelayotgani el-yurtimizning ularga nisbatan yuksak ehtiromi ifodasidir.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha to‘plangan milliy tajriba xalqaro miqyosda keng e’tirof etilmoqda. Jahon bankining kuni kecha e’lon qilingan indeksida O‘zbekiston gender tenglik sohasida dunyodagi eng tez rivojlanayotgan 5 ta mamlakat qatorida qayd etildi [5].

2019-yil 2-sentyabrida “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” va “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi [6] O‘zbekiston Respublikasining qonunlari qabul qilindi.

Amalga oshirilgan yuqoridaq ishlar xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, salomatligini muhofaza qilish, intilish va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularga munosib mehnat va yashash sharoitlarini yaratishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2020-yil 23-sentyabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev nutq so‘zlab nutqida gender masalasiga alohida e’tibor qarardi “biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o‘rni tobora kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko‘paydi” [7], deb mamlakatimizda xotin-qizlar siyosati bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni nazarda tutdi.

Mahallalarda oilaviy tadbirkorlik uchun kreditlarning kamida 40 foizi ayollar taklif etgan loyihalarga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda har bir hududda xotin-qizlar uchun hunarmandchilik, tadbirkorlik markazlari va klasterlari tashkil etiladi. Ushbu maskanlarda 205 ming nafar opa-singillarimiz mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga tayyorlanadi hamda tadbirkorlik asoslariga o‘rgatiladi.

Shuningdek, “Yoshlar daftari” ga kiritilgan 8 ming nafar xotin-qizga o‘z biznesini boshlashi va mehnat qurollarini xarid qilishi uchun subsidiya, 10 ming nafariga esa imtiyozli kreditlar ajratiladi. 50 ming nafar yosh ayollar uchun malakali mutaxassislar ishtirokida “Biznes marafon” loyihasi tashkil etiladi. Ushbu loyiha doirasida yuzlab qobiliyatli qizlarimizga o‘z biznesini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha amaliy yordam beriladi.

Umuman, bir oy muddatda xotin-qizlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish bo‘yicha alohida dastur qabul qilinib, loyihalarni amalga oshirish uchun 15 trillion so‘m, jumladan, oilaviy tadbirkorlik loyihalariga 6 trillion so‘m ajratiladi. Bundan tashqari, Saudiya Arabiston, Qatar, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniyadagi elchilarimiz ayollar tadbirkorligini rivojlantirish uchun 100 million dollarlik grantlarni jalb qiladi.

Sog‘liqni saqlash sohasida ham bir qator muhim tadbirlar amalga oshiriladi. Jumladan, murakkab jarrohlik operatsiyasi o‘tkazishga muhtoj 2 ming nafar xotin-qiz davlat byudjeti va xalqaro moliya institutlari mablag‘lari hisobidan davolanadi.

Shu bilan birga, 1 million nafar homilador ayol hamda 1 million 500 ming nafar emizikli ona yod preparati, qariyb 6 million nafar reproduktiv yoshdagagi ayollar temir va foliy kislotasi bilan bepul ta'minlanadi.

Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan 4 ming nafar xotin-qizlarga uy-joy ajratiladi. Shu toifadagi 3 ming nafar ayol uchun murakkab tibbiy operatsiyalar bepul o'tkaziladi.

Yurtimizda "Qizlar akademiyasi" platformasi yaratilib, 100 ming nafar opa-singillarimizga moliyaviy, huquqiy, psixologik, reproduktiv bilim berish yo'lga qo'yiladi.

2023-yilda "Ayollar daftari" tizimining 4-bosqichida 6 ta toifa bo'yicha kiritilgan 1 mln. 779 nafar xotin-qizlarning 99,3 foizi, ya'ni 993386 nafarining muammolari hal etildi [8].

1-toifa bo'yicha ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan 423196 nafar ishsiz xotin-qizlarning bandligi ta'minlandi;

2-toifa bo'yicha 48 913 nafar xotin-qizlarga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun kreditlar ajratildi;

3-toifa bo'yicha boquvchisini yo'qotgan, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan 224397 nafar xotin-qizlarga moddiy yordamlar ko'rsatildi;

4-toifa bo'yicha ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan, shuningdek tezkor tibbiy muolajaga muhtoj bo'lgan 201889 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarga moddiy yordamlar ajratildi;

5-toifa bo'yicha uy-joyga muhtoj bo'lgan 8656 nafar xotin-qizlarning uy-joy sharoitlarini yaxshilash choralar ko'rildi;

6-toifa bo'yicha qaramog'ida nogironligi bo'lgan farzandi mavjud 86335 nafar xotin-qizlarga moddiy yordamlar ko'rsatildi, ularning 4160 nafariga tomorqasidan samarali foydalanishiga ko'maklashildi.

Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan Respublika bo'yicha jami 4587 nafar xotin-qizlarga OO'Yuga kirish uchun tavsiyanoma berildi.

Mutaxassisligi bo'yicha kamida besh yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma'lumotga ega bo'Imagan, o'rta maxsus yoki professional ta'llim muassasalarini tamomlagan 4777 nafar talabgor xotin-qizlar tavsiyanoma olish uchun murojaatlari xotin-qizlar.uz elektron platformasi orqali qabul qilindi.

Mamlakatimizda ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi ilmiy darajasi bor xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab quvvatlash, nufuzli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy maktablar yaratishga qaratilgan kompleks choralar ko'rildi, bu boradagi milliy qonunchilik zamon talablari asosida takomillashtirildi. Xususan, 2019 yilda "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi oliy o'quv yurti tahsilidan keyingi ta'llim tizimini takomillashtirishda muhim huquqiy asos sifatida xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hamda Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tashkil etildi. Ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi shu kabi qonun, yanada aniq qilib aytganda, ilmiy kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish borasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar mamlakatimiz taraqqiyotini ta'minlashda, xususan, xotin-qizlarni ilm-fan sohasiga yanada keng jalb etishda ulkan omil bo'lmoqda.

Mamlakatimizda, 2023-yil yanvar holatiga, fan doktorlarining soni 700 dan ortiq, fan sohasida izlanish olib borayotgan ayollar soni 5 mingdan ziyod, oliy ta'llim yurtlarida dars berayotgan xotin-qizlar soni 14 mingdan oshadi.

Fanlar akademiyasi tizimida ishlayotgan 4 ming 760 nafar xizmatchining 40 foizini, ya'ni 1 ming 905 nafarini xotin-qizlar tashkil etmoqda. Yurtimizda ilmiy izlanishlar bilan mashg'ul 2 ming 146 nafar tadqiqotchidan 695 nafarini ham ayollar tashkil etishi quvonarlidir.

O'zbekistonda olima ayollarni qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlar uchun ilm-fan bilan shug'ullanishlari borasida yaratilgan imkoniyatlar haqida so'z borganda, shuningdek, "Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini qayd etish mumkin. Ushbu muassasa tomonidan xotin-qizlarni fan sohasiga yanada keng jalb etish, olima ayollar safini kengaytirish, ular faoliyatini rivojlantirish, gender tengligini ta'minlash bo'yicha izchil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-fevraldagagi Farmoni bilan “Zulfiya nomidagi davlat mukofotini ta’sis etish bo‘yicha takliflarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi [9] Farmonga kiritilgan o‘zgartirishlarga ko‘ra, endilikda axborot texnologiyalari yo‘nalishida alohida yutuqlarga erishgan iqtidorli xotin-qizlar Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanadi.

Bularning barchasi Yangi O‘zbekiston taraqqiyotida xotin-qizlarimiz alohida o‘rin tutishini yaqqol anglatib turibdi. Zero, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, “Meni kishilarimizning ongida paydo bo‘lgan stereotip ko‘p o‘ylantiradi. Odatta biz ayolni avvalambor ona, oila qo‘rg‘onining qo‘riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to‘g‘ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o‘zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo‘lishi kerak” [10], degan so‘zlarini keltirish o‘rnlidir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ayollarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to‘laqonli ishtirok etishiga erishish, gender tenglik va reproduktiv salomatlikni ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan davlat siyosatini jahon hamjamiyati e’tirof etmoqda. Bu borada qo‘lga kiritayotgan yutuqlarimiz BMT, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNISEF, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Jamiyatning demokratik o‘zgarishlar yo‘lidan nechog‘lik ilgarilab ketgani – shu jamiyatning ayollarga munosabati, bu boradagi madaniy-ma’naviy saviyasi bilan belgilanadi. Zero, oqila, go‘zal ayollar o‘zlarining g‘amxo‘rligi, mehribonligi, qalbi daryoligi bilan oilalardagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar.

Адабиётлар/ Литература/ References:

1. Yoshlar – Yangi O‘zbekiston va uchinchi renessans buniyodkorlari. O‘zbekiston Respublikasi “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasi. 26.03.2024 yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son Farmoni <https://lex.uz/docs/6600413> 12.09.2023-yil.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020-йил 29-декабрь куни Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномаси. «Халқ сўзи, 2020 йил 30 декабрь, <https://lex.uz/ru/>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. 07.03.2024 yil.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagি nutqi. 07.03.2024-yil.
6. Ўзбекистон Республикасининг 2019-йил 2-сентябрдаги «Хотин-қизлар ва эркаклар учун тенг хукуқ ҳамда имкониятлар кафолатлари тўғрисида», 2019 йил 2 сентябрдаги «Хотин-қизларни тазийик ва зўравонликдан химоя қилиш тўғрисида»ги қонуни.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг БМТ Бош Ассамблейасининг онлайн форматда ўтаётган 75-сессиясидаги нутки. <https://daryo.uz/k/2020/09/23/shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasining-onlayn-formatda-otayotgan-75-sessiyasida-nutq-sozladi-video>
8. Aniq.uz.yangiliklari <https://aniq.uz/yangiliklar/ayollar-daftari-tizimining-4-bosqichida-1-mln-779-nafar-xotin-qizlarning-99-3-foiziining-muammolari-hal-etildi>. 24.01.2024 йил
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 07.02.2024 yildagi PF-34-son <https://lex.uz/ru/docs/6791821?ONDATE=07.02.2024>
10. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb sayti. 11-fevral – Ilm-fan sohasidagi xotin-qizlar xalqaro kuniga bag‘ishlab. 10.02.2023-yil.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Xaydarova Javohira,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi Akademiyasi tayanch doktoranti
e-mail: istiqbol1985@mail.ru

RAHBAR AYOLLARNING BOSHQARUV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.000000000>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda xorijiy tajribadan foydalanishning ahamiyati tahlil qilingan. Jahon miqyosida ayol rahbarlarning tashkilotlardagi rolini mustahkamlash hamda ularning strategik fikrlash, qaror qabul qilish va jamoa boshqarishdagi ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlar o‘rganilgan. Xalqaro amaliyotlardagi muvaffaqiyatli keyslar, ta’lim dasturlari va inklyuziv boshqaruv modellari orqali ayollarning rahbarlik salohiyatini oshirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, gender tengligini ta’minalash, innovatsion tafakkurni qo‘llab-quvvatlash va ayol rahbarlar uchun imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan global yondashuvlar tahlil qilingan. Hozirgi sharoitda ushbu tajribalarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali rahbar ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga qo‘sheyotgan hissasini oshirish bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: rahbar ayollar, boshqaruv kompetensiylari, liderlik ko‘nikmalari, gender tenglik, qaror qabul qilish ko‘nikmalari, innovatsion boshqaruv, boshqaruv strategiyalari, professional o‘sish, ish samaradorligi, xalqaro liderlik standartlari, strategik rejalashtirish, innovatsion tafakkur.

Хайдарова Джавахира,

Базовый докторант Академии государственного
управления при Президенте Республики Узбекистан
e-mail: istiqbol1985@mail.ru

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ ЖЕНЩИН-РУКОВОДИТЕЛЕЙ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется важность использования зарубежного опыта в развитии управлеченческих компетенций женщин-руководителей. Во всем мире изучаются эффективные механизмы для усиления роли женщин-лидеров в организациях и совершенствования их навыков стратегического мышления, принятия решений и управления командой. Успешные примеры из международной практики, образовательных программ и инклюзивных моделей управления показывают пути повышения лидерского потенциала женщин. В нем также анализируются глобальные подходы, разработанные для обеспечения гендерного равенства,

поддержки инновационного мышления и расширения возможностей для женщин-лидеров. В современных условиях были разработаны практические предложения и рекомендации по повышению вклада женщин-лидеров в экономическое и социальное развитие путем адаптации этого опыта к местным условиям.

Ключевые слова: женщины-лидеры, управленческие компетенции, лидерские навыки, гендерное равенство, навыки принятия решений, инновационный менеджмент, стратегии управления, профессиональный рост, производительность труда, международные стандарты лидерства, стратегическое планирование, инновационное мышление.

Khaydarova Javohira,

Basic doctoral student of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan
e-mail: istiqbol1985@mail.ru

FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING WOMEN'S MANAGEMENT COMPETENCIES

ABSTRACT

This article analyzes the importance of using foreign experience in developing the management competencies of women leaders. Effective mechanisms aimed at strengthening the role of women leaders in organizations and improving their skills in strategic thinking, decision-making and team management are studied on a global scale. Successful cases from international practices, educational programs and inclusive management models are shown, as well as ways to increase women's leadership potential. Global approaches developed to ensure gender equality, support innovative thinking and expand opportunities for women leaders are also analyzed. In the current context, practical proposals and recommendations are developed to increase the contribution of women leaders to economic and social development by adapting these experiences to local conditions.

Key words: women leaders, management competencies, leadership skills, gender equality, decision-making skills, innovative management, management strategies, professional growth, work performance, international leadership standards, strategic planning, innovative thinking.

KIRISH

Dunyoda gender tengligini ta'minlash borasida olib borilayotgan siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri davlat boshqaruviga xotin-qizlarni jalg etish masalasi hisoblanadi. Mazkur jarayonda rahbar ayollarining boshqaruv kompetensiyalari rivojlantirish orqali ularni davlat boshqaruvining o'rta va yuqori bo'g'inlariga rahbarlik lavozimlariga jalg etish mumkin. Qo'yи bo'g'inda faoliyat ko'rsatayotgan rahbar ayollarni maxsus o'quv kurslari orqali boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, ularda rahbarlik ko'nikmalarini shakllantirish maqsadga muvofiq. Bugun ilg'or xorij tajribasiga tayangan holada aytish mumkinki, xotin-qizlarni boshqaruv jarayonida ishtirokini ta'minlash gender muvozanatini saqlash bilan birga, jamiyatda xotin-qizlarni rolini oshirish imkoniyatini beradi.

"O'zbekistonda umumiy aholisining 50 foizini, shundan 29 foizini – 14 yoshgacha, 28 foizini – 15-30 yoshgacha, 21 foizini – 31-45 yoshlilar, 15 foizini – 46-60 yoshlilar hamda 7 foizini – 60 yoshdan katta ayollar tashkil etadi." Bugungi kunga kelib **Ispaniya, Finlyandiya** va **Fransiya** kabi davlatlar boshqaruv lavozimlarida ayollarning ulushi **50%** tashkil etmoqda. **Avstriya, Belgiya** va **Qo'shma Shtatlar** ham hukumat tarkibidagi ayollar soni 2017-yildan beri sezilarli oshgan, ushbu ko'rsatkich **29%**dan ko'proqni qayd etib kelmoqda. Shuningdek, **Vengriya, Koreya va Portugaliya** davlatlarida ayollar ulushi esa **18 %ni** tashkil qilmoqda [1].

Xotin-qizlarni, shu jumladan qo'yи bo'g'inda faoliyat ko'rsatayotgan rahbar ayollarni davlat boshqaruviga jalg qilish borasida qator halqaro-normativ huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Misol uchun BMTning barqaror rivojlanish maqsadlarining 5-maqsadida "Gender tengligini ta'minlash va

xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish” vazifasi belgilangan [2]. Dunyoda bo‘layotgan global o‘zgarishlarni va genderga oid tendensiyalarini inobatga olib, rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish borasida tizimli islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Buning uchun mazkur yo‘nalishda fundamentlar, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni amalga oshirish, tadqiqot natijalari huquqiy asoslarini yaratish orqali real amaliyatga joriy etish yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrdagi «Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida» PF-208-son Farmoni, «Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘sishma chora-tadbirlar to‘g‘risida» PQ-401-sun qarorida ham zamonaviy jamiyatda gender tengligini ta’minlash va ayollarning rahbarlik pozitsiyalaridagi ishtirokini oshirish masalalari bo‘yicha alohida chora-tadbirlar belgilangan. Yosh rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish jamiyatda tenglikni ta’minlash bilan birga, ularning oilaviy va ijtimoiy sohalarda muvaffaqiyatga erishishida yordam beradi.

Xalqaro amaliyotlardagi muvaffaqiyatli keyslar, ta’lim dasturlari va inklyuziv boshqaruv modellari orqali ayollarning rahbarlik salohiyatini oshirish asosiy tendensiya sifatida namoyon bo‘lmoqda. Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasini o‘rganish, ayol rahbarlarning tashkilotlardagi rolini mustahkamlash hamda ularning strategik fikrlash, qaror qabul qilish va jamoa boshqarishdagi ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan samarali mexanizmlarini milliy amaliyatga tadbiq etish masallarini tadqiq etish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, gender tengligini ta’minlash, innovatsion tafakkurni qo‘llab-quvvatlash va ayol rahbarlar uchun imkoniyatlarni kengaytirish bo‘yicha ishlab chiqilgan global yondashuvlar tahlil qilish asosida “rahbar ayollarning davlat boshqaruviga jaib etish” bo‘yicha strategik qarorlar qabul qilish va ijrosini ta’minlash rahbar ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga qo‘sheyotgan hissasini oshiradi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosini sotsiologiya fanining fundamental qonunlari, rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish konsepsiylari, qonuniyat va prinsiplari, rahbar ayollarda boshqaruv kompetensiyalarini shakllantirishga doir tadqiqot olib borgan xorijiy va mahalliy olimlar, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruviga xotin-qizlarni jaib qilishga doir qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tashkil qiladi. Mazkur tadqiqot jarayonida rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or xorij tajribasi qiyosiy tahlil, kontent tahlil, retrospektiv tahlil, keysli tadqiqotlar, ijtimoiy statistika va funksional tahlil kabi ilmiy tadqiqot usullari orqali o‘rganildi.

ASOSIY QISM

Davlat boshqaruvining barcha bo‘g‘inda faoliyat ko‘rsatayotgan rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni barcha sohalarda faol ishtirokini ta’minlash imkonini beradi. Hozirgi kunda biznes sohasidagi tashkilotlar, genderga asoslangan tenglikni qo‘llab-quvvatlash va ayollarning rahbarlik pozitsiyalaridagi ishtirokiga e’tibor qaratishga harakat qilmoqda. Buning natijasida, ayollar uchun professional rivojlanish, mentorlik va trening dasturlari ommalashib bormoqda.

Jahonda kechayotgan global o‘zgarishlari sharoitida rahbar ayollarda raqamli kompetensiyalarini va zamonaviy boshqaruv usullarini shakllantirish davlat va jamiyat boshqaruviga doir qarorlar qabul qilishda ularni ishtirokni ta’minlash imkonini bermoqda. Bu borda ilg‘or xorij (AQSh, Germaniya, Angliya, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreya va Xitoy) o‘rganish asosida rahbar ayollarning boshqaruv kompetepnsiyalarini rivojlantirishning milliy modellini takomillashtirish yuqori natijadorlik va samaradorlikni ta’minlaydi.

AQSh rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha boy va o‘ziga xos tajribaga ega. Bu tajriba jamiyatdagi gender tengligi, iqtisodiy taraqqiyot va korporativ madaniyatdagi o‘zgarishlar natijasida shakllangan.

AQShning Sirakuza Universitetidagi Maksvell fuqarolik va jamoat ishlari maktabi rahbarlik va boshqaruv sohasidagi yetakchi ta’lim muassasalaridan biri bo‘lib, u jamoatchilik xizmati va davlat

boshqaruvi sohasida ayollarning faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator maxsus dasturlar va o'quv kurslarini taklif etadi. AQShning Sirakuza Universitetini Maksvell fuqarolik va jamoat ishlari məktəbida rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatiga jalb etishga qaratilgan maxsus o'quv kurslarda asosiy e'tibor davlat boshqaruvi va rahbarlik dasturi (Public Administration and Leadership Program), Ijro organlarida rahbarlik dasturi (Executive Leadership Program), ayollarning davlat xizmatidagi yetakchilik tashabbusi (Women in Public Service Leadership Initiative), Siyosatni rivojlantirish va advokatlik trening (Policy Development and Advocacy Training) dasturlarida ayollarning rahbarlik qobiliyatini oshirish, fuqarolik xizmatlari va nodavlat tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan ayollarning boshqaruv salohiyatini rivojlantirish, davlat siyosatini ishlab chiqish jarayonida ayollarning ishtirokini oshirishga qaratilgan [3].

Mazkur tajribani o'rgangan holda O'zbekistonda davlat organlari va idoralarining barcha bo'g'inida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar ayollarning boshqaruv sohasida salohiyatini oshirishga qaratilgan davlat va nodavlat tashkilotlarda ayollarni rahbarlik vazifalariga tayyorlash hamda davlat boshqaruvini amalga oshirishda ayollar ishtirokini faollshtirish bo'yicha "Yo'l xarita" ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Bunda rahbar ayollarning siyosiy va ijtimoiy faoliyatini rag'batlantirishda gender tengligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihasini ishlab chiqish jarayonida ayollarning ishtirokini oshirishga qaratilgan maxsus o'quv seminarlar tashkil etish, ularning qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirishga zamin yaratadi.

O'zbekistonda Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi portalı (regulation.gov.uz) o'yilayotgan qaror, farmon, qonun loyihalarini "Gender ekspertiza" bo'yicha so'rovnomani deyarli to'ldirilmayotganligi, mazkur muhokama jarayonda rahbar ayollarning ishtiroki yuqori emasligini kurishimiz mumkin. Shuning uchun ham xotin-qizlarda siyosat tahlil, strategik rejalashtirish va boshqaruv qarorlari qabul qilish bo'yicha ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv-seminarlar tashkil etish hamda mazkur o'quv-seminarlarda dunyo miqyosidagi boshqaruv sohasidagi eng yangi tadqiqotlar va amaliy keys-stadilardan foydalanish lozim. Shuningdek, hududlarda tajribali ayol rahbarlar va mutaxassislar tomonidan shaxsiy maslahat asosida master klasslar tashkil etishga e'tibor qaratish lozim.

Pepperdayn universitetining Oliy ta'lim va psixologiya maktabi (GSEP) tadqiqotchisi Xit Kerrining "Rahbar ayollar: ish va shaxsiy hayot muvozanati strategiyalari" nomli dissertatsiya ishida ayollarning ish va hayot muvozanati atrofidagi kurashlar ularning yuqori lavozimlarga ko'tarilishiga tusqinlik qilishini tahlil etgan. Shuningdek, rahbar ayollarning ish va hayot muvozanati strategiyalarini tahlil qilish orqali ham oila, ham martaba istaydigan ayollarning imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqqan [4]. Rahbar ayollarning mansab pog'onalarida o'sish startegiyalarini aniqlash uchun 22 nafar rahbar ayollarning mehnat va hayot faoliyatini o'rgangan.

Xit Kerri o'z tadqiqotlarida rahbar ayollarning karera traektoriyasi bo'yicha o'sish strategiyalarni proaktiv va reaktiv toifalarga bo'lib, ideal vaziyatdan kelib chiqqan holda toifalarga ajratgan. Ish va hayot muvozanati uchun proaktiv va reaktiv strategiyalarni tanlanishi, rahbar ayollarga rahbarlik lavozimiga tayinlanishiga ko'mak beradi (1-jadval).

1-jadval.

Ish va hayot muvozanati uchun proaktiv va reaktiv strategiyalar

Ish va hayot muvozanati uchun proaktiv strategiyalar	Ish va hayot muvozanati uchun reaktiv strategiyalar
Bola parvarish davrida ishdan dam olish	Ish va oilani birlashtirish/ajratish
Kareraga bo'lgan ishonchni rivojlantirish	His-tuyg'ularni boshqarish
Ta'lim olish/kasbiy rivojlanish/yangi narsalarni sinab ko'rish	Mehnat va hayot muvozanati falsafasi
E'tiqod shakllantirish	Ustuvorlikni hisobga olish
O'zini parvarishlash/Xobbilarni amalga oshirish	
Maqsadli ota-onalik	

Mazmunli ish	
Murabbiylik qilish	
Ishdan tashqaridagi tashkilotlar bilan hamkorlik	
Ishning uy/maktabga yaqinligini hisobg olish	
Yordamchi tizimlardan foydalanish	
Texnologiyalarni o'zlashtirish	
"Qattiq ishslash"dan cheklanish	
Ish strategiyalari haqida ma'lumotga ega bo'lish	

Yuqoridagi 1-jadvalda ko'rsatilgan proaktiv va reaktiv strategiyalar har bir rahbar ayollarning faoliyatida va hayotida takrorlanishi mumkin. Lekin, rahbar ayollarning boshqaruv faoliyatiga ta'sir etuvchi mental qadriyatlar ham mazkur strategiyalarni amalga oshirishga o'z ta'sirni ko'rsatadi. O'zbekistonda hududlardagi mavjud qadriyatlar tizimi rahbar ayollarning yuqori pog'onalarga ko'tarilishiga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Xotin-qizlarda boshqaruv kompetensiyalarni rivojlantirishda hududlardagi o'ziga xos jihatlarini ham hisobga olish zarur.

Umuman olganda, rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishda AQShda o'ziga xos tajriba mavjud. Amerikaning yetakchi universitetlari, xususan, Garvard, Uorton va Stenford kabi biznes maktablari ayollar uchun maxsus ta'limga boshqaruv dasturlarini taklif etadi. Misol uchun Garvard Biznes Maktabidagi "Women on Boards" dasturi ayollarni strategik qaror qabul qilishga o'rgatadi [5]. Shuningdek, AQShda mentorlik va kouching dasturlari orqali ayol rahbarlarga tajribali murabbiylar tomonidan yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ko'mak beriladi. Korporativ kompaniyalarda katta lavozimdagи ayollar yosh rahbar ayollarga mentor sifatida tayinlanadi. Ayol rahbarlar uchun maxsus "liderlik platformalari" (<https://hub.elblearning.com/>, <https://i.experiencepoint.com/>, <https://www.uwcped.org/>, <https://www.executive-advisory.com/>, <https://www.amisa.us/>, <https://www.alliance4girls.org/>, <https://thembaedge.com/>, <https://kayoconferenceseries.com/>) yaratilgan, bunda gender tenglik korporativ madaniyatning ajralmas qismiga aylantiriladi.

AQShda ayol rahbarlar uchun maxsus ishlab chiqilgan Biznesni boshqarish (*Master of Business Administration – MBA*) dasturlari va qo'shimcha o'quv kurslari mavjud [6]. Bu dasturlar ayollarga rahbarlik qibiliyatlarini rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy asos yaratadi.

O'zbekistonda ham xotin-qizlar ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish uchun maxsus platformalar (<https://xotin-qizlar.uz/>, <http://aziz-ayol.uz/>, <https://business-woman.uz/>, <https://it-gap.uz/>, <https://ayoluchun.uz/>, <https://gendermadad.uz/>, <https://wcu.uz/>) yaratilgan bo'lib, mazkur platformalarda xotin-qizlar, shu jumladan rahbar ayollarda boshqaruv va liderlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan maxsus dasturlar hamda forumlar mavjud emas. Shuning uchun samarali rahbarlik tamoyillari, strategik rejalashtirish va qaror qabul qilish, emotsiional intellekt va ta'sir o'tkazish ko'nikmalarini, **boshqaruv va tashkilotchilik**, jamoani boshqarish va motivatsiya qilish, nizolarni boshqarish va tashkilotda o'zgarishlarni boshqarish kabi kurslarni o'z ichiga oluvchi maxsus paltformani yaratish maqsadga muvofiq. Mazkur kontentdagi onlayn o'quv kurslari xotin-qizlarda rahbarlik salohiyatini oshirishga, samarali boshqaruvga va professional rivojlanishga yordam beradi.

Bugungi kunda Yevropaning ilg'or davlati Germaniyada ham rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish uchun bir qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Ularning asosiy yo'nalishlari ta'limga, mentorlik, tarmoqlashuv, qo'llab-quvvatlovchi siyosat va tashkilotlar madaniyatini o'z ichiga oladi. Germaniyada xotin-qizlar uchun maxsus **rahbarlik dasturlari sifatida** Yevropa menejment va texnologiyalar maktabi (European School of Management and Technology-ESMT Berlin)da "**Ayollar uchun rahbarlik mahoratlari**" dasturi doirasida quyibog'indagi rahbar ayollarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish kouching tizimi orqali amalga oshirilib, ayollarning rahbarlik maqsadlariga erishishga yordam beradi [7].

Germanianing Mannxaym biznes maktabining uch oylik "**Ayollar uchun rahbarlik akseleratori**" dasturida xotin-qizlarda rahbarlik ko'nikmalarini takomillashtirish, ularda proaktiv


fikrlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirokini kengaytirish bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalar beriladi [8].

Bundan tashqari Germaniyada “fe:male rahbarlikni rivojlantirish (FLD)” dasturi doirasida gender tengligini ta’minlash bo‘yicha yetakchi ekspertlar rahbarlik bo‘yicha maslahat, o‘quv va kouching xizmatlarini taklif etadi (female-leadership-development.com) [9]. Shuningdek, “EIC ayollar rahbarligi dasturi” olimlar, rahbarlikka intilayotgan ayollar va tadbirkorlar uchun tashkil etilgan bo‘lib, bu dastur onlayn va oflayn tarmoqlashuv imkoniyatlarini taqdim etadi (eic.ec.europa.eu) [10]. Germaniyadagi tashkilotlar turlilik, tenglik va inklyuzivlik (DEI) masalalarini rahbarlikni rivojlantirish dasturlariga kiritmoqda. Masalan, ESMT va Mannxaym biznes maktablari inklyuziv tashkiliy madaniyatlarni yaratishga qaratilgan maxsus rahbarlik treninglari taklif etmoqda (ft.com). Ushbu tashabbuslar Germaniyaning ayol rahbarlarning boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirish bo‘yicha sa‘y-harakatlarini ko‘rsatadi.

Sungi yillarda O‘zbekistonda ham rahbar ayollarni tayyorlash bo‘yicha qator chora-tadbirlar va tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezident huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, Davlat boshqaruvi akademiyasi Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ) bilan hamkorlikda “Rahbar ayollar” O‘zbekiston-Germaniya xalqaro ta’lim markazi faoliyatini yo‘lga qo‘yilgan. “Ta’lim markazi mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy sohadagi bilim, ko‘nikmalarini oshirish, davlat xizmatida o‘zaro tajriba va malaka almashishda yagona ijtimoiy muloqot maydonini yaratish orqali ularning uzlusiz kasbiy, shaxsiy rivojlanishiga ko‘maklashish maqsadida tashkil etilgan” [11].

O‘zbekistonda ham rahbar ayollarda boshqaruv kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-martdagи “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli farmonida “Rahbar ayollar maktabi” o‘quv dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish belgilangan.

2023-yildan buyon tashkil etilayotgan “Rahbar ayollar maktabi” dasturining uchta mavsumida 144 nafar xotin-qizlar malaka oshirish kurslarida ishtirok etdi. Dasturning to‘rtinchı mavsumi uchun davlat organlari va tashkilotlari tomonidan tavsiya etilgan 300 nafardan ziyod xotin-qizlar ro‘yxati shakllantirildi. Komissiya tomonidan malaka talablariga mos keladigan hamda test sinovlarida yetarli ball to‘plagan 85 nafar nomzod suhbat bosqichiga o‘tgani. Suhbat natijalariga ko‘ra, faoliyati ijobiy, tashabbuskor, o‘z sohasi bo‘yicha bilim, ko‘nikmalari yetarli 50 nafar xotin-qiz Dastur doirasida malaka oshirish imkoniyatiga ega bo‘lgan [12]. Lekin, mazkur “Rahbar ayollar maktabi” dasturi malaka oshirayotgan xotin qizlarning soni cheklanganligi bois, respublikamizdagi barcha hudlardagi yosh rahbar ayollarni boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha qamrovni amalga oshirish imkoniyati cheklangan. Biroq, so‘ngi yillarda ayollarning davlat boshqaruvi organlarida ishtiroki sezilarli darajada oshib borayotganligini kurishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasida ayollarning davlat boshqaruvi organlaridagi ishtiroki[13]

Rahbar ayollarning jamoat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash orqali jamiyatda gender tengligini rivojlantirish imkoniyati oshadi. Davlat boshqaruvining qo'yи bo'g'inida faoliyat ko'rsatayotgan rahbar ayollarda strategik fikrlash, innovatsion yechimlarni joriy etish va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etish ko'nikmalarini shakllantirish, ularning davlat va jamiyat hayotida bo'layotgan jarayonlarga faol ishtirok etishini ta'minlaydi.

Ayol rahbarlarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalarni tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy tendensiya sifati ayollar uchun maxsus rahbarlik dasturlari joriy etilganligi, alyollarning davlat boshqaruvining barcha bo'g'inida ishtirok etishini **gender tengligi va iqtisodiy rivojlanish omili sifatida qaralishi**, ayollarning boshqaruvda yuqori pog'onalarga ko'tarilishi uchun mentorlik tizimini joriy etilganligi, xotin-qizlarni tarmoqlar va sohalar bo'yicha rahbarlik lavozimlariga tayyorlash dasturlari joriy etilganligi bilan izohlashimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval.

Rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar*

Tadqiqot yo'nalishi	Mamlakat	Tadqiqot natijalar
Ayollar uchun rahbarlik dasturlarining samaradorligi	AQSH	Ayollar uchun maxsus rahbarlik dasturlari ishtirokchilarning o'z-o'ziga ishonchi va boshqaruv ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirgan.
Gender tengligi va iqtisodiy rivojlanish	Skandinaviya mamlakatlari	Ayollarning rahbarlik lavozimlarida ko'proq ishtirok etishi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatgan.
Mentorlik dasturlarining ta'siri	Avstraliya	Mentorlik dasturlarida ishtirok etgan ayollar mansab pog'onasida tezroq ko'tarilgan va yuqori lavozimlarga erishgan.
Ayollar uchun tarmoqlashuvning ahamiyati	Germaniya	Ayollar uchun maxsus tarmoqlashuv guruhlari ularning kasbiy rivojlanishiga va rahbarlik qobiliyatlarini oshirishga yordam bergan.
Gender tengligi, oilaviy mas'uliyat va korporativ madaniyat shakllantirish	Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya	Gender stereotiplarini o'zgartirish, oilaviy rollar, ish haqining oshirish va korporativ madaniyatni shakllantirish orqali ayollarning rahbarlikka bo'lgan imkoniyatlarini oshirilmoqda.

* Muallif ishlanmasi

Ushbu tadqiqotlar ayollarning rahbarlik kompetensiyalarini rivojlantirishda turli dasturlar va tashabbuslarning samaradorligini ko'rsatadi. Rivojlangan mamlakatlardagi rahbar ayollarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar sifatida ayollarning rahbarlik rollariga erishishini rag'batlantirish uchun gender tengligini ta'minlash, rahbar ayollarning shaxsiy va professional rivojlanishga ko'maklashuvchi maxsus dasturlar (Women in Leadership Program, Women's Executive Leadership Program, The Women in Leadership Initiative, Leadership and Management for Women), xotin-qizlarning texnologik va raqamli ko'nikmalarini oshirish orqali boshqaruv jarayonlariga jalb etish, rahbar ayollar uchun ish va shaxsiy hayotni muvozanatlashtirishga ko'maklashuvchi maxsus dasturlar ishlab chiqish kabi masalalar qamrab olgan.

XULOSA

Ilg‘or rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganish natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, ayollarni rahbarlikda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish bo‘yicha qator tadqiqotlar olib borilgan va mazkur tadqiqotlarda xotin-qizlarda boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantiruvchi asosiy omillar tahlil qilinib, ularni davlat boshqaruviga ishtirok etishini taminlovchi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy dastaklar (davlat dasturlari, imtiyozlar, inklyuziv imkoniyatlar, raqamli ish joylarni tashkil etish va hakazo) orqali boshqaruvda gender tengligini ta’minlashga e’tibor qaratiladi.

«O‘zbekiston — 2030» strategiyasining 25-bandida belgilangan 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida belgilangan “Gender tenglikni ta’minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish” vazifasini amalga oshirish uchun qo‘yidagilarga e’tibor qaratish maqsadg muvofiq:

Birinchidan, xotin-qizlarni boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirmasdan turib, ularni boshqaruv lavozimlariga jalb etish murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun bugungi kunda davlat boshqaruvining raqamli transformatsiyasini davrida ularda raqamli va texnologik ko‘nikmalarni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi;

